

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA’LIM VAZIRLIGI**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

XIDIROVA G.R., RAXMATULLAYEVA F.M.

MINTAQAVIY TURIZM

O‘quv qo‘llanma

"Mintaqaviy turizm" nomli o‘quv qo‘llanma Davlat ilmiy-texnika dasturlari doirasida Buxoro davlat universitetida amalga oshirilayongan PZ-20170923100-raqamli "Mintaqani kompleks rivojlantirishda turizm salohiyatidan samarali foydalanish yo‘llari" mavzusidagi 2018-2020-yillarga mo‘ljallangan amaliy tadqiqot loyihasining ikkinchi bosqichi –2019-yilda amalga oshirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari asosida tayyorlangan va uning moliyaviy mablag‘lari hisobidan nashr etilgan.

**“Durdona” nashriyoti
Buxoro - 2020**

UO'K 338.48(075.8)

65.433ya73

X 47

Xidirova, G.R.

Mintaqaviy turizm [Matn] : o'quv qo'llanma / G.R. Xidirova, F.M. Raxmatullayeva. - Buxoro : "Sadridin Salim Buxoriy" Durdona nashriyoti, 2020. - 176 b.

KBK 65.433ya73

Mazkur o'quv qo'llanmada ilmiy manbalarga tayanilib mintaq, mintaqaviy turizm tushunchalari, ularga tegishli ta'riflar tahlil qilingan. Mintaqa va turizmni rivojlantirishda tabiiy-iqtisodiy salohiyatdan foydalanish, mintaqalarda turizmni rivojlantirishning jahon tajribasi va undan foydalanish imkoniyatlari masalalari keng yoritilgan.

Shuningdek, ushbu o'quv qo'llanma O'zR Oliy va O'MTV tomonidan tasdiqlangan fan dasturiga asoslangan bo'lib, o'zining mazmun-mohiyati jihatidan sohaning zamonaviy talablariga javob bera oladi. Qo'llanmada keltirilgan ma'lumotlar turizm sohasining bakalavriat talabalari, magistrantlariga mintaqaviy turizmni nazariy jihatdan chuqurroq o'rganish imkonini beradi.

Taqrizchilar:

i.f.d., professor B.N. Navro'z-zoda

i.f.n., dotsent D.H. Aslanova

i.f.n., dotsent D.I. Ro'ziyeva

O'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2020-yil 30-iyundagi 359-sonli buyrug'iga asosan nashr etishga ruxsat berilgan.

ISBN 978-9943-6707-5-4

Хидирова Г.Р., Рахматуллаева Ф.М. Региональный туризм. Учебное пособие – Б.: “Durdona”, 2020. – 176 с.

В данном учебном пособии анализируются определения регион и регионального туризма на основе научных источников. Также, рассмотрены вопросы использования природно-экономического потенциала в развитии региона и туризма, мировой опыт развития туризма в регионе и возможности его использования.

Учебное пособие основано на учебной программе, утвержденной Министерством Высшего и среднего образования РУз, и по своему содержанию и сущности полностью соответствует нынешним требованиям. Учебное пособие дает студентам и магистрам возможность углубленного изучения теоретических сторон регионального туризма.

Рецензенты:

д.э.н., профессор Б.Н. Навруз-зода

к.э.н., доцент Д.Х.Аслан

к.э.н., доцент Д.И.Рузиева

Khidirova G.R., Rakhmatullaeva F.M. Regional tourism. Textbook – B.: “Durdona”, 2020. – 176 p.

The textbook reflects the definition of a region and regional tourism based on scientific sources. The issues of using the natural and economic potential in the development of the region and tourism, world experience in the development of tourism in the region and the possibilities of its use are also considered.

The manual is based on a scientific program approved by the Ministry of Higher and Secondary Education of the Republic of Uzbekistan and in its content and essence is fully consistent with current requirements. The manual provides an opportunity for students and masters in-depth study of the theoretical aspects of regional tourism.

Reviewers:

Doctor of Economic Sciences, Professor B.N. Navruz-zoda,

Candidate of Economic Sciences, Associate professor D.H.

Aslanova, Candidate of Economic Sciences, Associate professor

D.I.Ruzieva

MUNDARIJA

Kirish	5
1-bob. Mintaqaviy turizm fanining predmeti, maqsadi va vazifalari	8
1.1. Mintaqa atamasining mohiyati va mintaqaviy turizm.....	8
1.2. Mintaqaviy turizm fanining predmeti va obyekti.....	13
1.3. Mintaqaviy turizmni rivojlantirishning maqsadi va vazifalari...	14
2-bob. Mintaqaviy turizmning ijtimoiy - iqtisodiy mazmuni va uning turizmni rivojlanishidagi ahamiyati	17
2.1. Mintaqaviy turizmning iqtisodiy mazmuni va iqtisodiyotdagi ahamiyati.....	17
2.2. Turizmning barqaror rivojlanishida mintaqaviy turizmning iqtisodiy mazmuni.....	20
2.3. Mintaqaviy turizmning ijtimoiy mazmuni va uning jamiyat shakllanishi hamda rivojlanishidagi o'rni	23
2.4. O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy hayotida mintaqaviy turizmning ahamiyati.....	27
3-bob. Mintaqalarning turistik resurslari tasnifi	34
3.1. Turistik resurslar tushunchasining ta'rifi va mohiyati	34
3.2. Turistik resurslar tasnifiga yondashuvlar	37
3.3. Ijtimoiy-iqtisodiy turistik resurslar. Sarmoya resurslari, turistik axborot resurslari	39
3.4. Tabiiy va infrastrukturali turistik resurslar.....	43
4 - bob. Turistik resurslardan foydalanishga ta'sir etuvchi omillar	49
4.1. Mintaqaviy turizmning rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar	49
4.2. Barqaror va o'zgaruvchi omillar. Tabiiy-qlimiy, jo'grovik, madaniy-tarixiy omillar	51
4.3. Tashqi va ichki omillar	52
4.4. Turizm infratuzilmasi	55
5 - bob. Mintaqalarning turistik resurslaridan foydalanish imkoniyatlarini baholash	60
5.1. Mintaqaviy turizmdan samarali foydalanishda ularni baholashning muhimligi	60
5.2. Turistik salohiyat tasnifi va uni boshqarish tamoyillari	62
5.3. Turistik resurslarni baholash usullarining tasnifi	67
6-bob. Mintaqaviy turizmni rivojlantirish resurslari	72
6.1. Mintaqaviy turizm bozori haqida tushuncha. Mintaqaviy turizmni o'ziga xos xususiyatlari	72
6.2. Mintaqaviy turizm turlari, maqsadi va tarkibiy qismlari	75

6.3. Mintaqaviy turizmni rivojlantirish bosqichlari	82
6.4. Milliy, mintaqaviy va mahalliy darajalarda turizmni rivojlantirish rejaralari ishlab chiqish bosqichlari	87
7-bob. Diniy turizmni rivojlantirish resurslari	90
7.1. Diniy turizm to‘g‘risida tushuncha	90
7.2. O‘zbekistonda diniy turizmni rivojlantirish imkoniyatlari	95
7.3. O‘zbekistonning islom obidalari	97
8 - bob. Mintaqalarda qishloq turizmini rivojlantirish resurslari	100
8.1. Qishloq turizmi tushunchasi	100
8.2. Qishloq turizmini rivojlantirishning xorij tajribasi	108
8.3. Agroturizm turlari	115
8.4. Qishloq joylarida turizmni rivojlantirish imkoniyatlari	116
8.5. Mintaqalarda agroturizmni rivojlantirishning o‘ziga xos xususiyatlari	120
9-bob. Mintaqalarda ekologik turizmni rivojlantirish resurslari va ulardan foydalanish	123
9.1. Mintaqalarda ekoturizmning tutgan o‘rni va roli	123
9.2. O‘zbekiston turistik mintaqalarining ekoturistik salohiyati va uning o‘ziga xos xususiyatlari	127
9.3. Ekoturizmni rivojlantirishda tabiati alohida muhofaza qilinadigan hududlarning o‘rni	130
9.4. O‘zbekistonda ekoturizmni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari	138
10 - bob. Turizm industriyasida raqobatbardosh omillar asosida buyuk ipak yo‘li davlatlarining guruhlanishi	143
10.1. Turizm industriyasida moyillik tushunchasi. “Buyuk Ipak yo‘li” davlatlari va loyiha	143
10.2. Sayohat va turizm boshqaruv tuzilmasi. Sayohat va turizm biznes muhiti	146
11 - bob. Markaziy Osiyo turizmi imkoniyatlarini tadqiq qilish .	149
11.1. Qozog‘istonda turizm industriyasi raqobatbardoshligi	149
11.2. Turkmaniston turizmi. Marv: Qadimiy jannatning poytaxt vohasi	156
11.3. Buyuk Ipak yo'lida Qirg'izistonning sayyohlik salohiyatini.. kengaytirish	161
Adabiyotlar ro‘yxati	164

KIRISH

Turizm jahon iqtisodiyotning barqaror rivojlanib borayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanib, nafaqat rivojlangan, balki, rivojlanayotgan mamlakatlar va mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining qudratli katalizatoriga aylandi.

Turizm sohasi, ayniqsa, XXI asrga kelib keng taraqqiy etmoqda. Turizm – zamonaviy iqtisodiyotning muhim faoliyat sohalaridan biri bo‘lib, insonlarning ehtiyojlarini qondirishga va aholi turmush darajasini oshirishga yo‘naltirilgan tizim.

O‘z tabiatiga ko‘ra turizm ma’lum bir resurslar, jo‘g‘rofiy omillar va mintaqaviy o‘ziga xosliklar bilan bog‘liqdir. Mamlakatning jahon turistik bozoridagi raqobatbardoshligini va turistik jozibadorligini oshirish maqsadida turizmning shakllanishi hamda rivojlanishini mintaqaviy yondashuv asosida tahlil qilish maqsadga muvofiq. Shu munosabat bilan O‘zbekistonda mintaqaviy turizm rivojlanishiga qaratilgan yangicha yondashuvlarni ishlab chiqishga bo‘lgan ehtiyoj mavjud nazariy qarashlarni o‘rganib chiqishni taqozo etmoqda. Zero, mintaqaviy turizm tushunchasi bilan bog‘liq muammolar yechimiga qaratilgan ilmiy ishlardagi nazariy qarashlar turli xil ekanligini kuzatamiz. Bu borada to‘plangan nazariy va amaliy tajribalaraning tahlilidan kelib chiqib mintaqalarda turizm sohasi rivojlanishining iqtisodiy siyosati, reja va dasturlarini ishlab chiqish muhim.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni asosida tasdiqlangan 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida iqtisodiyotni yanada modernizastiyalash va liberallashtirishga alohida etibor qaratidi¹. Ushbu ustuvor yo‘nalishda respublikamizda turizm industriyasini jadal rivojlantirish, bu borada mamlakatimizda barqaror holatni yuzaga keltirish kabilar nazarda tutilgan.

¹O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli farmoni // Toshkent shahar, 2017 yil 7 fevral

Vaholanki, shu o‘rinda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining: “Turizmga iqtisodiyotning strategik sektori maqomini berish, ushbu sohani barcha hududlarni va o‘zaro bog‘liq tarmoqlarni kompleks ravishda jadal rivojlantirishni yetakchi kuchga aylanishi lozim”¹, degan fikrlari soha rivoji uchun dasurilamal vazifasini o‘tay olishini alohida ta’kidlash zarur.

Turizmni mintaqalar iqtisodiyotiga ta’sirini o‘rganish va bu borada aniq ilmiy xulosalarga kelish – hududlarni kompleks va mutanosib rivojlantirish, uzoq va o‘rta muddatda mavjud turistik salohiyatdan samarali foydalanish, eng asosiysi, aholi turmush darajasi hamda sifatini oshirish uchun nazariy asos bo‘lib xizmat qiladiki, bu birlamchi ijtimoiy-iqtisodiy vazifalardan biri hisoblanadi. Zero, bu ko‘p jihatdan milliy turizm imidjining shakllanishi va rivojlanishini, hamda xalqaro turizm rivojlanishining imkoniyatlari va tendensiyalarini belgilab beradi.

Mazkur o‘quv qo‘llanma 10 bobdan iborat bo‘lib, unda ushbu dolzarb masalalarning nazariy jihatlarini bir qadar yoritilgan. Qo‘llanmada mintaqani rivojlantirishda turizm sohasining o‘rni va ahamiyati, mintaqaviy turizm rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar ilmiy tahlilga tortilib, mohiyatan mintaqaviy turizm tushunchasi asoslangan. Bunda mavzuga oid xorijiy va mahalliy tadqiqot ishlari natijalariga tahliliy yondashuv amalga oshirilgan.

¹ O‘zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida//O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni // Toshkent shahar, 2016 yil, 7 dekabr.

1-BOB. MINTAQAVIY TURIZM FANINING PREDMETI, MAQSADI VA VAZIFALARI

1.1. Mintaqa atamasining mohiyati va mintaqaviy turizm

Hozirgi davrda kundalik axborot vositalari va ilmiy jamoatchilik orasida mintaqa tushunchasiga har xil yondashuv hamda talqinlar mavjudligini kuzatamizki, bu sohaga tegishli ilmiy izlanishlarda turli darajadagi chalkashlik hamda qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Shu boisdan mintaqa tushunchasi haqida aniq fikrga kelish kelgusida soha tadqiqotlari uchun metodologiya vazifasini o'taydi.

O'zbek tilining besh jildli izohli lug'atida "mintaqa" so'zi arab tilidan o'zlashtirilgan bo'lib, *kamar, belbog', iqlimiy hudud, soha, doira* ma'nolariga ega ekanligi qayd qilingan.

Bundan tashqari lug'atda mazkur so'zning ikkita talqini ham havola etilgan.

1. Geografik. Yer yuzasining ikki qo'shni parallel oralig'idagi, bir-biridan iqlimi bilan farq qiladigan har bir bo'lagi.

2. Yer yuzasining biror xususiyati bilan ajralib turadigan bo'lagi, zonasi¹. Mazkur ikki talqin ham munozarali va to'liqroq izohga muhtoj.

Birinchi talqin sohaviy, ya'ni bevosita geografiya faniga tegishli. Yer planetasini belbog'dek o'rab turgan iqlimiy va shu asosda shakllangan geografik mintaqalardir. Ular yetti iqlim iborasi bilan bog'liq yettita bo'lib, yer shari qutblaridan ekvator chizig'i tomon birin-ketin joylashgan. Bular artika (antarktika), subartika (subantarktika), mo'tadil, subtropik, tropik, subekvatorial, ekvatorial mintaqalar sanaladi. Mazkur mintaqalar quyosh energiyasining yer yuzasiga kirib kelishi va qaytishi (balansi), hamda mintaqalarga xos bo'lgan atmosfera oqimlari bilan ajralib turadi². Masalan, O'zbekiston hududi mo'tadil va subtropik iqlim mintaqalari doirasida joylashgan.

Mintaqa atamasining ikkinchi talqini aslini olganda, yer yuzasining tabiiy, siyosiy-ma'muriy (alohida davlat, davlatlararo) va ma'muriy-hududiy (davlat ichidagi) mazmunga ega bo'lgan, o'xshashi yo'q, ko'lami jihatdan katta bo'lgan (mahalliy emas) hududlardir.

¹O'zbek tilining izohli lug'ati. Besh jildli. Ikkinchi jild. – Toshkent, "O'zbekiston milliy entsiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti., 2006, 672 bet.

²Географический энциклопедический словарь. – Москва: СЭ, 1988. – 432 с.

Masalan, tog‘ va tekislik, cho‘l va voha (sug‘oriladigan yerlar), Markaziy Osiyo, Boltiqbo‘yi, Orol bo‘yi, Janubiy-Sharqiy Osiyo mintaqalari shular jumlasidandir.

O‘rta Osiyo, xususan, O‘zbekiston Respublikasi tabiatining bilimdon olimlari L.N.Babushkin, N.A.Kogay¹ O‘zbekiston hududini o‘nta tabiiy-tarixiy mintaqaga (okruglarga) ajratadilar (1.1-jadval). Ushbu tabiiy mintaqalar azaldan ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning poydevori bo‘lib kelgan. Til, urf-odat, milliy qadriyatlarimiz, ijtimoiy-iqtisodiy borliq, hozirgi ma‘muriy-hududiy tuzilmalar ushbu mintaqalarning tabiiy sharoiti, boyliklari va aholisi asosida vujudga kelgan.

Mintaqaviy iqtisodiyot fanining kelib chiqishiga ham mintaqalardagi tabiiy, ijtimoiy va iqtisodiy farqlanishlar sabab bo‘lgan. Mintaqaviy iqtisodiyot faniga nemis olimlari I.Tyunen, A. Veber, V. Kristaller, A. Lyosh kabilar tomonidan asos solingan bo‘lsa-da, uning fan maqomiga ega bo‘lishi Amerika Pensilvaniya universiteti professori U. Izardning (Isard) XX asrning o‘rtalarida olib borgan izlanishlari bilan bog‘liq. Sobiq ittifoq davrida esa, aniqrog‘i, 1970-yillarda mintaqaviy iqtisodiyot fanining rivojlanishiga, o‘sha davrda Davlat bosh plani(GOS)ning raisi vazifasida ishlab turgan, akademik N.N. Nekrasov tomonidan asos solingan. Uning 1972-yilda chop ettirilgan "Regionalnaya ekonomika" asari bu yo‘nalishdagi izlanishlar uchun dasturilamal bo‘ldi. ***Mintaqaviy iqtisodiyot*** ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish, alohida olingan hududlar yoki hudud (region, rayon) ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishning omil va qonuniyatlarini o‘rganadigan fandir².

Yetakchi iqtisodiy geograflar agar iqtisodiy geografiya iqtisodiy lashtirilgan geografiya bo‘lsa, mintaqaviy iqtisodiyot geografiyalashtirilgan iqtisodiyot deb ta’rif beradilar. Bu mintaqaviy iqtisodiyot fanini mahalliy lashtirilgan, ya’ni amaliyotga yaqinlashtirilgan iqtisodiyot deganidir.

¹ Бабушкин Л.Н., Когай Н.А. Естественно-историческое районирование Узбекистана. Растительный покров Узбекистана. Том1. –Ташкент: Фан, 1971.–С.: 98-117.

²Soliyev A.S., Axmedov Y.A., Muhamadaliyev R.Y., Nazarov M.I., Tojiyeva Z.N., Boltayev M.J., Atajanova U.A. Mintaqaviy iqtisodiyot (O‘quv qo‘llanma).– Toshkent: Universitet, 2003.– 304 b.

Shu asnoda iqtisodiy geograflar O‘zbekiston hududini oltita iqtisodiy mintaqaga ajratadilar va ularning tavsiflarini keltiradilar. Yetti yildan so‘ng esa, yuqorida nomlari qayd qilingan A.Soliyev rahbarligidagi mualliflar O‘zbekiston Respublikasining ma‘muriy-hududiy tuzilmasini, ya‘ni Qoraqalpog‘iston Respublikasi 12 ta viloyat va Toshkent shahrini iqtisodiy geografiya va mintaqaviy iqtisodiyot fanlari nuqtayi nazardan mintaqa sifatida ta‘riflashni ma‘qul deb hisoblaydilar. "Sababi, aynan ma‘muriy viloyatlar, ularda ma‘muriy boshqaruv tizimining mavjudligi va kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish imkoniyati va zaruriyatining borligi davlatimizning mintaqaviy siyosatini asosiy subyekti bo‘lib xizmat qiladi", deb asoslaydilar¹.

1.1.-jadval

O‘zbekiston Respublikasi hududini turli mazmundagi mintaqalarga ajratish bo‘yicha yondashuvlar²

№	Tabiiy-tarixiy okruglar-mintaqalar (LN.Ba-bushkin, N.A.Kogay, 1971)	Iqtisodiy mintaqalar-rayonlar (A.S.Soliyev va b., 2003)	Ijtimoiy-iqtisodiy mintaqalar (A.Soliyev va b., 2010)	Ekoturistik rayonlar (A.N. Nigmatov, N.T.Shamuratova, 2007, N.T.Shamuratova, 2011)	Turistik min-taqalar (A.S. Soliyev, M.R.Usmenov, 2005; S.Abdulhamidov va b., 2015)	Turistik mintaqalar (Xidirova G.R. 2015)
1	Ustyurt	Toshkent	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	Ustyurt	Toshkent	Qoraqalpog‘iston Respublikasi
2	Qo‘yi-Amudaryo	Mirzacho‘l	Andijon	Orol va Orolbo‘yi	Mirzacho‘l	Andijon
3	Qizilqum	Farg‘ona	Buxoro	Qo‘yi Amudaryo	Farg‘ona	Buxoro
4	Qo‘yi Zarafshon	Zarafshon	Jizzax	Qizilqum	Zarafshon	Jizzax
5	Qashqadaryo	Qo‘yi Amudaryo	Navoiy	Qo‘yi Zarafshon	Qo‘yi Amudaryo	Navoiy

¹Soliyev A., Nazarov M., Qurbonov Sh. O‘zbekiston hududlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi. –Toshkent: Mumtoz so‘z, 2010.–348 b.

²Xidirova G.R. Mintaqa atamasining talqini va mintaqaviy turizm. // Iqtisodiyot va ta‘lim., № 6, 2015. – B. 82-86.

6	Surxondaryo	Janubiy	Namangan	Mirzacho'l	Janubiy	Namangan
7	O'rta Zarafshon		Samarqand	Arnasoy-Aydar		Samarqand
8	Mirzacho'l		Sirdaryo	Sirdaryo bo'yi		Sirdaryo
9	Chirchiq-Angren		Surxondaryo	Chirchiq-Ohangaron		Surxondaryo
10	Farg'ona		Toshkent viloyati	Farg'ona		Toshkent viloyati
11			Farg'ona	O'rta Zarafshon		Farg'ona
12			Qashqadaryo	Hisor		Qashqadaryo
13			Xorazm	Qashqadaryo		Xorazm
14			Toshkent shahri	Surxondaryo		Toshkent shahri

Ushbu xulosalarga qo'shilgan holda qayd qilingan 14ta ma'muriy-hududiy subyektlarni asosiy qonun O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi bilan mustahkamlanganligini (XVI bob, 68-modda) hamda statistik ma'lumotlar, monitoring tizimlari ham ular doirasida yuritilishini qayd qilish joiz¹. Bundan tashqari respublika Oliy Majlisi a'zolari tarkibida har bir mintaqa manfaatlarini himoya qiluvchi 6 tadan vakil-senatorlarning bo'lishi yuqoridagi fikrlarni mustahkamlaydi.

Mintaqaviy turizmga bag'ishlangan tadqiqotlarni tahlil qiladigan bo'lsak, A.Soliyev, M. Usmonovlar O'zbekiston Respublikasi doirasida iqtisodiy geograflar tomonidan ajratilgan oltita iqtisodiy mintaqalarni, mintaqaviy turizmning o'rganish obyekti sifatida talqin qiladilar (1.2-jadval). Pirovard natijada, O'zbekistonda turizmni rivojlantirish muammolari Samarqand viloyati misolida tadqiq etilgan².

¹O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyasi. –Toshkent: O'zbekiston, 2008.–40 b.

²Soliyev A.S., Usmonov M.R. Turizm geografiyasi. – Samarqand: SamDU, 2005.–118 b.

Mutaxassis geograflar A.N.Nigmatov, N.G. Shamuratovalar¹, N.T. Shamuratova, taniqli olimlar L. N. Babushkin va N. A. Kogaylarning (1969) ilmiy xulosalarni rivojlantirgan holda O'zbekiston hududini 14ta ekoturistik rayonlarga ajratadilar va ularning o'ziga xos ekoturistik imkoniyatlarini qayd qiladilar

Iqtisodchi tadqiqotchilar S.Abdusamidov va b.² O'zbekistonda turizmning mintaqaviy muammolariga bag'ishlangan izlanishlarida A. Soliyev, M. Usmonov hamda N. Ibadullayevlarning³ fikrlariga qo'shilgan holda turizmga tegishli statistik ma'lumotlarni 14 ta ma'muriy-hududiy sub'ektlar bo'yicha keltiradilar. Demoqchimizki, mintaqaviy turizm fanining o'rganish obyekti, konstitutsion asosga ega bo'lgan va ijtimoiy talabga mos qiladigan 14ta ma'muriy-hududiy bo'linmalarning tabiiy poydevori, yuqorida qayd qilingan 10 ta tabiiy-tarixiy mintaqalardir. Masalan, Andijon, Farg'ona, Namangan viloyatlarining tabiiy poydevori Farg'ona vodiysining bir butun tabiatidir. Sirdaryo, Jizzax viloyatlari uchun esa, genetik jihatdan yahlit tuzilishga ega bo'lgan Mirzacho'l tabiiy mintaqasi hisoblanadi. Mintaqaviy turizm nuqtayi nazardan har bir ma'muriy-hududiy sub'ekt, ham tabiiy, tarixiy, nomoddiy qadriyatlari va ekologik xususiyatlariga ko'ra o'ziga xos va betakror. Mintaqaviy turizmni rivojlantirishda davlatimizning mintaqaviy siyosati asosiy o'rin tutadi. Odatda, bu siyosat ichki siyosat bo'lib, u sohaviy (xo'jalik tarmoqlar bo'yicha) va hududiy (mintaqaviy-integral) mazmunga ega. Mintaqaviy turizm esa davlatning bevosita sohaviy ichki siyosatiga tegishli. Taraqqiyotning o'zbek modeliga ko'ra davlat bosh islohotchi ekan, O'zbekiston hukumati har bir mintaqaning turistik imkoniyatlardan kelib chiqib, uning rivojlanish strategiyasini belgilab berishi va imkoniyat yaratishi, nazorat qilishi ko'zda tutiladi.

Bu o'rinda mahalliy xokimiyatlarning (mintaqa doirasida) turizm bozorini rivojlantirishdagi mas'ulligi, tadbirkorligi va tashabbuskorligi talab etiladi. Ayniqsa, mintaqaviy turizmga tegishli mutasaddi tashkilot rahbarlari ilmiy izlanuvchilar hamda O'zbekiston

¹Nigmatov A. N., Shamuratova N. T. Ekoturizm asoslari. (O'quv qo'llanma)— Toshkent: Turon Iqbol, 2007.—127 b.

²Shamuratova N. T. O'zbekistonda ekologik turizm va uning tabiiy geografik jihatlarini: Geografiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati.— Toshkent, 2011.—26..

³ Ibadullayev N.E. O'zbekistonning turistik resurslari.— Samarqand, 2008.

Respublikasi Oliy Majlisi tarkibidagi 6 ta mintqa vakillari-senatorlarning mas'ulligi, tashabbuskorligi zarur.

Qayd qilish joizki, mintaqaviy turizm o'z mohiyati bilan ko'p qirrali, turlicha imkoniyat va salohiyatga ega. U hamma vaqt, hamma joyda shakllan mintaqaviy, mazmuniga ko'ra esa milliy mohiyatga ega bo'lishi lozim.

1.2. Mintaqaviy turizm fanining predmeti va obyekti

Ma'lumki, jahon turizmi bugungi kunda iqtisodiyot sohalari ichida daromad keltirishi bo'yicha eng yuqori o'rinlardan birini egallaydi, mehnatga layoqatli aholiniish bilan bandligini ta'minlab, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlarini yuqori bo'lishini taqozo etadi va shu jihatdan ham u har doim barqaror rivojlanishga moyil. Shuning uchun ham turizm sohasi jadal rivojlanayotgan mamlakatlar, birinchi navbatda, bu sohani harakatga keltiruvchi mavjud turistik resurslardan samarali foydalanish yo'llarini qidirmoqda va uni barqaror rivojlanish jarayonlariga e'tiborini qaratishmoqda. Shuning hisobiga u yoki bu mamlakatga turist sifatida tashrif buyuruvchilar soni yildan yilga ko'payib bormoqda. Va bu jarayon har doim o'zining obyektiv va subyektiv rivojlanish qonuniyatiga ega bo'lib, undan maqsadli foydalanish lozim bo'ladi. Bunga amal qilgan ko'pgina mamlakatlarda turizmning rivojlanishi yuqori samara berib kelmoqda. Mustaqillikning dastlabki davrlaridan boshlab, O'zbekistonda ham turizmni shakllantirish va qaror toptirishga katta ahamiyat berilib, bu jarayonda turistik resurslardan, ayniqsa, mintqa hududlarida mavjud bo'lgan salohiyatdan samaralifoydalanish yo'l-yo'riqlari qidirilmoqda va uning imkoniyatlari o'rganilmoqda. Turizm ham mintaqalar iqtisodiyotida qishloq xo'jaligi, sanoat, transport vaboshqa makroiqtisodiy tarmoqlar qatori o'zining munosib o'rniga ega bo'lishi uchun yetarlicha resurslar mavjud. Mamlakatimizda turizmni rivojlantirish imkoniyatlari bo'yicha Markaziy Osiyo davlatlari ichida yetakchi hisoblanadi. Respublikamiz tarixiy, arxeologik, arxitektura, san'at, musiqa va boshqa turistik resurslarga boy hisoblanadi. Bundan tashqari, mamlakatimizning betakror tabiati, tog' va tekislik, daryolari, cho'l va vohalari, ko'p va turli landshaft zonalari asosiy rekreasiya resurslaridir. Mamlakatimizda yosh tarmoq hisoblangan turizm,

kundan kunga rivojlanmoqda. Bu esa ko'pgina ish o'rinlari ochish imkoniyati mavjudligini bildiradi.

O'zbekistonda tarixiy-madaniy, arxitektura, arxeologiya ahamiyatidagi 7mingdan ortiq obyektlar mavjud. Soha mutaxassisi B.To'rayev fikricha, ulardan 545 tasi –arxitektura, 578 tasi – tarixiy, 1457 tasi – san'at yodgorliklari va 5500 dan ortig'i arxeologik ahamiyatga ega. 200 dan ortiq obyektlar ta'mirlanmoqda, 500 tasiesa ta'mirlanishga muhtoj. Ko'p mamlakatlar tajribasiga ko'ra, ta'mirlanishjarayonini o'zi turistlar uchun qiziqarli hisoblanadi. Undan tashqari respublikamizda 300 dan ortiq muzeylar, 1200 ta xalq ijodiyoti tashkilotlari mavjud. Turistik ziyorat obyektlari miqdori bo'yicha Toshkentda –144 ta, Samarqandda – 118 ta, Buxoroda–201 ta, Xivada – 310 tani tashkil etadi. Ammo asosiy turistik resurslarimizdan mintaqaviy turizm turizm maqsadida foydalanish tashkil etilmagan. Shu sababdan milliy madaniy va tabiiy merosimizni mintaq va turizm faoliyati maqsadida har jihatdan o'rganish va muhofaza etish o'ta muhimdir. YUNESKOning “Butunjahon madaniy va tabiiy merosini muhofaza qilish” konvensiyasida har bir davlat o'z hududidagi madaniy va tabiiy merosinimuhofaza etishi, uni targ'ibot etishi, bunda o'zining samarali siyosatini olib borishi lozimligi ta'kidlanadi.

Mintaqaviy turizm fanining obyekti sifatida mamlakatimizdagi barcha turizm faoliyatida foydalanish mumkin bo'lgan turizm obyektlari hisoblanadi. Mamlakatimizning betakror tabiat go'shalari, ya'ni tog', vodiylari, cho'l-u dashtlari, boy madaniy-tarixiy merosi, ajoyib tarixiy arxitektura yodgorliklari, urf-odatlari, milliy resurslarning bisyorligidan darak beradi. Fanning obyektidan, mazkur fanning predmeti kelib chiqadi. Bu fanning predmeti turistik resurslarni, turlari va mohiyatini, ijtimoiy-iqtisodiy mazmuni, hudud bo'yicha joylanish xususiyatlarini, milliy iqtisodiyotda samarali foydalanishni, ekologik-iqtisodiy xususiyatlarini, turizm faoliyatida foydalanish va muhofaza qilishni o'rganishdan kelib chiqadi.

1.3. Mintaqaviy turizmni rivojlantirishning maqsadi va vazifalari

Hozirgi davrda iqtisodiyotimizni rivojlantirish, aholini ijtimoiy – iqtisodiy ahvolini yaxshilashda yangi ish o'rinlarini ochish katta ahamiyatga ega. Shuning uchun qaysi tarmoqlarda yangi ish o'rinlari ochish imkoniyati bo'lsa, undan samarali foydalanish lozim. Bugungi

kunda turizm jahondagi eng ko'p foyda keltiruvchi biznes ko'rinishlaridan biriga aylangan. U bozor iqtisodiyotining ajralmas qismi bo'lib, danyoning ko'pgina mamlakatlarida tezkorlik bilan rivojlanib borayotgan tarmoqqa aylandi. Turizm sohasi jahon xo'jaligining transport, aloqa, savdo-sotiq, qurilish industriyasi, qishloq xo'jaligi, iste'mol mollari ishlab chiqaruvchi sanoat tarmoqlari bilan chambarchas holda rivojlanib, jahon iqtisodiyotida o'z o'rniga ega bo'lmoqda. Iqtisodiyotimizda turistik resurslardan samarali foydalanishda sohadayangi ish o'rinlari ochish katta ahamiyatga ega. Har bir hududda turizm shakllanar ekan, bu hududda turizm faoliyatida foydalanilayotgan turistik resurslar mavjud bo'ladi. Bu resurslarni turizmni tashkil etish asosi desak bo'ladi. Lekin har bir hududning resurs salohiyati resurslarning miqdor va sifat jihatiga ko'ra farq qiladi. Shu sababli turistik resurslarni har jihatdan o'rganish, baholash, umuman olganda turizm faoliyatida foydalanish imkoniyatlarini, tahlil etish ma'lum mintaqada turizmni rivojlantirish istiqbolini belgilaydi. Yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqib bu fanning maqsadi mamlakatimizning turizm salohiyatini belgilash nuqtayi nazaridan turistik resurslarimizni har taraflama o'rganib chiqishdir. Zero, turizm faoliyatida turistik resurslardan samarali foydalanish, uni iqtisodiy asoslarini yaratish bu fanning asosiy vazifasidir. Bundan tashqari, Vatanimizning kelajagi hisoblangan yoshlar ongida milliy merosimizga, jumladan, madaniy-tarixiy, tabiiy yodgorliklar va milliy an'alarimizga bo'lgan munosabatni shakllantirish fanning asosiy maqsadidir. Xalqimiz milliy boyligimiz hisoblangan turistik obyektlarimizni, tabiatimizni qanchalik asrab-avaylasa, shunchalik mamlakatimizda turizmni rivojlantirish imkoniyatlari oshib boradi.

Fanning vazifasi – turistik resurslar haqida tushuncha berish, turistik resurslardan samarali foydalanish imkoniyatlarini o'rganish, O'zbekistonning turistik resurslarini mintaqalar bo'yicha joylanishi, turistik rayonlashtirish hamda mamlakatimiz turistik resurslarini muhofaza qilish tadbirlari to'g'risida talabalarda tasavvur hosil qilishdan iborat.

Tayanch iborolar va tushunchalar:

Mintaqa – mamlakat yagona xalq xo'jalik majmuasining hududiy kichik tizimi hisoblanadi. U demografik, tabiiy-ekologik, ijtimoiy-iqtisodiy va texnik-iqtisodiy jarayonlarning ichki aloqasi va o'zaro munosabati tufayli hosil bo'lgan yaxlit birlik.

Turizm – ushbu soʻzining negizi hisoblangan «tour» soʻzi lotincha «tornare» soʻzidan kelib chiqqan boʻlib, doiraviy shakl maʼnosini anglatadi. Bu soʻz oʻz maʼnosini oʻzgartirmasdan boshqa gʻarb tillariga ham kirib kelgan. Masalan, fransuzchada «aylanish» maʼnosiga toʻgʻri keluvchi «tourner» va «tour» soʻzlari hozirgi kunda ham ishlatilmoqda. Inglizchada esa turizm soʻzi turist soʻzidan olinib, 1811 yillarda yuzaga kelgan. Nemischada esa faqatgina «auslander» (ajnabiy yoki xorijiy) soʻzi ishlatilar edi. 1958 yilda nemis tilida alohida eʼtiborga olinib turizmning ekvivalenti boʻlmish «fremdenverkehr» yoki «tourismus», turist soʻzining ekvivalenti esa «turist» tarzida qoʻllanila boshlandi". Internatsional Vebster lugʻatida tur (tour) ning maʼnosi quyidagicha ifodalangan: "Ish, zavq olish oʻqish uchun qilinadigan sayohat va bu sayohatlar mobaynida turli xil joylarni ziyorat qilishdan va rejalashtirilgan sayohat dasturidan yuzaga keladigan jarayon tur deb ataladi". Bugungi kunda zamonaviy turizm asoschisi sifatida angliyalik **Tomas Kuk** tan olingan. U birinchilardan boʻlib, sayohat maqsadida ommaviy safar uyushtirishning mohiyati va foydaliligini anglab yetdi hamda 1843-yilda u dastlabki temir yoʻl orqali turni muvaffaqiyatli tashkillashtirdi.

Mintaqaviy turizm – maʼlum hududga qaratilgan, ijtimoiy yoʻnaltirilgan yani inson manfaatlari uchun xizmat qiladigan hamda mikro va makrodarajada daromadlar olishga moʻljallangan faoliyatdir.

Hudud – maʼlum chek-chegarasiga ega boʻlgan, shunday chegara bilan oʻralgan yer: maʼlum davlat, viloyat, shahar, qishloqqa tegishli boʻlgan yer, maydon.

Mintaqaviy iqtisodiyot – ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish, alohida olingan hududlar yoki hudud (region, rayon) ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishning omil va qonuniyatlari.

Turistik resurslar – xalq madaniyati, urf-odatlar, rusumlari, maʼnaviyatini koʻrsatuvchi, belgilovchi milliy boylikdir.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. “Mintaqa” tushunchasi nimani anglatadi? Uning turistik mohiyati izohlang.
2. “Mintaqaviy turizm” fanining obyekti va predmetini taʼriflab bering.
3. “Mintaqaviy turizm” fanining vazifalari nimalardan iborat?
4. “Mintaqaviy turizm”ning tarmoq iqtisodiyoti hamda iqtisodiy geografiya fanlari bilan munosabati qanday?

2-BOB. MINTAQAVIY TURIZMNING IJTIMOIIY - IQTISODIY MAZMUNI VA UNING TURIZMNI RIVOJLANISHIDAGI AHAMIYATI

2.1. Mintaqaviy turizmning iqtisodiy mazmuni va iqtisodiyotdagi ahamiyati

Iqtisodiy jarayonlarni tubdan o'zgartirish va modernizatsiyalash sharoitida mintaqalarni kompleks rivojlantirish va xizmatlar bozorini shakllantirish bo'yicha bir qator muammolar yuzaga kelmoqda. Ushbu muammolarni hal qilish, ularni ilmiy-nazariy asoslashni va chuqur tahlil qilishni talab qiladi.

Xizmatlar bozori muammosini faqatgina makro va mikro darajadagina emas, balki mintaqa va mintaqaviy siyosat nuqtai nazardan o'rganish maqsadga muvofiq. Mintaqaviy iqtisodiyot o'zining ochiqligi bilan ajralib turadi. Bu xususiyat mintaqaviy bozorlarni tovarlar, moliya, mehnat, turizm, informatsion texnologiyalar va boshqa turdagi bozorlar bilan o'zaro chambarchas bog'liqligini ko'rsatadi. Mintaqaviy iqtisodiyot umummamlakat miqyosida shakllanayotgan va rivojlanayotgan yagona bozor tizimini ajralmas qismi bo'lib, markaziy hamda tarmoqlar (tarmoqlararo) boshqaruvida o'ziga xos o'ringa ega.

Ilmiy-nazariy asoslarni o'rganishda mamlakat, mintaqalar va tarmoqlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarga aniqlik kiritish bilan boshlash kerak.

Turizmni barqaror rivojlanishida turistik resurslarning iqtisodiy mazmuni yotadi. Hozirgi kunda ko'pgina mamlakatlarda turizm milliy iqtisodiyotini rivojlantirishning muhim omili hisoblanmoqda. Hozirgi davrda jahon xo'jaligida bu sohada band ishchi kuchining ulushi yildan-yilga oshmoqda. Butunjahon sayyohlik va turizm kengashi (World Travel and Tourism Council) ma'lumotlariga ko'ra, 1996-yil turizm sohasida 225 mln. ish o'rin mavjud bo'lgan bo'lsa, 2006-yilga kelib, yana 130 mln. ish o'rni ortdi. Hozirgi vaqtda turizm sohasida jahondagi mavjud har 10 ta ishchi kuchining biri band. Ayrim mamlakatlarda bu ko'rsatgich yanada yuqori. Masalan, Ispaniyada turizm sohasida iqtisodiy faol aholining 8,3 foizi, Barbadosda – 10,5 foizi, Maltada – 15 foizidan ortig'i band. Turizm ham respublikamiz iqtisodiyotida qishloq xo'jaligi, sanoat, transport va boshqa

makroiqtisodiy tarmoqlar qatori o'zining munosib o'rniga ega bo'lishi uchun yetarlicha resurslarga ega. Mamlakatimizda turizmni rivojlantirish imkoniyatlari bo'yicha Markaziy Osiyo davlatlari ichida yetakchi hisoblanadi. Turizm turistlar ehtiyojini qondirishga qaratilgan faoliyatdir. Mutahassislar turistlarni 6 ta asosiy ehtiyojlarini ajratadi:

1. Rekreatsiya, dam olish;
2. Og'ayni va tanishlarini ko'rish bo'yicha;
3. Ish va professional maqsadlar bo'yicha;
4. Davolanish;
5. Diniy e'tiqod va ziyoratchilik bo'yicha;
6. Insonlarning jismoniy, iqtisodiy va ruhiy ehtiyojlaridan kelib chiqib va boshqamaqsadlar bo'yicha.

Yuqoridagi ehtiyojlarni qondirishga turistik faoliyatni amalga oshirish yotadi. Bu o'z navbatida iqtisodiy turizm hisoblanib, uni qo'yidagilar asosida shakllantiriladi:

- turistik xizmatlarni ishlab chiqish;
- turistik mahsulotni shakllantirish;
- turistik mahsulotni sotish;
- turistik ehtiyojni qondirish.

Turizm iqtisodiy kategoriya bo'lib, davlatlardan kelgan turistlarga mahalliy xizmatni sotadi, o'z ishchilariga ish-joy sharoitini yaratadi, kirib kelayotgan valyutadan daromat oladi. Bir tomondan turizm sohasi turistlarga bevosita xizmat qiluvchi tarmoqni taklif qiladi, ikkinchi tomondan turizm bozoriga yo'naltirilgan xizmat qilish va moddiy ishlab chiqarish kabi bir-biriga qo'shilgan tarmoqlarning o'zaro bog'langan tizimni belgilaydi. Turizm – bu ishlab chiqarish va iste'molchining yakdilligi jarayonidir. Iste'mol obyekti turistik tovar va xizmatlar hisoblanib, iste'mol davrida iste'molchining butovlarlar va xizmatlar qoniqtirishi lozim. Bunda turizmning iste'mol qiymati foydalibuyumlar tovarlar, qulaylik va tabiat manzaralari va xizmatning har xil usulidan kelibchiqadi. Turistik iste'mol bir tomondan tovarga va pullik xizmatga ega bo'lishi, ikkinchi tomondan tovarlar ko'rinishiga ega bo'lmagan joy, yaxshi muhitni o'z ichiga oladi. Turizmni iqtisodiy samarali keluvchi turistlar soni bilan bevosita bog'liq. Turistlar sonni oshib borishi bilan, turizm orqali kelayotgan daromad ham oshib boradi. O'z navbatida, turistlar

sonining oshishi turistik qiziqshni orttiradiganobyektlarga, ya'ni turistik resurslarga bog'liq bo'ladi.

Turizmning rivojlanishi davlat uchun ham juda foydali. Xususan, u turizmni rivojlantrish evaziga o'z iqtisodiyotining yuksalishiga erishadi, davlat byudjetiga tushumlarning ko'payishini ta'minlaydi, tabiiy resurslarni asrab-avaylashga erishadi, mamlakatning ijtimoiy barqarorligini ta'minlashga harakat qiladi va unga erishadi, xalqaro aloqalarga erishadi, madaniy aloqalar kengayadi, valyuta tushumi ko'payadiva h.k.

Turizm iqtisodiyotning tarkibiy qismi sifatida turistlar qabul qiluvchimamlakatga daromadni keltiradi, qat'iy valyuta tushumini ta'minlaydi, aholini ish bilan bandlik darajasini oshiradi. Turistlarga xizmat qilish uchun mehmonxona kerak bo'ladi. Bu yerda ular ovqatlanishi lozim. Turli shou dasturlarda qatnashadilar. Bularning hammasi naqd pul, ko'p hollarda agar ular xorijiy turistlar bo'lsa, valyuta tushumining ko'payishini ta'minlaydi. Shu sababdan turistik resurslarning turizm faoliyatida iqtisodiy mazmuni oshib boradi.

Shunday qilib, turistik resurslar iqtisodiyotning tarkibiy qismi sifatida o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bulardan tashqari resurslar mamlakat hayotiga sezilarli darajada ta'sir qiladi. Buning mahalliy aholi uchun ham katta foydasi bor. Ular ish bilan ta'minlanadi, turli millat, elat va xalq vakillari bilan muloqotda bo'ladilar va ularningturli an'ana va qadriyatlari bilan tanishadilar, doimiy daromad olib turish, mahsulotlarni sotish imkoniyatiga ega bo'ladilar, mahalliy aholi imkon qadar o'zlarining an'ana va qadriyatlarini namoyish qilish uchun uni saqlab qoladilar va unitilganlarini tiklaydilar.Turistik resurslarning iqtisodiy ahamiyati yana shundan iboratki, mamlakattabiati ham turizmni rivojlantirish katta foyda beradi. Xususan, mamlakat ekologik barqarorlikni ta'minlash tadbirlari qo'llaniladi, tabiat resurslaridan turistlarningrohatlanishi uchun foydalaniladi, manzarali maydonlarning yaratilishi imkoniyatini tug'diradi, suv, havo, o'rmonlarning tabiiy holda saqlanishi uchun harakat qilinib, turistlarni jalb qilinadi.

2.2. Turizmning barqaror rivojlanishida mintaqaviy turizmning iqtisodiy mazmuni

XXI asrda iqtisodiy o'sishning muhim omili sifatida mamlakat mintaqalarida mavjud salohiyat va imkoniyatlardan samarali foydalanish zarurligi e'tirof etilmoqda. Xorij va mamlakatimiz olimlari tomonidan o'tkazilgan bir qator ilmiy tadqiqotlar natijalari, rasmiy hujjatlarda bayon qilingan ustuvor yo'nalishlar bunga yaqqol misol bo'la oladi.

O'zbekistonda oxirgi o'n yilda mintaqalarni kompleks rivojlantirish, mahalliy tabiiy-iqtisodiy resurslar asosida investitsion loyihalar tayyorlashni yanada faollashtirish masalalariga katta e'tibor qaratilgan. Ayniqsa, 2017-yilda hududlarni kompleks va mutanosib tarzda rivojlantirishni ta'minlash, mintaqalarning mavjud tabiiy homashyo, ishlab chiqarish va mehnat salohiyatidan oqilona foydalanish, ishlab chiqarish kuchlarini optimal joylashtirish hamda aholi turmush darajasi va sifatini izchil oshirib borishga oid choralarga qaratilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingan qarorni alohida ta'kidlash lozim. Sohaga oid rasmiy hujjatlarda mahalliy byudjetlarning daromad bazasini mustahkamlash va nomarkazlashtirish asosida hududlarni kompleks barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan.

Umuman, ham nazariya, ham amaliyot nuqtai nazaridan mintaqalarning iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlashdagi o'rni keskin oshganini ko'rish mumkin.

Mintaqada yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlariga erishish uchun, raqobat afzalliklariga ega tarmoq va korxonalar birinchi o'ringa ko'tarilib, ular ma'lum darajada lokomotiv vazifasini bajarishlari lozim bo'ladi. Ana shunday tarmoqlar qatoriga mintaqaviy xususiyatga ega bo'lgan turizmni qo'shish lozim. Chunki mintaqada boy tabiiy salohiyatga asoslanadigan turizm sohasini keskin rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlar mavjud. Turizm o'ziga xos mintaq uchun o'sish nuqtasi bo'lib xizmat qiladi.

Mintaqa va turizmni o'zaro bir-biri bilan chambarchas bog'liqligini, avvalombor, ular oldiga qo'yiladigan asosiy maqsad va ustuvor yo'nalishlarning uyg'unligi bilan dalillash mumkin (2.1-chizma).

Mintaqani kompleks rivojlantirishning vazifalari va yo‘nalishlari	Turizm xizmatlarini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari
Mavjud salohiyatdan kelib chiqqan holda barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta‘minlash	Mintaqada joylashgan turizm sub`ektlarining rivojlanishini ta‘minlash
Tarmoqlar bilan birgalikda raqobatbardosh mahsulotlar (xizmatlar) ishlab chiqarishni tashkil etish, eksport hajmi va turini ko‘paytirish	Turizm sohasining raqobatbardoshlik afzalliklaridan to‘liq foydalangan holda xalqaro turizmni yanada kengaytirish
Investitsiya dasturlarini tayyorlash, amalga oshirish, xorij investitsiyalarini taklif etish	Turizmni yanada rivojlantirish maqsadida yangi investitsiya loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirish, xorij investorlari uchun qulay shart-sharoit yaratish
Muhandislik, yo‘l transport va injenerlik kommunikatsiyalari infratuzilmasini ildam rivojlantirish	Turizm xizmatlari sifatini yaxshilash va turlarini ko‘paytirish maqsadida infratuzilmani rivojlantirish
Qishloq xo‘jaligini yanada rivojlantirish er-suv resurslaridan oqilona foydalanish, meva-sebzavot, go‘sht-sut mahsulotlarini etishtirishni kengaytirish va ularni saqlash, qayta ishlash	Turizm sohasida umum ovqatlanish tizimini takomillashtirish, sifatini yaxshilash
Aholi bandligini ta‘minlash, yangi ish joylari tashkil etish, xizmat sohalarini rivojlantirish, turmush darajasi va sifatini yanada oshirish	Xalqaro turizm bilan bir qatorda ichki turizmni yanada rivojlantirish, yangi ish joylarini tashkil etish, malakali kadrlar tayyorlash, aholini turizm xizmatlariga bo‘lgan talabini ondirish

2.1-chizma. Mintaqaviy turizmni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari

Manba: Muallif G.R.Xidirova tomonidan ishlab chiqilgan.

Yuqorida keltirilgan mintaqa va turizmni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlar bir-biriga juda o‘xshab ketadi, lekin ularning har birini bevosita manfaatlari borligini ham yodda tutish kerak. Asosiy yo‘nalishlarning borligini, avvalo, mintaqaviy resurslardan (tabiiy, iqtisodiy, mehnat, suv va yer, mahalliy homashyo) oqilona

foydalanish, raqobatbardoshlikni oshirish, yangi ish joylarini tashkil etish va malakali kadrlar tayyorlash, aholining talablarini qondirgan holda, ularning turmush sifatini yanada yuqoriga ko'tarishda ko'rishimiz mumkin.

O'zaro bog'liqlikni ikki taraflama ekanligini ta'kidlash lozim. Birinchidan, mintaqadagi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatni turizmga ta'siri; ikkinchidan, turizmni mintaqani barqaror rivojlanishiga ta'siri.

Bizning fikrimizcha, mintaqadagi ijtimoiy-iqtisodiy omilni turizmni rivojlanishiga ta'siri quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- mintaqadagi investitsion jozibadorlik, ya'ni investitsion faollik uchun yaratilgan qulay muhit;

- hududlar miqyosida turizmni boshqarish tarkibini shakllanganligi;

- o'rta va uzoq muddatli turizmni rivojlantirish strategiyasini mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy dasturlarida aks ettirish;

- turizm sub'ektlarini samarali faoliyat ko'rsatishi uchun mahalliy resurslardan (yer, suv, gaz, elektr energiyasi) foydalanishni me'yoriy-huquqiy hujjatlarini tayyorlash;

- mintaqaning turizm sohasidagi afzalliklarini keng targ'ibot qilish (ko'rgazmalar, yarmarkalar, forumlar va b.);

- turizm sohasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratish (ro'yxatga olish, hisobot, mahalliy soliqlar va b.).

Ilmiy nazariya va uslubiyot nuqtayi nazaridan turizmni mintaqa ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta'siri deyarli o'rganilmagan. Turizmni mamlakat va mintaqa iqtisodiyotidagi o'rni turlicha ko'rinishga ega bo'lib, ayrim sohalarga qo'shadigan hissasi yuqoriligi bilan ajralib turadi. Lekin ushbu holatni amalga oshirish, avvalo, iste'mol talablarini to'la qondirish, ya'ni o'ziga xos qadr-qimmatlar tizimini, turistik kompaniyalarning egalari, ularning mahsulotlarini iste'mol qiluvchi turistlar, mintaqada ularni qabul qiluvchi hodimlar shakllantirishi lozim.

2.3. Mintaqaviy turizmning ijtimoiy mazmuni va uning jamiyat shakllanishi hamda rivojlanishidagi o'рни


Turizmni rivojlantirish deyarli barcha iqtisodiy subyektlarga katta qulaylik olib keladi. O'z navbatida turistlar o'zlari xohlagan mahsulot va xizmatlarni oladilar, turistik kompaniyalar va tadbirkorlar yuqori ish haqi va foydaga ega bo'ladilar, mintaqada esa o'z byudjetini soliq tushumlari orqali to'ldiradi.

Mintaqada turizm taraqqiyoti avvalom bor mahsulot va xizmatlarga bo'lgan qo'shimcha talabni shakllanishiga olib keladi. Turizmning yana bir o'ziga xos xususiyati mintaqaga tashrif buyuruvchi turistlarda mahsulot va xizmatlarga bo'lgan iste'mol talabini uyg'otadi. Ushbu talabni qondirish mintaqada faoliyat olib borayotgan sanoat, qishloq xo'jaligi, transport va boshqa kompaniyalar tomonidan amalga oshirish mumkin. Bu o'z navbatida ishlab chiqarish va xizmatlarni oshishiga va qo'shimcha daromadlarni mintaqada shakllanishiga olib keladi.

Turistik faollik natijasida mahsulot va xizmatlarga paydo bo'ladigan talab ishlab chiqarishni tashkil etishni va mavjudlarining quvvatini oshirishni taqozo qiladi. Shu sababli turizm ma'lum darajada mintaqada real sektorni rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Iste'mol tovarlari ishlab chiqarishni tez sur'atlar bilan rivojlanishi uchun asosiy omil bo'lib mintaqada iste'mol tovarlari bozorini qondirish bilan bir qatorda tashqi talabni shakllanishi uchun ham xizmat qiladi.

Mintaqada turizmni rivojlanishi transport va aloqa xizmatlariga bo'lgan talabni oshishiga olib keladi. Ushbu holat milliy byudjetni ko'payishiga, aloqa va ishlab chiqarish infratuzilma obyektlarini yanada rivojlantirish uchun asos yaratadi.

Turizmni mintaqadagi muhim vazifalaridan biri sifatida xorij davlatlar valyutasi tushumini ko'paytirishdan iborat. Valyuta tushumlari turistik xizmatlar ko'rsatish va valyuta ayirboshlash orqali amalga oshiriladi. Turistlarni mehmonxona, restoran va transport xizmatlariga to'lanadigan pullari mintaqada iqtisodiyotini rivojlanishiga eng ko'p ta'sir ko'rsatadi. quyidagi 2.2-chizmada turizmni mintaqada turli tarmoqlariga ta'siri ko'rsatilgan.



2.2-chizma. Turizmni mintaq iqtisodiyoti tarmoqlariga ta'siri

Manba: Muallif G.R.xidirova tomonidan ishlab chiqilgan.

Turizmni mintaq iqtisodiyotiga ta'sirining samaradorligini alohida tarmoqlar (yo'nalishlar) bo'yicha tahlil qilish maqsadga muvofiq. Turizmning to'g'ridan to'g'ri iqtisodiy ta'siri ulardan olinadigan daromadlar turlari va samaradorligi bilan belgilanadi. Jumladan, xo'jalik subyektlari, aholi, mahalliy boshqaruv organlarini bevosita turistlardan oladigan daromadlari. Ularga turistik kompaniyalarning oladigan foydasi, uning asosida investitsion loyihalarni amalga oshirishni ko'rsatish mumkin. Bundan tashqari

turizmni to'g'ridan to'g'ri ta'siri davlat va mahalliy budjetlarga turli to'lovlar orqali kelib tushishi bilan belgilanadi. Turizm sohasidagi kompaniyalar va firmalar mintaqadagi bir qator tarmoqlarni o'z og'ushiga tortadi va rivojlanishlari uchun shart-sharoit yaratib beradi. Ular qatoriga transport va aloqa, umumiy ovqatlanish va savdo, bank va moliya tashkilotlari, madaniyat, sport va ko'ngilochar obyektlar kabilarni kiritish mumkin.

Turistlarni dam olish joylariga etib borishida, turli ekskursiyalar tashkil etishda, o'z turar joylariga jo'nab ketishlarida ko'rsatiladigan transport xizmatlari mintaqada transport infratuzilmasini rivojlantirish, rekonstruktsiya qilish va qayta ta'mirlash uchun turtki bo'ladi. O'z navbatida, transport xizmatlariga turistlar tomonidan ketadigan xarajatlar turistik yo'llanmalarning asosiy qismini tashkil qiladi.

Mamlakat va mintaqalardagi havo transporti, temir yo'llari va avtomobil yo'llarining sifatini xalqaro standartlar darajasiga etkazish turizm xizmatlari sifatini yanada yuqori darajaga erishishiga xizmat qiladi. Bundan tashqari transport infratuzilmasi obyektlarining (aeroport, avtovokzal va temir yo'l vokzallari, transport markazlari) faoliyatlarini talab darajasida amalga oshirilishi ham muhim bo'lib, umuman, mintaqada yagona transport tizimini shakllanishiga olib keladi.

Turistlarni joylashtirish sohasi, mexmonxonalar, dam olish uylari, turistik markazlar va boshqa ob'ektlardagi xizmat sifati va turlari mintaqada turizm bozorini qay darajada rivojlanganligini belgilab beradi. Ayniqsa, milliy qadriyatlar, urf-odatlar, mexmondo'stlik kabi tarixdan saqlanib kelayotgan udumlarni turistlarni qabul qilish va ularga xizmat ko'rsatishda qo'llash maqsadga muvofiq. Asosan, mintaqada turistik salohiyatni aniqlashda yashash joylarining ahvoli, ularning quvvati (joylar soni), foydalanish darajasi ko'rsatkichlaridan foydalaniladi. Dunyo va mamlakatimiz tajribasidan kelib chiqqanholda shuni aytish mumkinki, hozirda turistlarni joylashtirish infratuzilmasi turizm tizimining eng asosiy rivojlanish nuqtasi(markazi)ga aylangan. Ushbu tizim turizm daromadlarining asosini tashkil qiladi. Bu o'rinda xususiy firmalar, tashkilotlar, uy-xo'jaligini ham turistlarni joylashtirishdagi ahamiyati oshib borayotganini ta'kidlash lozim.

Mintaqaviy turizm bozorining muhim qismi bo'lib umumiy ovqatlanish va savdo tizimi xizmat qiladi. Ayniqsa, mahalliy taomlar,

ekologik toza sabzavot va mevalar, xalq xunarmandchilig mahsulotlari turistlarni talab va takliflarini inobatga olishda, mintaqa turizmini raqobatbardoshligini ta'minlashda va xalqaro darajada obro'sini yanada ko'tarishning muhim omiliga aylanishi mumkin. O'z navbatida, ushbu omil mintaqada iste'mol mahsulotlariga bo'lgan talabni oshishiga va ishlab chiqarishni yanada kengaytirish uchun turtki bo'ladi.

Turistlarning ovqatlanish va suvinerlar, xalq hunarmandchiligi va boshqa mahsulotlarni sotib olishga ketgan xarajatlari mintaqa uchun to'g'ridan to'g'ri tushadigan daromadlar qatoriga kiradi.

Mintaqada turistik xizmatlarning keng rivojlanayotgan turlaridan biri ko'ngilochar obyektlarni faoliyatini tashkil etishdan iborat. Bular turli ekskursiyalarni tashkil etish, madaniyat va sport sohalaridagi tadbirlar, milliy marosimlarda ishtirok etish va boshqa xizmatlarni o'z ichiga oladi.

Ko'ngilochar o'yinlar turi va sifatini oshishi o'z navbatida mintaqada pullik xizmatlar hajmini o'sishiga, investitsion faollikni kengayishiga, mahalliy aholini talab va ehtiyojlarini qondirishga olib keladi.

Mintaqada turizm xizmatlari sifati ko'p jihatdan bu yerda joylashgan bank, moliya, sug'urta kompaniyalari bilan bog'liq. Hozirda dunyo tajribasidan ma'lumki, turistlar yigirma xildan ortiq sug'urta xizmatlaridan foydalanadilar. Sug'urta xizmatlarini rivojlanganlik darajasi turistlarning xavfsizligini qay darajada ta'minlanganligini bildiradi. Xalqaro turizmni tashkillashtirishda deyarli barcha turistlar o'z sog'lig'ini himoyalash maqsadida sug'urta polislarini sotib oladilar.

Turistlar o'z safarlari davomida qo'shimcha xizmatlar turidan foydalanish, kerakli mahsulotlarni sotib olish uchun o'z pullarini sarflaydilar. Shu sababli mintaqada turizmni rivojlanishi bevositabank faoliyatini kengaytirishga, ular ko'rsatayotgan xizmatlar turini ko'paytirishga ta'sir ko'rsatadi. Hozirgi zamonda mintaqani imedji (obro'si) turistik ob'ektlarning mavjudligi bilan bir qatorda bank-moliya xizmatlarining qulayligi va sifati bilan belgilanadi. Shu sababli turizmni rivojlanishi bevosita mintaqada bozor infratuzilmasi obyektlarining shakllanayotgan talablarni va ularni sifatli qondirilishi, hududlar doirasida optimal joylashuvi asosida tashkil etish uchun imkoniyat ochib beradi.

Yana bir eng muhim turizm bilan bog'liq xizmatlar qatoriga informatsion-texnologiyalar salohiyatidan keng foydalanishni alohida ta'kidlash lozim. Ushbu xizmatlar turistlarga qulay sharoit yaratish bilan birga ularni xavfsizligini ta'minlash bilan bog'liq. Mintaqani u yerda joylashgan turistik obyektlar, aholisi va uning urf-odatlarini, mehmonxonalarning darajasi, ishlab chiqarish, ijtimoiy va bozor infratuzilmalarini rivojlanganligi va boshqa aniq ma'lumotlarni informatsion xizmatlar doirasida to'liq olish imkoni tug'iladi. Shuning uchun eng asosiy jarayon turistik yo'llanmaga buyurtma berish, mehmonxonalarga joyni bronlashtirish, samolyot va poyezdga chiptani olishda informatsion texnologiyalardan foydalanish oddiy holga aylanib bormoqda.

Informatsion texnologiyalar xizmat turlarini yanada kengaytirish ulardan olinayotgan daromadlarni oshishiga, mintaqada ushbu tarmog'ni taraqqiyotiga, barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashga o'z hissasini qo'shishiga olib keladi.

Turizmni bevosita mintaqaga rivojlanishiga ta'sirini, asosan, mahalliy budjetlar tushumini oshishi, eksport salohiyatini kengayishi, ekologiyani muvofiqlashtirishga, bandlik muammosini hal qilishga, ijtimoiy sohalarni taraqqiyotiga qo'shgan hissalari orqali aniqlash mumkin. Mintaqaga byudjeti ma'lum darajada turistlarga xizmat ko'rsatuvchi turistik kompaniyalar va firmalar, mehmonxonalar daromadlaridan tushadigan turli to'lovlar hisobiga to'ldiriladi. Jumladan, soliq to'lovi, bojxona to'lovi, ayrim yig'imlar.

Xorijiy mamlakatlarning turistlariga turizm xizmatlari bevosita mintaqalarda amalga oshirilishi, ya'ni ishlab chiqaruvchi bilan iste'molchi o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar natijasida valyuta tushumlari eksportni shakllanishiga olib keladi. Xalqaro turizm mintaqaga eksport salohiyatiga hissa qo'shgan holda kelajakda eksport xizmatlarini yanada kengaytirish uchun imkoniyatlar ochib beradi.

2.4. O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy hayotida mintaqaviy turizmning ahamiyati

O'zbekiston sharoitida mintaqada ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni hal qilishda, jumladan, aholi bandligini ta'minlashda turizm bozori katta ahamiyatga ega. Turizm mehnat ko'p talab qiladigan tarmoqlar safiga kiradi. Misol uchun, xorij tajribasidan ko'rinib turibdiki,


mehnatga layoqatli aholining 10 foizi atrofida bo'lgan qismi turizm tarmog'ida band. Ularning deyarli yarmi mexmonxonalarda mehnat faoliyatini olib boradilar. O'rtacha xalqaro turizm sohasida 7 ta turistga 1 ta turistik xodim xizmat ko'rsatadi.

Iqtisodiyotning boshqa tarmoqlariga (sanoat, qishloq xo'jaligi) nisbatan turizmda yangi texnologiyalar, informatsion dasturlarni qo'llash oqibatida keskin ravishda ishlovchilar soni kamayib ketmaydi. holbuki, turizm xizmatlarining sifati ko'p jihatdan xizmat ko'rsatayotganlarning soniga bog'liq. Shu sababli turizm boshqa ishlab chiqaruvchi tarmoqlarga nisbatan mehnat sig'imi yuqoriligi bilan ajralib turadi. Mintaqada turizmni rivojlantirishga qaratilgan investitsion faollik yangi ish joylarini tashkil etish uchun katta imkoniyatlar yaratadi.

Turizmni ekologiyaga, tashqi muhitni himoya qilishda bir qator ijobiy ta'sirlari mavjud. Ular quyidagilardan iborat:

- tarixiy-madaniy turizm obyektlarini rekonstruktsiya qilish, qayta ta'mirlash, ularni himoya qilish;
- tabiatni qo'riqlash faoliyatini rivojlantirish, tarixiy-madaniy yorgorliklarni saqlash maqsadida atrof-muhitni zararlantiruvchi sanoat korxonalarini joylashtirishni cheklash;
- yangi ilg'or innovatsion texnologiyalarga asoslangan ishlab chiqarish va transport infratuzilmalarini, xizmat sohalarini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash;
- quruqlikdagi tabiiy zonalar, milliy parklar, qo'riqxonalar, ochiq tabiat muzeylari tashkil qilish va rivojlantirish uchun imkoniyat yaratish.

Turizmning mintaqadagi ijtimoiy samaradorlikka bevosita ta'sirini alohida ko'rib chiqish maqsadga muvofiq. Bu yo'nalishda xorijda bir qator ilmiy ishlar chop etilishiga qaramasdan, turizmni ijtimoiy rivojlanishga va aholi turmush darajasiga ta'sirining ilmiy-nazariy asoslari hali to'liq shakllanmagan. Avvalo, mintaqaviy turizm bozorini ijtimoiy sohaga ta'sirining asosiy yo'nalishlarini aniqlab olish zarur (2.3-chizma).



2.3-chizma. Mintaqaviy turizm bozorining ijtimoiy samaradorlik yo'nalishlari

Manba: Muallif G.R.xidirova tomonidan ishlab chiqilgan.

Turizmning ijobiy ta'siri birinchi navbatda mintaqadagi milliy qadriyatlar va urf-odatlarini mustahkamlash va yanada rivojlantirishga olib keladi. Ushbu yo'nalish mintaqada o'ziga xos madaniy turistik brendni shakllanishi va turistlarni taklif qilishning muhim mexanizmi bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, turizm infratuzilmasini rivojlantirishda yangi kommunikatsiyalar, informatsion texnologiyalarni qo'llash aholining ijtimoiy qarashlarini va faoliyatlarini ijobiy tarafga o'zgarishiga olib keladi.

Mintaqada turizm sohasida mehnat qiladigan yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini rivojlantirish, yangi o'quv texnologiyalaridan foydalanish, jahon standartlari talabiga mos keladigan kadrlarni shakllantirish ta'lim tizimi uchun o'rnak bo'lishi mumkin. Bundan tashqari asosiy ijtimoiy muammo

bo'lgan aholi bandligini ta'minlashda ham turizm salohiyatidan samarali foydalangan holda yangi ish joylarini tashkil etilishi yirik ijtimoiy samara natijasi bo'lib xizmat qiladi.

Aholi bandligini ta'minlash o'z navbatida ularning daromadlarini ortishiga, bevosita turmush sifatining oshishiga olib keladi.

Ichki turizmni qo'llab-quvvatlash, aholining dam olishi uchun qulay sharoit yaratilishi, ularni salomatligini tiklash va mustahkamlashga muhim zamin yaratadi.

Jahon tajribasidan kelib chiqqan holda, turizm xizmatlarining asosiy iste'molchilari o'rta sinf vakillaridir. Ushbu omil mamlakatda va mintaqalarda o'rta sinfni shakllanishi uchun keng imkoniyatlar yaratib beradi. turizmni bevosita mintaqaviy tarmoq ekanligini e'tiborga olgan holda, uni hududlararo ijtimoiy tabaqalashuvga ta'sir qilib, aholi turmush darajasidagi farqlarni kamaytirish va yaqinlashtirish uchun o'zi imkon yaratadi.

Ijtimoiy soha to'g'risida gapirganda, turizmni ham ushbu sohaga talluqli ekanligini ta'kidlash lozim. Turizmning ahamiyati uning ijtimoiy sohadagi quyidagi faoliyatlari bilan belgilanadi:

- moddiy va nomoddiy boyliklarni iste'molchiga yetkazib berish;

- iste'mol jarayoniga xizmat qilish;

- aholi salomatligini ta'minlash;

- aholini ijtimoiy-madaniy darajasini shakllantirish va qo'llab-quvvatlash;

Turizm jamiyatda o'ziga xos ijtimoiy vazifalarni bajaradi. Ular aholini mehnatga layoqatini tiklash va rivojlantirish, bo'sh vaqtdan samarali foydalanish, aholi bandligini ta'minlash va daromadlarini oshirish, dam olish infratuzilmalarini rivojlantirishdan iborat.

Fikrimizcha, mintaqaviy turizm ijtimoiy yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Birinchidan, turizm inson manfaatlari uchun xizmat qilish; ikkinchidan esa, mikro- va makrodarajada daromadlar olishga mo'ljallangan, ya'ni ijtimoiy yo'naltirilgan va bozor mexanizmlarini qo'llashga qaratilgan desak to'g'ri bo'ladi.

Umuman, turizmni mintaqqa iqtisodiyoti, uning tarmoqlari va ijtimoiy sohaga ta'siri ko'p qirrali bo'lib, barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning muhim omili bo'lib xizmat qiladi. Turizmdan olinadigan daromad mintaqani rivojlanishi uchun qo'shimcha

rag‘batlantiruvchi kuch bo‘libgina qolmay, balki mavjud madaniy-tarixiy va tabiiy salohiyatni asrab qolishning zarur omilidir.

Turizmni mintaqa iqtisodiyotiga ta‘sirini umumiy kontsepsiyalar orqali aniqlash bilan bir qatorda uni miqdoriy aniqlash uslubiyoti va usullarini ishlab chiqish nazariya va amaliyot uchun dolzarbdir. Asosiy masala turizmning iqtisodiy samaradorligini aniqlashning aniq indikatorlari va ko‘rsatkichlarini ilmiy asoslashdan iborat. Iqtisodiy samaradorlik (bevosita va bilvosita) asosan turizmdan olinadigan umumiy daromadlar, uning yalpi hududiy mahsulotdagi ulushi va boshqa bir qator makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar orqali (eksport, xizmatlar hajmi, bandlik va b.) aniqlanishi mumkin. Lekin ushbu ko‘rsatkichlarni aniqlashda bir qator uslubiy muammolar mavjud bo‘lib, ular rasmiy statistikani takomillashtirish zaruriyati, yangi hisoblash uslublarini ishlab chiqish lozimligi, maxsus ijtimoiy tadqiqotlarni amalga oshirishni taqozo qiladi.

Xulosa shuki, turizmni mintaqa iqtisodiyotiga ta‘sirini o‘rganish va aniq xulosalar qilish hududlarni kompleks va mutanosib rivojlantirish, uzoq va o‘rta muddatda mavjud turistik salohiyatdan samarali foydalanish, eng asosiysi, aholi turmush darajasi va sifatini oshirish uchun asosiy omil bo‘ladi.

Tayanch iborolar va tushunchalar:

YUNESKO — Birlashgan Millatlar tashkilotining maorif, fan va madaniyat masalalari bilan shug‘ullanuvchi tashkiloti – xalqaro hukumatlararo tashkilot; BMTning ixtisoslashgan muassasasi. Davlatlar o‘rtasida maorif, fan, madaniyat va kommunikatsiyalar sohasida hamkorlikni rivojlantirish yo‘li bilan tinchlikka va xalqaro xavfsizlikka ko‘maklashish maqsadida 1946-yil tuzilgan. 188 mamlakat (shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasi 1993-yil 26-oktabrdan) a‘zo (2004). YUNESKO nizomiga ko‘ra, "... irqi, jinsi tili va dinidan qat’i nazar, barcha xalqlar uchun adolatga, qonuniylikka, inson huquqlari va asosiy erkinliklariga umumiy hurmatni ta‘minlash maqsadida ta‘lim, fan va madaniyatni rivojlantirish orqali xalqlar hamkorligiga" ko‘maklashish tashkilotning ustuvor vazifasidir. 400 ga yaqin xalqaro nohukumat tashkilotlar va jamg‘armalar, xalqaro va hududiy birlashmalar YUNESKO bilan hamkorlik qiladi. YUNESKO byudjeti a‘zo mamlakatlar badallaridan tashkil topadi.

Ijtimoiy-iqtisodiy resurslar – ko‘plab iqtisodiyot tarmoqlarini o‘z ichiga olgan, qurilishdan boshlab, transport xizmatigacha bo‘lgan faoliyatning ixtisoslashgan turi hisoblanadi. Shuning uchun turizm sohasidagi band ishchilar sonini baholashni qiyinlashtiradi. Undan tashqari turizm iqtisodiyotning ko‘plab tarmoqlari, qishloq xo‘jaligi korxonalari, transport vositalari ishlab chiqaruvchi zavodlar, mebel ishlab chiqaruvchi korxona va boshqalar bilan o‘zaro aloqada rivojlanadi. Bu resurs turida mehnat resurslari va sarmoya resurslari asosiy o‘rinni egallaydi.

Turistik axborot resurslari – Sayohat vaqtida yoki unga tayyorgarlik ko‘rishdaturistlar ehtiyojidan kelib chiqib, ularga beriladigan ma‘lum hudud, obyekt to‘g‘risidagi ma‘lumotlar majmuasi turistik axborot resurslari hisoblanadi.

Turizm bozori – Milliy va mintaqaviy turizm bozori, birinchidan, jamiyatda iqtisodiy munosabatlar tizimini xarakterlaydigan iqtisodiy kategoriya; ikkinchidan, o‘zaro ayirboshlash, ya‘ni turizm mahsulotini pulga va pulni turistik mahsulotga aylanishi; uchinchidan, sotuvchi va iste‘molchi o‘rtasidagi munosabatlarning iqtisodiy mexanizmi sifatida namoyon bo‘ladi.

Umuman mintaqaviy turizm bozori ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning ma‘lum bir qismi bo‘lib, turizm xizmatlariga bo‘lgan talab va taklif mexanizmidir.

Turistik mahsulot – turistning sayohati davomida foydalangan tunash, ovqatlanish, tomosha qilish va boshqa bir qancha xizmatlarning yig‘indisidir. Turizmda mahsulot 2 shaklda o‘rtaga chiqadi.

1. Biror davlatda mavjud bo‘lgan barcha tabiiy, tarixiy-madaniy va turistik resurslarni tashkil qilgan turizm mahsuloti.

2. Iste‘molchilarning joy o‘zgartirishlariga va sayohat qilishlariga imkon beruvchi barcha xizmatlar, ya‘ni bir pekij - tur hosil qilgan turistik xizmatlarning yig‘indisi.

Turistik xizmatlar – turist va ekskursant ehtiyojlarini qondirish va ta‘minlashga qaratilgan, xizmat sohasidagi bir maqsadga yo‘naltirilgan harakatlar to‘plami bo‘lib, ular turizm maqsadlariga, xarakteriga va turistik xizmatning qanday yo‘naltirilganligiga javob berishi hamda umuminsoniy tamoyillarga qarshi bo‘lmasligi kerak. Davlat standarti ta‘rifiga ko‘ra, turistik xizmatlar – turistlarning

ehtiyojlarini qondirish faoliyati bilan shug'ullanuvchi turizm tashkilotlarining faoliyati mahsulidir.

Umumiy xizmatlar—bu ko‘zga ko‘rinmas tovarning o‘ziga xos turi. Xizmat bevosita iste'mol jarayonida yuzaga keladi va alohida holda bo‘lmaydi. Bu xizmatning tovar bilan asosiy farqidir. Bundan tashqari, tovar iste'molchiga olib kelib beriladi, turistik xizmatda esa iste'molchi bevosita xizmatning paydo bo‘ladigan yeriga olib boriladi. Shuning uchun ham turistik xizmatlarni ishlab chiqarish va sotish moddiy tovarlarni sotishga aloqador bo‘lgan qonunlar asosida emas, balki boshqa qonunlar majmui bilan boshqariladi.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. Mintaqaviy turizm resurslarning ijtimoiy mazmunini tushuntiring.
2. Mintaqaviy turizmning jamiyatlardagi o‘rni nimada?
3. Mintaqaviy turizmning iqtisodiy mazmuni tushuntiring.
4. Mintaqaviy turizmning iqtisodiyotdagi ahamiyati nimalardan iborat?
5. O‘zbekistonning ijtimoiy – iqtisodiy hayotida mintaqaviy turizmning ahamiyati nimalardan iborat?

3-BOB. MINTAQALARNING TURISTIK RESURLARI

TASNIFI

3.1. Turistik resurslar tushunchasining ta'rifi va mohiyati

Hozirda turizm sohasini mintaqalar iqtisodiyotidagi o'rni juda past bo'lib, tarqoq holda shakllanishi, eksport va aholi turmush darajasiga qo'shadigan hissasini kamligi bilan xarakterlanadi. Eng asosiysi, mintaqaviy turizm yangi ish joylarini yaratish va aholi daromadlarini oshirishning muhim omili bo'lib xizmat qilishi kerak. Shu sababli mintaqaviy turizm bozorini iqtisodiyot bilan bog'langan holda shakllantirish, uning raqobatbardoshligini oshirish va barqaror rivojlantirish uchun mavjud salohiyatdan samarali foydalanish ustuvor vazifalar qatoriga kiradi.

Hozirda mintaqada turizmni rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari va qonuniyatlarini o'rganish, mavjud muammolarni ijtimoiy-iqtisodiy sharoit bilan uzviy bog'liq holda xal qilishning nazariy, uslubiy va amaliy yondashuvlarini ishlab chiqish, bu borada jahon amaliyotidagi ilg'or tajribalardan, usul va vositalardan unumli foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Turizm jamiyatda o'ziga xos ijtimoiy vazifalarni bajaradi. Ular aholini mehnatga layoqatini tiklash va rivojlantirish, bo'sh vaqtdan samarali foydalanish, aholi bandligini ta'minlash va daromadlarini oshirish, dam olish infratuzilmalarini rivojlantirishdan iborat.

Mintaqaviy turizm – ma'lum hududga qaratilgan, ijtimoiy yo'naltirilgan yani inson manfaatlari uchun xizmat qiladigan hamda mikro- va makro darajada daromadlar olishga mo'ljallangan faoliyatdir.

Umuman, ma'lum hududga bag'ishlangan ijtimoiy harakat yo'nalishi. Bu tizimli bo'lishi shart (klaster). Mintaqaviy turizm mintaqalarda o'tkaziladigan tuy, marosim, festevallar, sayillarning turistik ahamiyati va ulardan foydalanish.


Hozirgi vaqtda ko'pgina tarmoqlar kabi turizm industriyasi ham tez rivojlanib bormoqda. Turistik biznesni mavjud kapital, texnologiya, hamda malakali ishchi-xodimlar orqaligina shakllantirib bo'lmaydi. Buning uchun birinchi navbatda turistik resurslarga ega bo'lish lozim.

Mutaxassislar turistik resurslarga quyidagicha ta'rif berishgan: turistik resurslar – tabiiy, tarixiy, ijtimoiy-madaniy va boshqa turistlarni sayohatga qiziqtiradigan, insonning jismoniy, ruhiy va aqliy

kuchini tiklashi va rivojlanishi ehtiyojlarini qondirishga qodir ob'ektlarga aytiladi.

Rekreatsiya faoliyati nuqtai nazardan turistik resurslarga tabiiy va antropogen geosistemalar kiradi, tabiat manzaralari, rekreatsiya faoliyati ehtiyoji qiymatiga va maishiy xususiyatga ega, insonlarni ko'rsatilgan vaqtda ma'lum texnologiyalar yordamida sog'ligini tiklash va dam olishida foydalanish mumkin bo'lgan, rekreasiya faoliyati qobiliyatiga ega resurslar kiradi.

Turistik resurslarning mohiyati shundan iboratki, ular turistik mahsulot shakllanishiga asos hisoblanadi. Umumiy qilib aytganda, aniq hududda turistik faoliyatda foydalanish mumkin bo'lgan barcha obyektlar kiradi. Turizmni rekreatsiyaning ko'rinishi sifatida olsak, «turistik resurslar» tushunchasi «rekreatsiya resurslari» bilan birgalikda uyg'unlashadi. Turistik resurslarning asosini rekreatsiya resurslari tashkil etadi. Rekreatsiya resurslari – turli komponentlar birikmasidan iborat, insonning dam olishi vadavolanishi ehtiyojlarini qondirishda xizmat qiladigan vositalardir. Kelib chiqishi va foydalanish xususiyatlariga ko'ra rekreatsion resurslar ikki guruhga ajratiladi: **tabiiy** va **antropogen** rekreatsion resurslar (3.1-chizma).



3.1-chizma. Rekreatsion resurslar tasnifi

Tabiiy rekreatsion resurslarga, hududiy tabiiy komponentlar birikmasidan iborat, go'zal tabiat go'sha(landshaft)lari kiradi. Ular daryo, ko'l, dengiz bo'ylari, tog'etaklaridagi o'simlik dunyosi, xilmaxil manzarali joylar, mineral suvli shifobaxshmaskanlar bo'lishi mumkin. Undan tashqari aholining dam olishi, sport bilanshug'ullanishi, ov qilishi imkoniyatlari uchun keng hududlar, shahar atrofidagi yashilmintaqalar, park va bog'lar yoki qo'riqxonalar hamda milliy bog'lar ham tabiiy rekreatsiya resurslaridir.

Turli davrlarda inson aql-zakovati bilan yaratilgan tarixiy, arxeologik va san'atobidalari, yodgorliklar, muzeylar hamda rekreatsiya maqsadida foydalanish mumkin bo'lgan ijtimoiy obyektlar, antropogen rekreatsiya resurslariga kiradi. Undan tashqari, rekreatsion resurslarni qo'yidagi asosiy belgilariga ko'ra ajratish mumkin:

- landshaft – iqlimiy xususiyati;
- tabiiy resurslar potentsial zahirasi;
- jozibadorlik va sayyohlik ahamiyati;
- qo'laylik va foydalanish imkoniyati;
- manzara va ekologik xususiyati;
- ijtimoiy – demografik xususiyati.

V.S.Bogolyubov va V.P.Orlovskayalar¹ (Ekonomika turizma. M.2005,151b.) turistik resurslarda alohida ajralib turuvchi qo'yidagi asosiy belgilarni ajratishgan:

- Qulaylik (jozibadorlik);
- Iqlimiy sharoit;
- O'rganganlik darajasi;
- Sayyohlik ahamiyati;
- Manzara va ekologik xususiyatlari;
- Ijtimoiy-demografik xususiyatlari;
- Potentsial zahirasi;
- Foydalanish imkoniyati va boshqalar

Turistik resurslarni foydalanish xususiyatiga ko'ra bevosita va bilvosita turlarga bo'linadi. Bevosita turdagi resurslarga turistlarni o'zlari to'g'ridan-to'g'ri foydalanidigan tabiiy va tarixiy-madaniy resurslar kiradi. Bilvosita turdagi resurslarga bevosita turistik

¹ Bogolyubov V.S., Orlovskaya V.P. Ekonomika turizma. M.:2005. – 151 b.

resurslardan foydalanish asos bo'ladigan ijtimoiy-iqtisodiy resurslar – moddiy, moliyaviy, mehnat, axborot beruvchi resurslar kiradi.

3.2. Turistik resurslar tasnifiga yondashuvlar

Turistik resurslar tasnifiga bir qancha yondashuvlar mavjud. Ulardan polyak iqtisodchisi M.Truasi (1963-y.) va fransuz iqtisodchisi P.Defert¹ taklif qilgan tasnif ancha takomillashgan. M.Truasi turistik resurslarni uch guruhini ajratadi:

1. Tabiiy turistik resurslar, «turistik kapital potentsiali» sifatida unga iqlim, havo, manzara, dengiz, ko'l, daryolar, tog'lar, o'rmon va boshqalar kiradi. Boshqacha qilib aytganda, bu resurslarni tabiiy-iqlimiy resurslar deb atash mumkin.

2. Inson tomonidan yaratilgan turistik resurslar, ya'ni arxitektura binolari, yodgorliklar, madaniy obyektlar va boshqalar. Bular ekskursiya obyektlari hisoblanadi.

3. «Qo'shimcha» turistik resurslar, inson mehnati tomonidan yaratilgan ma'lummintaqadagi barcha turistlarni qabul qiluvchi va xizmat ko'rsatuvchi korxonalar hisoblanadi. Bu resurslar orqali turistlarga xizmat ko'rsatish darajasini baholash mumkin.

Lekin, rossiyalik mutaxassislar M.E.Nemolyayeva va L.F.Xodorkov qabul qiluvchi va xizmat ko'rsatuvchi korxonalari turistik resurslarga qo'shish mumkinemas deb hisoblashadi. Chunki, bu korxonalar mavjud turistik resurslardan foydalangan holda ish yuritadilar, aks holda bir butun turistik sayohatni qamrab olgan holda xizmat ko'rsata olmaydilar.

P. Defert barcha turistik resurslarni 4 ta guruhga ajratadi: ***gidrom, fitom, litom*** va ***antropom***.

Gidrom – bunga suv bilan bog'liq turistik resurslar kiradi. Bu guruh tarkibiga ko'l, daryolar, dengiz bo'yi, muzliklar, mineral suv manbalari, gidroelektr stansiyalar, sharsharalar va boshqalar kiradi. Misol uchun, mashhur Niagara sharsharasi, Amazonka daryosi, Ispaniyadagi dengiz bo'yi plyajlarini kiritish mumkin.

Fitom – tabiiy turistik resurslar, buning tarkibi ikki turda bo'lishi mumkin: tabiiy ravishda yaratilgan (o'rmon, tog'lar, cho'qqilar,

¹ Defert Pierre. La localisation touristique. Problèmes théoriques et pratiques Berne, Edit. Gurten – 143 p.

vo‘lqonlar, tabiiy manzaralar) va inson tomonidan yaratilgan (milliy bog‘lar, parklar).

Litom – inson tomonidan yaratilgan va o‘zi yoki belgilariga ko‘ra turistlarqiziqishini orttiradigan resurslar bo‘lib, uning tarkibiga arxitektura yodgorliklar, qadimgi insonlar yashash joylari, ochiq osmondagi muzeylar kiradi. Undan tashqarilitomlarga zamonaviy qurilmalar: ko‘priklar, aeroportlar, sport majmualari, universitetlar, akvariumlar, observatoriyalar va boshqalar kiradi.

Antropom – turistik qiziqishni orttiradigan barcha inson faoliyati ko‘rinishlarini kiritish mumkin. Antropom unsurlariga insonning o‘zi, uning hayoti, urf-odatlari, yuqolgan yoki yuqolish arafasida turgan, ya’ni milliy xalq bayramlari, folklor, milliy musiqa va kiyimlarni kiritish mumkin. Undan tashqari antropomga sanoat va qishloq xo‘jaligi korxonalari, o‘quv dargohlari va ijtimoiy – maishiy obyektlarni ham kiritish mumkin. Misol uchun Rio-de-Janeyrodagi mashhur karnaval, Fransiyaning Shampän provinsiyasidagi mashhur uzumzorlar va vino ishlab chiqarishni ko‘rsatish mumkin. P. Defert tasnifini xususiyati shundaki, unda ayrim turistik resurslar bir nechaguruhda birdaniga uchratish mumkin. Rossiyalik mutaxassis T.T. Xristov turistik resurslarni 5 ta asosiy turlarini ajratgan.

Ularga tabiiy – rekreasialiy, ekskursialiy, iqtisodiy, infrastruktura va axborotberuvchi resurslarni kiritgan. Bu resurslarni o‘zi yana bir qancha guruhlariga bo‘lingan. Masalan, ekskursialiy resurslar qo‘yidagi guruhlariga bo‘lingan: madaniy-tarixiy meros, ijtimoiy, ijtimoiy-madaniy va etnografik resurslar. Bu turistik resurslar tanishuv turizmida keng qo‘llaniladi. Bunda madaniy-tarixiy resurslarga guruhiga yodgorliklar, turli tarixiy arxitektura obidalar kirsa, ijtimoiy resurslarga guruhiga diniy bayram, marosimlar, insonlarning turli an‘ana va rusumlari kiradi. Ijtimoiy – madaniy resurslar negizini turli muzeylar, yarmarkalar tashkil etadi.

Infratuzilma resurs sifatida qo‘yidagi guruhlarini o‘z ichiga oladi: transport ta‘minoti, joylashtirish tizimi, ovqatlantirish tizimi, suvener mahsulotlari ishlab chiqarish tizimi. Hozirgi kunda turizm rivojlanishini turizm infratuzilmasining jadallashuvisiz ko‘rish mumkin emas. Chunki mavjud turistik resurslardan samaralifoydalanishda bu resurslarning o‘rni benihoya katta. Yana bir rus olimi A.D Chudnovskiy turistik resurslarni tabiiy-hududiy turistik muassasalar asosida ularni *tabiiy – quruqlik* va *tabiiy – suvlik*

resurslariga, ularni, o'z navbatida, **tabiiy** (qo'riqxonalar, daryo vodiylari va b.) **tabiiy** – **antropogen** (bog'lar, milliy bog'lar va b.) va **noyob** resurslarga bo'lgan¹. Turistik resurslar turli turistik dasturlar va marshrutlar yaratishga asos hisoblanadi. Ana shu nuqtai – nazardan sayohatchilar maqsadiga ko'ra olim, resurslarni shartli ravishda 4 ta guruhga bo'lishni taklif etgan:

1. Kurortli;
2. Rekreatsiya;
3. Diniy – madaniy;
4. Axborot – ish yuzasidan.

Umuman olganda, turistik resurslarga turlicha qarashlar mavjud. Shuni ta'kidlash lozimki, turizm maqsadida turistik resurslardan to'g'ridan to'g'ri foydalanib bo'lmaydi. Buning uchun ko'pgina qo'shimcha xizmatlar, ya'ni joylashtirish, ovqatlantirish, sayohat va transport xizmatini tashkillashtirish kabi xizmatlardan foydalanish orqaligina turistik resurslardan turizm faoliyatida qo'llash mumkin.

3.3. Ijtimoiy-iqtisodiy turistik resurslar. Sarmoya resurslari, turistik axborot resurslari

Turistik resurslar ichida jahon ahamiyatidagi madaniy obyekt va yodgorliklar asosiy o'rinda turadi. «Madaniy meros» deyilganda qo'yidagilar tushiniladi:

– *Yodgorliklar*: arxitektura binolari, arxologik ahamiyatidagi joylar, ilmiy, madaniy va tarixiy ahamiyatga ega g'orlar, yozuvlar;

– *Ansanbillar*: ilmiy, madaniy yoki tarixiy ahamiyatga ega o'zaro bog'langan binolar guruhi. Masalan, Registon ansambili;

– *Mehmondo'stlik joylari*: inson yoki tabiat tomonidan yaratilgan estetik, etnografik, tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan, o'ziga jalb qiluvchi o'ziga xos joylar.

Butunjahon madaniy merosi ro'yxatiga kiritiladigan obyektlarning qo'yidagi xususiyatlari hisobga olinadi:

– Inson ijodining noyob namunalari;

¹Чудновский А.Д. Управление индустрией туризма России в современных условиях. М.: КНОРУС, 2007.

- Ajoyib madaniy, arxitektura obyektlari, hamda madaniy landshaftlarining alohida ahamiyatga ega hududlari;
- Zamonaviy sivilizatsiyaning noyob namunalari, qurilishlari;
- Inson tarixi bilan bog‘liq binolar yoki arxitektura ansambillari, landshaftlari.

Tabiatning noyob ko‘rinishlarini butunjahon ro‘yxatiga kiritiladigan xususiyatlari qo‘yidagilardan iborat:

- Yer taraqqiyotida geologik-geomorfologik jarayonlar asosida shakllangan yodgorliklar;
- Turli-tuman o‘ziga hos ekosistemalar, landshaftlar;
- Ma’lum mintaqaning o‘ziga xos o‘simlik va hayvonlari;
- Kamyob biologik turlari.

Madaniy-tarixiy resurslarga moddiy va madaniy turli yodgorliklari majmuasi, ma’lum mintaqaning turistik qiziqish obyektlari hisoblanadi. Mintaqalarning arxitektura yodgorliklariga boyligi turizmni rivojlanishiga turtki bo‘ladi. Ammo oxirgi paytlarda turistik oqimning oshishi ayrim muammolarni ham keltirib chiqarmoqda.

Bu resurslardan turizm maqsadida saqlashni quyidagicha amalga oshirish taklifqilinadi:

- mavjud tarixiy joylar, binolar va yodgorliklarni turistik qiziqish obyektlarisifatida qayta tiklash;
- tabiiy resurslarni muhofaza qilishni faollashtirish;
- turistik ehtiyojni qondirish maqsadida atrof-muhit saqlash va yaxshilashdaboshqaruv organlari ma’suliyatini oshirish.

Mavjud resurslardan turizm faoliyatida intensiv foydalanish, ya’ni antropogen yukning oshib borishi natijasida tabiiy turistik resurslarning ifloslanishiga, tarixiy obidalarining tez buzilishiga olib keladi. Turizmga oid Gaaga deklarasiyasida qo‘yidagi takliflar bildirilgan:

- Turistlarni mamlakat ichkarisida yoki chet elda borgan joylarida madaniy merosva atrof-muhitni saqlashga, ularga nisbatan hurmatda bo‘lishga o‘rgatish,
- hamda targ‘ib qilish;

- Joylarda turistlarni qabul qilish darajasini aniqlash, me’yordan ortishiga yo‘lqo‘ymaslik lozim deb ta’kidlanadi.

Ijtimoiy- iqtisodiy resurslar. Turizm – ko‘plab iqtisodiyot tarmoqlarini o‘z

ichiga olgan, qurilishdan boshlab, transport xizmatigacha bo'lgan faoliyatning ixtisoslashgan turi hisoblanadi. Shuning uchun turizm sohasidagi band ishchilar sonini baholashni qiyinlashtiradi. Undan tashqari turizm iqtisodiyotning ko'plab tarmoqlari, qishloq xo'jaligi korxonalari, transport vositalari ishlab chiqaruvchi zavodlar, mebel ishlab chiqaruvchi korxona va boshqalar bilan o'zaro aloqada rivojlanadi. Bu resurs turida mehnat resurslari va sarmoya resurslari asosiy o'rinni egallaydi.

Mehnat resurslari. Turistik mahsulot ishlab chiqarish jarayonida insonlarning jismoniy va aqliy mehnati ishlatiladi. Bunda insonlarni sog'ligi va jismoniy kuchi, ma'lumoti hamda malakasi darajasi asosiy o'rinni egallaydi. Mehnat resurslarining miqdori, malakasi iqtisodiy omil sifatida katta ahamiyatga ega.

Turizm jahon xo'jaligining mehnat resurslarining ko'p talab qiluvchi tarmoqlaridan hisoblanadi. Turizm sohasidagi band ishchi kuchining o'ziga xos xususiyati shundaki, 80% mehnat resurslari malakasiz hisoblanadi. Ularning yarmidan ortig'i ayollarni tashkil qiladi. Undan tashqari, turizm industriyasida yoshlar va chet el ishchi kuchidan keng foydalaniladi. Misol uchun Yevropa ittifoqi mamlakatlarida har bir uchinchi 16 yoshdan 21 yoshgacha bo'lgan o'smir turizmning xizmat ko'rsatish sohasidagi ishlaydi.

Butunjahon mehnat tashkiloti turizmda bandlikni 3 ta asosiy shakllarga bo'ladi:

1. Mavsumiy ish, bunda, asosan, sayyohlik mavsumida turistlar soni bir necha barobarga oshib ketadi, shunda qo'shimcha ishchi kuchiga talab oshadi.

2. To'liqsiz ish kuni, bu asosan rivojlangan mamlakatlarning mehmonxona varestoran xo'jaligidagi band ishchi kuchlari kiradi. Turli mamlakatlarda to'liqsiz ish kuni bilan ishlayotganlar butun mehmonxona biznesida band ishchi kuchlarining 12% dan 52% gacha tashkil etadi.

3. Vaqtinchalik ish bilan bandlik (dam olish kunlari, ko'rgazmalar tashkil etish).

Sarmoya resurslari. Ishlab chiqarishning birinchi omillari yer va mehnat bo'lsa, ularni sarmoyalar asosida mehnat kuchi yordamida amalga oshiriladi.

Sarmoya elementlari tasnifi mutaxassislar tomonidan quyidagicha belgilangan:

- asosiy binolar: otellar, bar, restoran, klub va boshqa.
- yordamchi binolar: garaj, isitish sistemasi va boshqa.
- inshoot va qo‘rilmalar: yo‘llar, turistik poyezdlar, sport maydonlari va boshqa.
- o‘tkazgich qo‘rilmalari: electron o‘tkazgichlar, quvurlar va boshqa.

– mashina va jihozlar: transformator, kompyuter va boshqa.

– transport vositalari: yengil avtomobil, avtobus va boshqa.

Turizm salmog‘ining yuqoriligi iqtisodiy tomondan daromatining oshishiga, yangi ish o‘rinlarini yaratilishiga hamda kichik biznesni rivojlanishiga turtki bo‘ladi. Turistik mamlakatlarda 50 foizdan ortiq mehnatga yaroqli aholi turizm sohasi bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri yoki bilvosita bog‘langan. Agarda ularda turistlar kelishi qaysidirsababga ko‘ra kamaysa, ishsizlar soni ortib boradi. Lekin yirik industrial mamlakatlarda turizm sohasida band aholi 5 foizdan ortmaydi, ammo turizmning dunyo bo‘yicha rivojlanishi tufayli bu mamlakatlarda ham turizm sohasidagi band mehnat resurslarini salmog‘i ortib boradi.

Turizm sohasida miqdor jihatdan tahlil qilishdan tashqari, bandlikning sifat jihatdan tahlili ham mavjud. Ma’lumki turizm asosan past malakali ishchilar, ya’ni xizmatchilar, yuk tashuvchilar, ofisiantlar ishlashadi. Bular bilan yuqori malakali gid-tarjimon, bosh oshpaz, menejerlar ham ishlashadi. Albatta bu sohani ham yuqori malakali mutaxassislar bilan ta’minlash kata ahamiyatga ega. Turizm band ishchilarning jinsiy tahlili ham ahamiyatga ega bo‘lib, mehmonxona xo‘jalidigida ayolishchilarning ulushi 50 foizdan ortiq.

Turistik axborot resurslari. Sayohat vaqtida yoki unga tayyorgarlik ko‘rishda turistlar ehtiyojidan kelib chiqib, ularga beriladigan ma’lum hudud, obyekt to‘g‘risidagi ma’lumotlar majmuasi turistik axborot resurslari hisoblanadi.

Mutaxassislar turistik axborot resurslariga turistik marshrutda joylashgan hamdatarixiy, ilmiy ahamiyatga ega obyektlar bo‘yicha ma’lumotlarni kiritishadi. Undan tashqari turizm ahamiyatiga ega shaharlar, qishloqlar, tabiat manzaralari ulargabog‘liq afsona va qissalar, har xil adabiyotlar, xaritalar, tasviriy albomlar, rasmlar, audio-video mahsulotlarni ham kiritishadi. Ko‘pgina shaharlarda

turistik axborot beruvchi markazlar ishlab turibdi, ular iste'molchilarga barcha ma'lumotlarni yetkazib berishadi.

Zero, hozirgi kunda turistlar uchun axborot asosiy o'rinni egallaydi. Chunki turist borayotgan joyi haqida qancha ko'p bilsa, sayohatini samarali o'tkazadi. Albatta har qanday turist ma'lum vaqt oralig'ida iloji boricha ko'proq joylarga borishga harakat qiladi. Buning uchun u albatta ma'lumotlarga yetarli darajada ega bo'lishi kerak.

Axborot beruvchi resurslarga internet tarmog'i, adabiy va tasviriy nashrlarhamda xalq etnoslari, afsonalari ham kiradi. Axborot tashuvchilar moddiy obyektlar – inson va ijodlari, nomoddiy obyektlar – turli axborot manbalari hisoblanadi. Diniyturizmدا moddiy obyektlar bo'lib, monax va dindorlar, ekskursiya olib boruvchilar hamda diniy markaz va shaharlarning fotosi, kartasi, sxemalari hisoblanadi.

3.4. Tabiiy va infrastrukturali turistik resurslar

Turistik resurslarni foydalanish xususiyatiga ko'ra **bevosita** va **bilvosita** turlarga bo'linadi. Bevosita turdagi resurslarga turistlarni o'zlari to'g'ridan – to'g'ri foydalanidigan tabiiy va tarixiy-madaniy resurslar kiradi. Bilvosita turdagi resurslarga bevosita turistik resurslardan foydalanish asos bo'ladigan ijtimoiy – iqtisodiy resurslar – moddiy, moliyaviy, mehnat, axborot beruvchi resurslar kiradi. V.S. Bogolyubov va V.P. Orlovskayalar ¹ turistik resurslarda alohida ajralib turuvchi qo'yidagi asosiy belgilarni ajratishgan:

- Qo'laylik (jozibadorlik);
- Iqlimiy sharoit;
- O'rganganlik darajasi;
- Sayyohlik ahamiyati;
- Manzara va ekologik xususiyatlari;
- Ijtimoiy-demografik xususiyatlari;
- Potensial zahirasi;
- Foydalanish imkoniyati va h.

¹Ekonomika turizma. –M.2005.– 151 c.

Turistik resurslardan sogʻlomlashtirish, turistik, sport va tanishuv maqsadida foydalaniladi. Undan tashqari turistik resurslarni shartli ravishda ikki guruhga boʻlish mumkin: **tabiiy va infrastrukturali**. Turistik biznesni rivojlanishida yuqoridagi ikki guruhni ham ahamiyati yuqori. Har qanday yuqori turistik resurs potensialidan, kommunikasiya, aloqa vositalari, xizmat koʻrsatish sohalarisiz foydalanib boʻlmaydi. Umuman olganda, butun turistik resurslar majmuasini tabiiy-iqlimiy, madaniy-tarixiy, ijtimoiy-iqtisodiy, axborot beruvchi resurslarga boʻlish mumkin.

Tabiiy-iqlimiy turistik resurslar. Tabiiy-iqlimiy turistik resurslarni asosiy ahamiyati shundan iboratki, insonlarning jismoniy va ruhiy qobiliyatlarini tiklashda foydalanish vositalari boʻlib xizmat qiladi. Turistlar asosiy ehtiyojlarini tabiatan qondiradilar. Turistik faoliyatni tashkillashtirishda landshaftlar, iqlim, suv obyektlari, dengizlar, mineral suv va davolovchi botqoqlar asosiy resurs vazifasini bajaradi. Buresurslar oʻzi yoki inson tomonidan qayta tiklanishi mumkin. Bu resurslarnigeografik, biologik, geologik va boshqa jihatlariga koʻra baholash mumkin. Damolishni tashkil etish uchun tabiiy turistik resurslarni tahlil etishni talab qiladi. Tabiiyresurslar sifatida alohida tabiat komponentlari yoki bir butun tabiat kompelkslarini olish mumkin. Barcha tabiiy resurslarni rekreatsiya yoki turistik potensial nuqtayi nazardan qarash lozim. Ammo tabiiy resurslardan foydalanish darajasi mintaqa ixtisoslashuviga koʻra har xil boʻlishi mumkin.

Tabiiy turistik resurslarning tasnifi mavjud boʻlib, u ikkiyoqlama xususiyatga ega, bir tomondan, tabiiy kelib chiqishi bilan bogʻliq, ikkinchi tomondan, turizm uchun iqtisodiy ahamiyati tomonidan aks etishidir. Tabiiy resurslar qoʻyidagichaguruhlanadi:

1. Kelib chiqishiga koʻra:

- tabiiy - (geologik, iqlimiy, gidrologik, termal suvlar);
- biologik – tirik tabiat (tuproq resurslari, flora, fauna);
- axborot beruvchi - tabiatdan oʻziga xos maydon va landshaft sifatida foydalanish boʻlib, bu resurslar madaniy, ziyoratli kabi turizm turlarini rivojlantirishga asos boʻlib xizmat qiladi.

2. Rekreatsiya sifatida foydalanish turiga koʻra:

- mineral suvlar;
- botqoqlar;
- tuzlar;

- o‘rmonlar.

3. Resurslarning tugashi darajasiga ko‘ra:

- tugaydigan tabiiy resurslar, ular o‘z navbatida yangilanib turadigan (chuchuk suv, o‘simlik va hayvonot dunyosi) va yangilanmaydigan (minerallar) turlarga bo‘linadi.
- tugamaydigan tabiiy resurslar, ularga quyosh energiyasi, shamol, dengiz to‘lqinlari, suvlar kiradi.

4. O‘zi qayta tiklanishi va o‘sishi imkoniyatiga ko‘ra:

- qayta tiklanadigan resurslar, bunga o‘rmonlarni misol keltirish mumkin, o‘rtacha 50 yilda qayta tiklanadi.
- qayta tiklanmaydigan resurslar.

Tabiiy turistik resurslar orasida asosiy o‘rinni rekreatsiya resurslari egallaydi, ular mamlakat aholisini, hamda turistlarni dam olishi va davolanishi uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Bunda **noyob tabiat yodgorliklari** asosiy turistik obyektlar hisoblanadi. Noyob tabiat yodgorliklari, bu – muhofaza qilinadigan obyekt turlaridan hisoblanadi. Ayrim hollarda tabiiy obyektlarni muhofaza qilish uchun katta maydonlarni ishg‘ol qilinadigan qo‘riqxonalar tashkil qilish maqsadga muvofiq bo‘lmaydi. Shuning uchun kichikroq maydonlardagi tabiiy obyektlar «tabiat yodgorliklari» deb e‘lon qilinadi va muhofaza ostiga olinadi. «Tabiat yodgorliklari» terminini dastlab A. Gumbolt taklif qilgan. O‘tgan asrimizning boshlaridayoq Yevropada tabiat yodgorliklarini muhofaza qilish boshlangan edi.

Tabiat yodgorliklari tabiatning o‘zgarishi va unda sodir bo‘layotgan jarayonlar haqida ma‘lum darajada aniq guvohlik beradi. Tabiat yodgorliklari ilmiy- tarixiy va madaniy-estetik ahamiyatga ega.

Umumiy xarakteriga ko‘ra, tabiat yodgorliklari **geologik-geomorfologik, botanik, paleontologik, astronomik va landshaft yodgorliklariga** bo‘linadi.

Geologik-geomorfologik yodgorliklarga nodir geologik tog‘ jinslari, karst

voronkalari, relyef shakllari, g‘orlar, issiq suvli mineral buloqlar kiradi. Mamlakatimizdagi Kilsa (Qirqtog‘da), Qorlug‘ (Ko‘hitang tog‘ida), Hazratidovut (Zirabuloq tog‘ida), Amir Temur g‘orlari, Zarafshon tizmasidagi karstlarni misol keltirish mumkin.

Botanik yodgorliklarga yuz yillik daraxtlar, yo‘qolib ketayotgan relic to‘simliklar kiradi. Bu yodgorliklarga Surxondaryo viloyatidagi, Urgut tumanidagi ming yillik chinorlarni kiritish mumkin.

Peleontologik yodgorliklarga toshga aylangan organizm va qirilib ketgan hayvonlarning izlar qolgan joylar kiradi.

Landshaft yodgorliklariga ajoyib qoyalar, sharsharalar, daralar, ajoyib buloqlar, xushmanzara joylar kiradi. Bunga Ilono'tdi (Temurlang) darasi, Ko'ksuv daryosidagi sharshara, Nurota va Urgutdagi buloqlar, Katta va Kichik Chimyon soyliqi, Oqtoshsoyliqi va boshqalar kiradi.

Astronomik tabiat yodgorliklariga yirik meteoritlar tushib izi qolgan joylar kiradi.

Tabiiy turistik resurslar orasida asosiy o'rinni rekreatsiya resurslari egallaydi, ular mamlakat aholisini, hamda turistlarni dam olishi va davolanishi uchun asosbo'lib xizmat qiladi. Undan tashqari tabiiy resurslardan to'g'ridan to'g'ri foydalanish natijasida bir qancha muammolar ham kelib chiqmoqda. Bunda tabiatdan noto'g'ri foydalanish, ko'plab qurilishlarni amalga oshirish tufayli bo'lmoqda. Natijada ekosistemalar muvozanati buzilib, ekologik muammolarni kelib chiqishiga sabab bo'lmoqda.

Madaniy-tarixiy resurslar. Ma'lum hududda turizmni rivojlantirishda ujoyning tarixiy-madaniy resurslari potentsiali asosiy o'rinni egallaydi. Turistik xizmatda madaniy-tarixiy resurslardan ko'p maqsadlarda foydalanish mumkin. Madaniy majmualarning jozibadorligi ularning tarixiy va tasviriy bahosiga, foydalanish qulayligiga bog'liq.

Tayanch iborolar va tushunchalar:

Mintaqa – mamlakat halq xo'jalik majmuasining kichik tizimi bo'lib, u demografik, tabiiy-ekologik, ijtimoiy-iqtisodiy va texnik-iqtisodiy jarayonlarning ichki aloqasi va o'zaro munosabatlari tufayli hosil bo'lgan yaxlit birlikdir.

Tabiatresurslari – tabiiy boyliklar — jamiyatning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish maqsadlarida xo'jalikda foydalaniladigan hamda insoniyatning yashashi uchun zarur bo'lgan, uni o'rab turgan tabiiy muhitning barcha tabiat komponentlari, energiya manbalari. Tabiat resurslariga Quyosh energiyasi, Yerning ichki issiqligi, suv, yer, mineral boyliklar, o'simliklar, tuproklar, hayvonot dunyosi kiradi.

Tabiat resurslari tugaydigan (ko'ptina foydali qazilmalar), tugamaydigan (suv, havo, Quyosh nuri, Yerning ichki energiyasi) va

tiklanadigan (biologik elementlar, ayrim foydali qazilmalar) boyliklarga bo‘linadi. Tabiiy xom ashyolarni ko‘p darajada iste‘mol qiluvchi kuchlarning jadal rivojlanishiga bog‘liq ravishda Tabiat resurslari bilan ta‘minlash muammolari yanada dolzarblashib bormokda. Tuproq, atmosfera va gidrosferaning ifloslanishiga qarshi kurashishda jahonning barcha mamlakatlari kelishib faoliyat yuritishlari zarur bo‘lib, Tabiat resurslari muhofazasi global xarakterga ega bo‘lmoqda. Tabiat resurslarini o‘zlashtirishning muhim bosqichlari – ularni aniqlash (razvedka qilish), o‘rganish, alohida turlari bo‘yicha kadastrlar (mas., yer kadastr, suv kadastr tuzishdan iborat. O‘zbekiston Respublikasida Tabiat resurslari kadastrlarini tuzish va yuritish O‘zbekiston Respublikasining "Davlat kadastrlari to‘g‘risida" qonuni (2000-y. 15-dek.)ga muvofiq olib boriladi.

Tabiat resurslarini baholashning ilmiy asoslangan 3 tipi mavjud: texnologik, iqtisodiy, ijtimoiy. Tabiat resurslarini to‘g‘ri baholash ulardan foydalanishda eng yuqori samaralarga erishishning muhim sharti hisoblanadi. Inson tafakkuri o‘ssishi bilan bog‘liq holda Tabiat resurslari turlari ham kengayib bormokda, bunda eng zamonaviy texnik vositalardan foydalaniladi. Ilmiy-texnik taraqqiyotni rivojlanib borishi bilan tugaydigan Tabiat resurslari o‘rnini bosuvchi yangi sun‘iy materiallar ishlab chiqarilmoqsa, Dunyo okeani boyliklari o‘zlashtirilmoqsa. Ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotning rivojlanishi yo‘lida Tabiat resurslaridan samarali foydalanish va tabiatda ekologik muvozanatni ta‘minlab turuvchi yangi sifatli texnologiyalarni yaratish talab etilmokda. Xomashyo va energiya manbalaridan rejali tarzda foydalanish uni uzoq muddatga yetishini ta‘minlaydi

Infrastruktura – lot infra — quyi, asos, structura - tuzilish, o‘zaro joylashuv. Milliy xo‘jalik ishlab chiqarish tarmoqlari va sotsial sferaning umumiy sharoitini ta‘minlash uchun xizmat qiladigan sohalar kompleksini ifodalaydi. Bozor infrastrukturasi: milliy xo‘jalik infrastrukturasi muhim qismi bo‘lib, o‘ziga xos xususiyatlarga ega.

Sarmoya – bu foyda olish maqsadida har xil turdagi loyihalarga sarmoyalangan mablag‘ (masalan, investisiya).

Geologiya – (geo... va ...logiya) – Yer po‘sti va Yerning tuzilishi, tarkibi, harakatlari va rivojlanish tarixi haqidagi fanlar majmuyi. G.ning dastlabki davri uzoq o‘tmishdan boshlanib tog‘ jinslari, minerallar, rudalar haqidagi ma‘lumotlar bilan bog‘liq. G.

terminini birinchi marta norvegiyalik olim M. P. Esholt (1657) ishlatgan. G.ning umumiy metodi qiyosiy-tarixiy metod bo'lib, o'tmishni bilish, zamonaviy taraqqiyotni o'rganish orqali bo'ladi (k.,Aktualizm). 18-asr va 19-a boshlarida G. tabiatshunoslikning mustaqil tarmog'iga aylandi (xorijda U. Smit, A. G. Verner, J. Getton, Ch. Layel, M. V. Lomonosov, V. M. Severgin).

Hozirgi G. bir necha tarmoqlardan iborat: stratigrafiya, tektonika, dinamik, dengiz geologiyasi, mineralogiya, petrografiya, litologiya va geokimyo, foydali qazilmalar G.sidan iborat. G. tabiiy geografiya, geofizika ("qattiq" Yer fizikasi), kristallografiya, paleontologiya va boshqa fanlar bilan yaqindan bog'liq. Amaliy ahamiyatga ega bo'lganlari: gidrogeologiya, muhandislik geologiyasi, geokriologiya va boshqa Shuningdek, boshqa tabiiy fanlar bilan tutashgan joyida tarkib topgan yangi yo'nalishlar – petrokimyo, petrofizika, tektonofizika va boshqa G.ning alohida tarmoqlarini tashkil etadi. G.da 3 asosiy yo'nalish mavjud: tavsifiy G. – minerallar, tog' jinslari, ularning tarkibi va yotish shaklini o'rganadi; dinamik G.– geologik jarayonlar va ular evolkshiyasini tadqiq qiladi; tarixiy G. va geoxronologiya –Yer pusti rivojlanishining izchilligini o'rganadi .

Madaniyat – Madaniyat inson faoliyati va shu faolliyatning ahamiyatini belgilovchi ramziy qurilmalar va asarlar majmuidir. Madaniyat, musiqa, adabiyot, badiiy tasvir, ...

Resurs – frantsuzcha so'z bo'lib, imkoniyat degan ma'noni anglatadi. Tabiiy resurslar – bu inson o'zining hayot faoliyati uchun tabiatdan oladigan va kelajakda olishi mumkin bo'lgan barcha noz-ne'matlardir. Tabiat inson uchun yashash muhiti va resurslar manbai hisoblanadi. Atmosfera havosi, yer, suv, quyosh nuri, iqlim yer osti boyliklari, iqlim, o'simliklar va hayvonot dunyosi – bularning barchasi tabiiy resurslardir.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. Mintaqaviy turizmning mohiyati nimadan iborat?
2. Mintaqaviy turizm tasnifiga qanday yondoshuvlar mavjud?
3. Mintaqaviy turizmning qanday xos xususiyatlari mavjud?
4. Tabiiy turistik resurslarning xususiyatlarini ayting.
5. Ijtimoiy–madaniy turistik resurslarning xususiyatlarini ayting.

4 - BOB. TURISTIK RESURSLARDAN FOYDALANISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR

4.1. Mintaqaviy turizmning rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar

Har qanday mintaqada turizmning rivojlanishi quyidagi asosiy tarkibiy unsurlar: rekreatsion resurslar, infratuzilma, kadrlar, sarmoya, boshqaruv tuzilmasi mavjud bo'lganda amalga oshirilishi mumkin.

Mintaqaviy turizmning to'liq tavsifi uchun uning rivojlanish shart-sharoitlarini uchta tarkibiy blokka guruhlashtirish maqsadga muvofiqdir (4.1-jadval).

4.1-jadval.

Mintaqaviy turizm rivojlanishining asosiy shart-sharoitlari¹

Asosiy bloklar	Tarkibiy elementlari
Hududiy resurs	1. Mintaqa hududi (turistik oqimlar yo'nalishi sifatida) 2. Mintaqaviy turizm rivojlanishining asosi bo'lgan hududning tabiiy-jo'g'rofiy, tarixiy madaniy xususiyatlari va resurslari
Ijtimoiy-iqtisodiy	1. Turistik ehtiyojlarni qondirish 2. Mahalliy mehnat resurslari bilan ta'minlanganlik 3. Turizmning rivojlangan turlari to'g'risida ma'lumotning mavjudligi
Tashkiliy-boshqaruv	1. Mintaqada turistik faoliyatni tashkil etish va moliyaviy ta'minlash 2. Turistik infratuzilmaning rivojlanishi 3. Mintaqadagi transport ta'minoti 4. Mintaqaviy rejalashtirish va turizm rivojlanishini boshqarish 5. Mintaqada sayyohlar xavfsizligini ta'minlash

Mintaqaviy turizm rivojlanishining asosiy shart-sharoitlarini shunday yo'sinda guruhlariga ajratish turizm sohasining faoliyatiga

¹ Зализняк. Е.А. Региональный туризм: основные признаки и условия развития. Вестн. Волгогр. гос. ун-та. Сер. 3, Экон. Экол. 2011. №2(19) . С.74

ta'sir ko'rsatadigan yo'nalishlar va metodlar, dasturlar majmuyi bo'lgan samarali mintaqaviy siyosatni shakllantirishga imkon beradi.

Masalan, hududiy resurs blokining kompleks tahlili rekreasion salohiyatdan foydalanish samaradorligini, mintaqaviy turizm sohasida foydalanilmagan resurs salohiyatini aniqlash va turizmning mavjud va yangi istiqbolli turlarini belgilash imkonini beradi.

Ijtimoiy-iqtisodiy blok, o'z navbatida, mintaqaning turizm sohasidagi mehnat resurslari bilan ta'minlanganligini baholash, mahalliy aholi bandligining samaradorligini tahlil qilish imkonini beradi.

Tashkiliy-boshqaruv blokidagi tarkibiy elementlarning tahlili mintaqada mavjud bo'lgan moddiy-texnik bazani baholash, mintaqaviy turizmni boshqarishning muvofiqlashtirilgan tizimini yaratishga yordam beradi.

Mintaqaviy turizmning rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar ekstensiv, intensiv va cheklovchi (salbiy) omillarga bo'linadi.

Ekstensiv omillarga quyidagilar kiradi: ishchilar sonining o'sishi, xo'jalik aylanmasiga jalb qilingan moddiy resurslar miqdorining oshishi, mavjud bo'lgan texnik darajadagi yangi sayyohlik ob'ektlarini qurish.

Intensiv omillar: kadrlar malakasini oshirish, kasbiy-malaka tuzilmasini rivojlantirish; ilmiy-texnik taraqqiyotning yutuqlari va natijalarini joriy etish asosida moddiy bazani texnik jihatdan takomillashtirish, shu jumladan, xizmat ko'rsatish madaniyati va sifatini yaxshilash, sanoatlashtirish, turizmni texnologiklashtirish va kompyuterlashtirish, mavjud moddiy resurslardan, ob'ekt va marshrutlardan oqilona foydalanish kabi maqsadli dasturlarni amalga oshirish.

Turizmni rivojlantirishga salbiy ta'sir ko'rsatadigan cheklovchi omillar quyidagilardan iborat: inqirozlar, iqtisodiyotni harbiylashtirish, tashqi qarzlarning o'sishi, siyosiy beqarorlik, iste'mol tovarlari narxlarining o'sishi, ishsizlik, ish tashlashlar, kriminogen vaziyat, moliyaviy beqarorlik (inflyatsiya, valyutalarning turg'unligi), shaxsiy iste'mol hajmining pasayishi, ekologik vaziyatning noqulayligi, sayyohlik firmalarining bankrotligi, turistik rasmiyatchiliklarning kuchayishi, valyuta almashinuvi kvotasining pasayishi, turfirmalar tomonidan o'z majburiyatlarini bajarmaslik va h. k.

4.2. Barqaror va o'zgaruvchi omillar. Tabiiy-qlimiy, jo'grofik, madaniy-tarixiy omillar

Turizm rivojlanishiga ta'sir etuvchi asosiy omillar statik va dinamik omillarga ajratiladi.

1. Statik omillar – tabiiy-jo'g'rofiy va tarixiy-madaniy omillarning majmuyi. Bu omillar o'zgarmas mohiyatga ega. Inson ularni faqatgina turistik ehtiyojlarga moslashtiradi, foydalanish uchun yanada qulayroq qilishi mumkin. Tabiiy-iqlim va jo'g'rofiy omillar go'zal va boy tabiat, iqlim, hudud reliefi, er osti boyliklarida (mineral suvlar, g'orlar va h.z) namoyon bo'ladi.
2. Dinamik omillar – demografik, ijtimoiy-iqtisodiy, moddiy-texnik, siyosiy omillar. Bu omillar zamon va makonda o'zgaradigan turli xil mohiyat va baholarga ega bo'lishi mumkin¹

Mintaqa turizmga quyidagi omillar vositasida ta'sir ko'rsatadi:

- tabiiy-jo'g'rofiy (tabiat, iqlim, hudud reliefi va h.z.);
- madaniy-tarixiy (arxitektura yodgorliklari, tarixiy yodgorliklar va h.z);
- demografik (mintaqa aholisining yoshi, mehnatga layoqatli aholi sonining o'sishi);
- ijtimoiy-iqtisodiy (ta'lim, madaniyat, aholining estetik ehtiyojlari darajasining oshishi, bo'sh vaqt tuzilmasining o'zgarishi);
- moddiy-texnik (infratuzilmaning rivojlanishi – transport, joylashtirish vositalari, umumiy ovqatlanish korxonalari, rekreastion soha, chakana savdo va h.z.);
- siyosiy (mintaqadagi barqarorlik, iqtisodiy va moliyaviy vaziyat, mintaqada sayohat qilishning xavfsizlik darajasi).

Shunday qilib, turizm va u rivojlanayotgan hudud (mintaqa) o'zaro bir-biriga ta'sir ko'rsatadi, o'zaro bg'liq va o'zaro bir-birini to'ldiradi (4.1-chizma)².

¹ Карпова Г. А., Хорева Л. В. Экономика и управление туристской деятельностью: учебное пособие в 2-х частях /– СПб.: Изд-во СПбГУЭФ, 2011 - стр.44.

²Ковынева Л. В. Региональный туризм: монография. – Хабаровск : Изд-во ДВГУПС, 2005.- стр.7.

M I N T A Q A	Omilar	tabiiy-jo'g'rofiy madaniy-tarixiy demografik ijtimoiy-iqtisodiy moddiy-texnik siyosiy	T U R I Z M
A		Bandlikni ta'minlash to'lov balansini sog'lomlashtirish daromad yaratish takror ishlab chiqarish	Funkstiyalar

4.1-chizma. Mintaqaviy rivojlanish omillari va turizm funkstiyalarining o'zaro ta'siri

Hozirgi kunda turizm nafaqat yuqori darajada rivojlanayotgan iqtisodiy majmua bo'lgani uchun balki, iqtisodiy o'sishning muhim katalizatori bo'lgani sababli jahon iqtisodiyotida, alohida mamlakatlar iqtisodiyoda muhim rolga ega bo'lib bormoqda. Turizmning yuqori sur'atlarda rivojlanib borishi iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarining: savdo, transport, maishiy xizmat ko'rsatish, qishloq xo'jaligi, qurilish va boshqalarning rivojlanishiga olib keladi. Sayyohlarning taraqqiyotning zamonaviy shart-sharoitida doimiy o'sib boruvchi ehtiyojlarini ta'minlash uchun turistik bozorning yuqori darajada to'yinishiga ko'maklashuvchi tarmoqlar majmuini o'rganish zarur.

4.3. Tashqi va ichki omillar

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan omillardan tashqari turizmga ta'sir etuvchi omillarni tashqi (ekzogen) va ichki (endogen) omillarga ajratish mumkin.

Tashqi (ekzogen) omillar turizmga demografik va ijtimoiy o'zgarishlar vositasida ta'sir qiladi. Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda turmush darajasi va sifatining oshishi insonlarda dam olish, sayohat qilish, ko'ngil ochish, insoniyatning umumiy madaniy qadriyatlarini o'rganish uchun ko'proq bo'sh vaqt va imkoniyatning paydo bo'lishiga olib keldi.

Ijtimoiy-iqtisodiy omillarning turizm rivojlanishiga ta'siri doimiy ravishda o'sib bormoqda.

Globalashuv jarayonlari va mamlakatlarning jahon hamjamiyatiga integrastiyalashuvi turizmning jahon ko‘lamida ommaviy hodisaga aylanishiga olib keldi.

Ichki (endogen) omillar – turizm sohasining ichida ta’sir ko‘rsatuvchi omillar. Masalan ularga moddiy-texnik omillarni kiritish mumkin.

Mintaqaviy turizm rivojlanishiga ta’sir etuvchi endogen omillar quyidagi 4.2-jadvalda aks ettirilgan. Bu jadvalda ko‘rsatilgan turizm rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar alohida tadqiqot obyektni shakllantiradi.

4.2-jadval.

Mintaqaviy turizm rivojlanishini belgilovchi endogen omillar¹

Turizm jozibadorligining an’anaviy unsurlari	Turizm atraktlari	Madaniy yodgorliklar: tarixiy va zamonaviy
		Tabiiy atraktlar
	Makon turizmini tashkil etish	Sayyohlarni joylashtirish
		Restoran xizmati
Hududiy marketing unsurlari		Qo‘shimcha xizmatlar va qulayliklar
	Turizmni rag‘batlan- tirish va axborot	Mahalliy hukumatning xususiy sektor ishtirokidagi mas’uliyati
	Turistik mahsulotning yaratilishi va tijoratlashirilishi	Xususiy sektorning ijtimoiy institutlar ishtirokidagi mas’uliyati
Texnik infratuzilmaning aniq unsurlari	Transport infratuzilmasi	Tashqi transport mavjudligini ta’minlash
		Ichki transport mavjudligini ta’minlash
	Atrof-muhit infratuzilmasi	

¹Butowski Leszek Tourism as a development factor in the light of regional development theories //Tourism, Sciendo, vol. 20(1), pages 5-10, January.

Ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy, siyosiy (institutional infratuzilma), atrof-muhit va boshqa shart-sharoitlar	Mahalliy hamjamiyatning sayyohlarga bo'lgan munosabati	Mehmonlarga do'stona munosabat, ochiq ko'ngillilik, xorijiy tillarni bilish va h.z.
		Tadbirkorlik
	Davlat organlarining faoliyati	Iqtisodiy siyosat, turizm sohasidagi investitsiyalarni rag'batlantirish
		Xavfsizlikni ta'minlash
		Atrof-muhit va madaniy (tarixiy) merosni boylikni qo'riqlash

Turistik bozor omillarini ham ichki omillarga kiritish mumkin:

- 1) talab, taklif va tarqalish jarayonlari (zamonaviy bozor omillarining o'ziga xosligi sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin, masalan, turistik mahsulotlarga bo'lgan talabning doimiy ehtiyojga aylanishi, hamda individual turizmning o'sishi)
- 2) bozor segmentastiyasi rolining ortishi (yangi mintaqa ichi turistik segmentlarning paydo bo'lishi, sayohatlar masofasining oshishi, ta'tillarni o'tkazish shakllarining turli-tumanligi, turistik rivojlanishning diversifikastiyasi va h.z.);
- 3) turizmdagi faoliyat va monopolizastiya jarayonlarini muvofiqlashtirish rolining ortishi (gorizontal integrastiyalarning kuchayishi, ya'ni yirik firmalarning o'rta va kichik biznes bilan hamkorlik munosabatlarning o'sishi; strategik turistik ittifoqlarni yaratish orqali vertikal integrastiyalar; turistik biznesning globallasuvi va h.z.)
- 4) reklama va turistik mahsulotlar realizastiyasida ommaviy axborot vositalari va omma bilana loqalar (pablik rileyshnz) rolining ortishi;
- 5) turizmda kadrlar rolining ortishi (xodimlar soniningko'payishi, professional-malakali tuzilmaning rivojlanishi, kasbiy

tayyorgarlik ahamiyatining ko‘tarilishi, mehnatni tashkil etishning yaxshilanishi va h.z.);

- 6) xususiy turistik biznes rolining o‘sishi (bozorda katta transmilliy operatorlarning cheklangan soni va katta miqdordagi kichik korxonalar – agentliklar faoliyat yuritishi uchun sharoitlar yaratiladi, professional marketing asosida turistik mahsulotni samarali realizastiyasi amalga oshiriladi)¹.

Turizmning mamlakat, mintaqa iqtisodiyotiga ulkan ta’siri tufayli uning ahamiyati hozirgi kunda oshib bormoqda. Mintaqaviy turizmni rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar turlichadir. Ushbu omillarni tarkibi jihatidan ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy, siyosiy (institutstional infratuzilma), atrof-muhit va boshqa shart-sharoitlarga ajratish mumkin. Barcha omillarning mintaqaviy turizm rivojlanishiga ta’sirini baholab turistik hudud rivojlanishining iqtisodiy siyosatini ishlab chiqish lozim.

4.4. Turizm infratuzilmasi

Turistik resurslar orasida infratuzilma omillarini alohida ajratib ko‘rsatish lozim. Turistik infratuzilma bu hudud turistik sohasining rivojlanishi va faoliyatini ta’minlovchi xizmatlar sohasining korxona va tashkilotlari (joylashtirish, ovqatlanish, transport, sog‘lomlashtirish va h.z) majmuidir.


Turizm sohasining rivojlanishida turistik infratuzilma bilan bir qatorda tadbirkorlar yoki kadrlar ham ulkan rol o‘ynaydi, chunki aynan turistik xizmatlarni yaratish va ta’minlashning ilg‘or tajribasi turistik hudud va obyektlarning raqobatbardoshligi asosi hisoblanadi. Ularning ijodkorlik salohiyati hududning turistik salohiyatidagi bir qator tuzilmaviy bo‘shliqlarni to‘ldira oladi, yaratuvchanligi esa yangi va nodir turistik mahsulotni yaratishning asosi bo‘lib xizmat qiladi.

Turizmning mintaqaviy infratuzilmasi bu – turli xil moddiy va nomoddiy xususiyatlarning tashuvchisi bo‘lgan moddiy obyektlarning majmui bo‘lib, ma’lum bir makon va zamon parametrlari doirasida (ma’lum bir joyda va ma’lum bir vaqt ichida) turistlarning

¹ Карпова Г. А., Хорева Л. В. Экономика и управление туристской деятельностью: учебное пособие в 2-х частях /–СПб.: Изд-во СПбГУЭФ, 2011.- стр.45-46.

maqsadlarini maksimal miqdoriy va sifatli amalga oshirilishini ta'minlaydi"¹.

Nazariy va uslubiy tahlil natijalari hududiy turizm infratuzilmasi tarkibini quyidagicha aniqlashga imkon beradi: bu turizm ehtiyojlarni qondirish uchun sharoit yaratadigan korxonalar – ishlab chiqarish infratuzilmasi va turistlarning turli ehtiyojlarini to'g'ridan to'g'ri qondiradigan korxonalar – xizmat ko'rsatish infratuzilmasi majmuyidir (4.2-rasm).



4.2.-rasm. Turizmning mintaqaviy infratuzilmasi unsurlari

Shuning uchun turizm infratuzilmasining rivojlanishini ha tomonlama baholash uning tarkibiy elementlarini har tomonlama, izchl tahlil qilishga asoslanishi kerak.

Turistik hudud rivojlanishining iqtisodiy siyosatini ishlab chiqish jarayonida resurslarning joriy holatini tahlil qilish, quyidagilarni amalga oshirishga imkon beradi:

- turizm industriyasiga jalb qilinishi mumkin bo'lgan mehnat resurslarini aniqlash;

¹ Василюха Д.Ф. Стратегическое управление развитием региональной инфраструктуры туризма: автореф. дис. ... канд. экон. наук : 08.00.05. – СПб, 2012. – 19 с.

- moddiy-texnika bazasining, mahalliy tarixiy yodgorlik majmualarining, tabiiy-iqlim resurslarining mavjudligi va etariligi, foydalanish darajasini baholash;
- mavjud iqtisodiy iqlim va turizmning butun mintaqaga ta'siri oqibatlarini tahlil etish;
- mintaq aholisi va mahalliy boshqaruv vakillarining ushbu hudud rivojlanishida turizmning roli to'g'risidagi tushunchalarini va ushbu masala bo'yicha jamoatchilik fikrini aniqlash.

Shunday qilib, turistik salohiyat rivojlanishini rag'batlantirish investitsiyalar hajmining oshishiga olib keladi, bu esa, o'z navbatida, mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bundan tashqari, turistik xizmatlar bozori tarixiy merosni muhofaza qilish va atrof-muhitni qo'riqlash ishlarini moliyalashtirish manbayi bo'lishi mumkin.

Hududlarda turizm infratuzilmasini rivojlantirishga to'sqinlik qilayotgan muammolarni quyidagicha tasniflash mumkin: moddiy-texnik bazaning holati bilan bog'liq infratuzilma muammolari, hamda ma'muriy va huquqiy muammolar.

Infratuzilma muammolariga quyidagilar kiradi:

- ishlab chiqarish infratuzilmasi obyektlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi, shu jumladan, yaratilayotgan turistik va rekreatsion komplekslar (elektr ta'minoti, suv ta'minoti, transport tarmog'i, tozalash inshootlari) uchun muhandislik infratuzilmasi obektlarini qurish uchun katta xarajatlar tufayli;
- xizmatlar sohasi infratuzilmasi obyektlarining moddiy-texnik bazasining ma'naviy va jismoniy eskirishi;
- turizm infratuzilmasiasosiy vositalarining eskirishi;
- tumanlar va yirik shaharlar sayyohlik infratuzilmalari rivojlanishidagi notekisliklar;
- dam olish maskanlarida zarur xizmat ko'rsatish infratuzilmasining mavjud emasligi;
- hududlarning axborot ta'minotining yomonligi (ko'pgina hududlarda baland ovozli aloqa yo'qligi, axborot stendlari va belgilari, shu jumladan chet tillarda).

Ma'muriy va huquqiy muammolar quyidagi uch guruhga bo'linadi:

- 1) turizm va rekreatsion sohani (xususan, turizm infratuzilmasini) me'yoriy-huquqiy tartibga solish muammolari;

2) tarmoqdagi investitsion faollikning pastligi, uni rivojlantirishga kiritiladigan investitsiyalarni davlat tomonidan rag'batlantirishning samarali mexanizmlari yo'qligi;

3) yuqori malakali professional kadrlarning yetishmasligi.

Shunday qilib, turizm infratuzilmasining rivojlanishiga xalaqit beradigan muammolarni ushbu tasnifi, hududlardagi turizm infratuzilmasini kompleks rivojlantirish va takomillashtirishning ikkita asosiy yo'nalishini ajratib olishga imkon beradi:

- moddiy-texnik bazani yaxshilash;
- ma'muriy-huquqiy tartibga solish tizimini rivojlantirish.

Ushbu yo'nalishlar doirasida aniqlangan muammolarni hal etish mintaqaviy turizmni muvaffaqiyatli rivojlantirgan holda, mintaqalarning turizm infratuzilmasini takomillashtirishga imkon beradi. Ushbu chora-tadbirlar hududlarga sayyohlar oqimini ko'paytiradi va natijada byudjet daromadlarining o'sishini, iqtisodiyotning oraliq (смежныхотраслей) tarmoqlarini rivojlantirishni va bandlikni oshirishni ta'minlaydi.

Xulosa qilib aytganda, mamlakatning jahon turistik bozoridagi raqobatbardoshligini va turistik jozibadorligini oshirishda mintaqaviy turizmning shakllanishi va rivojlanishi muhim hisoblanadi. Birlamchi ijtimoiy-iqtisodiy vazifalardan biri bo'lib har bir mintaqada turizmni rivojlantirish hisoblanadi, chunki bu ko'p jihatdan milliy turizm imidjining shakllanishi hamda rivojlanishini, shuningdek, xalqaro turizm rivojlanishining imkoniyatlari va tendensiyalarini belgilab beradi.

Tayanch iborolar va tushunchalar:

Omillar – o'ziga xos ta'sir etuvchi ma'lum sharoitlar va elementlar majmui.

Barqaror omillar – hech qanday o'zgarish ta'sir etmay-digan, doim birdek turadigan; o'zgarmas omillar.

Infratuzilma (lot. *infra* – ostida) – ishlab chiqarish va tovar muomalasi, shuningdek, inson hayot faoliyati uchun zarur bo'lgan me'yoriy sharoitni ta'minlashga xizmat kiluvchi turli-tuman yordamchi xizmat ko'rsatuvchi sohalar (tashkilot, korxona va muassasa) majmui; nomoddiy ishlab chiqarish sektori.

Turistik infratuzilmalar o'z tarkibiga mehmonxonalar, ovqatlanish korxonalari, aloqa yo'llari yig'indisi, kommunikatsiyalar, tashkilotlar, do'konlar, sport inshootlarini birlashtiradi va turistik xizmat ko'rsatuvchi korxonalar bilan chambarchas holda bog'langandir.

Endogen (yunon. *endon* – ichida va *genos* – jinsi, kelib chiqishi) ichki moyillik yoki sabablar natijasida paydo bo'lgan.

Ekzogen (yunon. *exo* – tashqarida va *genos* – jinsi, kelib chiqishi) tashqi ta'sirdan kelib chiqadi.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. Turistik resurslardan foydalanishga ta'sir etuvchi omillarni tahlil etishning ahamiyati nimada?
2. Barqaror omillarning xususiyatlarini ayting.
3. O'zgaruvchan omillar va ularni turlarini izohlang.
4. Turizm industriyasiga ta'rif bering.
5. Turizm infratuzilmasiga ta'rif bering.

5 - BOB. MINTAQALARNING TURISTIK RESURLARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARINI BAHOLASH

5.1. Mintaqaviy turizmdan samarali foydalanishda resurslarni baholashning muhimligi

Hozirgi kunda mintaqaviy iqtisodiy siyosatda asosiy urg‘u mavjud tabiiy resurslar zahiralaridan oqilona va ehtiyotkorlik bilan foydalanishga va mintaqaning boshqa resurslaridan (iqtisodiy, shu jumladan, tashkiliy, mehnat, moliyaviy, moddiy va axborot resurslaridan) samarali foydalanishga berilmoqda. Bunday sharoitda turizmdan hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish vositasi sifatida foydalanish mumkin, bu esa hududning tabiiy-resurs salohiyatidan samarali foydalanish va YHM o‘rishini ta‘minlaydi.

Turistik resurslarni kompleks rivojlantirish va ulardan oqilona foydalanish masalalari mamlakatda ichki va tashqi turizmni samarali boshqarish uchun muhimdir. Har bir mintaq o‘zining turistik salohiyatidan mahalliy aholi va chet ellik sayyohlarning sifatli turizm xizmatlariga bo‘lgan ehtiyojini qondirish, shuningdek, ularni qabul qilish va ularga xizmat ko‘rsatish uchun foydalanishi kerak. Har qanday turdagi resurslarni samarali rivojlantirish imkoniyati salohiyatni malakali tahlil qilishga, berilgan resursning bozordagi o‘rnini yetarlicha aniq belgilashga, ushbu resurs uchun uni rivojlantirishning eng maqbul usullari va shakllarini oqilona tanlashga va ushbu resursni o‘zlashtirish va rivojlantirishda barcha ishtirokchilarning kelishilgan harakatlarini ta‘minlashga asoslanadi. Yuqoridagilar turizmni rivojlantirish resurslariga to‘liq tegishli.

Turistik resurslar mintaqada turizmni rivojlantirishning o‘ziga xos xususiyatini aniqlaydi, mintaqada investitsion siyosatning ustuvor yo‘nalishlarini rejalashtirishda, turistik mahsulotni ishlab chiqarish uchun tayanch bazisi bo‘lib hisoblanadi. Turistik hududning resurs va qabul qilish salohiyatini baholash uchun talab qilinadigan komponentlarning katta to‘plami hamda murakkabligiga va ularning hududiy farqlanishiga e‘tibor berish kerak¹.

¹Усманова З. Худудий объектларнинг туристик-рекреацион салохиятини баҳолашнинг назарий масалалари// “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. – № 2, март-апрель, 2017 йил.

Mintaqaning turistik salohiyatini aniqlash uchun turizmni rivojlantirish resurslarini har tomonlama baholash zarur. Hududning turistik salohiyati deganda ma'lum bir hududda turizmni tashkil etish uchun tabiiy, madaniy-tarixiy va ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarning yig'indisi tushuniladi. Mintaqada turizmni rivojlantirish salohiyati – mintaqa resurslaridan turizm faoliyatida yanada samarali foydalanish uchun mo'ljallangan, umuman mintaqa iqtisodiyotining rivojlanishiga hissa qo'shadigan resurslar va shart-sharoitlar.

Turizmning rivojlanishiga ta'sir qiluvchi barcha resurslarni uch guruhga birlashtirish mumkin:

- tabiiy va iqlim resurslari (iqlim sharoiti, landshaft, suv va mineral resurslar, o'simlik, hayvonot dunyosi, alohida tabiiy yodgorliklar va boshqalar);
- tarixiy va madaniy resurslar (mintaqaning moddiy va nomoddiy madaniy merosi);
- ijtimoiy-iqtisodiy resurslar (turizm infratuzilmasi, boshqaruv, kadrlar va o'quv, moddiy, moliyaviy va axborot resurslari va sharoitlari).

Tabiiy, tarixiy-madaniy va ijtimoiy-iqtisodiy turizm resurslarining mavjudligi nafaqat sifatli sayyohlik mahsulotini shakllantirish uchun asos bo'libgina qolmay, balki turizm mintaqasini xalqaro turizm bozorida ilgari surish strategiyasini ham belgilab beradi. Shuning uchun turizmni rivojlantirishni rejalashtirishda nafaqat mintaqaning turizm va rekreatsion salohiyatini tavsiflash, balki tabiiy-iqlim sharoiti, turizm infratuzilmasi, mintaqadagi oraliq sohalarning rivojlanish darajasi, shuningdek ekologik vaziyat va boshqa omillarni hisobga olgan holda har tomonlama baholash muhim.

Hududning resurs salohiyatini malakali va samarali boshqarish uchun resurslarni miqdoriy baholash, salohiyat tuzilishini va xususiy salohiyatlardan foydalanish darajasi, resurslardan foydalanish imkoniyatlarini baholash, turistik resurslarning holatini tizimli hisobgaolibborish va turizmning hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga qo'shadigan hissasini aniqlash talab etiladi.

Hududning turistik salohiyatini baholashda o'ziga xos baholash usullaridan foydalanish mumkin. Bunda turizm turlarining o'ziga xos xususiyatlari va resurslarga yo'naltirilganligini e'tiborga olinadi. Hududlarning turistik salohiyatini baholashda bir qator parametrlarni

hisobga olish kerak, xususan: mavjud ob'yektlarning o'ziga xosligi, ob'yektlar mavjudligidagi farqlar, mintaqadagi ob'yektlarning joylashuv zichligidagi farqlar, ob'yektlarning xilma-xilligi va murakkabligi, ob'yektlarning jismoniy holati va b.

Mintaqaning turizm sohasini rivojlantirish uchun resurslarini tahlil qilish va baholash mintaqaning turistik salohiyatini aniqlash uchun zarur bo'lib, uning asosida sohani rivojlantirish rejalashtirilgan. Turistik mahsulotni shakllantirishning asosi turistik resurslar hisoblanadi. Turistik qiziqish uyg'otadigan, ya'ni turistlar uchun jozibador va ochiq bo'lgan barcha narsa turistik resurslar deb hisoblanishi mumkin¹.

5.2. Turistik salohiyat tasnifi va uni boshqarish tamoyillari

Turistik salohiyat muammosiga bag'ishlangan mahalliy va xorijiy adabiyotlarda uning ko'plab ta'riflar mavjud, ammo turli belgilariga ko'ra umumiy tasnifi mavjud emas.

Quyida turli belgilariga ko'ra turistik salohiyatining quyidagi umumiy tasnifi taklif qilindi:

1. Baholashning umumiy darajasi bo'yicha:

a) mintaqaning yalpi turistik salohiyati - bu turizm faoliyatini tashkil etish maqsadida hudud tasarrufida bo'lgan resurslarning to'plamidir;

b) xususiy turistik salohiyati – mintaqaning yalpi turistik salohiyatining ajralmas qismi. Unga quyidagilar kiradi:

* mintaqaning iqtisodiy turistik salohiyati - bu mintaqaviy darajada turistik mahsulotini qayta ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan mintaqaning kuchlari va vositalari (moddiy, tabiiy, mehnat va boshqa resurslar);

* mintaqaning ijtimoiy turistik salohiyati - mintaqaviy turizm faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan mintaqada mavjud bo'lgan turli xil ijtimoiy shart-sharoitlar to'plami (ya'ni,

¹ Карчевская, Е. Н. Методическое обеспечение регионального развития и пространственной дифференциации туризма (на примере Гомельской области): автореф. дис... канд. географич. наук. – Гомель: Гомельский государственный технический университет им. П.О. Сухого, 2008. – с.8

umuminsoniy ijtimoiy hayot sharoitlari). U ma'naviy va axloqiy-psixologik salohiyatdan iborat.

* ma'naviy turistik salohiyat - bu sayyohlar orasida qiziqish uyg'otadigan aholining ma'naviy fazilatlarini;

* ma'naviy-psixologik turistik salohiyat - bu jamiyatda hozirgi vaqtda shakllanayotgan ma'naviy-psixologik holat bo'lib, mintaqa aholisini turizmga hodisa sifatida va sayyohga uning subyekti sifatida to'g'ri munosabatda tarbiyalash jarayonini aks ettiradi.

2. Tarkibi bo'yicha:

a) iqtisodiy turistik salohiyat - bu aholi va maqsadli bozorlarning ehtiyojlarini qondirish maqsadida xo'jalik yurituvchi sub'ektlar va boshqaruv organlarining hududdagi jami resurslaridan foydalangan holda hududning turistik (rekreatsion) mahsulotini shakllantirish qobiliyatidir;

b) texnik turistik salohiyat – bu joyashtirish vositalari qabul qila oladigan sayyohlar sonini jalb qilish imkoniyatiga tegishli salohiyat yoki tabiiy resurslari mavjud hududning ushbu hududga rekreatsion og'irlik dsarajasi hisoblanadi.

3. Amalga oshirilishiga ko'ra:

- a) haqiqiy (erishilgan) turizm salohiyati (aniqlangan va jalb qilingan);
- b) strategik turizm salohiyati (aniqlangan, lekin jalb qilinmagan (rivojlanish vektori).

4. Shakllanish manbalariga ko'ra:

- a) imkoniyatlarning turistik salohiyati - mintaqa hududida ob'ektiv ravishda shakllanadigan va mintaqaviy turistik mahsulotini qayta ishlab chiqarishga yordam beradigan imkoniyatlar majmui;
- b) ehtiyojlarning turistik salohiyati – imkoniyatlar salohiyatidan foydalanish darajasini belgilaydi; uning manbai sayyohlarning muayyan turdagi va sifatli turizm mahsulotiga bo'lgan sub'ektiv ehtiyojlari.

5. Turistik ob'ekt yoki hududga og'irlik, yuk turiga qarab:

a) umumiy turistik salohiyat - bu mahalliy resurslarga jiddiy zarar yetkazmasdan, sayohatning taassurotlariga salbiy ta'sir ko'rsatmasdan va aholi o'rtasida ijtimoiy-iqtisodiy muammolar yuzaga keltirmasdan turib, muayyan turistik ob'ekt bardosh bera oladigan maksimal yuk;

b) ekologik turistik salohiyat - bu ob'ekt yoki hududga tashrif buyurish darajasi bo'lib, uning ortiqqligi sayyohlarning hatti-harakatlari (yoki hayotiy faoliyatning tabiiy jarayonlari) yoki turizmga xizmat

ko'rsatuvchi infratuzilmaning faoliyati natijasida qabul qilib bo'lmaydigan ekologik oqibatlariga olib keladi;

d) ijtimoiy turistik salohiyat - bu sayyohlik ob'ektiga yoki yerga tashrif buyurish darajasi bo'lib, uning meyordan oshishi bu safardan taassurotlarning yomonlashuviga olib keladi;

e) mahalliy ijtimoiy turistik salohiyat - bu sayyohlik ob'ektiga yoki yerga tashrif buyurish darajasi bo'lib, uning meyordan oshishi mahalliy madaniyat uchun salbiy oqibatlariga va mahalliy aholining sayyohlar bilan munosabatlarining yomonlashuviga olib keladi;

f) infratuzilmaviy turistik salohiyat - mintaqa infratuzilmasining miqdoriy xususiyatlari bo'lib, sayyohlar talablarini qondirish qobiliyatini belgilaydi (yo'l uzunligi va zichligi, transportning barcha turlari bo'yicha transport vositalari soni, elektrifikatsiya darajasi, suv ta'minoti, kanalizatsiya, turli klassdagi mehmonxona xonalari soni va boshqalar.)

Turistik resurs salohiyatida asosiy tarkibiy qismlarni ajratish muhim ahamiyatga ega, chunki ularning rivojlanishi mintaqada turizm sohasining barqaror faoliyatini ta'minlaydi. Shunday qilib, turizmdagi resurs salohiyati ni umumiy shaklda quyidagi turlarga bo'lish mumkin: resurs salohiyati (tabiiy, antropogen, aralash), va ijtimoiy-iqtisodiy salohiyat (ijtimoiy, moliyaviy- investitsion, infratuzilmaviy).

Turistik resurs salohiyatining asosiy tasnifi uning paydo bo'lish uslubiga asoslanadi, shunga qarab tabiiy (rekreatsion va balneologik), antropogen (inson tomonidan yaratilgan) va aralash (tabiiy-antropogen)ga ajratiladi¹.

Tabiiy resurs salohiyati kelib chiqishi tabiiy bo'lib, tabiiy xususiyatlar tufayli davlatlar bunday salohiyatga ega bo'ladi: geografik, iqlimiy, landshaft, geologik va boshqalar.

Tabiiy turistik salohiyat quyidagilarga bo'linadi:

- balneologik - sayyohlarning sog'lig'iga ijobiy ta'sir ko'rsatadi;
- rekreatsion - dam olish, sport va bo'sh vaqtni maroqli o'tkazish imkoniyatlari va o'ziga xosligi tufayli sayyohlarning hissiy holatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi;
- turistik qiziqishning alohida tabiiy ob'ektlari.

Antropogen turistik resurs salohiyati inson va butun jamiyatning bevosita ishtiroki bilan yaratiladi. Ushbu turdagi salohiyatga

¹ Ушаков Д.С. Развитие современного туристического рынка / Под ред. д.э.н. В.В. Бандурина. – М.: ИНИОН РАН, 2004. – 200 с.

quyidagilar kiradi: turistik qiziqishning me'moriy, madaniy, ilmiy, ko'ngilochar ob'yektlari, shuningdek, ijtimoiy-madaniy resurslar (til, madaniyat, milliy taomlar, milliy kiyim va boshqalar).

Turistik resurs salohiyatining tabiiy-antropogen (aralash) turi kelib chiqishi tabiiy bo'lgan, ammo inson tomonidan ma'lum bir ishlar bajarilib o'zgartirilgan ob'yektlarni (milliy bog'lar, dendrariylar va b.) birlashtiradi.

Turizm sohasining ijtimoiy-iqtisodiy salohiyati - mintaqaning sayyohlik mahsulotlarini qayta ishlab chiqarish sohasidagi qobiliyatini belgilovchi ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatning ajralmas qismi, ya'ni sayyohlik mahsulotlarini mintaqaviy darajada (moddiy, tabiiy, mehnat va boshqalar) qayta tiklash uchun zarur bo'lgan mos kuch va vositalarni anglatadi. Ijtimoiy-iqtisodiy salohiyat tarkibiga quyidagilar kiradi:

- infratuzilmaviy salohiyat - turizmni rivojlantirish va sayyohlar ehtiyojlarini qondirish uchun zarur shart-sharoitlarni ta'minlash borasidagi joylashtirish vositalari, dam olish, ovqatlanish, transport va boshqa korxonalarning imkoniyatlari;
- moliyaviy-sarmoyaviy salohiyat - mintaq turizm faoliyatini amalga oshirish uchun tasarruf etishi mumkin bo'lgan mablag'lar hajmi, shuningdek, mintaqaning turizm sohasiga investitsiya kiritish imkoniyatlari;
- turizm sohasining ijtimoiy salohiyati - turizm sohasida zarur ishchi kuchini qayta tiklash bo'yicha mintaqaning imkoniyatlari. Turistik faoliyatni amalga oshirishga qodir maxsus tayyorlangan malakali kadrlarni o'z ichiga oladi.

Mintaqaning turistik resurs salohiyatiga kiradigan salohiyatlarning ushbu ro'yxati majburiy va tugallangan emas, chunki ularning soni belgilangan maqsadlarga, ularga erishish usullariga va buning uchun zarur bo'lgan resurslarga bog'liq.

Har qanday hudud egalik qiladigan resurs salohiyati ijtimoiy, iqtisodiy, texnik, ekologik xarakterga ega bo'lgan muayyan shart-sharoitlar mavjud bo'lganda turizm va rekreatsiya sohasida ma'lum darajada qo'llanilishi mumkin. Turizm va rekreatsiya sohasini rivojlanishi mustaqil boshqaruv ob'ekti sifatida ajratilgan resurs salohiyatini samarali boshqarish sharti bilan amalga oshirilishi mumkin. Turizm sohasining resurs salohiyatini boshqarish, 5.1-chizmada keltirilgan tamoyillarga asoslanadi.




5.1-chizma. Turizm sohasining resurs salohiyatini boshqarish tamoyillari¹

Ushbu asoslar bir-biriga bog'liq bo'lib, ularning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uzoq muddatli startegiyaning belgilashni ko'zda tutadigan dasturiy-maqсадli yondashuv asosida bajariladi. Turizm sohasida resurs salohiyatidan foydalanishni strategik rejalashtirish jarayoni turistik resurslarning muhim jozibadorlik omillaridan foydalanishni ta'minlashning raqobatbardosh turizm takliflarini yaratishga imkon beradi.

XXI asr iqtisodiy o'sishning muhim omili sifatida mamlakat mintaqalarida mavjud salohiyat va imkoniyatlardan samarali foydalanish zarurligini taqozo etmoqda. Mintaqa va turizmni o'zaro bir-biri bilan o'zaro chambarchas bog'liqligi avvalombor ular oldiga qo'yiladigan asosiy maqsad va ustuvor yo'nalishlarning uyg'unligi bilan isbotlanadi. Mintaqa va turizmni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari bir-biriga juda o'xshab ketadi, lekin ularning har birini bevosita manfaatlari borligini ham esdan chiqarmaslik kerak. Asosiy yo'nalishlarning borligini avvalombor mintaqaviy resurslardan (tabiiy, iqtisodiy, ma'naviy qadriyatlar, mehnat, suv va yer, mahalliy xomashyo) oqilona foydalanish, raqobatbardoshlikni oshirish, yangi ish joylarini tashkil etish va malakali kadrlar tayyorlash, aholining talablarini qondirgan holda, ularning turmush sifatini yanada yaxshilashda ko'rishimiz mumkin.

¹ Тхамитлокова Ю.О. Ресурсный потенциал туристско-рекреационной сферы: формирование, оценка и инструменты развития. Дис. ... канд. экон. наук : 08.00.05. – Нальчик, 2017. – с.34.



5.2.-chizma. Turizm resurs salohiyatining mintaqaviy strategik ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish bilan o'zaro aloqasi¹

Mintaqaning turistik resurs salohiyatining va mintaqa strategik rivojlanishining ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlari bilan o'zaro bog'liqligi 5.2.-chizmada keltirilgan.

Hududning ijtimoiy muammolarini hal etishda yangi ish o'rinlari yaratish, aholining munosib turmush darajasini saqlab qolish va to'lov balansini yaxshilash uchun shart-sharoitlarni shakllantirishga imkon beruvchi turizm sohasidagi faoliyatni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bizning fikrimizcha, rivojlangan turizm sohasi alohida xizmat ko'rsatish tizimlarini rivojlantirish va takomillashtirishga, ushbu sohaga yangi axborot vositalarini joriy etishga katta ta'sir ko'rsatadi.

5.3. Turistik resurslarni baholash usullarining tasnifi

Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, turistik resurslarni baholashning universal usullari mavjud emas. Bu qisman turistik

¹ Тхамитлокова Ю.О. Ресурсный потенциал туристско-рекреационной сферы: формирование, оценка и инструменты развития. Дис. ... канд. экон. наук : 08.00.05. – Нальчик, 2017. – с.34.

resurslarning o'ziga xos tabiati bilan belgilanadi. Turistik resurslarni baholash usullarining xilma-xilligi resurslarning turli tumanligi va ulardan turizm va rekreatsiya faoliyatida foydalanish imkoniyati bilan belgilanadi. Bu vaziyat turizmni rivojlantirish uchun hudud resurslarini baholashning yagona metodologiyasini shakllantirishga imkon bermaydi. Har bir muallif baholash parametrlari ro'yxati va muayyan mezonlar bazasi bo'yicha o'z nuqtayi nazariga ega. Iqtisodiyot fanida ayrim turistik resurslar guruhlar uchun alohida baholash usullari qo'llaniladi. Masalan, hududni muhandislik o'zlashtirish nuqtai nazaridan tabiiy turistik resurslarni baholashda texnologik baholash usulidan foydalanish mumkin¹.

Tabiiy resurslarni estetik bahosi turistik resurslarning odamga hissiy ta'siri darajasini aniqlashga asoslanadi, turistik resursning o'ziga xosligi bilan belgilanadi. Texnologik baholash natijasi hududning turistik rivojlanishga va undan turistik mahsulotni yaratishda foydalanishga tayyorligi bo'lsa, estetik baholash esa turistik namoyish obyektlarining jozibadorlik darajasini belgilaydi.

Shuning uchun, bir qator integral ko'rsatkichlarni o'z ichiga oluvchi turizm resurslarini baholashning kompleks metodologiyasini ishlab chiqish, nafaqat maqsadga muvofiq, balki muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega bo'ladi.

5.1.-jadvalda mintaqaning turistik-rekreatsion salohiyatini aniqlashda foydalaniladigan turistik resurslarni baholash usullarining tasnifi taklif qilingan. U turistik resurslarni baholashning miqdoriy, sifatiy va kompleks usullarini o'z ichiga oladi. Miqdoriy usullar boshqa baholash usullari uchun statistik materialni taqdim etadi. Miqdoriy baholash usullariga statistik (matematik) va kartografik usullar kiradi. Kartografik usul mintqa bilan tanishish va turistik resurslarni, agar ular xaritaga kiritilgan bo'lsa, dastlabki baholash uchun ishlatiladi. Ushbu usul turistik resurslarni baholash natijalarini sharhlash va hududlarning turistik rivojlanishining geografik axborot tizimlarini shakllantirish uchun ham to'g'ri keladi. Ma'lumotlarning asosiy manbalari bo'lib tabiiy, tarixiy va madaniy va turizm

¹ Кружалин, К.В. Оценка рекреационного потенциала России для развития международного туризма // Туризм и рекреация: фундаментальные и прикладные исследования: Сборник трудов Международной научно-практической конференции / К.В. Кружалин. – М.: МГУ, 2006.

infratuzilmasi obyektlari va turistik namoyish obyektlarining davlat reyestrlari hisoblanadi.

5.1-jadval

Turistik resurslarni baholash usullarining tasnifi¹

Usulning nomlanishi	Tavsifi	Qo'llanish sohasi
Miqdoriy usullar		
Kartografik usul	Baholash umumiy jo'g'rofik va tematik xaritalar yordamida olib boriladi	Oldindan baholash, natijalarni sharhlash
Matematik usul	Tabiiy va tarixiy-madaniy resurslarning reyestlarini tuzish, turizm resurslarini sifat jihatdan baholash unsurlarini o'z ichiga olishi mumkin	Resurslarning barcha turlari
Sifatiy usullar		
Tibbiy-biologik baholash	Ushbu hududda iqlim qulayligi va tabiiy omillarning inson tanasiga ta'siri o'rganiladi. Shartli haroratlar tizimi va kompleks iqlimshunoslik usuli qo'llaniladi.	Tabiiy rekreastiya resurslari
Estetik baholash	Resurslarning ekzotiklik va o'ziga xosligi darajasi, odamga hissiy ta'sir darajasi aniqlanadi	Tabiiy va tarixiy-madaniy resurslar
Texnologik baholash	Unda tabiiy resurslardan turistik faoliyatda foydalanishning texnik-texnologik masalalari, hududlarni muhandislik va qurilishni rivojlantirish imkoniyatlarini aniqlash masalalari kiradi. Resurslarning texnologik tayyorlik, moslik darajasi, qulayligi va tashrif buyuradigan sayyohlar uchun xavfsizlik darajasi aniqlanadi	Tabiiy resurslar Tarixiy-madaniy resurslar
Iqtisodiy baholash	Resurslardan yanada to'liq va oqilona foydalanishga qaratilgan turli tadbirlarning samaradorligi aniqlanadi.	Resurslarning barcha turlari

¹ Ушакова, Е. О. Методологические основы оценки ресурсов развития туризма региона: монография / Е. О. Ушакова, И. И. Золотарев, С. А. Вдовин. – Новосибирск : СГГА, 2014. – 194 с. С. 46-47.

	Ballik usullar, ijara bahosi usuli, umumiy iqtisodiy qiymat konsepsiyasi, resurslardan foydalanishning bevosita iste'mol qiymati va boshqalar qo'llaniladi	
YuNESKO metodikasi	Madaniy meros bo'yicha ijod durdonalari, tabiiy meros bo'yicha noyob go'zallik va estetik qadriyatlar fenomeni ajralib turadi	Tabiiy va tarixiy-madaniy resurslar
Ekologik baholash	Atrof-muhit ifloslanishining monitoringi amalga oshiriladi, turistik mintaqa va uning yaqinida joylashgan sanoat ob'ektlarining salbiy ta'siri darajasi aniqlanadi	Tabiiy rekreastiya resurslari
Kompleks usullar		
Turistik resurslar kadastri	Turistik mintaqaga oid ma'lumotlar to'plamiga iqtisodiy baholash ob'ektlarining miqdoriy va sifatiy ro'yxati, dinamika va o'rganilganlik darajasi to'g'risidagi ma'lumotlar kiradi va kartografik va statistik materiallar ilova qilinadi	Resurslarning barcha turlari
Hududlarni turistik rivojlantirish ning GAT	Mintaqaning turistik-rekreatsion salohiyati tavsifini, rekreatsion rayonlashtirish va mintaqaning o'ziga xos xususiyatlarini o'z ichiga olgan turistik mintaqaning axborot modeli tuziladi.	Resurslarning barcha turlari

Baholashning sifatiy usullarining to'plami yanada kengroq bo'lib, unga tibbiy-biologik, estetik, iqtisodiy, ekologik baholash, shuningdek, YUNESKO tomonidan ishlab chiqilgan xalqaro ahamiyatga ega tabiiy va madaniy sayyohlik obyektlarini baholash usuli kiradi. Turistik resurslarni baholashning integratsiyalashgan komplek susullari – mintaqada turizmni rivojlantirish uchun turizm resurslari kadastrlari tizimi va geo axborot tizimi (GAT) hisoblanadi.

Tibbiy-biologik baholash yordamida tabiiy omillarning inson organizmiga ta'siri aniqlanadi. Bu yerda yetakchi rolni iqlim o'ynaydi. Iqlim omillari kompleksini inson salomatligi holatiga ta'sirini hisobga oladigan baholashning bir qator uslublari ishlab chiqilgan bo'lib, bu iqlim sharoitining qulaylik darajasi bo'yicha hududlarni rayonlashtirishga va klimatoterapiyadan keng foydalanishga imkon beradi.

Psixologik va estetik baho yordamida tabiiy landshaft va uning tarkibiy qismlarining odamga bo'lgan hissiy ta'siri darajasi aniqlanadi. Shu bilan birga, sayyohlik hududida joylashgan diqqatga sazovor joylar, tarixiy, madaniy va me'moriy obidalar alohida ahamiyatga ega. Bunday baholash usullari odatda parametrlarning xilma-xilligi va uning mezonlarining subyektivligi tufayli murakkablashadi. Ammo bu boradagi ishlar faol olib borilmoqda. Masalan, AQSHda sayyohlarni milliy bog'lar uchastkalarida taqsimlash muammosi o'rganilmoqda. Ushbu tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatdiki, chekka zonalar (*ikki muhit o'rtasidagi chegara chiziqlar: suv - quruqlik (kuchli ta'sir), o'rmon – o'tloq (o'rta ta'sir), tepalik - tekislik (kuchsiz ta'sir)*) eng yuqori va eng jozibali ta'sirga ega.

So'nggi paytlarda tabiiy landshaftning ekzotiklik darajasi va o'ziga xosligi ham o'rganilmoqda. Ekzotiklik dam olish joyining doimiy yashash joyiga nisbatan qarama-qarshilik darajasi sifatida, o'ziga xoslik esa obyekt yoki hodisalarning takrorlanmasligi darajasi sifatida belgilanadi.

Texnologik baholash hududning ma'lum bir turizm yoki dam olish turiga yaroqlilik darajasini, shuningdek uni muhandislik-qurilish jihatidan o'zlashtirish imkoniyatlarini aniqlashga imkon beradi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, agar baholash jarayonida ma'lum bir resurs turiga asoslangan turli xil baholash usullari qo'llanilsa, sayyohlik salohiyatini kompleks baholash samaraliroq va ishonchli bo'ladi. Turistik resurslarni baholash hududlardagi turizm salohiyatini ochib beradi va uni investorlar uchun yuqori rentabelli, iqtisodiy va jozibador sohaga aylantiradi.

Tayanch iboralar va tushunchalar:

Turistik resurslar, turistik salohiyat, baholash usullari, kartografik usul, ekologik baholash, tibbiy-biologik baholash, iqtisodiy baholash, kompleks usullar

Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. Turistik – rekreatsiya resurslari va ularni belgilar nimalardan iborat?
2. Turistik resurslarni baholashni turizmdagi ahamiyati nimada?
3. Turistik resurslarni miqdor jihatdan baholashni tushuntiring.
4. Turistik resurslarni sifat jihatdan baholashni tushuntiring.
5. Tabiiy resurslarni baholashni turlarini tushuntirib bering.

6-BOB. MINTAQAVIY TURIZMNI RIVOJLANTIRISH RESURLARI

6.1. Mintaqaviy turizm bozori haqida tushuncha. Mintaqaviy turizmni o'ziga xos xususiyatlari

Har bir mintaqa yuqori natijalarga erishishi uchun, hududiy mehnat taqsimotida faol ishtirok etishi va uning asosida tashqi va ichki hamkorlari bilan samarali savdo-iqtisodiy aloqalarini rivojlantirishi maqsadga muvofiq. Buning uchun xo'jalik subyektlari bilan iqtisodiy munosabatlarni mintaqaviy bozorlar ishtirokida amalga oshirish lozim.

Mavjud iqtisodiy adabiyotlarda mintaqaviy bozor atamasi turlicha bayon etilib, olimlar o'rtasida yagona fikr yo'qligini aytib o'tish kerak. Fikrimizcha, mintaqaviy bozor hududlarda ayirboshlash tizimini ishlab chiqaruvchi va iste'molchi manfaatlarini muvofiqlashtirish asosida tashkil etishdan iborat. Mintaqaviy bozor ochiq ko'rinishga ega bo'lib, mamlakatning boshqa hududlari va xorij davlatlari bilan iqtisodiyaloqalarni rivojlantirishga qaratilgan. Mintaqada turli shakldagi bozor tizimi shakllanishini kuzatish mumkin. Bozor mintaqa iqtisodiyoti subyektlari o'rtasidagi iqtisodiymanfaatlarning oqilona uyg'unligini, moddiy, moliyaviy, mehnat va informatson resurslarni hududlar ichida va hududlararo ayirboshlash orqali hal qiladi.

Umuman, mintaqaviy bozorlar tizimi bu o'zaro bir-biri bilan bog'liq turli shakldagi bozorlar yig'indisidan iborat. Ularning asosiy maqsadi mintaqa iqtisodiyotini samarali rivojlanishini ta'minlashdan iborat.

Mintaqaviy bozorlar tizimini tadqiq qilishda turli qarashlar va ularni guruhlariga ajratish usullari mavjud. Masalan, D. Bleyr mintaqaviy bozorlar tizimini to'rtta guruhga ajratgan: zahiralar bozori, oraliq mahsulotlar bozori, oxirgi mahsulotlar bozori, moliyaviy bozor¹.

M. Templ mintaqaviy bozorlarni uch xil ko'rinishda taklif etgan. Birinchi ishlab chiqarish omillari (mehnat, Kapital, yer), ikkinchi – iste'mol tovarlari va xizmatlari bozori, uchinchi – uy-joy bozori². K.


¹Blair D. Local Economic Development. London, 1990

²Temple M. Regional Economics. London, 2004

Batn va P. Xouell quyidagi guruhlarni taklif etishgan: mehnat bozori, moliya bozori, tovar (xizmat)lar bozori¹.

Shuningdek, mintaqaviy bozorlar tizimi, moddiy ta'minot, hududiy joylashuv, savdo-sotiq obyektlari, xo'jalik subyektlari, iqtisodiy-huquqiy, qayta ishlab chiqarish kabi omillar asosida turli guruhlarga bo'linib tadqiqotlar o'tkazilgan². Ushbu guruhlash usullarining har birining o'ziga xos ijobiy va salbiy tomonlari bor. Eng asosiy masala guruhlash usuli, mintaqaviybozor oldiga qo'yilgan aniq maqsad va vazifalarni bajarishga qaratilishi lozim.

Biz xorij davlatlari iqtisodiy adabiyotlaridagi mintaqaviy bozorlar tizimini guruhlashning tajribasi va O'zbekistonda shakllanayotgan bozor munosabatlarini quyidagi shaklda mintaqaviy bozorlarni ajratib olgan holda tahlil qilishni taklif qilamiz (6.1-chizma).



6.1-chizma. Mintaqaviy bozorlar tizimi

Birinchi bosqichda mintaqaviy bozorlar tizimini beshta guruhga ajratilgan. Ular mehnat bozori, moliya bozori, istemol bozori, ko'chmas mulk va uy-joy bozori, informatsion texnologiyalar

¹Batn K., Howells P. Understanding Markets. London, 2009.

²Новоселов А.С. Региональные рынки. М. ИНФРА-М, 1999. – 479 с.

bozori. Keyingi navbatda mintaqa uchun eng ustuvor vazifalardan bo'lmish iste'mol bozorini shakllanishi va rivojlanishi ayrim guruhlariga bo'lingan. Ular oziq-ovqat bozori, nooziq-ovqat bozori va xizmatlar bozori. Xuddi shu tartibda boshqa mintaqaviy bozorlarni turli omillar nuqtai nazaridan alohida kichik guruhlariga ajratish mumkin.

Eng asosiysi mintaqa bozorini qanday usul va shaklda guruhlariga bo'lishdan qat'i nazar, ular uzviy aloqalar va iqtisodiy munosabatlar bilan boshlangan.

Mintaqaviy iste'mol bozorlari tarkibida xizmatlar bozori o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. Ularning ko'pchiligi mintaqa chegaralari doirasida o'z xizmatlarini amalga oshiradilar. Xizmatlar bozorida mintaqaviy turizmni alohida ko'rib chiqish maqsadga muvofiq¹.

Milliy va mintaqaviy turizm bozori birinchidan, jamiyatda iqtisodiy munosabatlar tizimini xarakterlaydigan iqtisodiy kategoriya; ikkinchidan, o'zaro ayirboshlash, ya'ni turizm mahsulotini pulga va pulni turistik mahsulotga aylanishi; uchinchidan, sotuvchi va iste'molchi o'rtasidagi munosabatlarning iqtisodiy mexanizmi sifatida namoyon bo'ladi.

Umuman mintaqaviy turizm bozori ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning ma'lum bir qismi bo'lib, turizm xizmatlariga bo'lgan talab va taklif mexanizmidir.

Mintaqaviy turizmni shakllanishining o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- ma'lum mintaq doirasida joylashganligi va uning kompleks xarakterga egaligi;
- asosiy jarayon xizmatlarni sotib olishdan iborat bo'lib, sotuvchi va oluvchidan tashqari turizm bozoridagi iqtisodiy munosabatlarda talab va taklif o'rtasidagi aloqalarni amalga oshiruvchi ko'pgina vositachi firmalar va tashkilotlarning mavjudligi;
- turizm xizmatlariga bo'lgan talabda ishtirok etuvchilarning turlicha va ko'p ekanligi (to'lov qobiliyati, maqsad va istaklari, o'rta sinf, jinsi, yoshi va boshqa omillar);

¹ Xidirova G.R. Mintaqaviy turizm bozorini rivojlantirish yo'llari. Monografiya. – Toshkent: Navro'z, 2018. –140 b.

- turistik taklifni ma'lum hududda bo'lishi, ma'lum masofa va vaqtni sarflashga olib kelishi;
- taklifni shakllanishida turistik salohiyatning mavjudligi (tabiiy va mavjud salohiyat) va tarmog'ning yuqori asosiy fondlar sig'imiga egaligi (ishlab chiqarish infratuzilmasi ob'ektlari);
- mintaqalardagi raqobatbardoshlik afzalliklaridan, jumladan, tabiiy-iqlim resurslari. Etnografik resurslar (madaniyat, qadriyatlar, milliy an'analar va boshqalar), antropogen resurslar (madaniy-tarixiy obidalar, arxitektura va shahar qurilishi obyektlari, muzeylar, teatrlar va boshqalar).

Har bir mintaqa o'zining turistik resurslari (salohiyati)ga ega bo'lib, ular turistlar tomonidan turlicha baholanadi. Bu o'rinda xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan, ichki va tashqi talab kuchli bo'lgan Samarqand, Buxoro, Xiva, Shaxrisabz, Toshkent kabi turistik markazlarni alohida ta'kidlab o'tish lozim.

Umuman olganda, mintaqaviy iqtisodiyot mintaqa va tarmoq o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar tizimi, mintaqaviy bozorlar tizimini, jumladan, mintaqaviy turizm bozorini shakllanishi va rivojlanishi ilmiy-nazariy asoslari mintaqa iqtisodiyotini modernizatsiyalash sharoitidagi o'рни va ahamiyati yanada oshishi zarurligini ko'rsatmoqda.

6.2. Mintaqaviy turizm turlari, maqsadi va tarkibiy qismlari

Mintaqaviy turizmning o'ziga xos xususiyatlarini belgilash maqsadida, uning muhim tasnifiy belgilarini aniqlab olish zarur bo'ladi. Jumladan, geografik va turistik talab yo'nalishi bo'yicha, safar maqsadi, harakatlanish usuli, turistlarni joylashtiruv vositalari va ishtirokchilar soni bo'yicha, tashkiliy-huquqiy shakllarini tasniflash maqsadga muvofiqdir.

Geografik va turistik talab yo'nalishi bo'yicha turizmning quyidagi turlarini ko'rsatish mumkin: «Milliy», «Xalqaro», «Hududiy (mintaqaviy)», «Ichki», «Kiruvchi» va «Chiquvchi».

Turizm sohasining tasniflanishi

№	Tasniflanadigan belgilar	Turizm turlari
1	Geografik va turistik talab yoʻnalishi boʻyicha	1. . Milliy 2. . Xalqaro 1.3. Hududiy (mintaqaviy) 1.4. Ichki 1.5. Kiruvchi 1.6. Chiquvchi
2	Maqsadlar boʻyicha	2.1. Tarixiy obidalar turizmi 2.2. Arxeologik turizm 2.3. Rekreatsion turizm 2.4. Sogʻlomlashtiruvchi dam olish 2.5. Malakaviy ish turizmi 2.6. Ilmiy turizm 2.7. Sport turizmi 2.8. Shop-turlar 2.9. Diniy turizm (haj safari, ziyorati) 2.10. Qoʻmsash, sogʻinish turizmi 2.11. Ekoturizm 2.12. Ovchilik turizmi 2.13. Gastronomiya turizmi 2.14. Safari turizmi
3	Moliyalashtirish manbai boʻyicha	3.1. Ijtimoiy turizm 3.2. Tijoriy turizm
4	Harakatlanish usuli boʻyicha	4.1. Yayov 4.2. Aviatransport 4.3. Dengiz transporti 4.4. Daryo transporti 4.5. Avto transport 4.6. Temir yoʻl transporti 4.7. Velosiped transporti 4.8. Ulovlarda 4.9. Aralash

5	Joylashuv vositalari bo'yicha	5.1. Otellarga, mehmonxonalarga 5.2. Motellarga 5.3. Pansionatlarga 5.4. Kempinglarga 5.5. Palatkalarga 5.6. Rotellarga 5.7. Botellarga 5.8. Sanatoriylarga 5.9. Flotellarga 5.10. Xostellarga 5.11. Otel-klublarga 5.12. Turbazalarga 5.13. Turistik uylarga 5.14. Appartamentlar
6	Ishtirok etuvchilar soni bo'yicha	6.1. Individual-yakka 6.2. Oilaviy 6.3. Guruhlar bo'lib
7	Tashkiliy shakllari bo'yicha	7.1. Tashkil etilgan 7.2. Tashkil etilmagan

Xalqaro turizm –mamlakat fuqarosining chet davlatlarga turistik maqsadlarda chiqishi va chet davlat fuqarolarining turistik maqsadlar bilan ushbu davlatga tashrif buyurishi hisoblanadi. Xalqaro turist tushunchasiga ko'ra, tashrif buyurgan xorijiy davlatga 24 soatdan kam bo'lmagan muddatga kelgan va malakaviy faoliyatiga haq to'lanmaydigan vaqtinchalik tashrif buyirgan turistlar kiradi.

Turistik oqimlarning yo'nalishi bo'yicha turizm turlari «Kiruvchi» va «Chiquvchi» toifalariga bo'linadi. Ko'pgina rivojlangan mamlakatlarda turizm turlari uyg'un holatda rivojlanadi, «ichki» va «tashqi» turizm sohasida muvozanat saqlanadi.

Turizm xizmatlar bozorini muvofiqlashtirishda Butunjahon turizm tashkiloti (BTT) ishlanmalari bo'yicha quyidagi nisbat tavsiya qilinadi:

1 ta kiruvchi turist–1 ta chiquvchi turist–4 ta ichki turist.

Ushbu nisbatning O'zbekiston bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlar natijasiga ko'ra, har bitta kiruvchi turistga 2,3 ta chiquvchi turist to'g'ri kelib, shularga nisbatan ichki turistlar soni 0,3 tani tashkil etmoqda.

1 ta kiruvchi turist–2,3 ta chiquvchi turist–0,3 ta ichki turist.

BTT tavsiyalari asosida O'zbekiston bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlar natijasiga ko'ra chiquvchi turistlar sonining kiruvchi turistlarga nisbatan 1,3 ta kishiga ko'pligini ko'rsatmoqda. Bu vaziyat O'zbekiston fuqarolarining oilaviy byudjetidan bevosita turistik maqsadlarga ajratilgan qismi ortib borayotganligini ifodalaydi. Bu o'z navbatida ijobiy ko'rsatkich bo'lishi bilan birgalikda uning salbiy oqibatlari ham mavjud bo'lib, Respublikadan chet el valyutasining chiqib ketishiga ham sabab bo'lmoqda. Yuqoridagi BTTning nisbatiga ko'ra ichki turizm 4 ta kishiga ega bo'lishi kerak edi, ammo O'zbekiston sharoitida bu ko'rsatkich 0,3 ta kishini tashkil qilib, ichki turizm salohiyatidan samarali foydalanish yetarli darajada emasligini ko'rsatmoqda.

Ichki turizm – O'zbekiston Respublikasida doimiy yashaydigan fuqarolarning O'zbekiston hududi bo'ylab qiladigan sayohati. Ichki turizm davlat chegaralarini kesib o'tish bilan va turistik rasmiyatchilik bilan bog'liq emas. Milliy valyuta, til, hujjatlar oldingidek o'zgarmasdan qoladi. Dunyodagi safarlarning 80-90 foizi ichki turizm ulushiga to'g'ri keladi. Unga qilinadigan harajatlar xalqaro turizm harajatlaridan 5-7 barobar kam bo'ladi. Ayniqsa, turizmning bu turi AQSH, Fransiya, Angliyada ommabop hisoblanadi.

Kiruvchi turizm – O'zbekiston Respublikasida doimiy yashamaydigan fuqarolarning O'zbekiston hududi bo'ylab qiladigan sayohati.

Chiquvchi turizm – O'zbekiston Respublikasida doimiy yashaydigan fuqarolarning o'zga mamlakatlarga qilgan sayohati.

Tarixiy obidalar turizmi –Buxoro, Xiva, Samarqand, Shahrisabz, Toshkent shaharlaridagi va respublikamiz tumanlaridagi tarixiy obidalarni ko'rishga qiziqish.

Arxeologik turizm – Samarqand, Buxoro, Xorazm va boshqa shaharlarning qoldiqlari, qadimiy qal'alar harobalari, ko'hna qadimiy Markaziy Osiyo xalqlari hayoti haqidagi arxeologik topilmalarni o'rganish.

Rekreatsioon turizm – (recreacia-tiklanish ma'nosida) dam olish maqsadidagi, turizm sifatida o'z tarkibida sog'lomlashtirish va jismoniy tiklanish maqsadlarini ham tashkil etadi. Rekreatsioon turizm qator davlatlar uchun turizmning ommaviy shakli bo'lib hisoblanadi. Shuningdek, **sog'lomlashtirish va davolash** maqsadlarida qilinadigan turizm – health and fitness tour or resort tour. Spa yoki health spa –

sanatoriylar, kurortlar, pansionatlar sogʻlomlashtiruvchi – davolovchi tashkilotlar, kurort zonalarida, shifobaxsh suvlar, shifobaxsh balchiqlar va boshqalar yordamida (shifobaxsh mineral suvli kurortlarda) olib boriladi. Turistik sohaga ixtisoslashtirilgan sogʻlomlashtirish maqsadlariga qarab, dam olish maskanlarida mineral suvlarni ichish yoki mineralli va oltingugurt vodorodli vannalar qabul qilish imkoniyatlari belgilanadi. Bunga misol tariqasida chet el shifobaxsh suvli kurortlaridan – Rossiyadagi Kavkazda joylashgan Kislovodsk, Jeleznovodsk, Pyategorsk, Yesentuki; Vishi, Vittel va Eks-le-Ben (Fransiya); Bad-Naukeym, Visbaden va Baden-Baden (Germaniya); Karlava Vari (Chexiya); Spa (Belgiya); Bat va Bakston (Buyuk Britaniya); Bursa (Turkiya); Atami (Yaponiya) termal buloqlarining kattagina qismini keltirish mumkin.

Oʻzbekistonda ham uning boy tabiati va iqlimidan kelib chiqqan holda, Fargʻona vodiysida joylashgan «Chortoq», «Shohimardon», «Arslonbob», «Oltiariq», «Chimyon», Samarqand viloyatida joylashgan «Abu Ali Ibn Sino», Buxorodagi «Sitorai Mohi-Xosa» va Toshkent viloyatida joylashgan «Chinobod» hamda «Turon» kabi mineral suv bilan davolash dam olish imkoniyatiga ega boʻlgan sanatoriylar, dam olish oromgohlari mavjud.

Malakaviy ish turizmi. Turizmning mazkur turiga ish maqsadlari bilan amalga oshirilgan safarlar kiradi. Hozirgi iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida xususiy tadbirkorlarning faoliyati xorijiy hamkorlar bilan ishlashni taqozo qilmoqda, shu tufayli mahalliy tadbirkorlarning xalqaro munosabatlari rivojlanib bormoqda. Ishchanlik turizmining afzalligi shundan iboratki, uni turizm sohasi uchun nomavsumiy paytda ham tashkil etish imkoniyatini beradi.

Turizmni mazkur turining oʻziga xos xususiyatlari shundan iboratki, ishchanlik vaziyatida oʻtadigan uchrashuv ishtirokchilari mamlakat boʻylab qilingan sayohat paytida oddiy turistga nisbatan koʻproq mablagʻ sarflaydi. Shuning uchun koʻpgina davlatlar xalqaro forumlarni va shunga oʻxshash tadbirlarni oʻz mamlakatida oʻtkazishga harakat qiladilar (masalan, turli forum, festival, qishki va yozgi sport musobaqalari va h.k.).

Ilmiy turizm. Oʻqish, taʼlim olish maqsadida, malaka oshirish maqsadida safar qilish xalqaro turizmning nisbatan yangi turlari safiga kiradi. Xorijda taʼlim olish uchun safar qilish Oʻzbekistonda ham turbiznesning yangi segmentlaridan biri boʻlib hisoblanadi. Ushbu

safarlarning ommabop bo'lib borayotgan turi bu xorijiy til o'rganish maqsadida Buyuk Britaniyaga va boshqa ingliz tilida so'zlashadigan davlatlarga safarlarni amalga oshirish.

Hozirgi vaqtda katta qiziqish uyg'otayotgan **sport turizmining** asosiy maqsadi turistlarga o'zlari tanlagan sport turi bilan shug'ullanishga imkoniyat yaratib berishdan iborat. Sport turizmi zaruriy baza mavjudligini talab etadi: turli inventarlarni, maxsus trassalarni, arqon yo'llar, sport maydonchalarini, asbob-uskunalarini talab etadi. Sport turizmi bo'yicha sayohatlarga qo'yiladigan asosiy talablardan biri bu- dam oluvchilarning xavfsizligini ta'minlash hisoblanadi. Sport turizmining sayohatlari safarlarning maqsadiga bog'liq ravishda 2 turga bo'linadi: aktiv va passiv ravishda bo'lishi mumkin.

Shop-turlar Rossiya va Mustaqil davlatlar hamdo'stligi (MDH) davlatlari uchun xos bo'lgan xorijga tashrifning asosiy maqsadi bo'lib, ushbu mamlakatda tanqis bo'lgan xalq iste'mol tovarlarini harid qilish va uni o'z mamlakatida sotish hisoblanadi (poyafzal, trikotaj, yozgi va qishki kiyimlar va boshqa mahsulotlar – Xitoy, Turkiya, Italiya, Portugaliyadan; mebel va jihozlar – Dubay, Xitoy va Italiyadan; tele-radio mahsulotlar – Birlashgan Arab Amirliklari (BAA), Xitoydan; avtomashinalar –Germaniya, Janubiy Koreya, Birlashgan Arab Amirliklaridan).

Diniy turizm (religious or pilgrim tour) ziyorat qilish maqsadidagi sayohat sifatida hozirgi kunda juda yuqori talabga ega bo'lib, ommaviy tus olmoqda. Mustaqilligimiz sharofati bilan har yili ko'plab vatandoshlarimiz Makka-yu Madinaga haj va Umra safarlarini amalga oshirmoqdalar. Dunyodagi ko'pgina odamlar Makkai Mukarrama, muqaddas yer bo'lgan, Vatikan ibodatxonalari va boshqa joylarni ziyorat qilish uchun sayohat qilishadi. O'zbekistonda bunday muqaddas ziyorat qiladigan joylarga Samarqand, Buxoro, Xorazm va boshqa viloyatlarimizda joylashgan tarixiy yodgorliklar misol bo'la oladi. Ayniqsa, musulmon olami uchun kichik haj hisoblangan, Imom al-Buxoriy, Bahouddin Naqshband, Abduholiq G'ijduvoni, Imom al-Motrudiy, Mahmudi A'zam, Hakim at-Termiziy, Hazrati Imom ziyoratgohlari diniy turizmni rivojlantirishda muhim o'ringa ega bo'lmoqda.

Qo'msash, sog'inish turizmi– bu asosan qarindosh yoki do'stlarini ko'rishga mo'ljallangan bo'lib, o'z mamlakatlaridan ayrim

sabablarga ko'ra ko'chib ketgan kishilar bilan bog'liqdir. Ko'chib ketganlar shartli ravishda ikki turga bo'linadi:

- majburiy ko'chganlar, o'zlarining tarixiy yerlarini diniy, harbiy yoki siyosiy sabablariga ko'ra tashlab ketganlar.
- o'z xohishlari bo'yicha ko'chganlar – yaxshi hayot izlab o'z yurtlarini tashlab ketganlar.

Majburiy ko'chganlar – sayyoramizda ko'pchilikni tashkil qiladi. Aholi migratsiyasi iqtisodiy, siyosiy va diniy omillar ta'sirida bo'ladi. Bunga misol tariqasida, Sobiq Ittifoq davrining 1940-yillarida amalga oshirilgan majburiy qator millatlar bo'lgan qrim-tatarlar, Kavkaz orti mamlakatlari fuqarolari, nemislar, yahudiylar, turklarning ko'chib kelishlari va o'z yurtlariga qayta ko'chib ketishlarini keltirish mumkin.

Qo'msash turizmga yaqqol misol bo'lib, O'zbekistonda Sobiq ittifoq davrida yashagan va hozirgi paytda ham ularning qarindosh urug'lari respublikamizning turli shaharlarida faoliyat ko'rsatib kelayotgan qrim-tatar, kavkaz xalqlari, nemislar va boshqa millatga mansub bo'lgan aholini ko'rsatishimiz mumkin.

Ekoturizm deganda, nafaqat ma'rifiy-ma'naviy maqsadlarni ko'zlagan holda betakror tabiiy hududlarga, ularning hayvonot va o'simlik dunyosiga sayohat, balki ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni amalga oshirilishi yordamida ekologik muammolarini hal qilish bilan bir-biriga bog'liq majmualar yig'indisini tushunamiz. (O'zbekistonda ekologik turizmni rivojlantirish Konsepsiyasi. // Ekologiya xabarnomasi. № 6, 2007 y.).

Ovchilik turizmi – Respublikamizda ov qilishning huquqiy-qonuniy me'yorlari yaratilgan bo'lib, ovchilikning turli yo'nalishlari bo'yicha katta salohiyatga ega bo'lgan tabiiy-hududiy mintaqalari bo'lgan daryolarning suv havzalari, tog' oldi zonalari, cho'l va adir hududlarining mavjudligi. Bunga misol qilib, Nurota, Forij, Birchmulla, Baxmal, Zomin tog' zonalari, Arnasoy, Haydarko'l, To'dako'l, Shurko'l suv havzalari; Ustyurt platasi, Qizilqum, Konime~~x~~ cho'l zonalarini keltirsak bo'ladi.

Gastronomiya turizmi – bu mamlakatlar va qit'alar bo'ylab sayohat qilish hisoblanib, maqsadi mahalliy oshxona xususiyatlari bilan tanishish hamda kelgan sayyohlarga antiqa taom va mahsulotlardan tatib ko'rishga imkon yaratadi. Gastronomik tur

xizmat sifatida nafaqat sayohat qilish bo‘lib hisoblanadi, balki dunyoning boshqa biror joyida takrorlanmaydigan va betakror ta‘mga ega bo‘lgan masalliklardan tarkib topgan ma‘lum bir hududdagina uchrovchi taomlarni tatib ko‘rishga qaratilgan tadbirlar majmuyiga kiradi.

Safari turizmi qo‘riqxonaga hayvonlarni tomosha qilish uchun sayr, ovchilik, baliq ovi maqsadidagi sayohat, fotoovchilik, tabiatda ajoyib hayvonlarni erkin holda ko‘rish maqsadidagi sayrlar. Sayohat dasturiga nafaqat mahalliy joylarni ko‘rish, balki tog‘li hududda avtomobil boshqarish, to‘siqlarni yengib o‘tish, lager hayotiga o‘rganish, favqulodda vaziyatlarda yashab keta olish kabilarni o‘rgatadi.

Ijtimoiy turizm – bu davlat tomonidan ijtimoiy ehtiyojlarga ajratiladigan mablag‘lar hisobidan sayohat qilish hisoblanadi. Ijtimoiy turizmning maqsadi foyda olish emas, balki daromadi kam bo‘lgan kishilarni dam olishga bo‘lgan huquqini amalga oshirish uchun ularni qo‘llab-quvvatlash hisoblanadi. Turizmning mazkur turi chet elda keng tarqalgan. Sobiq Ittifoq davrida ham turizmning mazkur turi ommabop hisoblangan, uning ulushiga ichki turizmning qariyb 80 foizi va xalqaro turizmning 50 foizi to‘g‘ri kelardi.

Tashkil etilgan turizm – bu tur tashkilotlar tomonidan tashkil etilgan alohida shaxslarni yoki bir guruh turistlarning sayohatidir. Tashkil etilgan tur bo‘yicha turistlar turistik yo‘llanmani xarid qilish yo‘li bilan sayohatga chiqish huquqini qo‘lga kiritadilar. Bunda xizmat turlari turlicha bo‘lishi mumkin. Masalan, turistlar turistik yo‘llanmasiz borganda, xizmatlar majmuasini, ya‘ni transport, ovqatlanish, yashash xizmatlari uchun borgan joyida kursovkanini xarid qilib olishlari mumkin.

6.3. Mintaqaviy turizmni rivojlantirish bosqichlari

O‘zbekistonda iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari qatorida turizm sohasining Markazlashgan Ma‘muriy Boshqaruv tizimi 1971–1991-yillar davriga to‘g‘ri keldi. Bu davrda salbiy oqibatlar ham ko‘zga tashlana boshladi. Qurilmay qolgan turistik-rekreatsion maqsadidagi obyektlar sonining ko‘payishi, mavjudlarida esa mijozlarga ko‘rsatilgan xizmatlarning sifati bo‘yicha ko‘plab e‘tirozlar paydo bo‘la boshladi. Ijtimoiy tadqiqotlarga ko‘ra mehmonxonalar, turbazalar, dam olish uylari hamda pansionatlar tomonidan taklif qilinadigan 50 foizgacha bo‘lgan barcha xizmatlar fuqarolarning

noroziligini keltirib chiqargan. Joylashtirish va ovqatlantirish xizmatlari bilan birga hordiq chiqarish va tibbiy xizmat ko'rsatish talab darajasida bo'lmagan. Turistik xizmat turlari va hajmi sezilarsiz va sifatsiz bo'lgan.

O'zbekistonning turizm sohasidagi rivojlanishni shartli ravishda to'rtta bosqichga ajratsak bo'ladi.

Birinchi bosqich. Mustaqillikka erishgach, **1991-yildan** keyin O'zbekistonning turistik xizmatlar bozori shakllana boshladi. Aynan shu davrda Respublika o'zining iqtisodiy mustaqilligini va mustaqil ravishda tashqi dunyo bozorlariga chiqishini e'lon qildi. Shu davrda qabul qilingan tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risidagi qonun turistik xizmatlarni sotuvchi korxonalarga yangi asos yaratdi. Natijada, tarmoqda yangi boshqaruv tizimini shakllantirish, turistik biznesni yuritishga yordamlashadigan qo'shimcha biznes turlarini yaratish, sohaga xizmat qiladigan bank, audit, maslahat xizmatlarini tashkil etish, viloyatlarda turizm tarmog'ining mintaqaviy bo'linmalarini tuzish, xalqaro miqyosda turizm mahsulotini reklama qilish, xususiylashtirilgan turistik korxonalarni litsenziyalashtirish kabi masalalarga alohida e'tibor berildi. Mustaqillikdan keyin, turizm sohasida bir vaqtning o'zida uchta muhim jarayon amalga oshirildi:

- birinchi jarayon: eski tizimdagi korxona va tashkilotlarning tanazzulga uchrashi (ekskursiya byurosi, sayohat byurosi), o'zlarining tuzilishi va faoliyat turiga ko'ra yangi xizmat ko'rsatish talablariga javob bermay qoldi;
- ikkinchi jarayon: turoperator va turagent sifatida nomlangan yangi tashkilotlar tuzildi;
- uchinchi jarayon: eski turistik korxonalarni qayta qurish yo'li bilan O'zbekiston va xorijiy iste'molchilar talab qiluvchi turistik mahsulotni ishlab chiqish yo'lga qo'yildi.

1992-yilda Respublikada «O'zbekturizm» Milliy Kompaniyasi tashkil etildi va turizm sohasida bu kompaniya barcha tashkiliy, boshqaruv hamda muvofiqlashtirish funksiyalarini amalga oshira boshladi. 1993-yilda «O'zbekturizm» Milliy Kompaniyasi Butunjahon turizm tashkilotiga (BTT) haqiqiy a'zo bo'lib kirdi. Bu jarayon o'z navbatida xalqaro turizmni rivojlantirishda muhim omil bo'lib xizmat qildi. 1994-yilda BMT ning YUNESKO tashkiloti hamda O'zbekiston hukumatining tashabbusi bilan Samarqand

shahrida Buyuk Ipak yo'lidagi shaharlarda xalqaro turizmni rivojlantirish bo'yicha Samarqand Deklaratsiyasi qabul qilindi.

Bu bosqich mobaynida, ya'ni 1994-yilda ishlab chiqilgan «Turistik korxonalarni xususiylashtirish va davlat tasarrufidan chiqarish dasturi» chuqur tizimli – institutsional o'zgarishlarni amalga oshirishda juda katta ahamiyat kasb etdi. 1994–1995-yillar mobaynida «O'zbekturizm» Milliy Kompaniyasining 87,8 foiz turistik obyektlari xususiylashtirildi va davlat tasarrufidan chiqarilgan edi.

Amalga oshirilgan o'zgarishlar turistlarni qabul qilish shaklini jadallik bilan rivojlantirdi. 1995-yilda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Buyuk ipak yo'lini qayta tiklashda O'zbekiston Respublikasining ishtirokini avj oldirish va Respublikada xalqaro turizmni rivojlantirish borasidagi chora-tadbirlar to'g'risida»gi Farmoni¹ Buyuk Ipak yo'lida turistik mahsulotni tiklash borasida strategik ahamiyatga ega bo'ldi.

Bu o'z navbatida O'zbekiston turizm sohasidagi islohotlarning **ikkinchi bosqichini** boshlab berdi. Natijada Buyuk Ipak yo'lidagi shaharlar va turistik manzillar ro'yxatga olindi, Imom al-Buxoriy, Bahouddin Naqshband, Abduholiq G'ijduvoni, Ahmad al-Farg'oni, Imom al-Motrudiy, Mahmudi A'zam, Hakim at-Termiziy, Hazrati Imom, Shayx Shamsiddin Kulol, Burxoniddin Marg'iloniy, Buxorodagi Chor Bakrlar kabi allomalarimizning maqbaralari tamirlandi va ziyoratgoh majmualarga aylantirildi. 1998-yildan boshlab, Toshkent shahrida muntazam ravishda Xalqaro turistik ko'rgazma tashkil etila boshlandi, mehmonxonalaridagi xalqaro talablarga javob beruvchi o'rinlar soni 4,8 barobarga ko'paytirildi.

Bu bosqichda O'zbekistonning turizm sohasida quyidagi masalalari amalga oshirildi:

- davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish jarayoni;
- yangi xorijiy investorlarni jalb qilish;
- tashqi bozorlarga chiqishning yangi yo'llarini izlash;
- xalqaro ko'rgazmalarga chiqish (Berlin, London, Madrid, Moskva);
- turistik korxonalar va sayohatchilarning manfaatlarini himoyalovchi nodavlat tashkilotlarning vujudga kelishi;

¹<http://www.Lex.uz>

- turistik yo‘nalishlarning rang-barangligini ta’minlash, mahsulotning ekologik talablarini kuchaytirish, yangi hududlarni turistik diqqatga sazovor joylar sifatida ochish;
- O‘zbekiston mehmonxonalarida xorijiy menejmentni qo‘llash;
- kichik mehmonxonalar tarmog‘ini kengaytirish;
- turizm sohasida mutaxassislarni tayyorlash (o‘rta maxsus hamda oliy ta’lim bosqichida);
- xorijiy tajribalarni o‘rganish;
- ilmiy loyihalar tayyorlash;
- BTT tadqiqot guruhining O‘zbekistonga kelishi va «Turizm to‘g‘risida»gi Qonunni tayyorlash borasidagi ishlar;
- turfirmalarning nodavlat va korporativ tashkilotlar «Ustoz», «Meros», «Ekosan» va h.k. bilan aloqalari yo‘lga qo‘yildi.

Turizm sohasidagi islohotlarning **uchinchi bosqichida**, 1999-yil 15-aprelda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «2005-yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekistonda turizmni rivojlantirish davlat dasturi to‘g‘risida»gi Farmoni e‘lon qilindi, shu yilning 20-avgustida esa O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan «Turizm to‘g‘risida»gi Qonun qabul qilindi. Buning asosida turizm sohasidagi bozor munosabatlari uzil-kesil yo‘lga qo‘yildi hamda xalqaro bozorda raqobatbardosh turistik mahsulot yaratila boshlandi, turizm tizimini boshqarishning markazlashtirilishiga chek qo‘yildi. Ko‘pchilik turistik obyektlar o‘zlarini mustaqil ravishda boshqara boshladi, xizmatlar bozorida raqobatlasha olmaydigan korxonalar yopilib, ular o‘rniga samarali ishlovchi yangi korxonalar tashkil etildi.

2000-yildan boshlab, Respublikamiz turizm sohasi yuqori sur‘atlar bilan rivojlana boshladi. Turizm sohasidan olinayotgan daromadlar yiliga 20 va undan ortiq foizlarda o‘sa boshladi. 2001-yilning oxirida Afg‘onistondagi tolibonlarga qarshi harakatlarning boshlanishi o‘lkamizga kelayotgan turistlar oqimini ikki yil davomida ancha kamaytirib yuborganidan so‘ng, 2003-yilning ikkinchi yarmiga kelib, o‘lkamiz turizmi yana o‘zini o‘nglab oldi. Sharqiy Osiyoda o‘tgan yillarda tarqalgan odatdan tashqari Pnevmaniya (Sars) va Parranda grippi kabi kasalliklar O‘zbekiston turizmiga 2001-yil 11-sentabr voqealaridek kuchli ta’sir ko‘rsata olmadi.

Turizm sohasidagi islohotlarning **to‘rtinchi bosqichi 2000-yildan boshlangan bo‘lib hozirgi kungacha** davom etmoqda. Bu

davrda xususiy turistik tashkilotlar assotsiatsiyasiga va tashkil etiladigan boshqa turistik assotsiatsiyalarga asos qo'yildi (Gid-tarjimonlar assotsiatsiyasi, Mehmonxona egalari assotsiatsiyasi, Transportchilar assotsiatsiyasi) va «O'zbekturizm» Milliy Kompaniyasining bir qator vakolatlarini o'tkazish ustida izlanishlar olib borildi. Bu o'lkamiz turizm xizmatlar bozorida faoliyat yurituvchi korxonalarning yanada tezroq sur'atlarda rivojlantirishga yordam berdi.


O'zbekiston Respublikasining bu davrdagi amalga oshirilgan o'lgan ishlarini hisobga olib, Islom konferensiyasi tashkiloti (OIK) tarkibidagi muassasalardan biri – Ta'lim, Fan va madaniyat masalalari bo'yicha Xalqaro islom tashkiloti (ISESCO) Toshkentni 2007-yilda Xalqaro islom madaniyati markazi deb e'lon qildi. O'zbekistonning islom madaniyati va ilmi oldidagi, islom merosi va yodgorliklarini asrash va yanada boyitish borasidagi mislsiz xizmatlari uchun Toshkent shunday yuksak va faxrli unvonga sazavor bo'ldi.

Shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki, 1993-yilda mamlakatimizda bor yo'g'i 4 ta xususiy turistik firma bo'lgan bo'lsa, hozirgi kunda turizm xizmatlarining nodavlat sektorida 800 ta turistik firma va mehmonxona, shu jumladan umumiy sig'imi 30 ming joydan iborat 500 ta mehmonxona va 300 ga yaqin turoperator va turagentlar faoliyat olib bormoqdalar.¹

O'zbekistondagi turizm sohasining 2002–2019-yillar davomidagi rivojlanish dinamikasini O'zbekiston Davlat statistika qo'mitasining statistik ma'lumotlari ko'rsatmoqda (6.2-jadval va 6.2-rasm).

2017-2019 yillar davomida turizm xizmatlari eksporti hajmi ikki baravar oshdi 2017 yilda 546,9 million AQSh dollarini tashkil etgan bo'lsa, 2018 yilda esa - 1 mlrd 041 million AQSh dollarini, 2019 yil 1 mlrd 313 mln AQSh dollarini tashkil etdi. 2016 yilgacha xorijiy tashrif buyuruvchilar sonining o'sish sur'ati o'rtacha yillik 8 foizni, 2017 yilda - 7 foizni tashkil qilib, 2,84 million nafardan oshdi. 2018 yil yakunlari bo'yicha respublikaga 5,3 million xorijiy turistlar tashrif buyurgan bo'lsa, 2019 yil 6,7 million kishini tashkil etdi.

¹ Turizm istiqbollari. // O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi. № 1, 2014. - 11 b.




6.2.-rasm. 2002-2019 yillarda O‘zRga kelgan chet el fuqarolari soni, ming kishi

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma‘lumotlari. [www. stat.uz](http://www.stat.uz)

Turistik xizmatlar bozori har qanday davlat, viloyat, tumanning iqtisodiyotiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Iqtisodchilarning baholariga qaraganda, undan olinadigan pul tushumlari bir yil davomida 3 martadan 5 martagacha muomalada bo‘ladi. Katta mablag‘lar talab qilishiga qaramay, turizm sohasiga kapital qo‘yish ancha foydalidir, chunki bu mablag‘lar nisbatan tez muddatda o‘zini oqlaydi, bundan tashqari O‘zbekiston iqtisodiyotiga asosan xorijiy valyutada sarmoya keltiradi.

6.4. Milliy, mintaqaviy va mahalliy darajalarda turizmni rivojlantirish rejalarini ishlab chiqish bosqichlari

Milliy, mintaqaviy va mahalliy bosqichlarda turizmni rejalashtirish jarayoni quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi (6.5-chizma)¹. Ko‘rsatilgan bosqichlarning har birini tavsiflaymiz:



6.5-chizma. Turizmni rejalashtirish jarayoni bosqichlari

¹ Юреев А.П. Планирование туризма. Учебное пособие. – Донецк, 2003 г.

1. Rejalashtirishning maqsadlari, yoʻnalishlari va vazifalarini belgilab olish. Turli ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarga mos ravishda va turizmga etishi mumkin boʻlgan minimal salbiy taʼsirlarni hisobga olgan holda turizmni rivojlantirish zaruriyati, imkoniyati va yoʻllari baholanadi.

2. Tadqiqotni tayyorlash. Turizmni rivojlantirish sohasidagi istiqbollar ochib beriladi va moʻljallar belgilab olinadi, iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy muammolar, shuningdek, eng muhim institutsional elementlar (tashkil qilish va boshqarish, qonunchilik va meʼyoriy hujjatlar, investitsiyalarni jalb etish va h.k.) koʻrib chiqiladi. Rejani bajaruvchilarni tanlab olish, mahalliy hokimiyat organlari va jamoatchilikni jalb qilish, tadqiqotni oʻtkazishni tashkil qilish amalga oshiriladi.

3. Rejalashtirishning barcha elementlarini tadqiq etish. Bunda turizmning barcha jihatlari (geografiya, raqobatlashuvchi turistik firmalar, turistlarning kelishidagi tendentsiyalar, mavjud va potentsial diqqatga sazovor joylar, joylashtirish, transport ovqatlanish vositalari va sh.k.) boʻyicha miqdoriy va sifat omillari va koʻrsatkichlari aniqlanadi, bevosita joyning oʻzida obʼektlar tadqiq etiladi, hujjatlar oʻrganiladi, mahalliy hokimiyat organlari va jamoatchilik vakillari bilan munozarali kengashlar oʻtkaziladi.

4. Analiz va sintez. Turizmning rejalatrilayotgan turining barcha tashkil etuvchilarini tadqiq qilish natijasida olingan axborotni sifat va son jihatidan qayta ishlash amalga oshiriladi, shuningdek, ishlarning holatini yanada toʻliqroq tushunish uchun tahlilning turli komponentlari birlashtiriladi va integratsiya qilinadi. Turizm bozorining konʼyunkturasi va uni iqtisodiy taʼsirlar, turizmning institutsion elementlari va sh.k.lar tahlil qilinadi.

Turizmni rivojlantirishning asosiy imkoniyatlari, undan muammolar va toʻsqinlik qiluvchi omillar aniqlanadi, turistik biznes sifatini pasaytiruvchi toʻsiqlarni bartaraf etish boʻyicha zarur tavsiyalar ishlab chiqiladi. Oʻxshash turistik mahsulotlar va bozorlarga ega mavjud va ehtimol tutilgan potentsial raqobatchilarning faoliyati hisobga olinadi.

5. Siyosat va rejani ishlab chiqish. Turizmni rivojlantirish siyosati va tegishli strukturaviy reja ishlab chiqiladi. Birinchi navbatda rivojlantirishning sarf-xarajatlar va foyda muvozanatda boʻladigan muqobil variantlari koʻrib chiqiladi. Bunda quyidagi mezonlar

qo'llaniladi: rivojlantirish masalalarini hal qilishning ehtimol tutilgan murakkabligi, iqtisodiy foydalarni optimallashtirish, ijobiy ekologik va ijtimoiy-madaniy omillarni kuchaytirish, salbiylarining ta'sirini eng kam darajaga yetkazish, boshqa turistik korxonalar bilan samarali raqobat qilish. Ko'p variantli baholash asosida siyosatning so'nggi yo'nalishlari va reja tuzilishi aniqlab olinadi.

Rejalashtirishning ushbu bosqichida turizmni rivojlantirish va takomillashtirishning eng maqsadga muvofiq modellarini qabul qilish uchun mahalliy hokimiyat organlari va boshqa manfaatdor tomonlar bilan mustahkam aloqa bog'lash zarur.

6. Boshqa tavsiyalar. Ko'pvariantli modellar tuziladi va ulardan eng maqsadga muvofiqlari tanlab olinadi.

7. Rejani bajarish va nazorat qilish. Rejaning so'nggi variant haqqoniy va bajarish mumkin bo'lishi uchun zarur bo'lgan rejani amalga oshirish modellari ishlab chiqiladi.

Rejani amalga oshirish bo'yicha ishlar davomida uni bajarish muddatlari va bo'limlari bo'yicha nazoratqilinadi. Bu yo'l qo'yilgan chekinishlarni aniqlash va ularni bartaraf qilish bo'yicha tezkor choralar qabul qilishga imkon beradi.

Tayanch iborolar va tushunchalar

Mintaqaviy turizm, mintaqaviy turizm bozori, turizm turlari, ekoturizm, ovchilik turizmi, reja, rejalashtirish


Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. Geografik va turistik talab yo'nalishi bo'yicha turizmning quyidagi turlarini ko'rsatish mumkin:
2. O'zbekistonning turizm sohasidagi rivojlanishni shartli ravishda nechta bosqichga ajratsak bo'ladi?
3. Milliy, mintaqaviy va mahalliy bosqichlarda turizmni rejalashtirish jarayoni qaysi bosqichlarni o'z ichiga oladi?

7-BOB. DINIY TURIZMNI RIVOJLANTIRISH RESURSLARI

7.1. Diniy turizm to'g'risida tushuncha

Dunyodagi eng katta din (izdoshlari soni bo'yicha) nasroniyligidini hisoblanib; XX asr davomida nasroniylarning yer yuzi umumiy aholisidagi ulushi deyarli 33% ni tashkil qiladi. Islom ikkinchi dunyo dini hisoblanadi (dunyo aholisining 23%). Imonsizlar va ateistlarning soni juda ziddiyatli bo'lib, turli tadqiqotlar orqali dunyo aholisining 11-16 foizida baholanmoqda. Dunyo aholisining kichik bo'lmagan qismi hindular (14-15%), Buddistlar (7%) va an'anaviy dinlarning tarafdorlari.



Bugungi kunda musulmon aholisining soni 1,8 mlrd.kishini, ya'ni dunyo aholisining 24,1 % ni tashkil etmoqda.

A.Yu.Aleksandrovaning fikricha dunyoda 11 ta ziyoratning makro hududlari mavjud bo'lib, xar bir makro hudud asosan dunyo bo'ylab ziyorat markazlari bilan tanilgan¹.

- Xristian Yevropasi;
- Shimoliy Amerika nasroniyligining dominant pozitsiyasi va boshqa ko'plab dinlar bilan;
- xristianlik asosiy o'rinni egallagan va boshqa ko'psonli dinlar mavjud bo'lgan Shimoliy Amerika;
- Xristianlik va an'anaviy dinlar bilan Lotin Amerikasi;
- Islom dini ustun bo'lgan Shimoliy Afrika;

¹ Александрова А.Ю. Международный туризм – М.: Аспект Пресс, 2001.

- Islom hukmron va alohida xristianlik va an'anaviy dinlar mavjud G'arbiy va Sharqiy Afrika;
- Hinduizm va buddizm keng tarqalgan shuningdek, nasroniylik, jainizm, sikhizm va islom mavjud bo'lgan Janubiy Osiyo;
- buddizm, konfutsiylik, sintoizm ustun bo'lgan, hamda islom va nasroniylikning ishtirokchilari mavjud bo'lgan Janubi-Sharqiy Osiyo;
- Buddizm bilan (asosan lamaizm) mustahkamlangan Markaziy Osiyo;
- Islom hukmron O'rta Osiyo;
- G'arbiy Osiyo islom hukmronligi, hamda nasroniylik va yahudiylik anklavlari bilan.

Har bir makrohudud eng avvalo ziyoratning jahoniy markazlari bilan mashhur. Ular e'tiqodchilarning xalqaro oqimini qabul, qiladilar va ko'pincha diniy ixtisoslashtirishning ma'muriy, sanoat, madaniy va turistik markazlari funksiyalari bilan qo'shib ketadilar. Bundan tashqari, makrohududlarda milliy va mahalliy ahamiyatga ega diniy sig'inish obyektlari mavjud.

Din, barcha ijtimoiy sohalarda bo'lgani kabi turizm sohasida ham muhim faoliyatga ega. Insoniyat tarixida sayohat hodisasi va din o'rtasida bevosita bog'liqlik mavjudligi ma'lum. Islom odamlarga o'tmish sivilizatsiyalari tarixi va madaniy merosiga ibrat sifatida qarashni buyuradi. Qur'onning sayohatga oid tavsiyalari imon poydevorida hisobga olinsa, musulmonlar sayyohlik faoliyatida faol bo'lishi kerak degan xulosaga kelish mumkin. Shu nuqtai nazardan shuni aytish mumkinki, turizm hodisasi shunchaki dam olish faoliyati emas. Islom geografiyasi boy tarixiy, diniy, madaniy va tabiiy-turistik tarixga ega. Ammo bu boy imkoniyatdan musulmonlar yetarli darajada foyda ko'rishgan deb ayta olmaymiz. Bunda qaysi omillar ta'sirchan va qay darajada o'rganish kerak.

Garchi turizm zamonaviy ko'rinishga ega bo'lsa-da, asosan, qadimiy sayohatlarga asoslangan. Aslida, bu hodisa Qur'oni Karimda sayohat va shunga o'xshash tushunchalar bilan ifodalangan. Qur'ondagi ushbu tushunchalarga nazar tashlaganimizda, odamlar yer yuzida sayr qilishlari, tabiatni kuzatishlari, o'tmishdagi xalqlarning tarixini o'rganishlari, undan saboq olishlari, yer yuzini iqtisodiy yutuqlar uchun tarqatishlari va ilohiy ne'matlarga ega bo'lishlari kerakligini ko'rishimiz mumkin. Hz. Payg'ambar odamlarni shu

maqsadda sayohat qilish bilan birga ruhlantiradi. Ushbu masalalarning barchasini ko‘rib chiqsak, islom dinni ritorika, tijorat, ilmiy va madaniy sohalarda foydali va qonuniy yutuqlarga erishish uchun rag‘batlantiradi, deyish mumkin.

Islom olamida sayohat juda qadimgi davrlardan beri mavjud deb aytish mumkin. Islom tarixi boshlangandan beri musulmonlar islom dinini targ‘ib qilish, savdo-sotiqni yuritish va bilimlarni to‘plash uchun turli sayohatlarni amalga oshirganlar. Islom tafakkur dunyosida rol o‘ynaydigan ko‘plab mutafakkirlarning, olimlarning va shogirdlarning (murshid) sayohatlari bunga misoldir. Imom G‘azzoliy, Imom Al-Buxoriy, Imom Shofiiy, Muhyiddinni Arabiy kabi qator odamlarning ilmiy sayohatlari ushbu doiraga kiritilgan. Ayniqsa, hadis ilmlari bilan shug‘ullanadiganlar, o‘rganish maqsadi bilan va tafakkur tariximizda rixl (rihle) sifatida tanilgan sayohatlar bilan mashhurdir. Ayniqsa, Abbosiylar davrida muhim siyosiy, tijorat, ilmiy va madaniy markazlarga aylangan shaharlarning mavjudligi – Bog‘dod, Kufa, Basra, Jundishapur, Damashq, Qohira, Kayrevan, Kurtuba, ko‘p qirrali sayohatlarga olib keldi. Shu bilan birga, o‘rta asrlarda Islom dunyosida ma‘lum bo‘lgan ko‘plab sayohatchilarning borligi shundan dalolat beradi.

Musulmonlarning islom tarixining ilk davrlaridan boshlab sayyohatlarda faol ishtirok etishi islom dinida sayyohatga yo‘naltirilgan ijobiy bir fikr borligidan dalolat beradi. Biroq islom dinida, ushbu maxsus misollardan tashqari, odamlarni sayohat qilishga rag‘batlantiradigan turli xil manbalarga murojaat qilish mumkin. Xususan, Qur’oni Karim va turli xil hadislarda sayohat odamlar uchun yaxshi va foydali faoliyat ekanligi va musulmonlarning bunday faoliyatlarda islomiy buyruq va taqiqlarga muvofiq ishtirok etishlari tavsiya qilingan.

Islomning muqaddas kitobi bo‘lgan Qur’oni Karimda mo‘minlarni sayohat qilishga, sayohat qilish orqali o‘rganishga va uchraganqavmlardanibratlar olishga chorlovchi ko‘plab oyatlar mavjud: Mulk surasi, 15-oyat; Oli Imron surasi, 137-oyat; An‘om surasi, 11-oyat; Yusuf surasi, 109-oyat; Nahl surasi, 36-oyat; Naml surasi, 69-oyat; Ankabut surasi, 20-oyat; Rum surasi, 42-oyat; Haj surasi, 46-oyat; Fotir surasi, 44-oyat; Mo‘minun surasi, 82-oyat; Saba’ surasi, 18-oyat; Zuxruf surasi, 12-oyat; Muhammad surasi, 10-oyat.

Islom dinida Hz. Muhammadning soʻzlari, tushuntirishlari, maslahatlari va hayot tarzi musulmonlar uchun muhim maʼlumotlarmanbalardir. Hz. Muhammad butun umri davomida juda koʻp sayohat qilgani ham Islomdagi sayohatlarning holati toʻgʻrisida muhim maʼlumotlarni beradi. Bundan tashqari, Hz. Muhammad sayohati haqida turli soʻzlarni oʻz ichiga olgan hadislar mavjud. Quyida sayohatga oid hadislardan bir nechta misollar keltirilgan.

Nasabingizdan silai rahm qilishni oʻrganing. Zero, silai rahm qarindoshlarga mehr-muhabbat, rizqning barakali boʻlishi, umrning ziyoda boʻlishidir¹.

"Biz safarga chiqib qaytib kelganlar, tavba qilganlar, obid (sodiq) va Rabbimizga hamdlar aytgan bandalarmiz"² Qurʼoni Karim odamlarni koinotga, tarixga va tarix qoldirgan merosga qarashga doimo undaydi. U buni nafaqat maʼlumot bilan qoldiribgina qolmay, balki odamzot boshdan kechirgan hayotdan ota-bobolari qoldirgan narsalarni koʻrsatib, odamlarni sayohatga taklif qiladi.

Diniy turizmning yoʻnalishlari

Diniy turizm – tarixiy-madaniy va tabiiy meros bilan bogʻliq boʻlgan obʼyektlarni sayyoylar tomonidan tashrif buyurishini tashkil etish borasidagi faoliyat. Turli dinlar va aholi qatlamlari vakillarining tashrif buyuradigan maskanlarning nafaqat diniy, balki tarixiy, madaniy va badiiy qadriyatlari bilan tanishish ularga yangi bilimlar olish, atrofdagi voqelikni yangicha baholash imkonini beradi.



7.1.-rasm. Diniy turizmning yoʻnalishlari

Bugungi kunda ziyorat qilish jamiyat hayotida kata ahamiyatga ega. (7.1-jadval.)

¹Buhari, Edep/12, akt: Sofuğlu, 2009

² Muslim, Haj / 425, akt: Budak va Cetinkaya, 2010 - P. 307.

Zamonaviy jamiyat hayotida diniy turizmning roli

Diniy turizmning roli	Mohiyati
Ma'naviy-ma'rifiy	Tashrif buyurilayotgan joyning tarixi va jo'g'rofiyasi bilan tanishish, ziyorat amallarini bajarishning o'ziga xos xususiyatlari bilan tanishish
Umumta'limiy	Ziyoratgohlar nafaqat ma'naviy, balki madaniy va tarixiy markazlar hisoblangan va hisoblanadi. Ularning ba'zilarida muzeylar, ekspozitsiyalar joylashgan bo'lib, ta'sviriy va arxitektur a shakllari bilan, o'sha zamonda yashaganlarning turmush tarzi bilan tanishtiradi
Missionerlik	Muqaddas joylarni ziyorat qilish iymonning kuchayishiga, hayotning ma'nosini anglashga yordam beradi
Xayriya	Ziyoratgohlarda xayriya qutilari mavjud

Turizmning faoliyat sifatidagi ta'rifi "ziyosat" tushunchasining ma'nosi va mohiyatiga yaqin. Ziyorat va diniy turlarning ilmiy ta'rifiga asoslanib, shuni aytish mumkinki, ziyorat insonning ma'naviy faoliyatidan ko'ra ko'proq turizmga taalluqli bo'lib, uni sayohat sifatida hisoblash mumkin¹.

Ilmiy adabiyotlarda diniy turizmning ta'rifi va mazmuniga bo'lgan turli xil yondashuvlar mavjud. Rus olimlari A. Babkin² va Xristov³larning fikriga ko'ra diniy turizmni 2 yo'nalishga ajratish mumkin: ziyorat va ekskursion-ma'lumot beruvchi turizm. Bunday

¹ Религиозный туризм как возможная ступенька к паломничеству. Конференция «Развитие религиозного туризма в России» состоялась в Москве / Агентство религиозной информации Благовест - Инфо. Москва, 23.09.2010. – <http://www.blagovest-info.ru/index.php?ss=2&s=4&id=36791> (дата обращения 16.09.2014).

² Бабкин А.В. Специальные виды туризма Ростов-на-Дону: Феникс, 2008. - 252 с.

³ Христов Т.Т. Религиозный туризм. Учебное пособие, Издательство: Academia, 2009. – 288 с.

ajratish iqtisodiy ko'rsatkichlarga asoslanadi, sababi diniy turizm va ziyoratda sayyohlar transport, joylashish va ovqatlanish kabi xarajatlarni amalga oshiradilar.

Ammo diniy turizm ziyoratning tarkibiy qismi degan boshqa yana bir fikr mavjud. Ushbu fikrni qo'llab quvvatlovchi olimlar, ziyorat qilish hozirgi ko'rinishdagi turizmdan ancha oldin paydo bo'lganligiga asoslanadilar. Ammo, muhim diniy muqaddas qadamjolar joylashgan va ziyorat qiluvchilarning katta oqimi keladigan mamlakatlarda ziyoratchilar va sayyohlar aniq farqlanadi.

Jahon halol turizm bozorida yirik ekspertlardan sanalgan Crescent Rating agentligining hisobotida¹ Musulmon sayohlik bozorining o'sishiga ta'sir etuvchi omillar quyidagilar deb belgilangan:

- Musulmon aholining ko'payishi,
- O'sayotgan o'rta sinf va mavjud daromadlarning ko'payishi,
- Aloqa texnologiyalari tufayli sayohat to'g'risidagi ma'lumotlardan keng foydalanish,
- Musulmonlar uchun do'stona sayohat xizmatlari va imkoniyatlarining ko'payishi.
- Halol turizm haqida xabardorlik darajasi oshgani sababli, musulmon va musulmon bo'lmagan mamlakatlarda halol turistik mahsulotlar takliflari tarqalishi.
- Kelajakda Ramazon safarlari halol sayyohlik bozorining muhim unsuri bo'lishi bashorati.
- Musulmon mamlakatlarining rivojlanayotgan iqtisodiyoti kelajakda ish safari hajmini ko'paytiradi degan qat'iy bashoratlar.

7.2. O'zbekistonda diniy turizmni rivojlantirish imkoniyatlari

Darhaqiqat, O'zbekiston turistik resurslarning boyligi bilan ajralib turadi. O'zbekistonda diniy turizm, ya'ni aziz qadamjolarini ziyorat qilish maskanlariga juda boy hisoblanadi. Jumladan, Markaziy Osiyoda, qolaversa, jonajon O'zbekistonimizda ham aziz avliyolar yashab, dafn etilgan qadamjolar, ziyorat maskanlari beqiyos ko'p. Ko'pgina avliyolarning dafn etilgan joylari va qabrlari qaytadan ta'mirlanib, asl holatiga keltirilmoqda. Ular qatoriga Bahoviddin

¹Global Muslim Travel Index 2018 <https://www.crescentrating.com/>

Naqshbandiy, G'ijduvoni, Imom al-Buxariy, Mahtumi A'zam, Shohizinda, Motrudiy, Hakim at-Termiziy, Zangiota kabi aziz avliyolar va imomlar maqbaralari musulmon ahlining beqiyos, go'zal ziyorat qiladigan va ma'naviy ruhlanadigan joylariga aylantirildi. Ayniqsa, Imom Al-Buxoriy majmuasini muhim ziyoratgohga aylantirish xalqaro ahamiyatga egadir. Chunki, bu ziyoratgoh musulmon olamida Makka va Madina shaharlaridan keyin eng muhim sajdagoh hisoblanadi. Shu sababli ziyorat qilish uchun qulay shart-sharoit yaratish, ya'ni infratuzilmani shakllantirish bugungi kunning muhim masalasi hisolanadi. Bu yerda asosiy vazifa xorij mamlakatlar fuqarolarining ortiqcha qiyinchiliklarsiz ziyorat qilib ketishlariga erishishimizdir. Buning uchun Samarqand shahri aeroportini jahon andozalariga yarasha bo'lishi, masalaning asosiy yechimi hisoblanadi.

Mustaqallik yillarida diniy qadamjolarga davlat tomonidan katta e'tibor berilmoqda. Buyuk ajdodlarimiz qo'nim topgan maskanlarni qayta tiklash, obodonlashtirish, ta'mirlashga jiddiy e'tibor berganligi tufayli ziyoratgoh maskanlar 1.5 mlrd. Musulmon dunyosini o'ziga tortmoqda. Hozirgi kunda mamlakatimizda diniy turizmni hududiy tashkil etish va rivojlantirishga jiddiy e'tibor qaratish lozim.

Xususan, Janubi – Sharqiy Osiyo va G'arbiy Osiyo mamlakatlari ziyoratchilarni jalb etish maqsadida tadbirlar ishlab chiqish kerak. Buning uchun har bir viloyat, tuman va qishloqlardagi kishilar tomonidan muqaddas hisoblanib kelinayotgan ziyoratgohlarni aniqlash, umumlashtirish, respublika va viloyat diniy turistik kartalarini yaratish hamda ziyoratchilarga zarur sharoitlar yaratish, yo'l qurish, transport imkoniyatlarni o'rganish maqsadida muvofiq deb hisoblaymiz.

Diniy ziyoratgohlar kam mablag' hisobiga katta daromad manbaiga aylanishi shubhasiz. Mamlakatimizning barcha viloyatlaridan o'nlab, yuzlab diniy qadamjolar mavjud. Ammo ularni ziyorat etish marshrutlari aniq tuzilmagan. Achinarli holati shundaki, islom dunyosida katta xizmat qilagn, avliyo darajasiga ko'tarilgan siymolarimiz abadiy qo'nim topgan maskanlarini faqatgina mahalliy darajada, ya'ni tuman yoki viloyat miqiyosidagi bilamiz, xolos. Binobarin, bunday muqaddas ziyoratgohlarni respublika va xalqaro darajadagi diniy ziyoratgoh obyektlariga aylantirish mumkin.

Xulosa o'rnida shuni aytish lozimki, diniy turizm hamma vaqt sayohatning eng aktiv turi bo'lib kelgan. Insoniyat borki, u e'tiqod

qiladi, sig'inadi, ruhan va ma'naviy jihatdan poklanishga harakat qiladi. Shuning uchun u diniy ziyoratni xohlaydi.

Buning uchun muqaddas ziyoratgoh bo'lishi shart. Vaholanki, mamlakatimiz diniy ziyoratgohlarga boy mintaqa hisoblanib, kelajakda diniy turizmni rivojlantirishga yanada e'tiborni yanada kuchaytirish ham moddiy, ham ma'naviy yuksalishida muhim ahamiyat kasb etadi.

7.3. O'zbekistonning islom obidalari

O'zbekiston katta tarixiy-madaniy merosga – madaniy, arxitektura, arxeologiya ahamiyatidagi 7300dan ortiq obyektlar mavjud. Ularning ko'pchiligi Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Termiz, Qo'qon va Toshkent shaharlarida joylashgan. Yurtimizdagi 200 dan ziyod tarixiy yodgorlik va obidalar YuNeSKOning madaniy merosi ro'yxatiga kiritilgan. Ekspert B. To'rayev fikricha ulardan 545 tasi – arxitektura, 578 tasi – tarixiy, 1457 tasi – san'at yodgorliklari va 5500 dan ortig'i arxeologik ahamiyatiga jalb etilgan. 200 dan ortiq obyektlar ta'mirlanmoqda, 500 tasi esa ta'mirlanishga muhtoj. Ko'p mamlakatlar tajribasiga ko'ra, ta'mirlanish jarayonini o'zi turistlar uchun qiziqarli hisoblanadi. Undan tashqari respublikamizda 300 dan ortiq muzeylar, 1200 ta xalq ijodiyoti tashkilotlari mavjud. Turistik ziyorat obyektlari miqdori bo'yicha Toshkentda -144 ta, Samarqandda – 118 ta, Buxoroda - 201 ta, Xivada -310 tani tashkil etadi. Ammo asosiy turistik resurslarimizdan turizm maqsadida foydalanish tashkil etilmagan.

O'zbekiston ziyorat turzmi uchun qulay manzil hisoblanadi. Islom olamida mashhur ko'plab ulamolar yurtimizda yashab ijod qilgan. Shu bilan birga, mamlakatimizda boshqa dinlarga e'tiqod qiluvchilar uchun ham aziz bo'lgan tarixiy qadamjolar ko'p.

Yurtimizdagi muqaddas qadamjolar va ziyorat maskanlarini obodonlashtirish

hamda ta'mirlash borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Bu borada Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 15-fevraldagi "Muqaddas qadamjolar, ziyoratgohlar, masjidlar va qabristonlarni obodonlashtirish ishlarini samarali tashkil

etish to'g'risida"gi qarorining qabul qilinishi va chora-tadbirlar dasturining ishlab chiqilganligi hududlarda hali o'rganilmagan madaniy meros obyektlaridan samarali

foydalanish imkoniyatini beradi. Ko'pgina hududlar o'ziga xos qadimiy shaharlar, arxitektura, tarixiy madaniy yodgorliklarga boy hisoblanadi. Turistik infrastruktura rivojlanishi tarixiy o'zlikni manzarasi buzilmasligi kerak. Har bir tashkil etilayotgan yangi turistik markaz (obyekt) milliylik bilan uyg'unlashgan, qaytarilmas o'ziga xoslikka ega bo'lishi lozim. Albatta, tarixiy-madaniy, arxitektura va madaniy majmualarning milliy qadr- qiymati, tarixiy bahosini tiklash va muhofaza qilish orqaligina turistlar qiziqishini orttirish, bu orqali turizmni rivojlantirish mumkin.

Hozirgi kunda xalqaro turizmning eng muhim tarmoqlaridan biri diniy ya'ni

ziyoratchilik turizmi bo'lib hisoblanadi. Ziyoratchilik turizmning shakllanish tarixi

uzoq o'tmishga borib taqaladi. Ya'ni uning ilk bor vujudga kelishi antik davriga to'g'ri keladi. Ziyoratchilik turizmning asosiy paydo bo'lgan maskanlari qadimgi greklar va rimliklar vatani bo'lib hisoblanadi. Qadimda greklar va rimliklar ibodatxonalar va cherkovlar qurib, ularda sig'inishganlar. Ziyoratchilarning sayyohat qilishidan asosiy mahsadi aziz avliyo qadamjolariga qadam ranjida qilishi, sig'inish chog'ida ruhiy jihatdan yengillashishi, ko'ngillarning poklanishi, og'ir kasalliklardan xolos bo'lmoqligi, qilib quygan gunoh ishlarini ollohdan so'rab kechirishlarini, safar chog'ida safdoshlari bilan ma'naviy yaqinlikda bo'lishni orzu-umid qilishadilar.

Ziyoratchi sayyohlar safarga chiqishida o'z orzu umidlariga erishish, yaratganga shukronlar aytib uning izzat hurmatini bajo keltirishni o'z ko'ngillaridan o'tkazadilar.

Hozirgi kunga kelib dunyoda ziyoratchilik sayyohligining 10 dan ortiq yirik markazlari mavjud bo'lib, ular yer sharining deyarli hamma qit'alarida joylashgandir. Musulmon olamida ziyorat qilish makonlari ham anchagina. Jumladan, Markaziy Osiyoda, qolaversa jonajon O'zbekistonimizda ham aziz avliyolar yashab, dafn etilgan qadamjolar, ziyorat maskanlari beqiyos ko'p. Ular qatoriga Janubiy Qozog'iston viloyati, Turkiston shahridagi Axmad Yassaviy maqbarasi; Toshkent viloyati Zangiota tumanidagi Zangiota majmuasi; Toshkent shahridagi Shayx Xivanda Taxur maqbarasi, Qaldirg'och-biya maqbarasi, Yunusxon maqbarasi; Hazrati Imom majmuasi; Abubakr Muhammad Kaffal Shashi maqbarasi; Shayx Zayniddin bobo maqbarasi; Samarqand viloyati Payariq tumani

Xartang qishlog'idagi Imom Al-Buxoriy majmuasi; Oqdaryo tumani Dahbed qo'rg'onidagi Maxtumi A'zam maqbarasi; Samarqand shahridagi Shohi Zinda, Amir Temur, Ruhobod, Xo'ja Doniyor, Motrudiy, Murod avliyo, Xo'ja Axror Vali, Oq saroy, Cho'ponota maqbaralari; Buxoro shahridagi—Ismoil Samoniy, Chashmai Ayub, Sadriddin Buxarzi, Bohovuddin Naqshbandiy, Buyon Kulixon, Chor Bakr maqbaralari; Xorazm viloyatida Uch avliyo, Said Allovuddin maqbarasi; Qashqadaryo viloyatida—Jahongir, Dorus Saodat, Dorut Tilovat majmuasi, Ko'k gumbaz masjidi; Surxondaryo viloyatida - Hakim at-Termiziy majmuasi; Sulton Saodat ibodatxona yodgorligi, Fayoztepa ibodatxonasi; Jizzax viloyatida—Sadr Vaxs avliyo (Avliyoota) majmuasi; Farg'ona viloyatida Daxmon Shaxon go'rxonasi, Mozorixon maqbarasi kabilar ziyoratchi sayyohlarni o'ziga jalb qilib keladigan maskanlardan hisoblanadi.

Tayanch iborolar va tushunchalar

Din (arab. — e'tiqod, ishonch, itoat) — xudo yoki xudolar, g'ayritabiiy kuchlar mavjudligiga ishonish. D. muayyan ta'limotlar, his-tuyg'ular, toat-ibodatlar va diniy tashkilotlarning faoliyatlari orqali namoyon bo'ladigan, olam, hayot yaratilishini tasavvur qilishning alohida tarzi, uni idrok etishning o'ziga xos usuli. D.ning paydo bo'lishi haqida yagona fikr yo'q. Islom dini ta'limotiga ko'ra, D. — Alloh tomonidan o'z payg'ambarlari orqali bashariyat olamiga joriy etilajagi zarur bo'lgan ilohiy qonunlardir. Tabiat va insonni yaratgan, ayni vaqtda insonga to'g'ri, haqiqiy hayot yo'lini ko'rsatadigan va o'rgatadigan ilohiy qudratga ishonchni ifoda etadigan ta'limotdir.

Ziyorat — muqaddas joylarga, mozar va qabristonlarga borib muayyan rasm-rusumlarni bajarib kelish.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar:

1. Diniy turizm to'g'risida tushuncha bering.
2. O'zbekistonda diniy turizmni rivojlantirish imkoniyatlari qanday?
3. O'zbekistonning islom obidalariga ta'rif bering.
4. O'zbekistonda diniy turizmni rivojlantirish masalasida qanday tadbirlar amalgam oshirilmoqda?

8 - BOB. MINTAQALARDA QISHLOQ TURIZMINI RIVOJLANTIRISH RESURSLARI

8.1. Qishloq turizmi tushunchasi

Jahon amaliyotida qishloq joylarida qishloq xo'jaligini rivojlantirish bilan bir qatorda, aholining noagrarsohada bandligi, xususan qishloq turizmi qo'shimcha daromad manbai bo'lib qolmoqda.

Agroturizm zamonaviy jahon sayyohlik bozori tizimida alohida o'rin tutadi. Bugungi kunda uni sayyohlik bozorining yetakchi va faol rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri deb hisoblash mumkin. Ko'pgina tadqiqotchilar buni jamoatchilikning ekologik muammolar haqida xabardorligining oshishi, jamiyatga texnogen bosimning oshishi, o'sib borayotgan urbanizatsiya va boshqa omillar bilan bog'laydilar.

Agroturizm – jahon turizm bozorida nisbatan yangi hodisa. Agroturizm mashhurligining ortib borishining sababi nafaqat tabiiy, ekologik toza narsalarning urf bo'lishi, balki ko'plab iqtisodiy, ijtimoiy-psixologik va ekologik omillar hisoblanadi. Tabiat bilan uyg'unlikda yashash istagi, tabiiy ne'matlarni iste'mol qilish, tabiatni va madaniy o'ziga xoslikni saqlash haqida qayg'urish, shuningdek, qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarini qo'llab-quvvatlash, qishloq va shahar aholisining turmush darajasidagi o'sib boruvchi tabaqalanishni yumshatishga intilish – bu va boshqa ko'plab omillar agroturizmning butun dunyo bo'ylab ommalashuvini keskin o'sishiga olib keldi.

Dunyo bo'ylab sayyohlik sohasi faol rivojlanish davrini boshdan kechirmoqda. An'anaviy (faol va ommaviy) dam olish turlari bilan bir qatorda yangi, turli xil "yashil" sayohatlar rivojlanmoqda: "3 S" (Sun, Sea, Sand) – quyosh - dengiz - qum formulasi bo'yicha dam olish o'rniga, "3 L" (Landshaft, Lore, Leisure) – landshaft – an'analar – bo'sh vaqt formulasi taklif etiladi. Turizm sohasiga hayotni ekologiyalashtirish g'oyasining tarqalishi tobora katta ta'sir ko'rsatmoqda¹.

¹ Баландин Ю. На деревню к дедушке. Осенью сельский туризм переживает пик популярности // Российская Бизнес-газета, 2012. 25 сентября. № 865 (36). [http:// www. naturs. ru/](http://www.naturs.ru/).

"Yashil sayohatlar" dunyodagi eng mashhur turizm turlaridan biri - yashil qishloq turizmi (green rural tourism) yoki agroturizm (agritourism, agrotourism, farm tourism) o'z timsolini topadi.¹

Respublikamizning "O'zbekistonda ekoturizmni rivojlantirish kontsepsiyasi"da qishloq turizmiga qishloq xalqini turmushi, urf-odatlar, an'analar bilan yaqindan tanishish" deb ta'rif berilgan².

Qishloq turizmi – bu sayyohlar uchun turistik hududlarning tabiiy va milliy o'ziga xosligini aks ettiruvchi keng qamrovli turistik mahsulotni (turar joy, ovqatlanish, diqqatga sazovor joylar, hordiq chiqarish) shakllantirish va ta'minlash va qishloq joylariga maqsadli sayohatlarni tashkil etish bilan bog'liq faoliyat turi.

Xorijiy amaliyotda agroturizm tushunchasi turli xil, keng, ba'zan qarama-qarshi bo'lgan turli xil ta'riflarning sintezidir (8.1-jadval)

8.1-jadval

Agroturizmning mohiyatini tashkil etuvchi asosiy ta'riflar

Turizmning nomlanishi	Ta'riflar
Ekoturizm	Bu hududning tabiiy, madaniy va tarixiy xususiyatlari haqida tasavvurga ega bo'lish va bahramand bo'lish maqsadida tabiiy hududlarga ekologik jihatdan mas'uliyatli sayohatlar bo'lib, ular tabiatni asrash va tabiiy resurslarni muhofaza qilish bilan birga mahalliy aholining naf olishini ta'minlovchi iqtisodiy sharoitlarni yaratishga imkon beradi.
Yumshoq turizm	Asosiy maqsadi mumkin qadar ko'proq daromad olishdan iborat bo'lgan "qattiq turizm"ga qarama-qarshi qo'yiladi. "Yumshoq" turizm nafaqat muvaffaqiyatli biznes va samarali natijani, balki turistik hududlarning madaniy farovonligini, ularning resurslaridan tejamli foydalanish va qayta tiklashni, atrof-muhitga yetkaziladigan zararni minimallashtirishni ham ustuvor vazifa qilib qo'yadi.

¹ Клицунова В. Зеленая альтернатива – сельский туризм. [Электронный ресурс]. URL: http://agroedu.of.by/index.php?option=com_content&task=view&id=152.

² "Ўзбекистонда экологик туризмни ривожлантириш Концепцияси". Экология ахборотномаси. №6, 2007.- Б. 9.

Qishloq turizmi (rural tourism)	Bu turizm qishloq joylarida mo'ljallangan. Unda sayyohlik yo'nalishlari, dam olish joylari, qishloq xo'jaligi va milliy muzeylar, shuningdek sayyohlarga ekskursovod va yo'l ko'rsatuvchilar xizmati ko'rsatiladigan markazlarni rivojlantirish ko'zda tutilgan.
Agroturizm (farm tourism)	Bu qishloq xo'jaligidan foydalanishni o'z ichiga olgan turizm. Agroturizm turli shakllarda o'zini namoyon qilishi mumkin. Agroturizmning ikkita asosiy shakli mavjud: to'g'ridan-to'g'ri hovli ichidagi xizmatlar bilan ijaraga olingan uy yoki hovliga tegishli yerlarda o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish bilan joylasish.

Manba: E. B. Печерица, М. И. Шевченко. Мировой опыт развития агротуризма// «Национальные интересы: приоритеты и безопасность» 41 (182) – 2012. С.44-53

D.N. Ushakova tahriri ostidagi rus tilining izohli lug'atida, "agrar" lotincha so'z bo'lib, so'zma-so'z "yer", "yerdan foydalanish bilan bog'liq" deb tarjima qilinadi¹.

Jahon turistik tashkiloti (UNWTO) turizmni "... odamning dam olish, biznes va boshqa maqsadlar uchun bir yildan ortiq bo'lmagan kunlik muhitidan tashqarida bo'lgan sayohati va yashab turishi" deb ta'riflaydi. Shuning uchun "agrar turizm" (agroturizm) atamasi "yer bilan bog'liq turizm" yoki odamlarning kundalik faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan qishloq joylariga sayohati va qishloq hayot tarziga qo'shilishi degan ma'noni anglatadi.

Agroturizm ma'lum hududlarga jo'g'rofiy jihatdan bog'langan, shuning uchun uning rivojlanishining nazariy va uslubiy asoslarini ishlab chiqish mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy shartlarga muvofiq "agroturizm" kontseptsiyasini ishlab chiqish bilan bog'liq. Shu munosabat bilan, "agroturizm" tushunchalari mutaxassislarning ushbu faoliyat turiga bo'lgan yondashuviga qarab turli mamlakatlarda keskin farq qilishi mumkin. (8.2-jadval).

Ilmiy va ommabop adabiyotlarda agroturizm sifatida ko'pincha turizmning sinonim turlari: qishloq, fermerlik, tabiiy, ekologik, yashil, yumshoq, sarguzasht, sport, tog', ekstremal, etnik, gastronomik va boshqalar tushuniladi. Ushbu turlarning barchasida nafaqat

¹ Толковый словарь русского языка (под ред. Д.Н. Ушакова). – М. – 2003.

muvaffaqiyatli turizm biznesini rivojlantirish, balki atrof-muhitga, qishloq hududlari resurslaridan tejimli foydalanish va qayta tiklashga, sayyohlik hududlarining ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy farovonligiga ham ustuvor ahamiyat beriladi¹.

Agroturizmga geodemografik nuqtai nazardan berilgan ta'rifga ko'ra agroturizm - aholi zichligi past bo'lgan hududlardagi, shahar tashqarisidagi turizm. Rekreatsiya nuqtai nazaridan esa bu – qishloq uyida yashashdan boshlab, tabiat ba g'rida hordiq chiqarish, sarguzasht sayohatlar, mahalliy aholi faoliyatida sayyohlarning bevosita ishtirokiga qadar bo'lgan turli xil xizmatlar to'plamidir. Bu fikrlardan kelib chiqib, agroturizmning turli xil tushunchalarining (qishloq, fermer xo'jaligi, yashil, tabiiy turizm) ma'nosi teng deb hisoblash to'g'ri bo'ladi².

8.2-jadval

Xorijiy mamlakatlarda agroturizm tushunchalarining xususiyatlari

Mamlakat	Ta'riflar
AQSh	"Yashil turizm" – bu qishloq joylarida to'laqonli ta'til bo'lib, unda sayyohlar bir muddat qishloq turmush tarzini olib borishadi, mahalliy madaniyat, urf-odatlar, xalq hunarmandchiligi bilan tanishadilar, fermer xo'jaliklarida an'anaviy qishloq mehnatida qatnashadilar. Agroturizmning eng ommabop turlari bu ranchoda dam olish, ot minish hisoblanadi.
Buyuk Britaniya	Qishloq turizmi – bu qishloq joylarida, ekonom-klass joylarini, hamda hashamatli yashashni ta'minlaydi: to'liq ta'mirlangan eski pansionatlar va an'anaviy tarzda qurilgan kichik mehmonxonalar yoki uylarda. Shuningdek, qishloq turizmining keng tarqalgan shakli bu – turizmni ekologik toza mahsulot ishlab chiqaruvchi qishloq xojaligida ishlash bilan birga amalga oshirish (WWOOF).

¹ Шумакова О.В., Блинов О.А., Рабканова М.А. Формирование агротуристического кластера как фактор повышения устойчивого развития сельских территорий // Вестник Алтайской науки. – 2013. – №2-2. – С. 192-196.

² Никитина О. А., Кушнarenко Е. П. Уточнение понятийного аппарата в развитии теории и практики регионального сельского туризма // Вестник Чувашского университета. Изд-во ЧГУ им. И. Н. Ульянова, 2010. С. 400–405.

Hindiston	Qishloq hayoti, san'ati, madaniyati va merosini namoyish etadigan, shu bilan mahalliy aholiga iqtisodiy va ijtimoiy foyda keltiradigan, shuningdek, sayyohlar va mahalliy aholi o'rtasidagi o'zaro aloqani ta'minlaydigan har qanday turizm turi.
Kipr	Qishloq turizmi bu noyob landshaft unsurlarini, tarixiy va me'moriy obyektlarni, hunarmandchilik va ekologik toza mahsulotlar iste'molini turizm mahsulotiga kiritish orqali mahalliy madaniyat bilan yanada yaqin aloqani anglatadi.
Shveytsariya	Qishloq turizmi bu fermalarda, qishloq uylarida, kichik qishloq mehmonxonalarida, shuningdek dam olish xizmatlarining to'liq kompleksiga ega bo'lgan zamonaviy mehmonxonalarga aylantirilgan qadimiy qasrlarda hordiq chiqarishdir.
Polsha	Qishloq turizmi bu turistning barcha ehtiyojlarini qondirish uchun qishloq xo'jaligining resurslaridan maksimal darajada foydalanishdir. "Ekologik qishloq" atamasi ham qo'llaniladi, ya'ni "an'anaviy yashash joylari va ovqatlanish vositalaridan foydalangan holda tabiiy muhitda dam olishni ta'minlaydigan ijtimoiy yo'naltirilgan hudud" deb ta'riflanadi.
Germaniya	Qishloq (yumshoq) turizmi - bu turistik bozorning segmenti bo'lib, uning o'ziga xos xususiyati (belgisi) bo'lib, tabiatning diqqatga sazovor qishloq joylarida, qo'riqlanadigan tabiiy hududlarda rekreatsion faoliyatlari hisoblanadi. Ushbu segment turli xil faoliyat turlarini o'z ichiga oladi: ilmiy turizm, yovvoyi tabiatni kuzatish va rasmgatushirishdan tortib, iste'molchilik faoliyatigacha (baliq ovi va ovchilik), shuningdek sport va sarguzasht turizmi.

Manba: E. B. Печерица, М. И. Шевченко. Мировой опыт развития агротуризма// «Национальные интересы: приоритеты и безопасность» 41 (182) – 2012. С.44-53

Agroturizmning muammolaridan biri bu sohaning keng o'rganilmaganligi, shuningdek, yagona kontseptual-terminologik apparatning yo'qligi. Bugungi kunda "agroturizm" tushunchasining ko'p ta'riflari mavjud bo'lib, ularning har biri uning muhim tomonlarini, o'ziga xos xususiyatlarini ochib beradi. Turizm sanoatida keng ko'lamli va rivojlanayotgan yo'nalishi tufayli agroturizm uchun eng mos keladigan ta'rifni tanlash juda qiyin.

Agroturizm - qishloq joylarda tashkil etilgan faoliyat turi bo'lib, u tashrif buyuruvchilarga turar joy, dam olish, ovqatlanish, ekskursiya xizmatlari, bo'sh vaqt va sport tadbirlarini tashkil etish, baliq ovi va ovchilik, bilim va ko'nikmalarni egallash kabi kompleks xizmatlarni, shuningdek, turizmning faol turlari bilan shug'ullanish imkoniyatini shakllantirish va taqdim etishni o'z ichiga oladi. Agroturizm qishloq hududlarining tabiiy, madaniy-tarixiy, ijtimoiy va boshqa resurslaridan va turistik xususiyatlaridan kompleks turizm mahsulotini yaratishda foydalanishga qaratilgan¹.

Ko'plab adabiyotlarda "agroturizm" tushunchasiga ta'rif berilganda, agro turizm turistlarni mavjud bo'lgan ferma yoki qishloq xo'jaligi korxonasiga jalb qilishni o'z ichiga oladi degan yondashuv yetakchi hisoblanadi. Ko'pincha, agroturizm sayyohlarning ushbu qishloq xo'jaligi korxonasining qishloq xo'jalik faoliyatida faol ishtirok etishini o'z ichiga oladi.

Masalan, Amerika Fermerlar Byurolari Federatsiyasi (American Farm Bureau Federation) agroturizmni quyidagicha ta'riflaydi: "Agroturizm sayyohlarning dam olish, ta'lim olish yoki qishloq xo'jalik korxonalari faoliyatida faol ishtirok etish maqsadida mavjud fermaga yoki qishloq xo'jaligi korxonasiga tashrifi bilan bog'liq bo'lib, ushbu qishloq xo'jaligi korxonasining iqtisodiy barqarorligining qo'shimcha omili hisoblanadi". Bunda sayyohlarning korxona qishloq xo'jaligi faoliyatida ishtirok etish sharti majburiy hisoblanmaydi. Masalan, S. Rayan, C. DeBod va C. Mak Klellanlarning ta'kidlashlaricha, agroturizm qishloq xo'jaligi faoliyatida ishtirok etishni va (yoki) sayyohlar fermada joylashishi kerakligini o'z ichiga oladi.² Yana bir amerikalik olim C. Ollenburg qishloq turizmi fermer xo'jaligida tashkil qilinadigan ishlarda bevosita qatnashish, xo'jalik ish faoliyatini kuzatish hamda o'quv kurslarida ishtirok qilish bilan bog'liq xizmatlarni mijozlarga taklif qilish deb hisloblaydi³.

¹ Гуляев, В.Г. Туризм: экономика и социальное развитие. – М.: Финансы и статистика, 2003. – 283 с.

² Ryan S., DeBord K., McClellan K. Agritourism in Pennsylvania: An Industry Assessment. Pennsylvania, 2006.-22 p.

³ Ollenburg, C. (2006). Farm tourism in Australia: a family Business and rural studies perspective. Doctor of Philosophy Christian-Albrechts University of Keil (Germany) and Griffith University (Australia).

Quyida agroturizmning o'ziga xos xususiyatlari ajratib ko'rsatilgan:

1. Sayyoh qishloq xo'jaligidagi korxonaga (ferma, qishloq xo'jaligi mehmonxonasi) tashrif buyuradi, u yerda tunashi yoki qisqa muddatli ekskursiyaga tashrif buyurish mumkin.

2. Agroturizm mavjud qishloq xo'jaligi korxonalarida (fermer xo'jaliklarida) rivojlanadi va ular uchun qo'shimcha faoliyat turi, qo'shimcha daromad manbai hisoblanadi.

Qishloq xo'jaligi korxonasiga (ferma, qishloq xo'jaligi mehmonxonasi) tashrif buyurishdan maqsad har xil: bu qishloq xo'jaligi faoliyatida qatnashish tajribasi (uzum yig'ish, sigir sog'ish, pishloq tayyorlashda ishtirok etish), ta'lim-tarbiyaviy maqsadlar, tabiiy mahalliy mahsulotlardan tatib ko'rish va shunchaki dam olish bo'lishi mumkin.

Ko'plab xorijiy tadqiqotchilar "agroturizm" va "qishloq turizm" atamalarini tenglashtiradilar va ushbu tushunchalarga o'z ta'riflarini beradilar. Shunday qilib, J.W Kloeze ko'ra qishloq turizmi bu qishloq sharoitida rivojlanayotgan barcha sayyohlik faoliyatini o'z ichiga oladi¹. Rátz, T. qishloq turizmi deganda dam oluvchilarning qishloq hududida yashashi va (ixtiyoriy ravishda) qishloq xo'jaligi ishlarida ishtirok etishi tushuniladi². Hozirgi kunda ko'plab xorijiy manbalarda "agroturizm" tushunchasini izohlash va talqin etishda o'zgaruvchanlik mavjud. Mutaxassislarning aksariyati "agroturizm" va "qishloq turizmi" tushunchalari o'rtasida jiddiy tafovutni ko'rishmaydi.

Demak, zamonaviy ilmiy adabiyotlarda "qishloq turizm" atamasini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ko'pchilik mualliflar "agroturizm" va "agroekoturizm" kabi tushunchalarni ushbu ta'rifning sinonimi sifatida keltirishadi. Ba'zi olimlar alohida mustaqil ikki yo'nalish sifatida qaraydilar. Ushbu vaziyat bilan hamma mualliflar

¹ Kloeze, J.W. The Benefits of Rural Tourism, the Role of the State, and the Aspects of Training and Co-operation / J.W Kloeze. Formal Speech held at the Central and East-European Federation for the Promotion of the Green-Soft-Rural Tourism Conference «Rural Tourism Development in Bulgaria and in the Balkan Countries», Karlovo. – 1994.

² Rátz, T. Rural Tourism and Sustainable Development in Hungary // «Rural Tourism Management: Sustainable Options» International Conference, Conference Proceedings / D. Hall, L. O'Hanlon eds.; Scottish Agricultural College, Auchincruive, Ayr, Scotland, UK. – 1998. – P. 450-464.

ham rozi bo'lmagani uchun, "qishloq turizm" atamasi aniqlashtiriladi va takomillashadi deb taxmin qilish mumkin.

Jahon turizm industriyasining jadal rivojlanib borayotgan segmentlaridan biri bo'lgan agroturizmga iste'molchilar ehtiyojning oshib borishini quyidagi sabablar izohlaydi:

- moliyaviy – eng arzon turizm turlaridan biri hisoblanadi;
- estetik – qishloq hududining tabiiy manzaralari, ularning jozibador o'ziga xos jihatlari sayyohlarning "ruhiy va ma'naviy kuch-quvvat manbai" uchun ajoyib imkoniyatdir;
- ekologik – agrar sektorda atrof-muhitga bo'lgan texnogen ta'sir o'ta shaharlashgan hududlarning o'xshash ko'rsatkichlaridan bir necha barobar pastdir;
- balneologik – ushbu turdagi landshaftlar o'zining ekologik toza tarkibi tufayli potentsial iste'molchilar uchun sog'lomlashtirish va davolash funktsiyalarni bajaradi¹.

Агротуризм минтақанинг ижтимоий-иқтисодий
ривожланишида муҳим аҳамиятга эга:

- agrotourizm – noagrar tadbirkorlik shakli bo'lib, qishloq joylaridagi oilalar uchun qo'shimcha yoki muqobil daromad manbai bo'lib xizmat qiladi;
- ijtimoiy ahamiyati – yangi ish o'rinlarini yaratiladi, mintaqaviy va mahalliy darajada mehnat resurslarini mustahkam band qilinadi;
- agroturizm tadbirkorlik faoliyatini diversifikasiya qilishning qulay strategiyasi bo'lib, qishloq xo'jaligi infratuzilmasi, mehnat yoki uskunalarga ortiqcha sarmoya kiritishni talab qilmaydi;
- fermerlar mavjud resurslardan foydalanib, o'z faoliyatlari doirasida turli xil xizmatlarni taklif qiladilar;
- turizm faoliyatining asosan qishloq xo'jaligi faoliyati bilan shug'ullanadigan qishloq hududlariga integrasiyasi, kichik biznes va tadbirkorlikning rivojlanishi;

¹Арцыбашев Д.В., Алюшин Р.Е., Воинова Н.Е. Предпосылки развития агротуризма на территории курской области // Экспериментальные и теоретические исследования в современной науке: сб. ст. по матер. VIII междунар. науч.-практ. конф. № 8(8). – Новосибирск: СибАК, 2017. – С. 25-31.

- innovasion faoliyatning rivojlanishi – qishloq joylarida bir-biriga o'xshamagan, mavjud tabiiy resurslar asosida yangi turistik mahsulotlar va xizmatlar yaratiladi va taklif etiladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, agroturizm qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi bilan shug'ullanuvchi hududlarda tadbirkorlikni diversifikatsiya qilish va qo'shimcha ish o'rinlari yaratish orqali mehnat salohiyatining bandlik darajasini oshirish muammosini hal qiladi. Shu bilan birga agroturizm ulkan tarbiyaviy vazifani bajaradi va fuqarolarni vatanparvarlik, milliy ong va tabiatga hurmat ruhida tarbiyalash, qishloq xo'jaligida mehnatning mohiyati va muammolarini tushunishga ko'maklashadi. Bundan tashqari, agroturizm nisbatan arzon, ammo juda ijobiy va ayni paytda dam olishning faol, rekreasion va sog'lomlashtirish turi hisoblanadi.

8.2. Qishloq turizmini rivojlantirishning xorij tajribasi

Agroturizmning turizm sanoatining alohida yo'nalishi sifatida kelib chiqishi 20-asrning ikkinchi yarmidan boshlanadi. Ko'plab tadqiqotchilar buni o'tgan asrning oxirida ekologik muammolar to'g'risida ogohlikning oshishi, jamiyatdagi texnogen bosimlarning oshishi va urbanizatsiya o'sib borayotgani bilan izohlashadi, bu esa tabiiy ravishda qadriyatlar va ustuvorliklar tizimining o'zgarishiga olib keladi. Qishloq (agrar) turizmi dastlab, chet ellarda keng tarqalib, bu mamlakatlar hunarmandchilik, milliy urf-odatlar va madaniy qadriyatlarni rivojlantirish orqali qishloq aholi punktlarining yo'qolishini saqlab qolishga intildilar¹. Tushkunlikka uchragan qishloq joylariga sayyohlarni jalb qilish mahalliy ishlab chiqariladigan mahsulotlarga talabni yaratdi va Yevropaning qishloq xo'jaligi hududlarida ma'lum bir turmush darajasini ta'minladi².

Yevropada qishloq turizmi tarixi 200 yildan ko'proq vaqtni tashkil etadi, ammo tarmoq XX asrning 50-yillarida Frantsiyada

¹ Songkhla T.N. Interactions between agro-tourism and local agricultural resources management: a case study of agro-tourism destinations in Chang Klang District, Southern Thailand // Discourse journal of agriculture and food sciences. 2013. Vol. 1. No. 4. P. 54-67.

² Leco F., Hernández J.M., Campón A.M. Rural tourists and their attitudes and motivations towards the practice of environmental activities such as agrotourism // International journal of environmental research. 2012. Vol. 7. No. 1. P. 255-264.

birinchi marta sayyohlarni qishloq joylarda joylashtirish uchun mehmon uylari uyushmasi paydo bo'lganida tizimli rivojlana boshladi. Aynan o'sha paytda ushbu sohaning iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy salohiyati namoyon bo'ldi.

Agroturizmning tashkiliy va qonunchilik asoslari birinchi marta Frantsiyada 1955 yilda Qishloq xo'jaligi va turizm uyushmasi tashkil etilganda shakllandi. 10 yil o'tgach, 1965-yilda Italiyada shunga o'xshash uyushma tashkil etildi. Bugungi kunda bunday uyushmalar Yevropaning aksariyat mamlakatlarida faoliyat ko'rsatmoqda. Agroturizm uyushmalari doirasida turoperatorlar, agroturizm biznesi va hukumat vakillari bilan o'zaro aloqalarni o'rnatish, ularning hamkorligini ta'minlash, turizm xizmatlarini yetkazib beruvchilarning umumiy manfaatlarini ifoda etish, agroturizmni rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqish, turistik mahsulotlarni siljitish va h.k. kabi asosiy vazifalar amalga oshiriladi.

Xorijiy davlatlar tajribasini o'rganish shuni ko'rsatmoqdaki, qishloq joylarda noagrar faoliyat turlarini, xususan, agroturizmni rivojlantirish yangi muqobil ish o'rinlari yaratish va qishloq joylarini rivojlantirish orqali qishloqlarda ijtimoiy keskinlikni kamaytirishga yordam beradi¹. Agroturizmning rivojlanishi ham ijtimoiy, ham iqtisodiy jihatdan samarali bo'lishi mumkin. Qishloq xo'jaligi turizmiga kirish to'siqlari kam, umumiy qishloq va turistik infratuzilmani yaratishga, shuningdek mahalliy aholining hayot sifatini yaxshilashga yordam beradi.

Mutaxassislar jahon agroturizmining rivojlanishidagi bir nechta "to'lqinlarni" ajratib ko'rsatadilar.

Agroturizm rivojlanishining "birinchi to'lqini" G'arbiy Yevropada, masalan, Frantsiya, Italiya, Angliya, Germaniya, Ispaniya va boshqa mamlakatlarda paydo bo'lganligi tan olinadi. Ushbu sohaning paydo bo'lishiga turlicha sabablar mavjud bo'lib, qishloq xo'jaligi sohasidagi iqtisodiy inqiroz asosiy omil sifatida qaralishi kerak. Ushbu iqtisodiy inqiroz Yevropa ittifoqi doirasida qabul qilingan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmlarini kvotalash choralari, AQSH qishloq xo'jaligi ishlab

¹ Воробчуков, С.А. Проблемы и пути повышение конкурентоспособности аграрного туризма // Теория и практика управления современной организацией. Сборник научных трудов кафедры менеджмента СГУТ и КД – Сочи: РИО СГУТ и КД, 2007–210 с.

chiqaruvchilarining raqobati va milliy qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarining manfaatlarini himoya qilish imkoniyatining pastligi bilan bog'liq.

Agroturizm rivojlanishining "ikkinchi to'lqini"ga mutaxassislar, iqtisodiy (qishloq xo'jaligini qo'llab-quvvatlash istagi) va ijtimoiy-psixologik sabablar (qishloq joylarida dam olish jozibadorligini sayyohlar ongida oshirish) bilan bir qatorda, ekologik omillar (an'anaviy ravishda katta sayyohlar oqimini jalb qiladigan tabiiy muhit va madaniy-tarixiy markazlarga yuklamani kamaytirish zarurati bilan bog'liq) dolzarb bo'lgan mamlakatlarni, Kipr, Gretsiya, AQSHni kiritadilar. Bu mamlakatlarda agroturizm rivojlanishining asosiy xususiyati shundan iboratki, ushbu sohadagi yetakchi mamlakatlar tajribasiga asoslanib, muammoni davlat tuzilmalari darajasida hal etishda yuqori markazlashtirish mavjud edi.

Agroturizm rivojlanishining "uchinchi to'lqini" keyinchalik Yevropa Ittifoqiga qo'shilib, ushbu sohadagi tajribasining davomchilari bo'lgan Sharqiy Yevropa mamlakatlarini o'z ichiga oladi. Ushbu davlatlarda agroturizmning rivojlanishiga davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashdan tashqari Yevropa Ittifoqining katta moliyaviy yordami sabab bo'ldi. Turizm sanoatining ushbu sektorini nisbatan kech faol o'zlashtirilishiga qaramay, ushbu mamlakatlarning bir qismi bu sohada katta yutuqlarga erishdilar. Bunday rivojlanishning misoli Polshadir, u agroturizmning ba'zi ko'rsatkichlariga ko'ra Yevropada tan olingan agroturizm ilg'orlaridan orqada qolmaydi.

Sobiq ittifoq mamlakatlari dunyoda agroturizm rivojlanishining "to'rtinchi to'lqini" deb nomlanadi. Bu mamlakatlarda agroturizm turizm sanoatining mustaqil tarmog'i sifatida faqatgina 2000-yillarda rivojlana boshladi.

Ijtimoiy-falsafiy, iqtisodiy va ijtimoiy adabiyotlarda agroturizm modellarining tarkibiga har xil baho berilgan. Tahlilchilar ta'kidlashlaricha, birinchidan, ushbu modellar doirasida taqdim etilayotgan agroturizm mahsuloti maqsadli, keng qamrovli va moslashuvchan hisoblanadi. Ikkinchidan, ushbu modellar qishloq aholisini agrar ishlab chiqarish sektoridan xizmat ko'rsatish sektoriga o'tkazishga qaratilgan. Uchinchidan, ular iqtisodiy jihatidan tashqari muhim mafkuraviy yukni – milliy urf-odatlarini, etnik-madaniy

merosni va tarixiy-madaniy yashash joylarini asrab-avaylashni o'z zimmalariga oladilar.

D.N. Panova xorijiy mamlakatlarda agroturizmning rivojlanishini tahlil qilib, shartli ravishda G'arbiy Yevropa, Sharqiy Yevropa, Angliya-Amerika va Osiyo deb ataydigan agroturizmning to'rtta asosiy modeli mavjudligiga ishora qiladi¹.

Yevropa agroturizmining evolyutsiyasi "Britaniya", "frantsuz", "nemis" va "italyan" modellari kabi etalon modellar paydo bo'lishiga olib keldi. Ushbu modellarning mazmunida jiddiy farqlar mavjudligi bilan birga Yevropa agroturizmining umumiy mafkurasi o'zgarishsiz qolmoqda. G'arbiy Yevropada agroturizm sohasida taklif etiladigan turistik mahsulotlar umumiy o'xshashliklarga ega bo'lishiga qaramay, qishloq xo'jaligi faoliyatining o'ziga xos sharoitlari, qishloq joylarining tabiiy, etnografik, tarixiy-madaniy va boshqa resurslarining xususiyatlari bilan belgilanadigan mintaqaviy farqlarga ega.

Yevropa agroturizm modellari doirasida taqdim etiladigan turistik mahsulot tarkibiy qismlarining tavsifini umumlashtirib, quyidagi asosiy tarkibiy qismlarni sanab o'tish mumkin:

- tunash va nonushta. Mehmonlar xizmatlar majmuiga kiritilgan ferma uyida joylashtiriladi va nonushta bilan ta'minlanadi;
- to'liq pansion yoki yarim pansion. Mehmonga fermer tomonidan tayyorlanadigan kechki ovqat (yarim pansion) yoki tushlik va kechki ovqatni (to'liq pansion) o'z ichiga oluvchi bir qator xizmatlar taklif etiladi;
- mustaqil ovqatlanish sharti bilan joylashtirish. Mehmonlar yozgi uylarda yoki kottejlarda joylashadilar, unda turistlar o'zlari uchun ovqat tayyorlashlari mumkin;
- faol dam olish. Mehmonlarga faol dam olish bilan bog'liq qator xizmatlar majmui taklif etiladi: ot minish, baliq ovlash, ovchilik, suv sporti turlari, o'quv safarlari, "o'z taomingga mahsulotlarni yig'" tarzidagi tadbirlar².

¹ Организация сельского туризма. Практические рекомендации по организации альтернативной занятости сельского населения. Выпуск 5. – М.: ФГНУ «Росинформагротех», 2009. – 170 с.

² Развитие устойчивого сельского туризма \пер.с англ. Ю.Полякова, сост. Л.Калитеня. – Минск: Юнипак, 2007. – 140 с.

Britaniya agroturizm modeli quyidagi tarkibiy unsurlarni taklif qiladi:

- qishloq uyida nonushta ko‘rinishidagi ovqatlanish, mezbon oila bilan to‘g‘ridan- to‘g‘ri aloqa (farm B&B);
- ferma hududida joylashgan alohida uyda o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatish sharti bilan joylashish (self catering unit);
- Ushbu model doirasida ko‘rsatiladigan asosiy xizmatlarga ekoturizm uchun xos bo‘lgan ot minish va piyoda yurish kiradi.

Birinchi 2 ta joylashtirish shakli kam byudjetli sayohhlar uchun maqbuldir. Biroq, Angliyada qishloq ta’tillari qimmat ham bo‘lishi mumkin. Katta daromad va talablarga ega bo‘lgan mijozlar, odatda, maxsus qayta qurilgan eski qasr va hashamatli mehmonxonalarda joylashadilar.

Angliyada agroturizm sohasida 25 mingdan ortiq kichik korxonalar 400 ming kishini ish bilan ta’minlagan holda ishlaydi¹. Bu yerda ham, Germaniyada bo‘lgani kabi, sayyohlar va agroturizm fermalari egalarining yonma-yon yashashiga qaratilgan ustuvor yo‘nalish mavjud. Angliyada ekologik ta’limga jiddiy e’tibor beriladi, shuning uchun agroturizm fermalari ko‘pincha yosh uy hayvonlari uchun maxsus joylarni jihozlashadi va ularga bolalar g‘amxo‘rlik qilishiga imkon beradilar.

Frantsuz modeli agroturizmni tashkil qilishning quyidagi variantlarni o‘z ichiga oladi:

- kichik kottedj- appartementlarda yashash;
- mustaqil o‘z ovqatini tayyorlash;
- oshpazlik va sharobchilik asosiy unsur hisoblanadi. Bunday holda, sayyohlarga mahalliy oshxonaning to‘liq menyusi, shu jumladan juda xilma-xil bo‘lgan pishloq, sharob va ichimliklar va alohida uy taklif etiladi.

Frantsiya haqli ravishda G‘arbiy Yevropada agroturizm sohasida yetakchi deb hisoblanadi. Har yili Frantsiyaga qishloq joylardagi ta’tilni afzal ko‘radigan 7 milliondan ortiq sayyoh tashrif buyuradi². Frantsiyada agroturizm ixtisoslashuvining asosiy

¹Yevropa ekologik va agroturizm markazi sayti. <http://www.eceat.org>

² Frantsiya turizm va dam olish uylari milliy tashkilotining sayti [Elektron resurs]: <https://www.gites-de-france.com>.

yoʻnalishlari – sharob va gastronomik turizmdir. Sohil zonasida agroturizm plyaj turizmi bilan maqbul tarzda uygʻunlashadi.

Frantsiyada turli joylashtirish vositalarining aksariyati fermer xoʻjaliklari, apartamentlar, shale (chalets), villalar, dala hovlilar va boshqa agroturizm xoʻjaliklari (gitesruraux) tomonidan taqdim etilgan. Shu bilan birga, agroturizm xoʻjaliklariga fermerlar, shuningdek sayyohlik agentliklari va qishloq joylarida yashamaydigan jismoniy shaxslar egalik qilishi mumkin.

Frantsiyadagi agroturizmning oʻziga xos xususiyati shundaki sayyohlarga turli xil hordiq chiqarish turlari taqdim etiladi. Bu agrobiznes korxonalariga ekskursiyalardan tashqari, mahalliy diqqatga sazovor joylarga sayohatlar, otda sayr qilish, baliq ovlash va boshqa koʻplab faol dam olish turlari boʻlishi mumkin.

Frantsiyada agroturizmni davlat tomonidan faol qoʻllab-quvvatlashdan maqsad mamlakatning umumiy maydonining katta qismini egallagan qishloq joylarida yashash sharoitlarining qulayligini saqlash va rivojlantirishga qaratilgan. Mamlakatda qabul qilingan metodologiyaga binoan, aholisi ikki ming kishidan kam boʻlgan aholi punktlaridagi, umumiy hududning 80 foizini egallagan dam olish turlari agroturizm deb hisoblanadi.

Nemis modeli quyidagi shartlar bajarilishiga qaratilgan:

- Fermerning uyida yashash;
- Fermer yoki dehqonning oilasiga uy ishlarida yordam berish, chorva mollarini boqishda qatnashish;
- Sayohatlar va baliq ovlarini oʻtkazish, milliy bayramlar, folklor festivallari va qishloq yarmarkalarida ishtirok etish.

Germaniyada qishloq turizm mintaqaviy va federal uyushma va birlashmalariga tegishli boʻlgan 10 mingga yaqin agroturizm korxonalari faoliyat yuritadi¹. Dam olishdan tashqari, ular turli xil xizmatlarni taklif qilishadi: otda sayr qilish, baliq ovlash, velosipedda sayohat, ijodiy musobaqalar, kontsertlar, ekskursiyalar, pikniklar va boshqalar.

Germaniyadagi agroturizm hokimiyatning barcha darajalarida davlat eʼtiborining asosiy obyekti hisoblanadi. Ushbu siyosat iqtisodiy omillarga va qishloqning madaniy oʻziga xosligini har

¹Yevropa turizm uyushmasi sayti [Elektron resurs]: <https://www.etoa.org>

tomonlama qo'llab-quvvatlashga intilishga asoslangan. Ehtimol, shuning uchun Germaniyada, xo'jalik egalari bilan birgalikda fermada yashash, shu jumladan uy ishlarida yordam berishni o'z ichiga oluvchi fermerlik turizmi eng keng tarqalgandir. Bundan tashqari, ushbu sabablarga ko'ra, Germaniyadagi agroturizm ko'pincha voqea turizmiga bevosita qo'shilib ketadi. Xalq sayllari, yarmarkalar, folklor festivallari va boshqa ko'plab tadbirlar qishloq dam olishining an'anaviy qismiga aylanib bormoqda.

Italyancha model – frantsuz modeliga yaqin, ammo o'zining rang-barangligi bilan ajralib turadi. Pazandachilik yo'nalishlaridan tashqari, ko'ngilochar dasturlar sport bilan shug'ullanish, tarixiy diqqatga sazovor joylarni ziyorat qilish ham mavjud. Italiyalik sayyohlar uzumzorlarda uzum, zaytun dalalarida zaytun yig'ish va qayta ishlash bilan shug'ullanishlari mumkin. Yasash sharoitlari turlicha: bu hashamatli villa yoki oddiy qishloq uyi bo'lishi mumkin. Italiya agroturizm sohasida Fransiya uchun munosib raqibdir. Taklif etiladigan xizmatlarning Fransiya qaraganda yuqori narxiga qaramay, Italiyada qishloq ta'tilini tanlaydigan sayyohlar soni har yili kamida 2 millionni tashkil qiladi¹. Frantsiyada bo'lgani kabi, bu yerda ham agroturizm gastronomik va sharob turizmiga yaqin, dengiz qirg'og'ida plyaj turizmi bilan, tog'li hududlarda esa tog'-chang'i sayyohligi bilan birlashadi.

Italiyada agroturizm sayyohlari, asosan, agrikola (agricola) va masseriya (masseri) nomli joylashtirish vositalarida joylashtiriladilar. Agricola – bu sayyohga berilgan xona yoki fermer xo'jaligining alohida binosi. Joylashtirishning ushbu usulini afzal ko'rgan sayyohlar, odatda, ochiq havoda dam olishga e'tiborni qaratadilar, o'z xohishiga ko'ra qishloq xo'jaligining ishlab chiqarish jarayonlariga ekskursiant sifatida jalb qilinishi mumkin. Masseriyalar tarixiy qo'rgonlar, villalar bo'lib, bu yerda sayyohlarga nafaqat qulay yashash sharoitlari, balki turli xil xizmatlar ham taqdim etiladi. Odatda, har bir masseriyada sayyohlarga to'g'ridan to'g'ri namoyish etish uchun qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining, masalan, pishloq, sharob yoki zaytun moyi ishlab chiqarilishining to'liq jarayoni mavjud. Masseriyalarda turli xil animatsion dasturlardan

¹Italiya Qishloq turizmi uyushmasining sayti [Elektron resurs] // [https://www. agriturist.it](https://www.agriturist.it)

foydalaniladi, shuningdek, tarixiy rekonstruksiylar ham amalga oshirilishi mumkin.

Bugungi kunda Italiyada agro-ekosayyohlarni qabul qilish uchun jihozlangan dehqon uylarining soni 9 mingta bo'lib, ular bir paytning o'zida 125 ming sayyohni qabul qila oladi. Provintsiyalar orasida Toskana (34%), Umbriya (14%), Sitsiliya (7%) yetakchilik qilmoqda.

Shuni ham ta'kidlash kerakki, qonunga binoan, sayyohlarni hatto eng byudjetbop turar joy bilan ta'minlaydigan fermer xo'jaliklari ham faqat maxsus tayyorgarlikdan o'tgan taqdirdagina ularni qabul qilish huquqiga ega. Shuningdek, Italiyada agroturizmning o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri – bu turistlarni qabul qiluvchi fermer xo'jaligining qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini to'xtatmaslik majburiyatidir.

Rivojlangan Yevropa davlatlari qishloq turizmida ko'rsatiladigan xizmatlarni, joylashtirish vositalarini standartlashtirish va tasniflashga mo'ljallangan maxsus tavsiyalar, xalqaro darajada tan olingan me'yorlar nafaqat davlat yoki milliy institutlar kesimida, balki Yevropa Ittifoqining xalqaro dasturlar doirasida, ya'ni agroturistik faoliyat sub'yektlari assotsiatsiyasini faol ishtiroki bilan amalga oshiriladi.

8.3. Agroturizm turlari

Hozirgi kunda jahon tajribasida turizmning agroturizm shakli keng rivojlanmoqda. Agroturizmni mamlakatimizda rivojlanishi istiqbollari porloq hisoblanadi. Chunki, mamlakatimiz agrar-industrial xo'jalikka ega bo'lib, asosiy mehnat resurslarimiz qishloq xo'jaligida band. Undan tashqari, mamlakatimiz rekreasiya resurslariga boy hisoblanib, rekreasiya faoliyati tarmoqlarini rivojlantirish mumkin. Bozor iqtisodiyotiga o'tuvchi mamlakatlar uchun moliyaviy resurs manbalari o'ta zarur hisoblanadi. Shu jihatdan oladigan bo'lsak, agroturizm yuqori daromad keltiruvchi xizmat ko'rsatish sohasi hisoblanadi. Mutaxassislar agroturizmni besh turini ajratishadi:

- Sport;
- Madaniy tanishuv;
- Fermerchilik;
- Ish yuzasidan faoliyat;
- Ekologik.

Bunda, birinchi ikkitasi ijtimoiy ahamiyatga, keyingi ikkitasi ishlab chiqarish ahamiyatiga ega. Fermerchilik asosida agroturizmni tashkil etish asosida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish faoliyati yotsa, ish yuzasidan agroturizm ilmiy-texnik hamkorlik, qo‘shma korxonalar tashkil etish va boshqa faoliyatlarda shakllanadi.

Agroturizmning obyektiga ko‘ra agroturlarni quyidagi sinflarga ajratish mumkin¹:

1. Agromajmualarga tashkil etiladigan agroturlar. Qishloq xo‘jaligi ekin maydonlari (paxta, g‘alla, sholi maydonlari), shuningdek, cho‘l va tog‘ mintaqalarida joylashgan bog‘ va uzumzor, o‘rmonlar, chorvachilik xo‘jaliklariga (qoramolchilik, qorako‘lchilik, yilqichilik, baliqchilik, asalarichilik, pillachilik, parrandachilik va h.k.) qilinadigan sayohatlar. Bu agroturlar orqali turistlar qishloq xo‘jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish, saqlash va realizatsiya qilishga doir jarayonlar va ularning hududiy-zonal farqlari bilan tanishadilar.

2. Tabiatning mavsumiy bayramlariga uyushtiriladigan agroturlar. Bunday agroturlar turistlarni mahalliy aholining an‘analari asosida o‘tkaziladigan mavsumiy bayram tantanalari bilan tanishtirish maqsadlarida uyushtiriladi. Masalan, tabiatning uyg‘onishi, ekin-tikin agrotexnikasi tadbirlarining boshlanishi yoki tugashi bilan bog‘liq bo‘lgan bahor mavsumidagi ("Navro‘z", "Sumalak sayli"), bahor-yoz ("Suv sayli", "Tut sayli"), yig‘im-terimga bag‘ishlangan kuz ("Mehrjon", "Hosil") bayramlar, "Qovun sayli", "Uzum sayli", "Anjir sayli", "Anor sayli" va h.k.) sayllarva tadbirlar.

3. Qishloq urf-odatlar va marosimlarida o‘tkaziladigan agroturlar. Masalan, atmosfera yog‘inlariga bag‘ishlangan Xorazm viloyati, Boysun, Forish, Zomin kabi tumanlarda - "Sust xotin", buloq-soy suvlari bilan bog‘liq - Shohimardonda "Ko‘li Qubbon", Namanganda "Peshqiron", Boysunda "Bibi seshanba", Urgutda "Suv chashmalari" kabi marosimlar agroturning mazkur sinfiga mansubdir.

8.4. Qishloq joylarida turizmni rivojlantirish imkoniyatlari

O‘zbekiston Markaziy Osiyo mamlakatlari ichida juda katta turistik imkoniyatlarga ega mamlakat hisoblanadi. Mamlakatimizdagi

¹ Якубжоновна Ш.Т. Агротуризмнинг назарий жиҳатлари // Агро Илм. –Тошкент, 2007. - №3. –Б. 53-54.

mavjud tarixiy- arxeologik yodgorliklar, tabiiy iqlim sharoiti, ya'ni biologik xilma-xil, go'zal va betakror tabiati, hayvonot va o'simlik dunyosi, hamda millatimizning o'ziga xos madaniyati, urf-odatlarini, an'analarini o'z navbatida tarixiy-madaniy, arxeologik, ekologik, qishloq turizmi kabi xizmat turlarini rivojlantirish imkoniyatini beradi.

2013-yil 17-aprelda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2013-2016- yillarda qishloq joylarda xizmat ko'rsatish va servis sohasini jadal rivojlantirish yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori qabul qilingan edi. Mazkur qarorga ko'ra, mamlakatimizda ekologik, tibbiy-sog'lomlashtirish, sport turizmi, shuningdek, yakka tartibdagi qishloq mehmonxona uylari negizida agroturizmni o'z ichiga olgan zamonaviy turistik xizmatlar turlarini ustuvor rivojlantirish zonalari alohida belgilab olingan¹. So'nggi yillarda mamlakatimizning ko'pchilik mintaqalarida turizm sohasini rivojlantirish uchun maqsadli dasturlar qabul qilinmoqda. Ushbu dasturlarda har bir mintaqaning o'ziga xos bo'lgan tabiiy sharoiti, iqlimiy xususiyatlari, boy milliy-madaniy merosi hamda qishloq aholining urf-odatlarini va an'alarini hisobga olgan holda, qishloq turizmini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilgan.

Mamlakatimizda qishloq turizmi ekologik turizm bilan birgalikda faol rivojlanmoqda. Toshkent viloyatining Bo'stonliq tumani, Jizzax viloyatining Zomin tumani, Namangan viloyatining Pop tumani, Samarqand viloyatining Urgut tumanining dam olish zonalari agroturizmni rivojlantirish uchun juda katta imkoniyatlarga ega².

Viloyatlarimizda qishloq xo'jaligi sohasining ancha taraqqiy qilganligi, aksariyat aholining qishloq joylarida istiqmot qilishi, qishloq hududlarida yangi infratuzilmalarning paydo bo'layotganligi, qishloq hayotining o'ziga xos urf-odatlarini va an'alarini bevosita qishloq turizmini rivojlantirish imkoniyatlarini katta ekanligidan dalolat beradi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 03/1-220-son bilan tasdiqlangan "Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlarda

¹ "Ўзбекистонда экологик туризмни ривожлантириш концепцияси". Экология ахборотномаси. № 6, 2007 й., 9-бет.

² Ўзбекистон Республикаси Президентининг "2013-2016 йилларда қишлоқ жойларида хизмат кўрсатиш ва сервис соҳасини жадал ривожлантириш юзасидан қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида"ги 1957-қарори. Халқ сўзи, 2013 йил 17 апрель

namunali fermer xo'jaliklarini sayyohlarga xizmat ko'rsatishga moslashtirish, ularga sayyohlarni jalb qilish hamda ularning mamlakatimizda bo'lish muddatlarini uzaytirish maqsadida agroturizmni rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi" hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilingan.

O'zbekistonda ichki turizmni rivojlantirishda qishloq turizmini rivojlantirishning naqadar foydaliligini yuqoridagi tahlillar asosida tushunib olish mumkin.

Birinchidan, mamlakatimizda qishloq turizmini rivojlantirish asosida qishloqlarimizda jiddiy bo'lib turgan ishsizlikni yechish, qishloq xo'jaligi maxsulotlarining sifatini oshirish, qishloqlarining iqtisodiyotini ko'tarish, savdo-sotiqni tashkil qilish, mahalliy ishlab chiqarishni tashkil qilish, xalqaro hamdo'stlikni oshirish kabi muhim masalarni hal qilishimiz mumkin.

Ikkinchidan, shaharlarimizda yashayotgan aholining dam olishini tashkil qilish, shaharliklarni qishloqlar bilan bog'lash, ularning qishki mavsumga qishloq xo'jalik mahsulotlarini g'amlab olishda yo'l-yo'riqlar ko'rsatish, ayniqsa shaharlik bolalarni qishloqlarda hordiq chiqarishini, tabiat bag'rida bo'lib tabiatni anglashni shakllantirishimiz lozim bo'ldi.

Uchinchidan, qishloq turizmini rivojlantirishda soliq tushumlarining ko'payishini ta'minlash va ushbu mablag'lar asosida qishloq joylarni obodonlashtirishni kuchaytirish:

To'rtinchidan, qishloq turizmini rivojlantirish asosida qishloqlardagi tarixiy obidalarni muhofaza qilish, ta'mirlash, muqaddas qadamjolarini obod qilish va ko'klamzorlashtirish, ulardan xalqimizni erkin foydalanishini ta'minlash ishlarini amalgam oshirish ishlarini hal qilishimiz lozim bo'ldi.

Bugungi kunga kelib mamlakatimizning qishloq joylarida oilaviy tadbirkorlik va kichik biznesni samarali rivojlantirishda agroturizm muhim o'rin egallaydi. hozirda mamlakatimizda agrar sohani rivojlantirishda fermer xo'jaliklarining ulushi tobora ortib, kengayib bormoqda. Ular tomonidan yirik tabiiy hududlar, jumladan: o'rmon hududlari, baliqchilik, chorvachilik xo'jaliklari, meva va uzumchilik bog'lari, sabzavot va poliz mahsulotlari yetishtiradigan hududlar tashkil etilib, ushbu hududlarda fermerlar tomonidan dala shiyponlari, xizmat ko'rsatish komplekslari barpo etilmoqda. Bu esa

qishloq joylarda agroturizm sohasini yo‘lga qo‘yish va rivojlantirishda muhim omil bo‘lib hisoblanadi.

Mintaqada turizmni jadal rivojlantirishda, sayyohlar oqimini o‘stirishda hududning nafaqat rekreatsion salohiyati, balki, turistik infratuzilma salohiyati, ya’ni zamonaviy mehmonxonalar, ovqatlanish maskanlari, transport xizmatlarining xalqaro talablar asosida yo‘lga qo‘yilganligi, bu sohada yuqori malakali kadrlar etishtirish va ta’minlash ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bular esa o‘z navbatida qishloq joylarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, infratuzilmaviy salohiyatini mustahkamlash, yangi ish o‘rinlari yaratish va alal oqibat aholi turmush darajasini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Jahon tajribasidan kelib chiqib, O‘zbekistonning barcha mintaqalaridagi mavjud imkoniyatlarni va o‘ziga xos shart-sharoitlarni hisobga olgan holda, yaqin istiqbolda qishloq turizmini (agroturizm) quyidagi yo‘nalishlarda tashkil qilish maqsadga muvofiqdir:

1. Mamlakatimizda qishloq turizmini tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini tartibga soluvchi qonunchilik bazasini shakllantirish.
2. qishloqlardagi mavjud turistik resurslar asosida, oilaviy biznesni rivojlantirish orqali kichik mehmonxonalar va agroturizmni samarali faoliyatini ta’minlaydigan turli xil infratuzilma obyektlar, asosan xususiy agroturistik xo‘jaliklarni tashkil qilish.
3. qishloq joylarida turizmni samarali rivojlantirish maqsadida ijtimoiy-madaniy muhitni shakllantirish ("tarixiy qishloq", "milliy qishloq" va h.k).
4. Turistlarni qabul qilishga mo‘ljallangan, ularni mazmunli dam olishini to‘liq ta’minlaydigan kichik madaniy-tarixiy, turli xil etnografik markazlarni tashkil qilish.
5. qishloq joylaridagi joylashtirish vositalari va infratuzilmalarga xos bo‘lgan, ko‘p tarmoqli, ya’ni turistik, ko‘rgazmali, reklama namoyishli, madaniy-targ‘ibotli, ilmiy-tadqiqot va ishlab chiqarishga xos bo‘lgan, davlat hamda xususiy qishloq xo‘jaligi parklarini tashkil qilish maqsadga muvofiqdir.

6. Turizm sohasi uchun mutaxassis kadrlar tayyorlaydigan oliy ta'lim muassasalarning namunaviy o'quv rejalariga "Agroturizm", "Barqaror turizm" kabi fanlarni kiritish¹.

Yuqorida qayd qilib o'tilgan yo'nalishlarning har birini amalga oshirish uchun mamlakatimizda barcha imkoniyatlar mavjud. Yurtimizning yirik sarmoyadorlarini agroturizmning boshqa shakllariga, eng avvalo, yirik xususiy agroturistik ob'yektlarga mablag'qo'yishga jalb qilish maqsadga muvofiqhisoblanadi. Bunday ob'yektlar sirasiga madaniy-tarixiy parklar, etnomadaniy majmualar, ilmiy-tadqiqot markazlari va boshqalar kiradi. Ushbu loyihalarni amalga oshirilishi, nafaqat iqtisodiy jihatdan samarali, balki ijtimoiy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi, xususan, bugungi yoshlarni o'z vatanini, tarixini, madaniyatini yaxshi bilishda, milliy qadriyatlarni anglashda, umuman, bir so'z bilan aytganda o'z vatanini sevisish hamda vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Mamlakatimizda qishloq turizmining rivojlanishi iqtisodiy-ijtimoiy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi va ijobiy samara beradi.

8.5. Mintaqalarda agroturizmni rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari

Qishloq xo'jaligidagi turizm deganda, avvalo, sayyohlik kompaniyalari va qishloq aholisining qishloqlarga dam olish, xalq hunarmandchiligini o'rganish va turli xil qishloq faoliyatlarida ishtirok etish va ko'nikmalar hosil qilish maqsadida mehmonlarni jalb qilishda, shuningdek, mahalliy ishlab chiqarilgan mahsulotlar va xizmatlarni sotishdagi tadbirkorlik faoliyatini tushunilishi kerak².

Turizm qishloq joylarining iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi, shuning uchun turizm sanoatini rivojlantirish mintaqalarning ustuvor iqtisodiy vazifalariga aylanib bormoqda.

Mutaxassislarining ta'kidlashlaricha, agroturizm keng ma'noda qishloq joylarida dam olishning barcha turlarini o'z ichiga oladi.

¹ Матякубов У. Қишлоқ туризми унинг ижтимоий-иқтисодий аҳамияти ва ривожлантириш истикболлари// "BIZNES - ЭКСПЕРТ". – № 8 (116) - 2017. - <http://www.biznes-daily.uz>

² Беспарточный Б.Д., Хромова А.В. Агротуризм: терминология и сущностные характеристики // Известия Юго-Западного государственного университета. 2014. № 4 (55). С. 117-122.

Agroturizm turizmning maxsus turlarining sintezi sifatida xizmat qiladi:

- 25% ga etnik turizmdan iborat bo‘lib, maqsadi - aholining madaniyati, me'morchiligi, hayoti va urf-odatlarini bilan tanishish uchun etnografik joylarni ziyorat qilish;
- 35% ga ekoturizmdan iborat bo‘lib, nisbatan antropogen ta'sir ko'rsatmagan tabiiy hududlarga tashrif buyurishga yo'naltirilgan barqaror turizm shakli ekoturizm ulushiga to'g'ri keladi;
- 15% agroturizm tarixiy, madaniy, geografik diqqatga sazovor joylarni ziyorat qilishdan iborat bo'lgan madaniy va ma'rifiy turizmni o'z ichiga oladi;
- 25% noyob landshaft hududlarida joylashgan va asosan sayohatning faol turlariga yo'naltirilgan faol turizm ulushiga to'g'ri keladi¹.

D.N. Panova fikriga ko'ra, agroturizm quyidagi xususiyatlarga ega:

- Sayohatni individual tanlash, ta'tilni oila yoki do'stlar davrasida o'tkazish imkoniyati;
- turning davomiyligi;
- dastur elementlarini o'zgartirish imkoniyati;
- bunday hordiqni tanlash uchun ichki motivatsiya;
- tashrif buyurilgan hududning turmush tarzi va madaniyati bilan tanishish;
- taassurotlarning boyligi va xilma-xilligi;
- hayotiy faoliyatning ko'payishi;
- bag'rikenglikning oshishi;
- yangi bilimlar, hissiyotlar va xotiralarni egallash imkoniyati².

Shunday qilib, jahon amaliyoti agroturizmning turizm industriyasi tizimida va umuman iqtisodiyotda o'sib borayotgan

¹Глаголева Л.Э., Куксова И.В., Жук С.Н., Певнева Д.М. Агротуризм – перспективное направление туристического бизнеса в России // Экономика. Инновации. Управление качеством. – 2016. – № 1(14) – С.43-48.

² Организация сельского туризма. Практические рекомендации по организации альтернативной занятости сельского населения. Выпуск 5. – М.: ФГНУ «Росинформагротех», 2009. – 170 с.

ahamiyatini ishonchli tarzda namoyish etmoqda. Tadqiqotlarga ko'ra, yiliga 6¹ foizni tashkil etadigan ushbu sohaning jadal rivojlanishi quyidagi omillar bilan ta'minlanadi:

1. agroturizm qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ortiqcha ishlab chiqarish va qishloq xo'jaligining bir qismini ishlab chiqarish sektoridan xizmat ko'rsatish sohasiga o'tkazish tufayli kuchayotgan raqobat sharoitida qishloq xo'jaligini qayta qurish uchun samarali vosita bo'lib xizmat qiladi;
2. agroturizm, qishloq va shahar aholisining turmush darajasidagi tafovutlarni tenglashtirishga, qashshoqlikning oldini olishga yordam beradi;
3. agroturizm tufayli madaniy o'ziga xoslikni saqlash, milliy an'ana va turmush tarzini saqlab qolish va rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlar paydo bo'ladi;
4. agroturizm ekologik qadriyatlarni tashuvchisi bo'lgan, ta'til kunlarida shaharning urbanistik maydonini tark etishga va o'z mamlakatining va boshqa davlatlarning milliy madaniyatining sarchasmalari va tabiatiga qo'shilishga intilayotgan zamonaviy sayyohlarning talablarini qondiradi.

Tayanch iborolar va tushunchalar

Turizm, agroturizm, qishloq xo'jaligi, qishloq hududlarining resurslari, agroturizm evolyutsiyasi, barqaror turizm, qishloq hududlarini rivojlantirish, tabiat, xalqaro tajriba.

Nazorat uchun savol topshiriqlar

1. Agroturizm tushunchasiga ta'rif bering.
2. Agroturizmni qanday turlari mavjud?
3. Mamlakatimizda qishloq joylarida qanday turizm resurslari mavjud?
4. O'zbekistonda agroturizm resurslari va imkoniyatlarini izohlang.
5. O'zbekistonda agroturizmni rivojlantirish tadbirlari nimalardan iborat?

¹ Казначеева, С. Н., Челнокова, Е. А., Коровина, Е. А. Агротуризм как одно из перспективных направлений индустрии туризма // Международный журнал прикладных и фундаментальных исследований, № 3, 2017, с. 252.

9-BOB. MINTAQALARDA EKOLOGIK TURIZMNI RIVOJLANTIRISH RESURSLARI VA ULARDAN FOYDALANISH

9.1. Mintaqalarda ekoturizmning tutgan o‘rni va roli

Ekoturizm - tabiiy turizm bo‘lib, tabiat muhitini hosil qilish va tushinishni o‘z ichiga oladi. Uning menejmenti shunday amalga oshiriladiki, natijada bu faoliyat ekologik, ijtimoiy va madaniy jihatdan barqaror bo‘lib, "tabiiy muhit", madaniy tarkiblarni, "ekologik barqarorlik" mahalliy aholi uchun tegishlicha daromadni va foydalanilayotgan resurslarning uzoq muddatli muhofaza qilinishini o‘z ichiga oladi. Ekoturizm turizmning boshqa turi kabi ekologik barqaror bo‘lishi, sayyohlarga zavq-shavq baxsh etishi va mahalliy aholiga daromad keltirishi lozim. Bundan tashqari, tabiiy va madaniy muhitga "mos tushishi" kerak. "Mos tushishi" degan so‘zning ma’nosi shuki bu faoliyatning uslubi, hajmi va xili landshaftning ko‘lami va xarakteriga, mahalliy aholining urf-odatlariga to‘g‘ri kelishi zarur.

Turli adabiyotlarda ekoturizm turlicha talqin qilinadi: Avstraliyaning Milliy ekoturizm strategiyasida ekoturizm – tabiatga yo'naltirilgan turizm, deb ifodalangan. Tabiatni muhofaza qilish xalqaro Ittifoqi ekoturizmni "atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish, unga sayr qilganda "ayab" ta'sir ko'rsatish yo'li bilan madaniy va tabiiy hududlarga ekologik ma'suliyatli sayyohat", deb tushuntiradi. Butunjahon yovvoyi tabiat jamg'armasi ekoturizmni "atrof-muhitni muhofaza qiluvchi tabiiy turizmdir" deb ta'kidlaydi.

Ushbu turdagi turizmning rivojlanishi quyidagi uchta tamoyilga asoslangan:

- tu-ristlarga xizmat ko'rsatishdan olingan daromadlarning bir qismi joylarda qoladi va tabiatni muhofaza qilishga yo'naltiriladi;
- atrof-muhitni muhofaza qilish talablariga qat'iy rioya qilish;
- sayyohlik safari tadqiqot maqsadlarida tashkil etiladi.

Shunday qilib, ekoturizm tizimi asosida turistik faoliyatning turli xillarida qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan tamoyillar yotadi. Bular: bilimni oshiradigan yoki sarguzasht sayyohatlari (piyoda, otda, suvda, tog‘da, sayr va hokazo), talabalar ta’tillari, ormetologik turlar, ilmiy

turlar va ekspeditsiyalar, dam olish kuni ekskursiyalari, yozgi bolalar lagerlari va h.

An'anaviy turizmdan ekoturizm quyidagi xususiyatlari bilan farq qiladi:

- tabiiy turizm ob'ektlarining ustunligi;
- tabiatdan barqaror foydalanish;
- hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda bevosita ishtirok etish;
- mahalliy jamoatchilikning yanada ko'proq jalb qilinishi;
- kam resurs va energiya sarfini talab etishi;
- sayyohlarga ekologik ta'lim-tarbiya berishi.

Ekoturizmni faqat foyda manbayi deb hisoblash to'g'ri emas. Bu faoliyat turi agar maqsadga muvofiq doirada amalga oshirilmasa, uning qoidalari va talabalariga rioya qilinmasa tabiatga jiddiy salbiy ta'sir qilishi va noxush oqibatlariga olib kelishi tabiiy. Uning salbiy oqibat va natijalari nimalardan iborat bo'lishi mumkin. Eng avvalo, o'simliklar nobud bo'ladi, o'simliklar payxon qilinadi, yer o'piriladi va zichlashib ketadi, hayvonlar bezovtalanadi, qochishga tushadi, bola ochishga xalaqit beriladi, ov natijasida yo'q qilinadi, ovqatlanish tarzi o'zgaradi, turlari ayniydi, hayvonlar notabiiy to'planadi, suvda yashaydigan hayvonlarning hayot tarzi o'zgaradi, suv o'simliklariga ziyon etadi, biotinning buzilishi, oziq moddalarning emirilishi va yo'qolishiga olib keladi (tog'li joylarda, o'rmon yong'ini xavfi), suvning ifloslanishi va evtrofikatsiya yuz beradi, noyob turlar kamayadi, hayvonlarning hayot tarzi o'zgaradi, g'oyalar emiriladi, tashqi qiyofa xunuklashadi, marjon g'oyalar shikastlanadi, baliqlar turi kamayadi, suv havzalari qirg'oqlaridagi o'simliklar payxon bo'ladi, qirg'oqdagi tuproq o'piriladi, zichlashadi, o'simliklar nobud bo'ladi, tasodifan hayvonlar shikastlanadi, hayvonlar turmush tarzi o'zgaradi.

Xalqaro turizmning rivojlanishi uning tarmoqlarga bo'linib ketishiga olib keldi. Shu singari ekologik turizm ham avvallari xalqaro turizm bilan birga olib borilar va alohida tarmoq sifatida tilga olinmas edi. Endilikda aniqrog'i Birinchi Jahon urushi tugashi bilan keltirilgan vayronagarchiliklar va tabiatga insonlar ta'sirining ortib borishi kata muammolarni keltirib chiqara boshladi. To'rt yillik urush tugashi bilan, turizm rivojlanishida Evropada yangi atama tabiiy turizm

tushunchasi paydo bo'la boshladi. Turistik firma va turagentliklarning faoliyati yana jonlana boshladi. Bunda turistlar xarakati oldingilarga qaraganda bir necha bor tezlashdi. Tabiat qo'yniga sayohatga chiquvchilar soni ortib bordi. Lekin, turizmning rivojlanish jarayonlari yana sekinlashdi. Bunga ikkinchi jahon urushi boshlanishi sabab bo'ldi. Ikkinchi jahon urushi tugashi bilan XX asrning 50 yillarida turizm rivojlanishida tub burilish davri, ya'ni bosqich boshlandi. Bu davrda jahon xalq xo'jaligining barcha sohalarida, shu singari xizmat ko'rsatishda ham keng qamrovli islohotlar olib borila boshlandi. Bunda mehmonxonalarni oldindan buron qilish, chiptalarga buyurtma berish singari jarayonlar tezlikda rivojlana boshlandi. Texnika va texnologiyalar rivojlanishida katta o'zgarishlar vujudga kela boshladi. Komp'yuterlarning xalq xo'jaligining barcha tarmoqlariga joriy qilinishi natijasida iqtisodiy yuksalish tezlashdi. Insoniyat tomonidan kosmosni o'zlashtirish davri boshlandi. Fan-texnika taraqqiyoti jadal rivojlana boshladi, natijada axborot kommunikatsion jarayonlar tezlashdi.

Ekologik turizm rivojlanishi jarayonidagi asosiy bosqich XX asrning 80 yillariga to'g'ri keladi. Bu vaqtga kelib turistik xizmat ko'rsatishda tabiiy resurslardan keng foydalanila boshlandi. Turizmda tabiat qo'ynida dam olish asosiy rol o'ynay boshladi. Natijada turoperatorlar yangicha ko'rinishdagi ekologik dasturdagi turyo'nalishlar ishlab chiqa boshladilar. Bu esa ekoturizmning bugungi rivojlanish darajasini belgilab bermoqda.

Dunyodagi har bir mamlakatda ekoturistik resurslar yetarli darajada bo'lib, ekoturistik sayohatlar tashkil etish imkoniyati mavjud. Biroq hozirgi kunda asosiy ekoturistik oqim AQSh, Kanada, Avstraliya, Nepal, Ekvador, Braziliya, Keniya, JAR kabi mamlakatlarga yo'nalgan. Osiyo mintaqasida Hindiston Xitoy, Laos, Indoneziya, Vetnam kabi mamlakatlarda ham ekoturizm tobora shakllanib va rivojlanib bormoqda.

Hozirgi kunda dunyoda ekoturizmning 2 asosiy modeli shakllangan. Birinchisi Kanada-Avstraliya modeli bo'lib, birinchi AQSh va Kanadada rivojlanib, Avstraliyada mustahkamlandi. Ushbu mamlakatlarda ekoturistik sayohatlar asosan yovvoyi tabiat qo'yniga uyushtirilib, noyob o'simlik va hayvonot olamini kuzatishga qaratilgan. Sayohatlar asosan alohida muhofaza qilinadigan hududlarda amalga oshiriladi. Chunki ushbu mamlakatlarning katta

hududlari alohida muhofaza etiladigan hududlardan iborat. Masalan: AQShning AMEH 13% ni, Kanada hududining 10%, Avstraliyada esa 14% ini tashkil etadi.

Ekoturizmning ikkinchi modeli g'arbiy Yevropa modeli bo'lib, asosan madaniylashtirilgan landshaftlarga sayohat uyushtirishdan iborat. Ma'lumki Yevropa mamlakatlarining tabiiy landshaftlari hamda yovvoyi tabiati oz bo'lganligi bois ekoturistik sayohatlar asosan inson tomonidan barpo etilgan madaniy landshaftlarga tashkil etiladi. Bu esa ekoturizmni agroturizm bilan birgalikda tashkil etilishiga zamin yaratgan. Hozirgi kunda ekoturizmning tarmog'i sifatida qaralayotgan agroturizm Yevropa mamlakatlarida keng taraqqiy etmoqda. Yevropa aholisi nafaqat o'z mamlakatlaridagi ekoturistik ob'ektlarga sayohat uyushtiradilar, balki rivojlanayotgan mamlakatlarning ekzotik tabiatga ham ko'plab sayohat uyushtiradilar¹.

Har xil xususiyatlarga ega bo'lgan va turli tazyiqlarga uchraydigan alohida qo'riqlanuvchi tabiiy hududlarda ekologik turizmni rivojlantirishning odatda ikki modelini xalharo ekspertlar taklif qiladi. Bular: "A" modeli-nazorat qilinmaydigan tabiat turizmi, "V" modeli-kichik ko'lamli ekoturizm. "A" tipidagi rivojlanish modelida "V" tipidagi modeldagiga nisbatan ko'proq tabiiy turli-tumanlik va hammaboplik ko'zda tutiladi. Bundan tashqari birinchi model' turistik marshrutlarni tashkil qiluvchilar uchun ko'proq daromad keltiradi, lekin bunda shuni hisobga olish kerakki, bu amalda nazorat qilinmaydigan turizm joyning ekologiyasiga ancha salbiy ta'sir ko'rsatadi, mahalliy aholining turmush tarzi va urf-odatlarini o'zgartiradi. "V" tipidagi model biologik turlarning saqlanishi va unga salbiy ta'sir ko'rsatmasligi tufayli bu model afzalroq hisoblanadi, lekin bu model ham turoperatorlar va mahalliy aholi uchun uncha katta daromad keltirmaydi. Bizning fikrimizcha iqtisodiy rivojlanmagan mamlakatlar, shu jumladan O'zbekiston uchun ham bu model afzalroq deb o'ylaymiz.

¹Шамуратова Н.Т., Сабитова Н.И., Никадамбаева Х.Б. Худудларни ривожлантиришда экотуризмнинг аҳамияти: халқаро ва миллий тажриба // Географические проблемы и возможности развития туризма и рекреации в Узбекистане. Международная научно-практическая конференция. Чирчик, 2019. - Б. 256.

9.2. O'zbekiston turistik mintaqalarining ekoturistik salohiyati va uning o'ziga xos xususiyatlari

Ekologik - iqtisodiy rayonlashtirish mamlakatda tabiiy-ekologik imkoniyatni har tomonlama hisobga olgan holda mamlakat iqtisodiyotini hududiy rivojlanishini takomillashtirishga va mintaqalarning tabiiy resurs imkoniyatidan unimli foydalanishni hududiy boshqarishni tashkil etishga xizmat qiladi. Mintaqalarning ma'lum mahsulotlarni ishlab chiqarishga ixtisoslashishi bilan uzviy bog'liq bo'lib, ijtimoiy mehnat unumdorligini oshirish, ishlab chiqarish kuchlarini samarali joylashtirishning muhim omilidir.

Ekologik iqtisodiy rayonlashtirish iqtisodiy rayonlashtirishning ixtisoslashgan yo'nalishi va turi bo'lib, u ikkita asosiy tamoyilga asoslanib amalga oshiriladi:

- 1) hududiy mehnat taqsimoti;
- 2) Ushbu hududlar ishlab chiqarish kuchlarining tabiiy muhitga ta'sir ko'rsatish darajasi.

O'zbekistonning tabiiy-ekologik xususiyatlariga ko'ra bir tomondan yirik tabiiy-ekologik-iqtisodiy-makro zonalarga, boshqa tomondan esa ekologik - iqtisodiy rayonlar tizimiga ajratish mumkin. Ularning har biri hududiy ekologik - iqtisodiy rivojlanishning ma'lum vazifalariga javob beradi.

O'zbekistonning ekologik - iqtisodiy rayonlashtirishning asosini mamlakatni 3 ta yirik makrozonaga va 8 ta ekologik - iqtisodiy rayonga bo'lish tashkil etadi. O'zbekistonda quyidagi ekologik - iqtisodiy rayon shakllangan:

- 1) Toshkent (Toshkent shahri, Toshkent viloyati);
- 2) Farg'ona (Farg'ona, Namangan, Andijon viloyatlari);
- 3) Mirzacho'l (Sirdaryo va Jizzax viloyatlari);
- 4) Samarqand-Zarafshon (Samarqand viloyati);
- 5) Buxoro-Navoiy (Buxoro va Navoiy viloyatlari);
- 6) Qashqadaryo (Qashqadaryo viloyati);
- 7) Surxondaryo (Surxondaryo viloyati);
- 8) Quyi Amudaryo (Xorazm viloyati, Qoraqalpog'iston Respublikasi).

O'zbekistondagi har bir rayon o'zining ekoturistik holati, imkoniyatlari, shart-sharoitlari va rivojlanish istiqbollari nuqtai nazaridan ajralib turadi. Masalan, Ustyurt ekoturistik rayonini oladigan bo'lsak, u O'zbekistonning Shimoliy-G'arbi-

Qoraqolpog‘istonda joylashgan plato bo‘lib, uning umumiy maydoni 200 ming km² ni tashkil etadi. Bu joylar dunyoda eng katta va yagona 60-150 metrlik tik qoyali jarlari, davolash xususiyatiga ega bo‘lgan juda katta-1000 km² li tuzli Borsakelmas sho‘rxoki bilan mashhur. O‘simlik dunyosi deyarli yo‘q, osh tuzi va balchiqli tuzning qatlami 16-27,5 m gacha boradi. Yangi qurib bitkazilgan Qo‘ng‘irot soda zavodi aynan ana shu xomashyo hisobiga ishlaydi.

Orol va Orolbo‘yi ekoturistik rayoni ekologik inqirozli ekoturistik hudud bo‘lgani uchun ham ekstremal ekoturistik obyekt bo‘lib hisoblanadi. Ekoturistik marshrutlar bir paytning o‘zida ham Orolning qurigan, ham uning ta’sirida bo‘lgan Orol atrofi hududlarini qamrab oladi. Bunday hududlarda, bizning fikrimizcha ekoturlar nafaqat treking (piyoda) yoki tuya va otlarda, balki samolyot va vertolyotlar orqali ham amalga oshirilishi mumkin.

Amudaryo ekoturistik rayoni. Amudaryoning o‘zaniga yaqin sohillardagi to‘qayzorlardan iborat bo‘lib, ular ekoturlar uchun juda qiziqarli, noyob landshaft hisoblanadi. Quyi Amudaryoning o‘ng sohilida to‘qay landshaftidagi qushlar va hayvonlarni muhofaza qilish uchun Badayto‘qay qo‘riqxonasi tashkil etilgan. Ornitafaunani saqlash uchun Xorazm buyurtmaxonasi tashkil etilgan. Bulardan tashqari qizilqumning g‘arbiy qismida, Amudaryoning o‘ng qirg‘og‘ida, kembriy va kembriygacha davrda burmalangan tog‘ jinslari ochilmalaridan iborat, balandligi 485 metrlik Sulton Uvays tog‘lariga ekoturlar uyushtirish mumkin. Amudaryo rayonida O‘zbekistonning ko‘hna shaharlaridan biri Xorazm joylashgan, uning arxitektura yodgorliklari tarixiy turizm markazlaridan biri hisoblanadi. Bunday joylarda ekoturlarni tarixiy turlar bilan kompleks olib borishni tavsiya qilish mumkin.

Nurota rayoni o‘zining ajoyib tabiat manzaralari, tarixiy arxitektura yodgorliklari bilan kishilarni maftun etadi. 1975-yilda tashkil etilgan va maydoni 17,8 ming ga bo‘lgan Nurota tog‘ yonqoqzor-meva qo‘riqxonasi mavjud. Bu qo‘riqxonaga "Ekosan" qoshidagi "Ekosantur" firmasi tomonidan ko‘plab marshrutlar uyushtirilgan. Oqtog‘ning janubiy yon bag‘rida joylashgan shamol ta’sirida tebranib turuvchi bahaybat xarsang toshli "Sanjigumon", "Koriz Qoldiqlar" kabi tabiat yodgorliklari ekoturizmning muhim obyektlaridan bo‘lib hisoblanadi.

Ko‘p asrlik ziyoratgoh "Chashma buloq" yaqinida "Chilistun" masjidi, madrasa, Abul Xasan Nuriy maqbarasi va qal’asi joylashgan.

Qoratog' tizmasining janubiy yon bag'rida "Sarmish darasi"dagi qoyalarda avlodlarimizning hayoti va madaniyatini aks ettiruvchi lavhalar, rasmlar ishlangan.

Janubiy Nurota tizmasida uzunligi 110 m, umumiy balandligi 1060 m, maydoni 163 m² keladigan "Maydon karst g'ori", Shimoliy Nurota tizmasidagi uzunligi 130 m, umumiy balandligi 1100 m, maydoni 70 m² keladigan "Xonaixudo karst g'or" da speleoturizmni rivojlantirish mumkin. Bulardan tashqari, XI asrda bunyod etilgan va XVIII asr boshlarigacha turgan "Rabot Malik karvonsaroyi" sayyohlarning to'xtash joyi, shuningdek, savdogarlarning savdo qilish joyi bo'lgan. Rabot Malik yonida ming yillik tarixga ega bo'lgan madaniy yodgorligi-sardoba uchraydi. Er ichiga 12 m botirilgan sardobada butun yoz bo'yi muzdek va toza suv saqlangan.

Zarafshon ekoturistik rayonida Zarafshon daryosi qayirlarida joylashgan to'qay landshafti, undagi o'simlik va hayvonot dunyosini muhofaza qilish uchun tashkillashtirilgan "Zarafshon qo'riqxonasi" mavjud. Buxoro viloyatining Shofrikon o'rmon xo'jaligi hududida joylashgan qum cho'l landshafti, u erdagi o'simliklar va hayvonlar hamda tarixiy yodgorliklar (Vardonza shahar xarobalari) davlat tomonidan qo'riqlanadi. "Vardonza qo'riqxonasi", "To'dako'l flora va faunasini boyitish buyurtmaxonasi", Qoravulbozor xo'jaligida joylashgan "Jayron-ekomarkazi", suv va botqoqqa moslashgan qushlarni ko'paytiruvchi "Dengizko'l buyurtmaxonasi", Zarafshon tog' tizmalaridagi Omonqo'ton va Amir Temur karst g'orlari, Zirabuloq-Ziyovuddin tog' tizmalaridagi ko'p qavatli "G'unjak g'ori" va boshqalar diqqatga sazovordir. Zarafshon ekoturistik rayonida qadimgi shaharlar Samarqand va Buxoro joylashganligi tufayli ham ekoturlar yakuni tarixiy-diniy arxitektura yodgorliklariga qilinadigan safarlar bilan olib borilishi maqsadga muvofiqdir.

Turkiston ekoturistik rayonida ekoturlarni alohida muhofaza etiladigan hududlarga uyushtirish samaraliroqdir. Chunki bu rayonda Turkiston tizmasining shimoliy yonbag'rida 1959-yilda tashkil etilgan, absolyut balandligi 1760-3500 m, umumiy maydoni 21735 ga bo'lgan "Zomin davlat qo'riqxonasi", maydoni 24110 ga bo'lgan noyob tog'-archa ekosistemalarini tiklash va rekreatsiya maqsadlarida foydalanish uchun 1978-yilda tashkil etilgan "Zomin milliy bog'i" mavjud.

Qashqadaryo ekoturistik rayoni cho'l, dasht, tog' oldi va tog'li hududlardan iborat. Bu rayonda yoz va baqor oylarida cho'l va

dashtlarda, yilning barcha fasllarida esa tog' oldi va tog'li hududlarga ekoturlar uyushtirish mumkin. Qashqadaryo rayonida 1979 yilda tashkil etilgan, 3938 ga maydonga ega bo'lgan, MDH davlatlari ichida yagona-"Kitob davlat geologiya qo'riqxonasi", 1992-yilda tashkil etilgan "Muborak buyurtmaxonasi", 1992-yilda tashkil etilgan "Sechenko'l buyurtmaxonasi" mavjud.

Surxondaryo ekoturistik rayonida Ko'hitang tog'li hududda 1987-yilda tashkil etilgan, 53,7 ming ga maydonda 800 xil o'simlik va 290 ta xush hamda 20 dan ortiq hayvon turlarini muhofaza qilishga yo'naltirilgan "Surxon davlat qo'riqxonasi" mavjud. Surxondaryo rayoni Respublikamizning o'ziga xos rayonlaridan biri, bu yerda quruq subtropik iqlim mintaqasi hukmron. Shuning uchun ham yilning ko'p oylarida ekoturlar uyushtirish imkoniyati bor.

9.3. Ekoturizmni rivojlantirishda tabiati alohida muhofaza qilinadigan hududlarning o'rni

Ma'lumki, so'nggi yillarda mamlakatimizda atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ekologik muammolarni bartaraf etish, aholi salomatligini himoya qilish masalalariga e'tibor yanada kuchayib, mazkur sohalarida ulkan ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston ekologik muvozanatni saqlash, atrof-muhitni asrab-avaylashga qaratilgan choralarni ko'rayotgan yetakchi davlatlar qatoridan joy olmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining bir qator farmon va qarorlari ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va aholi salomatligini saqlashdagi islohotlarni samaradorligini yanada oshirishga xizmat qilmoqda. Bugungi kunda turizmning ekologik yo'nalishiga turizm qonunchiligidan tashqari "Tabiatni muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida", "Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida", "Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida"gi qonunlar bilan tartibga solinayotganligi e'tiborga molik.

Yurtimizda barcha sohalar bo'lgani singari ekologik barqarorlikni ta'minlash, aholining qulay tabiiy muhitga ega bo'lishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, tabiiy resurslardan oqilona va samarali foydalanish, yuzaga kelayotgan ekologik muammolarning oldini olish va ularning salbiy oqibatlarini bartaraf etish masalalariga ham jiddiy e'tibor qaratib kelinmoqda.

Tabiat bilan jamiyat o'rtasidagi munosabatlarning tobora keskinlashib borishi, antropogen ta'sirning kuchayishi ta'sirida tabiiy muhitda yuz berayotgan o'zgarishlar tabiatni muhofaza qilishni ongli va rejali tashkil etishni taqozo etadi. Shu munosabat bilan aloqida muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar tizimini tashkil etish muhim ilmiy amaliy ahamiyatga ega. Ular bir necha tiplarni o'z ichiga oladi: qo'riqxonalar, milliy tabiiy parklar, zakazniklar, tabiiy yodgorliklar, tabiiy yodgorli parklar, tabiatdagi muzeylar, ta'qiqlangan va muhofaza zonalari, rekreatsiya hududlari. Ular u yoki boshqa darajada intensiv xo'jalik faoliyatidan chiqarilgan hududlar bo'lib, ular turli darajada tabiat muhofazasi bilan shug'ullanadi.

O'zbekistonda turli darajada muhofaza qilinadigan tabiiy hududlarning umumiy maydoni 20,6 ming km² yoki O'zbekiston hududining 5,2 % ni tashkil etadi.

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar tizimi O'zbekistonning biologik xilma-xilligini muhofaza etishda asosiy o'rinni egallaydi. O'zbekistonning Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar tizimiga 2164,5 km² maydonni tashkil etgan 9 ta davlat qo'riqxonasi, Quyi-Amudaryo biosfera rezervati, 6061 km maydonni tashkil etgan 2 ta milliy tabiat bog', 12186 km² maydonni tashkil etgan 9 ta davlat buyurtmaxonalari va jonivorlarning noyob turlarini ko'paytirish bo'yicha respublika "Jayron" ekomarkazi kiradi, 400 dan ortiq tabiat yodgorliklari davlat ro'yxatidan o'tkazilgan¹. Mazkur tizimda davlat tabiat qo'riqxonalari asosiy o'rinni egallaydi.

9.1-jadval

Davlat milliy parklari

	Rasmiy nomi, tashkil etilgan yili	Joylashgan manzili	maydoni km²
1.	Zomin xalq parki (1976)	Jizzax, Zomin tumani.	241,1
2.	Ugam-Chotqol tabiiy milliy parki (1990)	Toshkent viloyati. Bo'stonliq, Parkent, Ohangaron tumani.	5745,9
	Jami		5987,0

¹Экология хабарномаси. № 6, 2007 йил. – Б.10.

Sayyohlar orasida eng taniqli va eng katta tabiatni muxofaza qilish zonasi – bu Ugam-Chotqol milliy parkidir. Ushbu park 1990 yilda Chotqol tog‘ tizmasining daralarida barpo etilgan. Uning hududi inson faoliyati bilan juda oz o‘zgartirilib, bu mintaqaning tog‘ ekotizimlarini saqlab qolish uchun mo‘ljallangan. Park 574600 ga maydondan iborat.



9.1.-rasm. Ugam-Chotqol milliy parki

Manba: <https://uzbekistan.travel/uz/ugam-chotqol-milliy-bogi/>

Milliy park hududidagi balandlik farqi (1000 dan 4000 m gacha) turli xil iqlim va o‘simliklar uchun qulay sharoit yaratib berdi. Bu yerda nafaqat tog‘ o‘rmonlarini, balki tog‘ cho‘llari, al‘p dalalari va qor va muzliklar bilan qoplangan baland tog‘larni ham ko‘rishingiz mumkin. Tog‘larning o‘rta balandligida yong‘oq, olma va olcha, 1200 m va undan yuqori balandliklarda – archa, tog‘koshi, qayin, chinor, olma, yovvoyi gilos va do‘lana ustunligidagi aralash o‘rmonlar, 2000 m ga yaqin balandliklarda archa o‘rmonlari, 2500 m dan yuqori balandliklarda – subalpin o‘simliklar o‘sadi. Parkda turli xil sut emizuvchilarning 48 turi: ular orasida to‘ng‘iz, oq tirnoq ayiq, bo‘rsiq, bo‘ri, tulki, jayra, kam uchraydigan kiyik, Sibir tog‘ echkisi va qor barslari yashaydi. Parkda qushlarning 200 ga yaqin turi mavjud bo‘lib, ular orasida 130 tasi in qurib yashaydiganlardir. Bu yerda burgut, lochin, boyqush, kaptar, musicha, qorayaloq, chivinxo‘r, sinisa va urishqoq qushlarning turli xilini ko‘rishingiz mumkin. Parkdagi suv

omborlarida 20 turdagi baliqlar:, yalang'och, osmon, Toshkent verxovodkasi, Turkiston somi, Chotqol tog'osti balig'i kabilar mavjud. Chorvoq suv omborida Issiqko'l va kamalak forellari ham mavjud.

9.2-jadval

O'zbekiston Respublikasining muhofaza qilinadigan tabiiy hududlari¹

	Rasmiy nomi, tashkil etilgan yili	Joylashgan manzili	Maydoni km²
1.	Chotqol tog'-o'rmon biosfera qo'riqxonasi (1947 y.)	Toshkent vil. Ohangaron va Toshkent tumanlari.	457,3
2.	Hisor tog' archa (1983 y.)	Qashqadaryo viloyati Yakkabog'va Shahrisabz tumanlari.	814,3
3.	Zomin tog' archa (1926, 1960 y.)	Jizzax viloyati Zomin va Baxmal tumanlari.	268,4
4	Baday to'qay tekislik. To'qay (1971)	Qoraqalpog'iston Respublikasi, Beruniy tumani.	64,6
5	Qizilqum to'qay, qum (1971)	Buxoro, Romitan tumani, Xorazm Do'stlik tumani.	101,4
6.	Zarafshon vodi, to'qay (1979)	Samarqand viloyati Bulung'ur va Jomboy tumani	23,52
7.	Nurota biosfera qo'riqxonasi(1979)	Jizzax viloyati Forish tumani.	177, 5
8.	Kitob geologiya qo'riqxonasi (1987)	Qashqadaryo viloyati Kitob tumani.	53,7
9.	Surxon tog'-o'rmon (1987)	Surxondaryo viloyati Termiz va Sherobod tumani.	203,8
	Jami		2164,5

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq davlat qo'riqxonalari hududlari qat'iy muhofaza rejimi ostida bo'lib, unda yil davomida yovvoyi tabiatni muhofaza qilish borasida kuzatuvlar olib

¹ <http://geografiya.uz/ekologiya/709-6-oktyabr-yashash-joylarini-himoya-qilish-kuni.html>

boriladi. Qo'riqxonalarining asosiy maqsadi qimmatli tabiiy ob'yektlar, landshaftlar, noyob va qimmatli o'simliklar hamda hayvonlarning irsiy fondini saqlab qolishdir.

Respublikamiz hayotida qo'riqxonalarining o'mi juda kattadir. Ular ajoyib va betakror landshaftlarni saqlab qolmoqda. Masalan, Zarafshon qo'riqxonasi to'qayzorlar, hayvonot olamining noyob vakillari - Buxoro kiyigi, Seversov qo'yi yoki Qizilqum qo'yi, tog' echkisi, oq qoplon va boshqa yo'qolib ketayotgan hayvonlarni saqlab qolish maqsadida tashkil qilingan.

O'zbekistonda, birinchi Qo'riqxona- 1929 yilda Turkistonning g'arb qismida tashkil qilingan bo'lib, 8000 gektar (ga) maydoniga ega. Keyinchalik yer maydoni 15600 ga kengaytirilgan. U hozirda Zomin nomini olgan.

O'zbekiston hududida Chotqol biosfera qo'riqxonasi mavjud. U 1995 yilda Jahon biosfera qo'riqxonalari tizimiga kiritilgan. Qo'riqxona g'arbiy Tyan-shon tog'li ekotizimni saqlab qolish maqsadida tashkil qilingan. Chotqol qo'riqxonasi 1947 yilda tashkil qilingan va Toshkent viloyati hududida joylashgan.



9.2.-rasm. Chotqol biosfera qo'riqxonasi

Manba: <https://uzbekistan.travel/uz/chotqol-biosfera-qoriqxonasi/>

Chotqol biosfera qo'riqxonasi Ugam-Chotqol milliy bog'ining janubiy qismida joylashgan. Maydoni 45739 ga. Uning hududi ikki

qismdan tashkil topgan – Boshkizilsoy va Maydantal. Birinchisi, Chotqol oralig‘idagi janubi-g‘arbiy qismida 1100-3247 m balandlikda joylashgan, ikkinchisi 1200-3800 m balandlikda chiqish qiyin bo‘lgan shimoliy qiyaliklarda bo‘lib, Boshkizilsoydan 30 km dan uzoqlikda joylashgan. Qo‘riqxonaning landshafti archa o‘rmonlari, baland tog‘lar va tog‘ bag‘irlari, shuningdek yaylovlari va dashtlardan iborat. Qo‘riqxona sharsharalari va g‘orlari bilan mashhur. Bundan tashqari, Maydantalning janubiy qismida, Teraksoy daryosining qirg‘og‘idagi Qorasuv darasi qadimiy qoyatosh rasmlarini ko‘rishingiz mumkin. Ular Teraksoy petrogliflari deb ataladi. Qoyalarda ov manzaralari aks ettirilgan. Chotqol qo‘riqxonasida juda qiziqarli ornitologik ekskursiyalar o‘tkaziladi¹.

9.3-jadval

O‘zbekiston Respublikasining davlat tabiat yodgorliklari

	Rasmiy nomi, tashkil etilgan yili	Joylashgan manzili	Maydoni, km ²
1.	Vardanze (1975-1983)	Buxoro viloyati	3,0
2.	Yozyovon (1991)	Farg‘ona va Namangan viloyati	31,8
	Jami		34,8

Buyurtmaxonalari alohida muhofaza qilinadigan tabiiy hududlarning 3-tipi hisoblanadi. Ularning qo‘riqxonalardan farqi tabiat ob‘ektlaridan va ularning resurslaridan xo‘jalik maqsadlarida ma‘lum mavsumlarda tabiatga zarar etkazmasdan foydalanishga ruxsat beriladi. Bir vaqtning o‘zida tabiat ob‘ektlarni va ularning bo‘limlari, ayrim hayvon va o‘simlik turalari muhofaza qilinadi.

9.4-jadval

O‘zbekiston Respublikasining davlat buyurtmaxonalari

	Rasmiy nomi, tashkil etilgan yili	Joylashgan manzili	Maydoni km ²
1.	Arnasoy (1983)	Jizzax viloyati.	663,0
2.	Qorako‘l (1980)	Buxoro viloyati.	100,0
3.	Sayg‘oq (1991)	Qoraqalpog‘iston resp.	10000,0
4.	Sudochi (1991)	Qoraqalpog‘iston resp.	5000,0

¹ <https://uzbekistan.travel/uz/chotqol-biosfera-qoriqxonasi/>

5.	Sarmish (1991)	Navoiy viloyati	25,2
6.	Qoraqir	Buxoro viloyati.	300,0
7.	Qarnob cho'l	Samarqand viloyati.	400,0
8.	Qo'shrabot	Samarqand viloyati	165,0
9.	Dengiz ko'l	Buxoro viloyati.	86,0

Buxoro viloyatidagi "Jayron" ekomarkazi hududida bir necha yillar davomida ekoturistik mashhuratlar ishlab chiqilgan bo'lib, bugungi kunda faoliyat olib bormoqda. Jayron ekomarkazi vazifasi nafakat kamyob yo'qolib borayotgan hayvonlarni kupaytirish, balki, cho'l biotsenozini saqlab, noyob turlar genofondini saqlab qolishdan iboratdir. Bu albatta sayyohlarga katta qiziqish uyg'otadi. Keyingi yillarda sayyohlarni ko'proq jalb qilish maqsadida ko'plab amaliy ishlar qilinmoqda.

9.5-jadval

Noyob yovvoyi hayvonlarni yetishtirish markazi

	Rasmiy nomi, tashkil etilgan yili	Joylashgan manzili	maydoni km ²
1.	Jayron ekomarkazi	Buxoro viloyati.	51,4

Jayron ekomarkazi o'zining tabiiy er sharoiti, o'simlik, hayvonot olamining xilma- xilligi bilan Qizilqum sahrosining kichik bir tabiiy etalonini eslatadi. "Jayron" ekomarkazi 1977 yilda tashkil topgan bo'lib, umumiy maydoni 5145 gektarni tashkil etib, simto'r bilan o'rab olingan bo'lib, Buxoro shahridan 42 km janubi sharqida joylashgan. Buxoro tuman hokimining 2009 yildagi 30- sonli farmoyishiga asosan "Jayron" ekomarkaziga 9369 ga maydon qo'shib berildi atrofi o'ralmagan.



9.3.-rasm. Prejevalskiy oti

Jayron ekologik markazining ilmiy-amaliy tavsiyalariga asosan jayronlar rejaga asosan ochiq tabiatga qo'yib yuboriladi, shu paytgacha 1500 bosh jayron tabiatga chiqarilgan, hozirgi paytda Ekomarkazda saqlanayotgan kamyob hayvonlar soni 1000 boshdan oshgan. Bundan tashqari, ekomarkazga 26 bosh Prejevalskiy oti, 25 bosh Buxoro tog' qo'yi, 1 bosh morxo'r, 1 bosh noyob Buxoro bug'usi hozirgi kunda ushbu noyob hayvonlar ko'paytirilmoqda.



9.4.-rasm. Buxoro bug'usi

Manba: <https://uzbekistan.travel/uz/buxoro-viloyatidagi-jayron-ekomarkazi/>

Ekomarkaz hududida: 28 oilaga mansub 250 turdan ko‘proq o‘simlik dunyosi, 700 xildan ortiq hasharotlar, shundan 6 tasi O‘zbekiston Qizil kitobga kiritilgan, 18 xil baliq turlari shundan 5 turi O‘zbekiston va Xalqaro Qizil kitobga kiritilgan, 2 xil amfibiyalar, 20 xil reptiliyalar ularning 3 turi Xalqaro va milliy Qizil kitobga kiritilgan, 257 xil qushlar shulardan 35 turi kamyob Xalqaro va milliy Qizil kitobga kiritilgan, Qo‘riqxonada 36 xil sutemizuvchilar qayd etilgan shundan 8 xili Xalqaro va milliy Qizil kitobga kiritilgan. Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Zarafshon ekoturistik rayoni o‘zining xos tabiati, betakror go‘zaligi va tarixiy obidalari bilan dunyo sayyohlarini lol qoldirib kelmoqda. Shuning uchun ushbu hududda ekoturizmni rivojlantirish yanada ko‘proq sayohlarini jalb qilishga imkon yaratadi.

9.4. O‘zbekistonda ekoturizmni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari

Turizmni to‘g‘ri boshqarish va rivojlantirish orqali bir qator rivojlangan mamlakatlar katta iqtisodiy foyda olayotganligini hisobga olib, respublikamizda ham turizm rivojlanishi boshqarish va uni takomillashtirishga bo‘lgan e’tibor ayniqsa so‘nggi yillarda kuchayib bormoqda. O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2017 yil 23 dekabrda Oliy Majlisga Murojaatida “...mamlakatimizning betakror tabiati, go‘zal dam olish zonolari imkoniyatlaridan foydalanib, yangi turistik yo‘nalishlar ochish mumkin”ligini alohida qayd etib, “...biz ziyorat turizmi, ekologik, ma’rifiy, etnografik, gastronomik turizm va bu sohaning boshqa tarmoqlarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratishimiz zarur” ekanligini ta’kidlab o‘tgan edilar. Bu fikrlarning nechog‘li to‘g‘riligi bugungi kunda o‘z tasdig‘ini topdi.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so‘ng xo‘jalikning barcha tarmoqlarida tub islohotlar olib borilayotgan bir davrda turizmni rivojlantirishga ham davlat tomonidan katta ahamiyat berila boshlandi. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 17-aprelda "O‘zbekiston Respublikasida 2006-2010-yillarda xizmat ko‘rsatish va servis sohasini rivojlantirishni jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi 325-sonli qarori imzolandi. Mazkur qarorni amalga tadbir qilish maqsadida Tabiatni muhofaza qilish

Davlat qo‘mitasi "O‘zbekiston Respublikasida ekologik turizmni rivojlantirish Konseptsiyasi va uning yaqin kelajakdagi istiqbollari"ni ishlab chiqdi.

Ekologik turizmni rivojlantirish uchun respublikamizda juda katta imkoniyatlar mavjud. O‘zbekiston 38 mln. gektardan ortiq bo‘lgan ovchilik - baliqchilik er maydonlariga ega, ulardan 1,0 mln. gektarini suv fondi ko‘llar, daryolar, suv omborlari tashkil etadi. Respublikamiz faunasi 97 turdagi o‘txo‘r hayvonlar, 424 turdagi qushlar, 58 turdagi sudralib yuruvchilar va 83 baliq turlariga ega. Ulardan O‘zbekiston Respublikasi qizil kitobiga o‘txo‘r hayvonlarning 24 turi, qushlarning 48 turi, sudralib yuruvchilarning 10 turi, baliqlarning 18 turi va 78 turdagi umurtqasizlar kiritilgan .

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Botanika instituti ma’lumotlariga qaraganda, O‘zbekistonda hozirgi kunda 4100 dan ortiq o‘simlik turlari mavjud. Ulardan 3000 dan ortiq turlari oliy yovvoyi o‘suvchi o‘simliklar, ulardan 9 % endemiklardir.

O‘zbekiston hududining muhofaza etilayotgan tabiiy hududlar tarkibida 2164 km² maydonni tashkil etgan 9 ta davlat qo‘riqxonasi, 6061 km maydonni tashkil etgan 2 ta milliy bog‘ va noyob turlarga kiruvchi hayvonlarni ko‘paytirish Respublika markazi (Jayron "Ekomarkazi"), 12186 km² maydonni tashkil etgan 9 ta davlat buyurtmaxonalari mavjud . Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning umumiy maydoni 20520 kv.km, yoki O‘zbekiston hududining 5,2 % tashkil etadi .

Mavsumiylik - turistik oqimlarning unchalik katta bo‘lmagan vaqt oralig‘ida ma’lum joylarda to‘planish xususiyati.

Iqtisodiy nuqtayi nazardan mavsumiylik bir xildagi iqlimiy va ijtimoiy omillar ta’siri ostida turistik xizmatlar va tovarlarga turistik bozordagi talab va taklifning har yili tebranib turishidir. Mavsum - turistlar oqiminig eng ko‘paygan vaqtidir.

Ikki mavsum mavjud bo‘lganda (yozgi va qishki) ular orasida mavsumlararo vaqt bo‘ladi. Turistlar oqimining eng ko‘paygan vaqti "qizg‘in mavsum", ular deyarli bo‘lmagan vaqt "o‘lik mavsum" deyiladi.

O‘zbekiston turizmi katta imkoniyatlarga ega bo‘lishiga qaramay, murakkab o‘tish jarayonida bir qator muammolarga duch kelmoqda. 2008 yilda boshlangan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi xalqaro turizm bozoriga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatmoqda. Jahon turizmi katta

yo'qotishlar qilishi mutaxassislar tomonidan bashorat qilinmoqda. Respublikamiz rahbariyati qo'llayotgan tezkor choralar natijasida bu jarayonning iqtisodiyotimizga ta'siri sezilarli darajada himoyalanganmoqda. Natijada mamlakatimiz turizm industriyasi sezilarli darajada o'sishga erishmoqda. Respublikamizda turistlarni qabul qilish va ularga ko'rsatilayotgan xizmatlarni tahlil qiladigan bo'lsak, Toshkent shahri (2006 y. 249,1 ming, 2007-yil. 266,3 ming, 2008-yil 282,3 ming), Samarqand (2006-yil. 78 ming, 2007 yil 82,7 ming, 2008 yil 87,7 ming), Buxoro (2006-yil. 62 ming, 2007 y. 65,7 ming, 2008-yil 70 ming) va Xorazmni (2006-yil. 42 ming, 2007 y. 44,5 ming, 2008 y. 47,2 ming) alohida ta'kidlash kerak.

Turizm sohasini rivojlantirish ko'plab omillarga bog'liq. Masalan, makroiqtisodiy muhit (solliqlar, rag'batlar, kreditlash, investitsiyalar, moliyalash); siyosiy muhit (qonunlar va me'yoriy hujjatlar, nazorat organlari va tekshiruvlar, hududlar va tarmoqlarni rejalashtirish, turli shaxslar va hududlarning manfaatlari); ijtimoiy-madaniy muhit (mamlakat va hududda qabul qilingan an'analar, turmush tarzi, madaniyat, din, dunyoqarash, mentalitet, tarix, san'at); texnologik muhit (texnologiyalar, texnika, jihozlar, transport, joylashtirish, energetika, kommunikatsiya); ekologik muhit (insonning biologik muhitga ta'sirini, suv va er resurslarining muhofazasiga, atmosferaning ifloslanishiga ta'sirini hisobga olish). Ekologik omil boshqa omillar bilan bir qatorda turizm sohasining muhim omillari jumlasiga kiradi.

Ekologik turizmni rivojlantirish quyidagilarga ijobiy ta'sir ko'rsatadi:

- muayyan agrotuzilmalar holatini yaxshilash;
- mahalliy aholining daromadini oshirish;
- mintaqaning ayrim ekologik muammolarini hal qilish.

Bundan tashqari, ekoturizmni rivojlantirishga yordam beradigan bir qator omillarni mavjud:

- muqobil energiya manbalaridan foydalanish - ekoturlarni o'tkazishda muqobil energiya manbalaridan foydalanish orqali turli xizmatlarni taklif qilish mumkin;

- ekologik toza sharoitlarni taklif qilish - masalan, foydalanilgan resurslarni va ularning chiqindilarini qayta ishlash imkoniyati;

- transport tizimida ilg'or ekologik texnologiyalardan foydalanish - ekologik xavfsiz yonilg'i turi bo'lgan transport

vositalaridan foydalanish yoki yuqori tezlikda elektr poezdlardan foydalanish va h.k.

- "ekotur" bo'yicha mutaxassislik - ekologik turlarga ixtisoslashgan turoperatorlarning bozorda paydo bo'lishi.

Umuman olganda, ekologik turizmni rivojlantirish atrof-muhitning ekologik holatini saqlab qolish jarayoni boshlanishidan oldin yoki keyin shakllangan bir qator omillarga asoslangan. Bundan tashqari, mahalliy aholi, sayyohlar, mahalliy darajada ijtimoiy - iqtisodiy o'zgarishlarning roli mintaqaning iqtisodiy salohiyatini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi.

O'zbekistonda ekologik turizmni rivojlantirish uchun qulay imkoniyatlar mavjud bo'lib, ular tabiiy landshaftlarining turli-tumanligi, rekreasion resurslarga boyligidir. Rekreasiya resurslari tabiiy, texnik, ma'naviy, ijtimoiy va iqtisodiy omillarni o'z ichiga olib, bular asosida O'zbekistonda dam olish va davolanish uchun turistik bazalar, sanatoriy-profilaktoriylar, dam olish zonalarini hamda ekoturistik marshrutlar tashkil etilgan. Xalqaro va O'zbekiston qizil kitobiga kiritilgan kamyob turdagi flora va fauna dunyosi, hamda relik va endemik turlarning miqdor jihatidan ko'pligi, alohida muhofaza etiladigan hududlarning mavjudligidir. Bu esa yurtimizda ekologik turizmning kelajagi porloq ekanligini ko'rsatadi.

Tayanch iboralar va tushunchalar

Ekologiya (yun. — uy, turar joy va ...logiya) — organizmdan har xil darajada yuqori turadigan sistemalar; populyatsiyalar, biotsenozlar, biogeotsenozlar (ekosistemalar) va biosferaning tuzilishi, ularda kechadigan jarayonlarni o'rganadigan biol. fanlari majmui. E.ni organizmlar va ular bilan atrof muhit o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni o'rganadigan fan sifatida ham talqin qilinadi. E. o'rganadigan obyektlariga ko'ra, umumiy va xususiy E.ga ajratiladi.

Resurs— bu frantsuzcha so'z bo'lib, imkoniyat degan ma'noni anglatadi. Tabiiy resurslar – bu inson o'zining hayot faoliyati uchun tabiatdan oladigan va kelajakda olishi mumkin bo'lgan barcha noz-ne'matlardir.

Tabiat resurslari, tabiiy boyliklar — jamiyatning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish maqsadlarida xo'jalikda foydalaniladigan hamda insoniyatning yashashi uchun zarur bo'lgan,

uni o'rab turgan tabiiy muhitning barcha tabiat komponentlari, energiya manbalari.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. Ekologik turizm mohiyati nimadan iborat?
2. Mintaqaviy turizmda resurslarining ahamiyati va ulardan foydalanish?
3. Ekologik sayohatning o'ziga xos xususiyatlari?

10 - BOB. TURIZM INDUSTRIYASIDA RAQOBATBARDOSH OMILLAR ASOSIDA BUYUK IPAK YO‘LI DAVLATLARINING GURUHLANISHI

10.1. Turizm industriyasida moyillik tushunchasi. “Buyuk Ipak yo‘li” davlatlari va loyiha

Hozirgi vaqtda butun dunyoda, jumladan, O‘zbekistonda ham iqtisodiyotining noishlab chiqarish sohaslaridan biri, xususan, turizm sohasiga katta e‘tibor kuchayib bormoqda. Insonlar borgan sari o‘zlarining bo‘sh vaqtlarini samarali o‘tkazishga, dam olishga, sog‘ligini tiklashga, dunyoni, xalqlarning urf odatlarini, qadriyatlarini bilishga intilmoqda. Bundan tashqari, insoniyat har doim o‘zining harakat doirasini o‘zgartirib, yangi yerlarni kashf qilishga intilgan. XX asrga kelib bunday intilishlar kuchaydi va turizm industriyasining rivojlanishiga katta turtki bo‘ldi.

Ayrim mamlakatlarda turizm sohasi juda ham barqaror rivojlanib bormoqda va ularning har yillik o‘sish sur‘ati 8-10 % gacha boradi. Bu davlatlarga Ispaniya, Italiya, Fransiya, AQSH va boshqa mamlakatlarni kiritish mumkin. Shunisi qiziqki, turizm rivojlanishi bilan bir qatorda transport, bozor infratuzilmasi, savdo-sotiq, oziq-ovqat tarmoqlari, qurilish, hunarmandchilik hamda boshqa xizmat ko‘rsatish sohalari rivojlanib ketadi.

Respublikamiz xalqaro turizmni rivojlantirish uchun juda boy imkoniyatlarga ega. Bularga “Buyuk Ipak yo‘li”ning shoh tomiri respublikamizdan o‘tganligi, butun dunyoga mashhur tarixiy va madaniy shaharlarimiz Samarqand, Buxoro, Xiva, Shaxrisabz, Qo‘qon, Toshkent va boshqa shaharlar, tabiiy va sog‘lomlashtirish resurslariga boy mintaqalarimiz Chimyon, Shohimardon, Zomin, Boysun, Sherobod va boshqa shaharlar kiradi.

Hozirgi kunga kelib O‘zbekistonda turizmni rivojlantirish uchun asos solindi deb hisoblasa bo‘ladi. Bunga dalil sifatida 1995-yil 2-iyundagi “Buyuk Ipak yo‘li”ni qayta tiklashda O‘zbekiston Respublikasi ishtirokini avj oldirish va respublikada xalqaro turizmni rivojlantirish to‘g‘risida»gi farmonining Prezidentimiz tomonidan qabul qilinishidir. Bu farmonga binoan turistik korxonalar bir qator soliq imtiyozlarga ega bo‘lishdi. Bu farmon “Buyuk Ipak yo‘li”da joylashgan tarixiy va madaniy shaharlarda turistik yo‘nalishlarning rivojlanishiga turtki bo‘ldi. Ming yillar davomida “Buyuk Ipak yo‘li” Osiyo va Ovropa xalqlarini birlashtirishning ahamiyatli va samarali

usuli hisoblanib kelgan. Xuddi shu yo‘l bo‘ylab tovarlar, bilimlar, texnologiyalar, madaniyatlar almashuvi amalga oshirilgan, natijada shaharlarning, davlatlarning rivojlanishiga ko‘maklashib kelgan. Hattoki, hozirgi vaqtda bu yo‘l insoniyat uchun global ahamiyatga ega bo‘lganligini baholash qiyin. Ammo o‘zining faoliyatini tugatgandan keyin ham unga qiziqish yo‘qolib ketmadi. Ayniqsa, transport va axborot aloqalarining, sanoat ishlab chiqarishning, tovar va xizmatlarning savdosini hamda, Osiyo va Ovroqpa mintaqalarining integratsiya jarayonlariga faol qatnashuvi “Buyuk Ipak yo‘li”ning “ikkinchi nafasi”ni olganini ko‘rish mumkin.

Qadimgi xalqlarning turli tomonlama rivojlanishida savdo va tranzit yo‘llarining ahamiyati nihoyatda kattadir. Miloddan avval III ming yillikka kelib O‘rta Osiyoning k o‘pgina hududlari qadimgi aholi tomonidan o‘zlashtirib b o‘lingan edi. Ammo, ch o‘l va dasht hududlarida o‘zlashtirilmagan hududlar ham mavjud edi. Bu hududlardagi chorvador aholi vohalardagi o‘troq aholi bilan o‘zaro aloqalarni bronza davriga kelib yanada rivojlantiradilar. Tarixiy adabiyotlardan ma‘lum bo‘lishicha, Buyuk ipak y o‘li tashkil topmasdan ancha ilgariyoq qadimgi Sharq va O‘rta Osiyo hududlarida o‘zaro almashinuv y o‘llari mavjud edi. Bronza davridagi (mil. avv. III-II ming yilliklar) ana shunday y o‘llardan biri "lojuvard yo‘li" deb atalib, uning bir tarmog‘i Badaxshon, Baqtriya va Marg‘iyona hududlarini Xorazm, So‘g‘diyona, Markaziy Qozog‘iston va Ural bilan bog‘lagan. Yana bir tarmoq Baqtriya va Marg‘iyonani Mesopotamiya bilan bog‘lagan. Bu yo‘l Pomir tog‘laridan boshlanib Eron, Old Osiyo, Misr orqali o‘tgan. Badaxshon Lojuvardining Hind vodiysi, Mesopotamiya va Misrdan topilishi bu qimmatbaho toshning Qadimgi Sharqda nihoyatda qadrlanganligidan dalolat beradi. O‘rta va G‘arbiy Osiyo bilan bog‘laydigan karvon y o‘li paydo bo‘ladi. Bu yo‘l “Buyuk Ipak yo‘li” deb atalib umumiy uzunligi 12.000 km dan iborat edi.

G‘arb bilan Sharqni bir necha ming yillar davomida bir-biriga bog‘lab kelgan “Buyuk Ipak yo‘li” edi. Bu yo‘l orqali Sharqdan (Xitoydan) G‘arbga (Vizantiyaga) oqib borgan savdo mollari, asosan, Xitoy ipagi bo‘lsa-da, bu yo‘l fanga atigi XIX asrning 70 yillarida “Ipak yo‘li” nomi bilan kiritildi.

Ilk marotaba bu termini 1877-yilda nemis olimi, geograf Ferdinand fon Rixtgofen o‘zining “Xitoy” deb nomlangan ilmiy asarida ishlatgan. Unga qadar “Ipak yo‘li” “G‘arbiy meridional yo‘l” deb atab kelinardi.

“Buyuk Ipak yo‘li” haqidagi ilk yozma ma‘lumotlar miloddan avvalgi 138-yilga to‘g‘ri keladi: Xitoy imperatori Vu Ditopshirig‘I bilan Markaziy Osiyoga yuborilgan elchi va sayyoh Chjan Syan “Buyuk Ipak yo‘li”ni o‘rganadi va bu to‘g‘rida o‘z tasnifini beradi.

«Buyuk ipak yo‘li» tushunchasi o‘sha paytda juda qimmatli hisoblangan mol - ikkita turli dunyo: G‘arb va Sharqni bir-biriga tanishtirgan ipak bilan bog‘liq. Ilk o‘rta asrlarga kelib Ipak yo‘lining yanada rivojlanganligini kuzatish mumkin. O‘z davrida nihoyatda katta ahamiyatga



ega bulgan bu yo‘lning dastlabki tarmog‘i Xitoydagi Sian shahridan boshlanib Sharqiy Turkiston, O‘rta Osiyo, Eron, Mesopotamiya orqali O‘rta yer dengizigacha cho‘zilgan. Xitoyning Anosi shahriga kelib Ipak yo‘li bir necha tarmoqlarga bo‘linib ketgan. Xususan bir tarmoq Anosi-Xami-Koshg‘ar orqali Qo‘qonga, undan esa Toshkentga o‘tgan. Bu yerdan Jizzax va Samarqand orqali Buxoroga kelgan yo‘l Urganch orqali Gurevga, u yerdan Oqsaroy orqali Qora dengiz bo‘ylariga chiqqan. Yana bir tarmoq esa Dunxuan orqali Xutanga, undan Loxurga o‘tib ketgan. Undan tashqari Buxoroga kelib bu tarmoq ikkiga bo‘lingan. Janubiy yo‘nalish Buxoro-Qarshi-Termiz orqali Nishopurga o‘tgan va Hirot orqali Hindistonga o‘tib ketgan. Nishopurdagi tarmoqlardan biri Tehron-Kazvin-Hamadon-Bag‘dod-Palmira yo‘nalishi bo‘ylab Tir shahrigacha cho‘zilgan. Umuman olganda Ipak yo‘lining Janubiy tarmog‘i O‘zgan orqali O‘shga o‘tib, Quva -Marg‘ilon - Qo‘qon orqali Xo‘jand, Samarqand, Buxoroga o‘tgan. Shimoliy yo‘nalishi esa Xazar xoqonligi va bulg‘or davlati orqali Kiev Rusi va Yevropa mamlakatlariga borib, bu tarmoq VI asrdan boshlab rivojlana boshlagan.

Markaziy Osiyo hududida joylashgan O‘zbekiston, Qozog‘iston, Turkmaniston, Qirg‘iziston va Tojikiston davlatlari ham hozirgi kunda jahon xo‘jalik tarkibiga asta-sekinlik bilan kirib bormoqda. Jahon xo‘jalik tarkibiga kirib borishda Markaziy Osiyo davlatlari uchun “Buyuk ipak yo‘li”ning roli benihoya kattadir.

10.2. Sayohat va turizm boshqaruv tuzilmasi. Sayohat va turizm biznes muhiti

“Buyuk Ipak yo‘li” da xalqaro turizmni rivojlantirishning bir ko‘rinishi bo‘lib, janubiy-sharqiy Osiyoni Ovropa bilan bog‘lab turadigan global Transosiyo transport liniyasini shakllantirish hisoblanadi. U o‘z ichiga Yaponiya, Xitoy, Hindiston, O‘zbekiston, Tojikiston, Turkmaniston, Qozog‘iston, Kavkaz davlatlari, G‘arbiy Osiyo (Pokiston, Eron) davlatlari va albatta Ovropa davlatlarini qamrab oladi. E‘tiborga olish kerakki TRASEKA loyiha doirasida “Delfin” izlanishi o‘tmoqda. Bu izlanishning mazmuni karvonsaroylarni tashkil qilishning texnik-iqtisodiy asoslanishi, ekspertlarning fikriga ko‘ra, bu “Buyuk Ipak yo‘li”ning rivojlanishiga va xalqaro hamkorlikning samarali natija berishiga yordam beradi, chunki O‘zbekiston va Turkmanistonning asosiy yo‘nalishlarida yoqilg‘i stantsiyalari, turar joylar, ovqatlanish punktlari va telekommunikatsiya zonalarining qurilishi yangi turistik zonalarining shakllanishiga hamda turistik avtotransportning paydo bo‘lishiga olib keldi. Butunjahon Turistik Tashkiloti ekspertlari «Buyuk Ipak yo‘li da qatnashishiga qarab, qatnashuvchi davlatni 3 qismga ajratgan.

Birinchi qismga o‘ziga xos turizm milliy modelini shakllantira boshlagan O‘rta Osiyo va Kavkaz davlatlari kirgan. Bu yo‘nalishda Butunjahon Turistik Tashkiloti asosiy masala qilib, turg‘un rivojlanish dasturini tuzishda, turistik tarmoqqa investitsiyani jalb qilishda, qonunchilikni ishlab chiqishda va kadrlarni tayyorlashda ko‘maklashishi hisoblanadi.

Ikkinchi qismga “Buyuk Ipak yo‘li” ob‘yektlarini o‘z ichiga olgan va turistik mahsuloti bilan aniq tajribaga ega bo‘lgan davlatlar kiradi. Bular Xitoy, Pokiston, Hindiston, Eron, Gretsiya va Turkiyalardir. BTT ning ekspertlari fikriga ko‘ra bu yerda xalqaro tashkilot “Buyuk Ipak yo‘li” nomli turistik mahsulotning sotilishini rag‘batlantirishi mumkin.

Uchinchi qism esa, qadimgi aloqaning oxirgi nuqtalarini o‘z ichiga qamrab oladi. Bularga bir tomondan Yaponiya, Koreya, ASEAN davlatlari kiradi. Bu yerda Butunjahon Turistik Tashkilotining vazifasi “Buyuk Ipak yo‘li”ni targ‘ibot qilish deb hisoblanadi, chunki bu davlatlar nafaqat katta turistik oqimni ta‘minlaydi, balki bu yo‘l bo‘ylab turizm uchun yetakchi bozorlar hisoblanadi.

“Buyuk Ipak yo‘li” turistik mahsulot mavqeyining ko‘tarilishi uchun, albatta, fundamental asos bo‘lishi kerak. Uni sotish uchun

barcha davlatlarning faol hamkorligi kerak. Chunki xususiy sektor va davlat sektori, xalqaro va ratsional tashkilotlar, alohida turoperatorlar va mehmonxona komplekslari munosabatisiz amalga oshirib bo'lmaydi. Butunjahon Turistik Tashkilotining «Buyuk Ipak yo'li» loyiha bo'yicha keyingi yig'ilishi Xitoyda 1996-yilda bo'lib o'tdi, bunda mahsulotning marketingiga oid masalalar ko'rib chiqildi. «Buyuk Ipak yo'li»da turizm bo'yicha ikkinchi anjuman ham ahamiyatli bo'lib o'tdi. Ekspertlar fikriga ko'ra, bu yerda «Buyuk Ipak yo'li»ning asosiy turistik resurslari: diqqatga sazovor joylar, madaniy va tarixiy obyektlar, joylashtirish vositalari, transport va axborot markazlari shakllandi. Bu tadbirlardan keyin ushbu loyiha rivojlana boshladi. Ammo, hamma savollar yetarlicha yechilmagan edi, shuning uchun ham 1997-yil aprel oyida Tehronda «Buyuk Ipak yo'li» bo'yicha ikkinchi xalqaro yig'ilish bo'lib o'tdi. Bunda quyidagi masalalar shakllandi: «Buyuk Ipak yo'li» mintaqalarini xalqaro targ'ibot qilish, bu turistik ma'lumotni reklama qilish uchun global axborot kommunikatsiya tarmoqlaridan (xususan Internet) foydalanish.

1994-yildan boshlab Butunjahon Turistik Tashkiloti «Buyuk Ipak yo'li» loyihani barcha yirik xalqaro yarmarkalarda: Berlinda TTV, Londonda WTM va Madridda FJTUR faol targ'ibot qila boshladi. Butunjahon Turistik Tashkilotining bashoratlariga ko'ra, 2020-yilga kelib dunyoning asosiy turistik yo'nalishlari bo'lib Xitoy hisoblanadi. Bu davlat hozirgi kunda 22 mln. turist qabul qila olishligi bilan oltinchi o'rinni egallaydi va o'rtacha yillik 8 % o'sish bilan Xitoyga keladigan turistlarning soni 137 mln.ga, Gonkongga esa 59 mln. kishiga yetib, birinchi o'rinni egallaydi. Bundan kelib chiqib, «Buyuk ipak yo'li» loyihaga ishtirokchilarning oldida turistik mahsulotni shakllantirishda bu davlatlarni hisobga olish masalasi turibdi, masalan, Germaniya-O'zbekiston-Xitoy, Fransiya-O'zbekiston-Gonkong va boshqalar. Turistlarning yillik xarajatlari 5 mlrd. dollarga yetishini hisobga olsa, O'zbekiston ham bu valyutaning ayrim qismini shakllantirishga va o'zlashtirishga yetarli imkoniyati bor. Chunki «Buyuk Ipak yo'li» bo'ylab Xitoyga sayohat qiluvchi turistlarning asosiy qismi respublikamiz orqali harakat qiladi. Bu degani xorijiy turistlarning mamlakatimizdagi turistik obyektlardan va transport vositalaridan foydalanganliklari uchun ma'lum bir valyutaning davlat budjetiga tushishini ta'minlaydi. Shuning uchun ham xorijiy turistlar uchun «Buyuk Ipak yo'li» bo'ylab transport (tranzit) yo'nalishlarini ishlab chiqish va amalga oshirish lozim. Bu masalada madaniy va bilim qabul qilishga qaratilgan turizm eng katta

qiziqish tugʻdiradi. Masalan, 2004-yilda Oʻzbekistonga 841,2 ming tashrif qiluvchilar keldi, bulardan 5,6 % turistik maqsadlar bilan, 74,4 % xususiy viza boʻyicha, qolgan 20 % boshqa turli xil maqsadlarda sayohat qilganlar. Koʻpchilik tashrif qiluvchilarni davlatning tarixi, madaniyati va diniy obidalarini qiziqtirgan. Oʻzbekiston hayotida boʻlib oʻtayotgan madaniy tadbirlar, masalan, allomalarning va shaharlarning tantanalari nafaqat musulmon davlatlari, balki Yevropa va boshqa davlatlarni keng sayd qilib, “Buyuk Ipak yoʻli”ni va taklif qilinayotgan mahsulotni yangi ahamiyatga koʻtardi.

Hozirgi kunda davlatimiz tomonidan turizm infratuzilmasini rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar oʻzining ijobiy natijalarini berib kelmoqda. Biroq, murakkab oʻtish davri bilan bogʻliq talaygina muammolar tufayli bu sohada ham ayrim kamchiliklar mavjud boʻlib bular haqida keyingi boʻlimlarda atroflicha toʻxtalib oʻtamiz.

Oʻzbekistonda turizm sohasining rivojlanishi xalqaro reytinglarda ham aks etmoqda.

Tayanch iboralar va tushunchalar

Buyuk ipak yoʻli, turizm indeksi, turizm industriyasi, turizm raqobatbardoshligi

Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. Turizmni rivojlantirishning nazariy va amaliy asoslari nima?
2. Turizmning siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati nimalardan iborat?
3. Xalq xoʻjaligi tarmoqlarini rivojlantirishda turizmning taʼsir doirasi qanday?
4. Oʻzbekistonning qaysi mintaqalaridan “Buyuk Ipak yoʻli” ning asosiy qismi kesib oʻtgan?
5. “Buyuk Ipak yoʻli” boʻylab turizmni rivojlantirishdan asosiy maqsad nima?
6. Oʻzbekistonda turizmning qaysi turlarini kengroq rivojlantirish mumkin?
7. Tarixiy va madaniy turizm nima?
8. Milliy turizmni rivojlantirish dasturi qachon qabul qilingan?
9. Turizmni rivojlantirish davlat qoʻmitasining vazifalari nimalardan iborat?

11 - BOB. MARKAZIY OSIYO TURIZMI IMKONIYATLARINI TADQIQ QILISH

11.1. Qozog‘istonda turizm industriyasi raqobatbardoshligi

Qozog‘iston Respublikasining hududi – 2 717 300 km², aholisi – 18 mln.dan ortiq (2012-yil). Dini – islom (47%), pravoslav (44%), protestantlik (2%). Pul birligi – tenge.

Qozog‘iston Markaziy Osiyodagi davlat bo‘lib, shimolda Rossiya (chegara uzunligi – 6846 km), janubda O‘zbekiston (2203 km), Qirg‘iziston (1051 km) va Turkmaniston (379 km), sharqda Xitoy bilan chegaradosh. Qozogistonning g‘arbiy qismi Kaspiy dengizi, janubda Orol dengizi bilan tutash. Umumiy chegara uzunligi – 12012 km.

Mamlakat hududi sharqda Oltoydan G‘arbda Volganing quyi qismigacha, shimolda G‘arbiy Sibir tekisligidan janubda Tyan-Shan tog‘iarigacha cho‘zilgan. G‘arbda Kaspiybo‘yi pasttekisligi va Mang‘ishloq yarimoroli joylashgan. Shimoli g‘arbda Ural va Mug‘ojar tizma tog‘larining janubiy tarmoqlari yotibdi. Mug‘ojardan shimoli sharqda To‘rg‘ay yassitog‘ligi, janubda Turon pasttekisligi va Qizilqum cho‘li joylashgan.

Sharqda va janubi sharqda Oltoyning janubiy tizmalari qad ko‘targan. Janubda Betpak-Dala va Muyunqum cho‘llari bor. Asosiy daryolari – Irtish, Ural, Chu, Sirdaryo. Qozog‘iston hududida Balxash ko‘li va qisman Orol va Kaspiy dengizi joylashgan. Yerosti boyliklari ko‘plab foydali qazilmalarga boy: uran, rux, oltin, mis, molibden, neft, fosforit, boksit, temir, marganes, qo‘rg‘oshin.

Har yili Jahon iqtisodiy forumi guruhi tomonidan 4 guruh ko‘rsatkichlar (qulayshart-sharoitlar yaratish; siyosat va faollashtirish shartlari; infratuzilma; tabiiy va madaniy resurslar) asosida hisoblanadigan Sayohat va turizm raqobatbardoshlogi indeksi (Travel and Tourism Competitiveness Index) ga ko‘ra 2017 yilda Qozog‘iston 136 mamlakat orasida 81 o‘rinni egallagan, bu esa 2015 yilgiga nisbatan 4 pozitsiyaga yuqori ko‘tarilganligini anglatadi (11.1-jadval)¹

¹ The Travel & Tourism Competitiveness Report 2017. – Geneva: The World Economic Forum, 2017. – 387 p.

11.1-jadval

**“Travel and Tourism Competitiveness Index” ga ko‘ra ba’zi
MDH mamlakatlarining reytingi¹**

Mamlakatlar	Global rang	Biznes muhit	Xavfsizlik	Soglik va gigiena	Kadr resurslari va mehnat bozori	AKT ga tayyorlik
Rossiya	43	4,1	4,3	6,7	4,8	5,0
Gruziya	70	5,3	6,0	6,1	4,8	4,5
Ozarbayjon	71	4,6	5,8	6,1	5,0	5,0
Qozog‘iston	81	4,9	5,5	6,7	4,8	4,9
Armaniston	84	4,9	5,9	5,9	4,8	4,3
Ukraina	88	3,7	3,5	6,6	4,9	4,2
Tojikiston	107	4,3	5,7	5,7	4,9	2,3
Qirg‘iziston	115	4,4	5,0	5,8	4,4	3,6
O‘rtachasi		4,5	5,2	6,2	4,8	4,2

So‘nggi 5 yil ichida turizmning yalpi qo‘shilgan qiymatdagi ulushi o‘rtacha 1,1% tashkil etib, bu 2017 yilda eng ko‘p o‘shishni ko‘rsatdi, chunki o‘sha yilda bu mamlakatda 115 mamlakatdan 4 milliondan ortiq kishi tashrif buyurgan Xalqaro ko‘rgazma «EKSPLO» bo‘lib o‘tdi. (11.2.-jadval)

11.2.-jadval

**2014-2018 yillarda Qozog‘istonda turizm rivojlanishining
ko‘rsatkichlari**

Ko‘rsatkichlar	Yillar				
	2014	2015	2016	2017	2018
Yalpi qo‘shilgan qiymatning ulushi to‘g‘ridan to‘g‘ri turizmga, yalpi ichki mahsulotda, foiz	0,8	1,0	1,2	1,3	-
Joylashtirish vositalaridagi joylar soni, dona	2056	2338	2754	2987	3322

^{1 1} The Travel & Tourism Competitiveness Report 2017. – Geneva: The World Economic Forum, 2017. – 387 p.

Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi kichik korxonalarni hisobga olgan holda turizm sohasi xodimlarining soni (hisobot davrida o'rtacha), ming kishi	-	-	-	-	-
- turistik firmalar	6,5	7,3	7,2	7,3	7,4
- joylashtirish vositalari	25,7	25,3	26,5	27,6	29,2
- sanatoriy-kurort tashkilotlari	10,3	10,5	10,0	9,6	8,0
Turizm sohasida band bo'lgan ishchilarning o'rtacha nominal hisoblangan oylik ish haqi, tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi kichik korxonalarni hisobga olgan holda, teng					
turistik firmalar	71233	85002	94465	108152	95341
joylashtirish vositalari	86272	106823	112582	118606	124217
sanatoriy-kurort tashkilotlari	76885	77245	83385	88163	90658

Manba: Qozog'iston Respublikasi Milliy iqtisodiyot vazirligining Statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzilgan

Ko'rilayotgan davrda Respublikada joylashtirish vositalaridagi joylar sonining o'rtacha o'sishi 12,8% ni tashkil etdi. Turizm sohasidagi xodimlarning hisoblangan soni ish obyektiga qarab sezilarli darajada farq qiladi: masalan, 2018 yilda u joylashtirish vositalarida 29,2 ming kishini tashkil etgan bo'lsa, sayyohlik agentliklari va sanatoriya muassasalari xodimlari o'sha davrda 7,4 va 8,0 ming kishini tashkil etgan.

2014-2018 yillarda Qozog'istonning dam olish zonalarida 567 dan 900 tagacha joylar, shu jumladan 3-5 yulduzli mehmonxonalar, shuningdek, toifalanmagan joylar va yotoqxonalar mavjud bo'lgan. Ushbu davrda 3,8 milliondan ortiq kishiga xizmat ko'rsatildi, 2,2 million kunlar tunab qolingan. Shuni ham ta'kidlash kerakki, dam olish maskanlarida bir martalik joylashtirish hajmi 60117 o'rinni tashkil etadi, bu 19624 dona xonalar soniga to'g'ri keladi¹.

¹ Мамраева Д.Г., Ташенова Л.В. Актуальные вопросы развития туризма и гостиничного бизнеса в Казахстане // Туризм: право и экономика. – 2018. – № 1 (164). – С. 16-22.

11.3.-jadval

2014-2018 yillarda dam olish maskanlaridagi joylashtirish vositalarining faoliyati ko‘rsatkichlari¹

Ko‘rsatkichlar	Yillar				
	2014	2015	2016	2017	2018
Joylashtirish vositalari soni, birlik	567	644	747	815	900
Xizmat ko‘rsatilganlar, kishi	474124	530006	730882	979540	1111609
Xonalar soni, birlik	11102	12400	14574	16930	19624
Bir vaqtda sig‘imi, joy	35178	39352	44445	51486	60117
Tunab qolishlar soni, joy-kun	1225707	1336445	1520846	1794845	2179594

Dam olish maskanlarida joylashgan eng mashhur mehmonxonalardan biri bu Shchuchye ko‘li yonida, Milliy bog‘ning qarag‘ay o‘rmonida (poytaxtdan - Nur Sulton shahridan 260 kilometr uzoqlikda) joylashgan Rixos Borovoe hisoblanadi. Mehmonxona 5 yulduzlimehmonxonalar turkumigakiradi; unda 200 ta xona, turk, va italyan taomlari restorani, spa-markaz, shuningdek, ishbilarmonlik uchrashuvlari va turli tadbirlarni o‘tkazish uchun mo‘ljallangan konferensiya xonalari mavjud.

Mamlakatda turizmni rivojlantirishning eng muhim parametrlari bo‘lib, kirish va chiqish turizmining ko‘rsatkichlari hisoblanadi. Shunday qilib, 2014-2018 yillarda chiqish turizmidagi sayyohlar soni qariyb 52,4 million kishini, kirish turizmi bo‘yicha atigi 35,8 million kishini tashkil etdi. (11.4-jadval).

¹ Туризм Казахстана: Статистический сборник / Под ред. Айдапкелова Н.С. – Астана: Комитет по статистике, 2019. – 66 с.

11.4.-jadval**2014-2018 yillarda kiruvchi va chiquvchi turizm bo'yicha
tashrif buyuruvchilar soni, kishi¹**

Ko'rsatkichlar	Yillar				
	2014	2015	2016	2017	2018
Chiquvchi turizmda sayyohlar soni, kishi	10449972	11302476	9755593	10260813	10646241
Kiruvchi turizmda sayyohlar soni, kishi	6332734	6430158	6509390	7701196	8789314

Bugungi kunda, ham respublika miqyosida, ham mintaqaviy darajada, chet ellik sayyohlarni Qozog'istonga jalb qilish bo'yicha ko'p ishlar qilinmoqda; imij siyosati va mamlakatning sayyohlik yo'nalishlarini ommalashtirish sohasida chora-tadbirlar ko'rilmoqda.

Qozog'iston Respublikasiga sayyohlar asosan biznes va kasbiy faoliyat maqsadida, ikkinchi o'rinda – shaxsiy maqsadlar, jumladan tanishlar va qarindoshlarni borib ko'rish, kurort-rekreasiya zonalarida dam olish, tovar va ekologik toza oziq-ovqat mahsulotlarini sotib olish, turli tadbirlarida ishtirok etish (EKSPO, xalqaro sanoat ko'rgazmalari, sport tadbirlari va boshqalar), trening maqsadida tashrif buyuradilar.

11.5.-jadval**2014-2018 yillarda kiruvchi turizm maqsadlar bo'yicha
tashrif buyuruvchilar soni, kishi²**

Ko'rsatkichlar	Yillar				
	2014	2015	2016	2017	2018
Jami	6332734	6430158	6509390	7701196	8789314
shu jumladan:	-	-	-	-	-

¹Туризм Казахстана: Статистический сборник / Под ред. Айдапкелова Н.С. – Астана: Комитет по статистике, 2019. – 66 с.

² Туризм Казахстана: Статистический сборник / Под ред. Айдапкелова Н.С. – Астана: Комитет по статистике, 2019. – 66 с.

Xizmat yuzasidan va kasbga oid sayohatlar	1178900	1044743	1096899	1186542	1223324
shaxsiy	5153834	5385415	5412491	6514654	7565990

2014-2018 yillarda Rossiya Federatsiyasi, Buyuk Britaniya, AQSH, Turkiya va Xitoydan eng ko‘p xorijiy sayyohlarning kelishi kuzatildi. Umuman olganda, 2018 yilda MDH mamlakatlaridan kelgan norezidentlarning ulushi 44 foizni, MDH ga kirmaydigan mamlakatlardan kelganlar 56 foizni tashkil etdi (11.6.-jadval).

11.6.-jadval

2014-2018-yillarda kiruvchi turizm mamlakatlar bo‘yicha xizmat ko‘rsatilgan norezidentlar soni, kishi¹

Ko‘rsatkichlar	Yillar				
	2014	2015	2016	2017	2018
Jami	679018	692213	722515	891911	830922
shu jumladan:	-	-	-	-	-
MDH mamlakatlari	255642	264717	309569	371337	363917
Rossiya Federatsiyasi	203616	217113	247709	287046	281367
O‘zbekiston	10323	11381	14005	18783	21160
Ukraina	18162	14816	19701	24303	21297
MDHdan tashqaridagi davlatlar	423376	427496	412946	520574	467005
Birlashgan Qirollik	65023	46743	34591	34290	34021
Hindiston	14186	12469	17545	24690	34768
Xitoy	35861	51162	63695	71269	76160
AQSH	49718	41164	41019	48640	42345
Turkiya	44718	40764	37942	49208	46002

Qozog‘istonda 115 tabiatni muhofaza qilish muassasalari (qo‘riqxonalar) mavjud, ularning 10tasi: Aksu-Jabag‘li, Olma-Ota,

¹ Туризм Казахстана: Статистический сборник / Под ред. Айдапкелова Н.С. – Астана: Комитет по статистике, 2019. – 66 с.

Alako‘l, Barsakelmes, Garbiy-Altay, Karatau, Kurgaljino, Markako‘l, "Nauruzum", "Ustyurt".

2014-2018 yillarda o‘tkazilgan ekskursiyalar soni 27 mingga yetdi. Tahlil qilinayotgan davrda 6 millionga yaqin tashrif buyuruvchilarga xizmat ko‘rsatildi (11.7-jadval).

11.7- jadval

Alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to‘grisida ma’lumot. 2014-2018-yillar¹

Ko‘rsatkichlar	Yillar				
	2014	2015	2016	2017	2018
Atrof muhitni muhofaza qilish muassasalari soni, birliklar	114	115	114	114	115
Mehmonlar uchun ekskursiyalarni tashkil etish bilan shug‘ullandigan xodimlarning soni, kishi	46	46	46	30	30
Ekskursiyalar soni, dona	4936	4427	4997	6327	6110
Tashrif buyuruvchilar soni, kishi (o‘zining balansida alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar mavjud korxonalar ma’lumoti bo‘yicha)	1046383	1070360	1191773	1261942	1236813

Turizm sohasini rivojlantirishning muhim jihatlaridan biri, avvalgidek, raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash masalasi bo‘lib qolmoqda. Qozog‘istonda 46 ta oliy o‘quv yurti va 47 ta o‘rta maxsus ta’lim muassasalari turizm mutaxassislarni tayyorlaydi. Turizm sohasi uchun mutaxassislar tayyorlashga qaratilgan ko‘pgina o‘quv dasturlari (keyingi o‘rinlarda - OP) bozor va ish beruvchilarning talablarini hisobga olgan holda tuzilgan.

¹ Туризм Казахстана: Статистический сборник / Под ред. Айдапкелова Н.С. – Астана: Комитет по статистике, 2019. – 66 с.

11.2. Turkmaniston turizmi. Marv: Qadimiy jannatning poytaxt vohasi.

Turkmaniston o'zining diqqatga sazovor joylari va o'ziga xos madaniyati tufayli, shubhasiz, turizm uchun eng qiziqarli mamlakatdir. Turkmanistonning yopiq mamlakat bo'lishiga qaramasdan, mamlakatda ichki turizm jadal rivojlanmoqda.

Turkmaniston Respublikasi – O'rta Osiyoning janubi-g'arbida joylashgan davlat. Maydoni 488,1 ming km². Aholisi 5,113 mln. kishi (2013). Poytaxti – Ashxobod shahri. Ma'muriy jihatdan 5 viloyatga, viloyatlar etrap (tuman)larga bo'linadi.

Turkmaniston viloyatlarining har birida zamonaviy sayyohlik markazlarining tarixi va shakllanishi bilan bog'liq bo'lgan yirik shaharlar mavjud: Bolqon-Bolqonobod, Dashoguz-Dashoguz, Axal-Ashxobod, Turkmaniston poytaxti, Lebap-Turkmanobod, Mari-Mari.



11.1- rasm. Turkmanistonning siyosiy-ma'muriy xaritasi

Turkmaniston hududining aksariyati tekislikdan iborat bo'lib, qariyb 4/5 qismi Turon tekisligi (Qoraqum cho'li)da joylashgan. Faqat janubida tepaliklar va o'rtacha balandlikdagi tog'lar bor. Kaspiy dengizining T.ga qarashli janubiy qirg'oqlari kam parchalangan, shimolida Qorabo'g'ozko'l, Krasnovodsk, Turkman qo'ltiqlari, Krasnovodsk, Darja, Cheleken yarim orollari va kum tillari bor. Dengiz sohili past, qumli. T. janubida Kopetdog' tog'lari (eng baland joyi 2942 m — Rizo cho'qqisi), undan shimoli-g'arbda Kichik Bolxon (777 m gacha) va Katta Bolxon (1881 m gacha) tog'lari joylashgan.

Janubiy-sharqdagi Bodxiz qirlari (eng baland joyi 1267 m) va Qorabel qirlari (eng baland joyi 984 m) o'rtasidan Murg'ob daryosi oqib o'tadi. Chekka janubi-sharqda Hisor tizmasining Ko'hitang tarmog'i (bal. 3139 m — T.ning eng baland nuqtasi) bor. T.ning g'arbida Krasnovodsk platosi, shimoli-g'arbida Ustyurt platosining janubiy chekkasi, undan janubida esa Orqa O'zbo'y burmali rayoni yotadi. Kaspiy bo'yi pasttekisligida Nebitdog' (39 m), Boyadog' (134 m), Qumdog', Manjuqli (27 m) va boshqa qirlar ko'tarilib turadi. Kopetdog' tekisligidan shimoliy va shimoli-sharqda Qoraqum cho'li, Amudaryo va Tajan daryolari oralig'ida Jan.Sharqiy Qorakum cho'li joylashgan. T.ning janubiy qismida tez-tez zilzila bo'lib turadi. Muhim qazilma boyliklari — neft va gaz; kumir, mirabalit, oltingugurt, kora va rangli metall, mis, alyuminiy, simob, molibden konlari aniklangan.

Qadim zamonlardan beri Turkmaniston har doim karvon yo'llari, turli madaniyatlar va sivilizatsiyalar uchrashuvlari joylari bilan jalb qilgan. Mamlakat hududida Xitoy, Hindiston, Markaziy Osiyo, Eron, Iroq, yaqin Sharq va O'rta yer dengizi davlatlarini bog'laydigan Buyuk Ipak yo'lining eng muhim qismi o'tgan. Bu tarix zamonaviy Turkmaniston hududida 20 ta yirik me'moriy yodgorliklarining joylashishiga olib keldi.

"Buyuk Ipak yo'li"yo'lida turkmanlar uchun tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan shaharlar bo'lgan. Ushbu shaharlardan biri Ashxobod yaqinidagi Ahal viloyatida joylashgan-bu Parfiya davlatining poytaxti bo'lgan qadimgi Nisa. Nisa o'zi ikki qal'adan iborat – eski va yangi Nisa.

Ikkinchi eng muhim shahar Dashoguz viloyatida joylashgan. Kunya-Urganch-Xorazmning qadimiy poytaxti - Xitoy manbalarida I asrda yirik madaniy va savdo markazi sifatida tilga olingan. Bugungi kunda Kunya-Urganch tarixiy-madaniy muzey-qo'riqxonasi bo'lib, uning me'moriy obidalari YUNESKOning Jahon merosi ro'yxatiga kiritilgan¹.

Har qanday mamlakatning yuragi uning poytaxtidir. Turkmanistonning qiziqarli shahri – Ashxobod, Ginnes rekordlar

¹ Онлайн платформа «Шелковый путь» Древний город Куны-Ургенч [Электронный ресурс]: Режим доступа: <https://ru.unesco.org/silkroad/silkroad-themes/world-heritage-sites/drevniy-gorod-kunya-urgench>

kitobiga dunyodagi eng oq marmar shahar sifatida kiritilgan bo'lib, unda oq marmar bilan qoplangan 500 dan ortiq bino mavjud. Ashxobodni me'moriy marvaridlar va yashil landshaftlar, chiroyli bog'lar va favvoralar, monumental san'at muzeyi deb atash mumkin. Turistlarning e'tiborini tortadigan ob'ektlar orasida "Turkman ertaklari dunyosi" ko'ngilochar majmuasi va Kopetdaga tog' etagida joylashgan kanat yo'li mavjud. Poytaxtda olib borilayotgan keng ko'lamli shaharsozlik dasturlari Ashxobodni dunyoning eng qulay shaharlaridan biri, biznes, madaniy, sport va sayyohlik xalqaro markaziga aylantirishga qodir.

Turkmanistonning Ginnes rekordlar kitobida ro'yxatga olingan diqqatga sazovor joylar ro'yxati har yili yangi yodgorliklar va inshootlar bilan to'ldirilib boriladi. 2003 yilda dunyodagi eng yirik "Oltin asr" nomli qo'lda to'qilgan gilam – maydoni 301 m va og'irligi 1200 kg, 2008 yilda Ashxobodda Turkmaniston davlat muzeyi binosi oldida dunyodagi eng baland bayroq o'rnatildi. Keyingi yillarda Jahon rekordlari ro'yxatini turkman poytaxtining yana uchta diqqatga sazovor joylari to'ldirdi: Ashxobod xalqaro aeroportiga kiraverishda joylashgan "Oguzxon" favvorali haykal majmuasi, dunyodagi eng yirik me'moriy yulduz o'rnatilgan "Turkmaniston" teleradiokompaniyasi markazi, shuningdek, eng katta yopiq turdagi tomosha g'ildiragi bo'lgan "Alem" madaniy-ko'ngilochar markazi¹

Mari viloyati ham mamlakatning tarixiy va madaniy merosining yorqin misollaridan biri bilan mashhur. Merv shahri – (hozirda Mari deb ataladi) zamonaviy Turkmaniston hududida eng yirik tarixiy va madaniy qo'riqxona YUNESKOning jahon merosi ro'yxatiga kiritilgan. Islomning birinchi asrlarida Merv musulmon tsivilizatsiyasining eng muhim markazlaridan biri bo'lgan. Uning gullab-yashnashi XI-XII asrlarda imperiyasi Amudaryo chap qirg'og'idan Falastingacha cho'zilgan Buyuk Saljuqiylar sulolasining hukmronligi davrida sodir bo'lgan. O'sha kunlarda u Sharqning eng go'zal shaharlaridan biri edi. Bugungi kunda Markaziy Osiyodagi eng yirik arxeologik Park bo'lib, unda Islom jangchilarining noyob maqbaralari va masjidlar, saroylar, loy qal'alari, karvon saroylari va

¹ Государственный Комитет по туризму Туркменистана. Рекорды Гиннеса Туркменистана [Электронный ресурс]: Режим доступа: <http://tourism.gov.tm/ru/guinness.php>

bozorlarning ko'plab xarobalari, shuningdek, kuchli qal'a devorlari saqlanib qolgan¹.

Mamlakatning 80% qismini egallagan Qoraqum cho'li ham juda qiziq. Ushbu qumli cho'lning shakllanish tarixi o'ziga xosdir. Cho'lning geologik o'tmishi dengiz tubi va daryolar faoliyati natijasida hosil bo'lgan katta qum massasining kelib chiqishi bilan izohladi.

Karakumlarda Turkmanistonning eng mashhur joylaridan biri – Dashoguz viloyatida "Do'zax darvozasi" yoki "Darvaza" krateri (11.1-rasm).



11.1-rasm. "Darvaza" krateri ²

1971 yilda, Karakum cho'lida, Turkmancha "darvoza" degan ma'noni anglatuvchi Darvazaning kichik bir qishlog'i yaqinida, gazning mavjudligi aniqlash uchun qidiruv qudug'ini burg'ilashga kirishildi. Burg'ulash paytida bir hodisa yuz berdi: geologlar tasodifan barcha jihozlar, burg'ulash minoralari va transport qulagan yer osti bo'shlig'ini ochdilar. Geologlar gazni yoqib yuborishga qaror qilishdi. 2004 yilda Turkmanboshi buyrug'iga ko'ra, qishloq boshqa joyga

¹ Туркмения: очарование Востока и древние города: <https://www.svoiludi.ru/turkmenistan/zimneea-turkmenia-drevniegoroda-i-ocharovanie-vostoka-tur.html>

²Туроператор Жарков. Древний и современный Туркменистан [Электронный ресурс]: Режим доступа: <https://www.jartour.ru/turkmenistan/tours/1047.html>

ko'chirildi va Darvaza gaz kraterining yonishi davom etdi. Bugungi kunda ham yonayapti. Hech kim bu qancha vaqt davom etishini bilmaydi, nihoyat, gaz zaxiralari yoki olovli chuqur oxir-oqibat qurib qoladi. Shunga qaramay, Darvazning gaz krateri Turkmanistonning eng qiziqarli va sirli joylaridan biri bo'lib, har yili ko'plab sayyohlarni jalb qiladi¹.

Italiyaning «Rai Tre» telekanali tomonidan o'tkazilgan so'rovnoma ko'ra, Turkmaniston 2018-yil uchun eng maqbul yo'nalish deb topildi. ORIENT.tm axborot agentligi xabariga ko'ra, mazkur so'rovda dunyoning turli qit'alariga sayohat qilgan turistlarning, mazkur telekanal orqali yoritilgan, turli mamlakatlarga oid ko'rsatuvlarni ko'rgan tomoshabinlarning fikrlari o'rganilgan.

Darhaqiqat, Turkmanistonning tarixiy obidalari o'tmish bilan qiziquvchi sayyohlarning diqqatini o'ziga tortishi tabiiy. Jumladan qadimiy Oltin-tepa shahri o'zining tosh obidalari bilan "Turkmanistondagi Stounxendj" nomini olgan. Bu qadimiy shahar Bronza davrida – eramizdan avvalgi 2300-1900 yillarda bunyod etilgan. Bu yerda turistlar qadimgi Elam va Shumer mixxat bitiklarini eslatuvchi bitiklar bilan tanishishlari mumkin.

Sayyohlarda ko'hna Parfiya qadimiy shaharlari, xususan uning madaniy poytaxti bo'lgan Niso shahri katta qiziqish uyg'otadi. Buyuk Marg'iyona shahar va qal'alari ham turistlarni befarq qoldirmaydi. Tarixda aynan shu hududda yunonlar va rimliklar xitoyliklar bilan to'qnashishgan.

Shuningdek, Turkmanistonning sharqida o'rta asrlarga oid yodgorliklar ham uchraydi. El Arslon, Tekesh, To'rabek xonim, Ostona bobo maqbaralari, Qutlug' Temur minorasi sayyohlarni xayolan olis o'tmishga yetaklaydi.

2019 yil dekabr oyida Turkmanistonda "Buyuk ipak yo'li" bo'ylab joylashgan yodgorliklar bo'yicha ilmiy tekshirish va arxeologik tadqiqotlarni olib borish, madaniy merosni keng targ'ib etish bo'yicha Davlat dasturi qabul qilingan edi.

¹Туроператор Жарков. Древний и современный Туркменистан [Электронный ресурс]: Режим доступа: <https://www.jartour.ru/turkmenistan/tours/1047.html>

11.3. Buyuk Ipak yo'lida Qirg'izistonning sayyohlik salohiyatini kengaytirish

Qadimiy Qirg'izistonning tarixi buyuk jahon iqtisodiy va madaniy hodisasi – Buyuk Ipak yo'lining shakllanishi va mavjudligi bilan chambarchas bog'liq. Qirg'izistonning jo'g'rofiy joylashuvi uning savdo-sotiqdagi muhim o'rnini belgilab berdi, bu nafaqat savdo rivojiga turtki berdi, balki uzoq vaqt davomida qirg'izlarning boshqa mamlakatlar xalqlari bilan ma'naviy qadriyatlarini faol almashish imkonini berdi. Buyuk Ipak yo'lining qadimgi tarmoqlari bugungi kunda ham mamlakatning eksport salohiyatini kengaytirishga xizmat qilmoqda. Misol uchun, ushbu yo'lidagi tarmoqning maydoni Naryn viloyati orqali marshrut yo'li bilan taqdim etilishi mumkin. Bishkekdan Kashgargacha 700 km uzunlikdagi Torugart dovonidan o'tuvchi ushbu marshrut tarixiy davrdan boshlab Qirg'iziston Respublikasi bo'ylab eng qiziqarli yo'nalish hisoblanadi. Uning eng muhim tarixiy xususiyati shundaki, u Tyan-Shanni Kashgar va Farg'ona vodiysi o'rtasida Kok-arta yaqinida, Torugartning 85 km janubi-g'arbiy qismida kesib o'tgan.¹

Norin viloyati katta sayyohlik salohiyatiga ega bo'lib, noyob tabiiy va tarixiy-madaniy resurslarga ega. Viloyatda tarix va madaniyat yodgorliklari mavjud bo'lib, ular orasida Tosh-Rabot karvon saroyi, Koshoy-Korgon va Qizil-Qiya, Taylak - Botir va Myna-keldi gumbazlari, Cholok-Korgon qal'asi, Shirdakbek qal'asi, "Chon-tuz" tuz shaxtasi, "Salkin-tor" dam olish maskani, Sonkul ko'li, Kochkor-Ak-jol, On-archa, arxeologik yodgorliklari, Koshoy maqbarasi, Bulan-bash, Kirk-Choro, Kapchigay, Bosogo va boshqalar².

Bugungi kunda viloyatda 10 ta tarixiy muzey faoliyat yuritmoqda, 50 ga yaqin tarixiy obidalar va 30 ga yaqin tarixiy joylar mavjud. Asosiy tarixiy obidalarga qirg'iz, rus va ingliz tillarida yo'l belgilari o'rnatilgan bo'lib, umumiy uzunligi 24,65 km bo'lgan yo'llar asfaltlangan va 18 km yo'lli shag'al bilan qoplangan, 35 ko'priklarni bunyod etilgan. Mintaqada bir qator sayyohlik firmalari faoliyat ko'rsatmoqda, ular turli sayyohlik yo'nalishlari bo'yicha turli turlar taklif etadi.

¹Бегалиева А.С. Историко-культурное наследие в туризме Кыргызской Республики. - Бишкек, 2011. -442 с.

²Бекбоева М.А. Развитие туристского рынка Кыргызской Республики. Бишкек, 2015. - 451 с.

Qirg'izistonda turizm - rivojlanayotgan sektor va turizm industriyasining mamlakat iqtisodiyotiga ta'siri hali ham ahamiyatsiz. Muhim tabiiy va rekreatsion potentsial zaxiralarga ega bo'lgan mamlakat jahon sayyohlik oqimining faqat 0,5 foizini oladi. Jahon bozorida xizmat ko'rsatish kabi sayyohlik biznesi odatda ko'rinmas eksport deb ataladi. U mamlakatning to'lov balansiga tegishli hissa qo'shadi. Turistik biznes sohasida katta miqdorini chakana savdo aylanmasi tashkil etadi. 2013-2017 yillarda bu ko'rsatkich 1,4 milliard somdan 2,0 milliard somgacha oshdi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, Qirg'izistonda turizm xizmatlari eksporti (kelishi) va importi (ketishi) yil sayin ortib bormoqda. Shunday qilib, 2013 yilda eksport 513,9 mln. 2017 yilda 418,2 mln. dollarni, import 2013 yilda 338,6 mln. dollar 2017 yilda 345,6 mln. dollarni tashkil etgan. (11.8-jadval).

11.8-jadval

Qirg'iziston Respublikasida turizm rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari

Ko'rsatkichlar	2013	2014	2015	2016	2017
Turizm sohasidagi yalpi mahsulot (mln.qirg'iz somi)	39387,7	40106,8	49204,5	50757,8	61051,8
Turizm faoliyati sohasidagi yalpi qo'shilgan qiymat (mln.qirg'iz somi)	16169,0	17318,2	20331,4	21673,3	25141,7
YaIM dagi ulushi, foizda	4,6	4,3	4,7	4,6	4,8
Turizm sohasida chakana savdo aylanmasi (mln.qirg'iz somi)	14002,5	16663,4	18625,9	20122,1	20964,8
Aholiga pullik xizmatlar, mln.qirg'iz somi: turistik va ekskursiya	1177,2	1346,4	1355,9	1459,0	1562,1
sanatoriya va sog'lomlashtirish	516,6	585,5	769,3	653,5	677,2
mehmonxona va boshqa qisqa muddatli yashash uchun joylarning xizmatlari	1759,8	2232,9	2761,9	3211,8	3560,7
Turizm xizmatlari eksporti (mln.dollar)	513,9	408,1	410,1	415,6	418,2
Turizm xizmatlari importi (mln.dollar)	338,6	377,4	394,3	437,0	345,6

Ushbu tendensiyalar, asta-sekin bo'lsa-da, turizm xizmatlari eksportining barqaror o'sishi davom etayotganidan dalolat beradi, bu esa o'z navbatida Qirg'izistonning iqtisodiy rivojlanishidagi ijobiy jarayonlarning ko'rsatkichidir. Qirg'iziston Respublikasining Chegara xizmati ma'lumotlariga ko'ra, 2017 da mamlakat chegarasini 4,7 million xorijiy fuqarolar kesib o'tgan. Sayyohlarning asosiy oqimi Qozog'iston, Rossiya, Tojikiston, O'zbekiston, Xitoy, Turkiya, Koreya va Hindiston kabi mamlakatlardan kelgan.

2018-yilda Qirg'iziston Respublikasi davlat chegara xizmati ma'lumotlariga ko'ra, chegarani kesib o'tgan chet el fuqarolari soni 7 milliondan oshdi va 2017-yil darajasidan 1,5 barobar oshdi. 2018-yilda turizm sohasida yalpi qo'shilgan qiymat 27 mlrd. somdan ortiq yoki YaIM ga nisbatan 5,0 foizni tashkil etib, o'tgan yil darajasini saqlab qoldi.

2018 yilda sayyohlarni qabul qilish va ularga xizmat ko'rsatish 486 ta dam olish maskanlari va turizm tashkilotlari tomonidan amalga oshirildi. Ulardan 187 tasi ixtisoslashtirilgan turar-joy vositalari, shuningdek, 185 tasi mehmonxona, 64 tasi turfirma va turoperator, sayohat va ekskursiyalar byurosi, 9 tasi tabiiy bog'lar va 40 dan ortiq boshqa sayyohlik obyektlaridir.

Qirg'iziston Respublikasi uchta mashhur sayyohlik yo'nalishiga ega. Birinchisi, tog' turizmi bilan bog'liq bo'lgan barcha narsalar, masalan, trekking, alpinizm, sarguzasht turizmi, tosh, ot va tog'larga jip safarlari. Ikkinchi yo'nalish - Buyuk ipak yo'li bilan bog'liq turizm, chunki Qirg'izistonda 500 dan ortiq shahar va tarixiy joylar mavjud. Turizmning uchinchi yo'nalishi etnografik hisoblanadi, chunki chet ellik sayyohlar ko'chmanchi tsivilizatsiya va madaniyatga juda qiziqishmoqda. Nihoyat, bundan ham muhimi, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar uchun juda yuqori salohiyatga ega bo'lgan Issiqko'l ko'lida plyaj turizmi va sog'lomlashtirish turizmi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyasi. –Toshkent: O'zbekiston, 2008.—40 b.
2. O'zR Prezidentining 2019 yil 5 yanvardagi “O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida” PF-5611-son Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi PF-4947-sonli farmoni //Toshkent shahar, 2017 yil 7 fevral
4. O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida//O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni // Toshkent shahar, 2016 yil, 7 dekabr.
5. Abduxamidov S., Tuxliev O., Xamitov M. Mintaqaviy turizmni rivojlantirish tendentsiyalari. Iqtisodiyot va ta'lim. Toshkent, №2, 2015, 67-70 betlar.
6. Abduvohidov, F. Qutlimurotov. - Turizm iqtisodi. - O'quv qo'llanma. – TDIU, 2010 y. - 160 b.
7. Hayitboyev R. va boshq. “Turizm marshrutlarini ishlab chiqish” O'quv qo'llanma. Samarqand., 2016. - 175 b.
8. Ibadullayev N.E. O'zbekistonning turistik resurslari.— Samarqand, 2008.
9. Матякубов У. Қишлоқ туризми унинг ижтимоий-иқтисодий аҳамияти ва ривожлантириш истикболлари// "BIZNES - ЭКСПЕРТ". – № 8 (116) - 2017. - <http://www.biznes-daily.uz>
10. Mirzayev M.A., Aliyeva M.T. Turizm asoslari. O'quv qo'llanma. - T.: O'zbekiston faylafuslar jamiyati, 2011. - 287 b.
11. Nigmatov A. N., Shamuratova N. T. Ekoturizm asoslari. (O'quv qo'llanma)— Toshkent: Turon Iqbol, 2007.—127 b.
12. Raxmatullayeva F.M. Mintaqaviy turizm. Monografiya. – Buxoro: Durdona, 2018. – 52 b.
13. Soliyev A.S., Axmedov Y.A., Muhamadaliyev R.Y., Nazarov M.I., Tojiyeva Z.N., Boltayev M.J., Atajanova U.A. Mintaqaviy iqtisodiyot (O'quv qo'llanma).— Toshkent: Universitet, 2003.— 304 b.
14. Soliyev A., Nazarov M., Qurbonov Sh. O'zbekiston hududlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi. –Toshkent: Mumtoz so'z, 2010.—348 b.

15.Soliyev A.S., Usmonov M.R. Turizm geografiyasi.– Samarqand: SamDU, 2005.–118 b.

16.Усманова З. Худудий объектларнинг туристик-рекреацион салохиятини баҳолашнинг назарий масалалари // “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. – № 2, март-апрель, 2017 йил.

17.O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Besh jildli. Ikkinchi jild. – Toshkent , "O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti., 2006, 672 bet.

18.Xidirova G.R. Mintaqa atamasining talqini va mintaqaviy turizm. // Iqtisodiyot va ta’lim., № 6, 2015. – B. 82-86.

19.Xidirova G.R. Mintaqada turizmni rivojlantirishning o‘ziga xos usullari. Monografiya. – Buxoro 2018.-76 b.

20.Xidirova G.R. Mintaqaviy turizm bozorini rivojlantirish yo‘llari monografiya/-Toshkent. Navro‘z- 2018.-140 b.

21.Shamuratova N. T. O‘zbekistonda ekologik turizm va uning tabiiy geografik jihatlari: Geografiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati.– Toshkent, 2011.–26.

22.Xidirova G.R. Mintaqaviy turizm bozorini rivojlantirish yo‘llari. Monografiya. – Toshkent: Navro‘z, 2018. –140 b.

23.Turizm istiqbollari. // O‘zbekiston iqtisodiy axborotnomasi. № 1, 2014. - 11 b.

24.Tuxliyev I.S., Hayitboyev R. va boshq. “Turizm asoslari” Darslik. T.: “Fan va texnologiya”, 2014 y.

25.Якубжонова Ш.Т. Агротуризмнинг назарий жихатлари // Агро Илм. –Тошкент, 2007. -№3. –Б. 53-54.

26.Шамуратова Н.Т., Сабитова Н.И., Никадамбаева Х.Б. Худудларни ривожлантиришда экотуризмнинг ахамияти: халқаро ва миллий тажриба // Географические проблемы и возможности развития туризма и рекреации в Узбекистане. Международная научно-практическая конференция. Чирчик, 11-12 октября 2019 года 256 бет

27.“Ўзбекистонда экологик туризмни ривожлантириш Концепцияси”. Экология ахборотномаси. №6, 2007.- Б. 9.

28.Арцыбашев Д.В., Алюшин Р.Е., Воинова Н.Е. Предпосылки развития агротуризма на территории курской области // Экспериментальные и теоретические исследования в

современной науке: сб. ст. по матер. VIII междунар. науч.-практ. конф. № 8(8). – Новосибирск: СибАК, 2017. – С. 25-31.

29. Бабушкин Л.Н., Когай Н.А. Естественое-историческое районирование Узбекистана. Растительный покров Узбекистана. Том 1. – Ташкент: Фан, 1971. – С.: 98-117.

30. Бабкин А.В. Специальные виды туризма Ростов-на-Дону: Феникс, 2008. - 252 с.

31. Баландин Ю. На деревню к дедушке. Осенью сельский туризм переживает пик популярности // Российская Бизнес-газета, 2012. 25 сентября. № 865 (36). [http:// www. naturs. ru/](http://www.naturs.ru/).

32. Бегалиева А.С. Историко-культурное наследие в туризме Кыргызской Республики. - Бишкек, 2011. - 442 с.

33. Бекбоева М.А. Развитие туристского рынка Кыргызской Республики. Бишкек, 2015. - 451 с.

34. Беспарточный Б.Д., Хромова А.В. Агротуризм: терминология и сущностные характеристики // Известия Юго-Западного государственного университета. 2014. № 4 (55). С. 117-122.

35. Биржаков М.Б. Введение в туризм. М.: 2006.- 512с.

36. Василиха Д.Ф. Стратегическое управление развитием региональной инфраструктуры туризма: автореф. дис. ... канд. экон. наук : 08.00.05. – СПб, 2012. – 19 с.

37. Веденин Ю. Ф, Зырянов А. И. Туризм и региональное развитие. Смоленск 2015. - 177 с.

38. Воробчуков, С.А. Проблемы и пути повышение конкурентоспособности аграрного туризма // Теория и практика управления современной организацией. Сборник научных трудов кафедры менеджмента СГУТ и КД – Сочи: РИО СГУТ и КД, 2007–210 с.

39. Географический энциклопедический словарь.– Москва: СЭ, 1988.–432 с.

40. Глаголева Л.Э., Куксова И.В., Жук С.Н., Певнева Д.М. Агротуризм – перспективное направление туристического бизнеса в России // Экономика. Инновации. Управление качеством. – 2016. – № 1(14) – С.43-48.

41. Гуляев, В.Г. Туризм: экономика и социальное развитие. – М.: Финансы и статистика, 2003. – 283 с.

42.Зализняк. Е.А. Региональный туризм:основные признаки и условия развития. Вестн. Волгогр. гос. ун-та. Сер. 3, Экон. Экол. 2011. №2(19) . С.74.

43.Казначеева, С. Н., Челнокова, Е. А., Коровина, Е. А. Агротуризм как одно из перспективных направлений индустрии туризма // Международный журнал прикладных и фундаментальных исследований, № 3, 2017. - с. 252.

44.Карпова Г. А., Хорева Л. В. Экономика и управление туристской деятельностью: учебное пособие в 2-х частях /– СПб.: Изд-во СПбГУЭФ, 2011 - стр.44.

45.Карчевская, Е. Н. Методическое обеспечение регионального развития и пространственной дифференциации туризма (на примере Гомельской области): автореф. Дис. канд. географич. наук. – Гомель: Гомельский государственный технический университет им. П.О. Сухого, 2008. – 22 с.

46.Клицунова В. Зеленая альтернатива – сельский туризм. URL: http://agroedu.by/index.php?option=com_content&task=view&id=152.

47.Ковынева Л. В. Региональный туризм: монография. – Хабаровск : Изд-во ДВГУПС, 2005.- стр.7.

48.Кружалин, К.В. Оценка рекреационного потенциала России для развития международного туризма // Туризм и рекреация: фундаментальные и прикладные исследования: Сборник трудов Международной научно-практической конференции / К.В. Кружалин. – М.: МГУ, 2006.

49.Макарова Т.А., Омельченко А.Д. Сельский туризм как вектор развития природоориентированного вида путешествий (на примере Астраханской области) //Актуальные проблемы развития сельского (аграрного) туризма в условиях современных геополитических и социально-экономических вызовов: тезисы Всерос. конф. (Астрахань). – Астрахань, 2017. – С. 184-188.

50.Мамраева Д.Г., Ташенова Л.В. Актуальные вопросы развития туризма и гостиничного бизнеса в Казахстане // Туризм: право и экономика. – 2018. – № 1 (164). – С. 16-22.

51.Никитина О. А., Кушнарченко Е. П. Уточнение понятийного аппарата в развитии теории и практики регионального сельского туризма // Вестник Чувашского университета. Изд-во ЧГУ им. И. Н. Ульянова, 2010. С. 400–405.

- 52.Новоселов А.С. Региональные рынки. М. ИНФРА-М, 1999. – 479 с.
- 53.Организация сельского туризма. Практические рекомендации по организации альтернативной занятости сельского населения. Выпуск 5. – М.: ФГНУ «Росинформагротех», 2009. – 170 с.
- 54.Печерица Е. В., Шевченко М. И. Мировой опыт развития агротуризма// «Национальные интересы: приоритеты и безопасность» 41 (182) – 2012. С. 44-53.
- 55.Развитие устойчивого сельского туризма \ пер.с англ. Ю.Полякова, сост. Л.Калитеня. – Минск: Юнипак, 2007. – 140 с.
- 56.Сенин В.С. Организация международного туризма. Учебник. М., Финансы и статистика, 2003. - 400 с.
- 57.Соколова М. В. История туризма: Учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений. — 2-е изд., перераб. — М.: Издательский центр «Академия», 2004. — 352 с.
- 58.Толковый словарь русского языка (под ред. Д.Н. Ушакова). – М. – 2003.
- 59.Туризм Казахстана: Статистический сборник / Под ред. Айдапкелова Н.С. – Астана: Комитет по статистике, 2019. – 66 с.
- 60.Тхамитлокова Ю.О. Ресурсный потенциал туристско-рекреационной сферы: формирование, оценка и инструменты развития. Дис. канд. экон. наук: 08.00.05. – Нальчик, 2017. – с.34.
- 61.Ушаков Д.С. Развитие современного туристического рынка / Под ред. д.э.н. В.В. Бандурина. – М.: ИНИОН РАН, 2004. – 200 с.
- 62.Ушакова, Е. О. Методологические основы оценки ресурсов развития туризма региона: монография / Е. О. Ушакова, И. И. Золотарев, С. А. Вдовин. – Новосибирск: СГГА, 2014. – 194 с. С. 46-47.
- 63.Христов Т.Т. Религиозный туризм. Учебное пособие, Издательство: Academia, 2009. – 288 с.
- 64.Чудновский А.Д. Управление индустрией туризма России в современных условиях. М.: КНОРУС, 2007.
- 65.Шумакова О.В., Блинов О.А., Рабканова М.А. Формирование агротуристического кластера как фактор повышения устойчивого развития сельских территорий // Вестник Алтайской науки. – 2013. – №2-2. – С. 192-196.

66. Юреев А.П. Планирование туризма. Учебное пособие. – Донецк, 2003 г.
67. Batn K., Howells P. Understanding Markets. London, 2009
68. Blair D. Local Economic Development. London, 1990
69. Brian G. Boniface and Chris Cooper, Worldwide Destinations, The geography of travel and tourism, Fourth edition 2005, 528 p
70. Buhari, Edep/12, akt: Sofuğlu, 2009
71. Butowski Leszek Tourism as a development factor in the light of regional development theories // Tourism, Sciendo, vol. 20(1), pages 5-10, January.
72. Kloeze, J.W. The Benefits of Rural Tourism, the Role of the State, and the Aspects of Training and Co-operation / J.W Kloeze. Formal Speech held at the Central and East-European Federation for the Promotion of the Green-Soft-Rural Tourism Conference «Rural Tourism Development in Bulgaria and in the Balkan Countries», Karlovo. – 1994.
73. Leco F., Hernández J.M., Campón A.M. Rural tourists and their attitudes and motivations towards the practice of environmental activities such as agrotourism // International journal of environmental research. 2012. Vol. 7. No. 1. P. 255-264.
74. Muslim, Haj / 425, akt: Budak va Cetinkaya, 2010 - P. 307.
75. Ollenburg, C. (2006). Farm tourism in Australia: a family Business and rural studies perspective. Doctor of Philosophy Christian-Albrechts University of Keil (Germany) and Griffith University (Australia).
76. Rátz, T. Rural Tourism and Sustainable Development in Hungary // «Rural Tourism Management: Sustainable Options» International Conference, Conference Proceedings / D. Hall, L. O'Hanlon eds.; Scottish Agricultural College, Auchincruive, Ayr, Scotland, UK. – 1998. – P. 450-464.
77. Ryan S., DeBord K., McClellan K. Agritourism in Pennsylvania: An Industry Assessment. Pennsylvania, 2006.-22 p.
78. Songkhla T.N. Interactions between agro-tourism and local agricultural resources management: a case study of agro-tourism destinations in Chang Klang District, Southern Thailand // Discourse journal of agriculture and food sciences. 2013. Vol. 1. No. 4. P. 54-67.
79. The Travel & Tourism Competitiveness Report 2017. – Geneva: The World Economic Forum, 2017. – 387 p.

XIDIROVA G.R., RAXMATULLAYEVA F.M.

MINTAQAVIY TURIZM

O‘quv qo‘llanma

<i>Muharrir:</i>	<i>G'.Murodov</i>
<i>Texnik muharrir:</i>	<i>G.Samieva</i>
<i>Musahhih:</i>	<i>A.Qalandarov</i>
<i>Sahifalovchi:</i>	<i>M.Ortiqova</i>

Nashriyot litsenziyasi AI № 178. 08.12.2010. Original – maketdan bosishga ruxsat etildi: 26.10.2020. Bichimi 60x84. Kegli 14 shponli. «Times New Roman» garn. Ofset bosma usulida bosildi. Ofset bosma qog‘ozi. Bosma tobog‘i 10,5. Adadi 100. Buyurtma №178.

“Sadriddin Salim Buxoriy” MChJ
“Durdona” nashriyoti: Buxoro shahri M.Iqbol ko‘chasi 11-uy.
Bahosi kelishilgan narxda.

“Sadriddin Salim Buxoriy” MChJ bosmaxonasida chop etildi.
Buxoro shahri M.Iqbol ko‘chasi 11-uy. Tel.: 0(365) 221-26-45.